

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2017

2-son

(mart-aprel)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

4 Mutolaa – zarurat, ehtiyoj, tafakkur charxi, kamolot mezoni



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

M.Umaraliyeva 7 Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlari
G. Quvondiqova, D. Hamroqulova 12 Umumiy o'rta ta'lim fanlari o'rtasidagi uzviylikning ayrim jihatlari
M. Abidjanova 16 Pedagogik fasilitatsiya asosida o'quvchilarning faoliyatini tashkil etishning imkoniyatlari



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

D. Mamatov 20 Bo'lajak mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish metodlari
K. Todjibayeva 25 Ta'lim jarayonida tolerant xulq-atvorni shakllantirishning samarali metodlari
M. Gulyamova 30 Chet tillarni o'rganuvchi talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda "Role Play" metodining ahamiyati



TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT

B. Daniyarov 35 Ta'lim muassasalarida ichki ta'lim sifatini baholashni innovatsiyaviy tashkil etish masalalari



KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH

I. Asqarov 43 Bo'lajak kasb ta'limi pedagoglarining tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishning mohiyati



MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH

S. Abdullayev 49 Malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalarini malakali mutaxassislar bilan ta'minlashning tashkiliy-uslubiy asoslari
A. Ibragimov 54 Xalq ta'limi tizimi xodimlari malakasini oshirishning o'quv reja va dasturlarini tuzish hamda joriy qilishning o'ziga xos xususiyatlari
B. Xodjayev, A. Abdiyev 63 Andragogik ta'limda chet tillarni o'qitishning ayrim metodologik masalalari



MAKTABGACHA TA'LIM

Sh. Rahimov 69 Maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishning o'ziga xos jihatlari
N. Kayumova 73 Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirish yo'nalishlari



TA'LIMDA INNOVATSIYALAR

J. Mamatqosimov 78 Ta'lim jarayonida nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning konseptual-metodologik muammolari



TA'LIMNI INFORMATIZATSİYALASH

- S. Kambarova 86 Adabiyot fanini o'qitishda zamonaviy yondashuv – ta'lim samaradorligi sifatida
- M. Fayziyeva 92 O'quv jarayoniga moslashuvchi Web tizimni pedagogik loyihalash



PSIXOLOGIYA

- M. Axmedova, Sh. Parpiyeva 98 O'qituvchi-o'quvchi o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishning o'ziga xos xususiyatlari



KORREKSION PEDAGOGIKA

- D. Musayeva 103 Maktabgacha yoshdagi bolalarga maxsus ta'lim berish tizimini takomillashtirish – dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida
- L. Mo'minova 110 Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar nutqini kichik folklor janrlari vositasida rivojlantirish



MEDIA TA'LIM

- Sh. Paxrutdinov 116 Globallashuv va axborot almashinuvi jadallashgan sharoitda mediata'limning ahamiyati



AHBOROT XAVFSIZLIGI

- A. Muxsiyeva 123 O'quvchi-yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish orqali kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish



ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

- Ф. Сайдаматов 127 Творческая деятельность учащихся школ на уроках географии



ЭКОНОМИКА И ФИНАНСИРОВАНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ

- А. Рахимов 131 Формирование экономической компетенции учащихся в системе среднего специального, профессионального образования



ПСИХОЛОГИЯ

- Х. Усманова 137 Модель профессиональной деятельности практического психолога

MUTOLAA – ZARURAT, EHTIYOJ, TAFAKKUR CHARXI, KAMOLOT MEZONI

Kitob mutolaasi kishini komillik sari yetaklaydigan, uning tafakkur xazinasini boyitadigan, zehni o'tkir, mushohadasini teran qiladigan muhim vositadir. Insoniyat tomonidan kashf qilingan eng buyuk ixtiro, hech shubhasiz, kitobdir. Asrlar osha bashariyat qanday yutuq va marralarga erishgan bo'lsa, albatta, buning zamirida kitobga mehr, mutolaaga ishtiyoq mujassam.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev har bir chiqishlarida yoshlarimizni kitobxonlikka o'rgatish, bu ishga ijodkorlarni jalb etish haqida ta'kidlaydi. Zero, navqiron avlodni boy ma'naviy merosimiz bilan tanishtirish, ular qalbida tariximizga muhabbatni uyg'otishda kitob beqiyos ahamiyatga ega.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 12-yanvardagi **“Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida”**-gi farmoyishi yurtdoshlarimizni, xususan, yoshlarni kitob mutolaasiga jalb etishda yangi davrni boshlab berdi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Farmoyishga binoan, endilikda ta'lim muassasalari, kutubxonalar, mahallalarda kitob mualliflari bilan ijodiy uchrashuvlar tizimli ravishda tashkil etiladi hamda ta'lim muassasalari, ayniqsa, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda o'qish madaniyati va mutolaa ko'nikmalari shakllantiriladi.

Farmoyishdan ko'zlangan maqsad xalqimizning, xususan, yoshlarimizning intellektual salohiyatini oshirish, ularning fikrlash doirasini kengaytirish, badiiy did, tahliliy-tanqidiy nazarlarini o'stirish, etik va estetik qarashlarini yanada takomillashtirish, kitobxonlik madaniyatining jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni va rolini yangi bosqichga ko'tarishdan iboratdir.

Bugunning bolalari barcha davr farzandlari kabi beg'ubor, samimiy. Aslida ularning kitob bilan do'st tutinishi uchun biz kattalarning quruq da'vati kifoya emas. Avvalo, sharoit yaratish, rag'batlantirish va yosh avlodning qiziqishini inobatga olish zarur. Yurtboshimizning mazkur farmoyishi bu borada barchamiz uchun muhim dasturilamal bo'lib qoladi.

Kitob o'qish o'rniga nega telefonda o'yin o'ynab tong ottirayotgan yigit-qizlar soni ortayotir? Nega ota-ona bolasini yaxshi kiyintirishdan qochmaydi-yu, kitob xarid qilishga vaqt topolmaydi?

Bu kabi savollar ahvol ko'ngildagidek emasligini, soha takomillashishi, zamonaga bo'ylashish vaqti allaqachon kelganini bildiradi. Prezidentimizning mazkur far-

moyishi bu borada qilinishi zarur bo'lgan ishlarni ko'rsatib berdi. Ta'bir joiz bo'lsa, yechimini kutayotgan masalalarni hal etishda muhim omil bo'ldi.

Farmoyishdagi bolalar adabiyotiga ixtisoslashgan nashriyotlarga moliyaviy imtiyozlar berish va moddiy qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantirish, matbaa korxonalari va nashriyotlarga kitob ishlab chiqarish uchun sifatli qog'oz va matbaa xomashyolarini chetdan xarid qilish tartibini takomillashtirish bandlari o'quvchilar va ota-onalarga kitob xarid qilishda yengillik yaratadi, albatta.

Kitobning foydasi haqida so'zlayotib, ko'pincha dunyoqarashni o'stiradi, tafakkurni kengaytiradi yoki aqlni charxlaydi kabi umumiy xulosalar aytamiz. Biroq bu qanday ro'y beradi? Mutolaa qiliboq tezda bilimdon bo'lib qolasan, degan mujmal qarash – noto'g'ri.

Tan olaylik, ko'p takrorlanganda ta'sirchan gap yoki iboraning ham bora-bora ohori to'kiladi. Xuddi "kitob o'qi, odam bo'lasan", "ko'proq o'qi, aqling charxlanadi", "kitob – bilim manbai" kabi so'zlar quloqqa chalinaverib qimmatini yo'qotgandek. Albatta, ularni yaxshilik uchun ishlatamiz, biroq targ'ibotda so'zning qadrini bilgan afzal emasmi?

Bu borada, avvalo, kitob targ'ibotini maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlagan ma'qul. Negaki, bola ongida bog'chadan kitob mutolaasiga ishtiyoq uyg'otilsa, u shunga ko'nikib, umr bo'yi mutolaa qilib yashaydi. Umrining mazmunini mutolaadan topadi.

Farmoyishda kitob targ'iboti bo'yicha ham alohida tavsiyalar berilgan. Jumladan, unda joylarda yozuvchi, shoirlar ishtirokida kitob bayrami va yarmarkalarini tashkil etish, kitobxonlar, bosma va elektron kitob ishlab chiqaruvchilar, kitob sotuvchilar hamda kutubxonachi va targ'ibotchilar orasida tanlovlar o'tkazish tizimini takomillashtirish kabi xayrli ishlar ko'zda tutilgan.

Kitob – xazina. Ma'naviy olamimizni bu xazina bilan bezash o'z qo'limizda. Mutolaaga hamroh insonni esa, qo'lida mash'ala ko'targan shaxsdek tasavvur qilish mumkin. U nafaqat o'zining, balki yaqinlarining ham yo'lini yoritadi.

Haqiqatan ham, kitob barchamizni ezgulikka undaydigan, oldimizda turgan barcha muammolarni hal etishga yordam beradigan kuchdir. Shuning uchun ham yurtimizda kitob bilan oshno bo'lgan, kitobni suvgan, kitob yozgan, kitobni muqaddas bilib, ko'z qorachig'idek asragan kishilarni ziyoli deb atashgan. Ziyoli – nur tarqatuvchi, u o'zining xatti-harakatlari, faoliyati bilan jamiyatni nurlantiruvchi, ma'naviy-ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchilar hisoblangan.

Xo'sh, kitobxonlik madaniyati deganda nimani tushunamiz? O'zining kasbiy-mutaxassislik hamda badiiy-ma'naviy barkamolligini oshirish uchun kitobni tanlay olish va o'zi uchun zarurini o'qish, kitob ustida ishlash malakasini obdon o'rganib olish va unga chuqur amal qilib, o'qigan kitobning asosiy mazmunini talqin qila bilish, o'qiganlaridan hayotiy xulosalar chiqarishdir. Shunday ekan, bugun o'quvchi-yoshlar qalbi va ongiga ushbu ko'nikmalarni singdirish, ularda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, shuningdek, bosma nashrlar namunalari bilan doimiy tanishtirib borish va bu ezgu yo'lda xizmat qilayotgan insonlar savodxonligini oshirishning mavrudi keldi nazarimizda. Zero, kitob mutolaasi insonni insof, diyonat, bag'rikenglik, sahovat, mehr-oqibat kabi fazilatlar sohibi bo'lishga undaydi.

Ayni paytda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish uchun farmoyishda belgilangan sotsiologik so'rovnomani o'ta mas'uliyat bilan tashkil etish lozim. Bunday so'rovnoma bir tomondan, yoshlarning kitobxonlik madaniyati darajasini aniqlasa, boshqa tomondan, jamiyat talab etayotgan muammolarni aniqlash, mavzular tanlashga imkon beradi.

Shuningdek, mutaxassislar, soha xodimlari “Yoshlarga tavsiya etilayotgan 100 ta asar” ro'yxatini tuzish, unda milliy va jahon adabiyotining nodir durdona asarlarini o'qishni tavsiya etish ham muayyan ahamiyatga ega bo'ladi, deb o'ylaymiz.

Soatlab telefonda gaplashish va televizor oldidan jilmaslik, haftalab kompyuter o'yinlari bilan mashg'ul bo'lish intellektual salohiyatni yemirishini bugun vaqtning o'zi isbotlab turibdi. Chunki bular bir lahzalik quvonch, aniqrog'i, shunchaki ovunchoq. Ammo bir oyda bittagina kitob o'qisangiz olgan taassurotlaringiz yillarga tatiydi. Eng muhimi, mehr-oqibat, olijanoblik, insoniylik kabi tuyg'ularni qalb ko'zi bilan ko'ra olasiz. Adolatsizlik, munofiqlik, ikkiyuzlamachilik kabi illatlardan nafratlanishni o'rganasiz.

Ma'naviy xurujlardan, “ommaviy madaniyat” niqobi ostida kirib kelayotgan turli illatlar ta'siridan qanday himoyalani mumkin? Bunday balolardan bizni kitoblar, yaxshi asarlar himoya qila oladi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida ta'kidlaganidek bugun fikrga qarshi – fikr, g'oyaga qarshi – g'oya, jaholatga qarshi – ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etayapti.

Bugun yoshlar yuragiga Alisher Navoiy asarlaridagi olijanob tuyg'ular, insonparvarlik g'oyalari kirib bormaydigan bo'lsa, ularning o'rnini xorijdan kirib kelayotgan turli xil axloqsiz g'oyalarni targ'ib qiluvchi “asarlar” egallab olishi tabiiy.

Bugungi kunda kitobga mehr qo'yishga nima xalaqit beradi? Yaxshi asar yo'qmi? Unday deydi bo'lsak, kitob do'konlari peshtaxtalaridan xohlagan yozuvchining asarini topishingiz mumkin. Ayniqsa, talab va ehtiyojlardan kelib chiqib nashriyotlar ba'zi asarlarni qayta-qayta chop etmoqda.

Qanday qilib yoshlarni kitobga oshno qilib tarbiyalash mumkin? Bunda, avvalo, muhit muhim rol o'ynaydi. Ya'ni atrofimizdagi do'stlarimiz, bizga saboq bergan ustozlarning kitobga bo'lgan qiziqishi unga mehr uyg'otishga turtki bo'ladi.

Muxtasar aytganda, bola qalbida Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, mehr-oqibat, ajdodlarimizga hurmat tuyg'ularini shakllantirishning eng yaxshi vositasi kitobdir. Zero, donishmandlar aytganidek, qanchalik ko'p o'qisangiz, kitoblar sizni hayotga shunchalik yaqinlashtiradi, turmush yanada munavvar, ma'noliroq tuyula boradi.

Muhayyo UMARALIYEVA,

T.N.Qori Niyoziy nomli O'zPFITI mustaqil izlanuvchisi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Annotatsiya

Maqolada o'qituvchilarning ma'naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyati, ya'ni uning kasbiy salohiyatini ifoda etuvchi pedagogik kompetentlilik bayon etilgan. Muallif pedagogik kompetentlilik o'qituvchining pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tushunchalari darajasi, uning individual qobiliyatlari va malakasi, o'zini-o'zi rivojlantirishga va uzluksiz mustaqil ta'lim olishga bo'lgan moyilligi, intilishlari, shuningdek, zamonaviy talablar asosida ta'limiy jarayonlarni boshqarish imkoniyatlari orqali aniqlanishini ta'kidlagan.

Kalit so'zlar. Pedagogik jarayon, kasbiy kompetentlilik, individual qobiliyat, shaxsiy sifat, kompetensiya, zamonaviy yondashuv, ta'lim sifati.

В статье анализируется педагогическая компетентность, определяющая духовное мировоззрение, психолого-педагогический и организационно-технологический потенциал, то есть профессиональные возможности преподавателей. Автор утверждает, что педагогическая компетентность определяется уровнем понятий по организации и управлению образовательными процессами, индивидуальными способностями и квалификацией, склонностью и стремлением к саморазвитию и непрерывному самообразованию, а также возможностями управления образовательными процессами на основе современных требований.

Ключевые слова. Педагогический процесс, профессиональная компетентность, индивидуальные способности, личные качества, компетенция, современный подход, качество образования.

Article analyzes the pedagogical competence that determines the spiritual outlook, the psychological, pedagogical and organizational-technological potential, i.e. the professional capabilities of teachers. The author affirms that pedagogical competence is determined by the level of concepts on the organization and management of educational processes, individual abilities and qualifications, propensity and desire for self-development and continuous self-education, as well as the opportunities for managing educational processes on the basis of modern requirements.

Key words. Pedagogical process, professional competence, individual capabilities, personal qualities, competence, modern approach, quality education.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va uni boshqarish hamda qulay ta'limiy muhitni shakllantirish uchun o'qituvchilar har tomonlama mutaxassis bo'lishi kerak. Ya'ni o'qitishning turli xil zamonaviy usullarini bilishi va ularga asoslanishi, ilg'or tajribalarni va

fan-texnika yutuqlarini muntazam o'rganib borishi, ularni dars jarayonida tatbiq etishi, yangiliklarga asoslangan o'z innovatsion faoliyatini tashkil eta olishi zarur hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning faoliyatini takomillashtirish va o'quv jarayonini rivojlantirishning eng asosiy shartlaridan biri – o'qituvchilarning pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etishidir. Pedagogik jarayonlarning ilmiyligi – yangiliklarni tatbiq etish va innovatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlariga asoslanish hamda ilmiy asoslangan ma'lumotlardan foydalanish, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning pedagogik, psixologik va ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini o'zlashtirish, shular qatori pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayoniga innovatsion yondashuv texnologiyalarini joriy etish kabi vazifalarni belgilaydi.

Pedagogik jarayonlarda o'qituvchilar tomonidan o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi quyidagi vazifalar bajarilishi zarur:

- belgilangan maqsadga erishish uchun vazifalar belgilash va rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini tanlash, qaror qabul qilish;

- vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko'ra ijrochilarni tanlash va bajariladigan vazifalarni taqsimlash;

- ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy ilmiy-metodik uslublar bilan ta'minlash;

- ilg'or pedagogik tajribalar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish;

- DTS talablarini amaliyotda qo'llash va uning monitoringini olib borish;

- o'z fani bo'yicha ta'lim jarayonining rivojlanish moyilligi va dinamikasini aniqlash uchun o'quvchilar o'rtasida anketa so'rovlari va suhbat o'tkazish asosida axborotlar to'plash va tahlil qilish;

- ta'lim jarayonini rivojlantirish va takomillashtirish yo'nalishida belgilangan vazifalarni qayta ko'rib chiqish, yangilash;

- o'quvchilarning innovatsion faoliyat natijalariga qiziqishini shakllantirish va rag'batlantirish asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish.

Bizning fikrimizcha, pedagogik jarayonlarni tashkil etuvchi o'qituvchilar nafaqat pedagogik tajribaga, balki pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish funksiyalari va ularning vazifalari, boshqarish metodlari va ulardan foydalanish, boshqarish algoritmi va uning mohiyati, rahbarlik uslublari va ularni qo'llash kabi qator tushunchalarga ham ega bo'lishi zarur.

Amaliyotda aksariyat kishilar o'qituvchilarning pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish faoliyati samaradorligi ko'p jihatdan uning o'z fanidan qancha muddat, ya'ni necha yildan beri dars o'tayotganligiga bog'liq, deb hisoblaydi. Aslida esa, o'qituvchilarning pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish faoliyati samaradorligi, asosan, ularning shu yo'nalishdagi tushunchalari va pedagogik kompetentligiga bog'liq.

Shunday ekan, o'qituvchi har qanday vaziyatlarda ham o'zini tuta olishi, tashabbuskor bo'lishi, o'quvchilar faolligini ta'minlay olishi, taraqqiyot bilan barobar qadam tashlashi, pedagogik jarayonlarda o'quvchilar bilan hamkorlik, hamjihatlik, hamijodkorlik bilan ish yuritishi, ijodkor, bunyodkor va yaratuvchan bo'lishi, talabchan va mehribon, vaqtning qadriga yetadigan, xushmuomala inson bo'lishi kerak.

O'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablarning eng asosiylaridan biri – pedagogik kompetentligi, ya'ni ta'lim jarayonida innovatsion jarayonlarni tashkil etish va boshqarish bilan bog'liq funksiyalarni bajarish va mavjud muammolarni o'quvchilar bilan birgalikda hal qilishni tashkil etish faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirishdan iborat.

Demak, o'qituvchilar pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda inno-

vatsion yondashuvlarga asoslanishi, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlar-ga ega bo'lishi, ixtiyoriy vaziyatlarda o'zini-o'zi nazorat qila olishi, shuningdek, ta'lim muassasasida hukm suruvchi tarbiyaviy munosabatlarni e'tiborga olgan holda faoliyat olib borishi, turli xil masalalarni va muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-me'yoriy mezonlarga asoslanishi zarur bo'lib, bular ham, o'z navbatida, o'qituvchining peda-gogik kompetentligi komponentlarini ifodalaydi.

Pedagogik kompetentlik o'qituvchilarning ma'naviy dunyoqarashi, psixologik-pe-dagogik va tashkiliy-texnologik salohiyati, ya'ni uning kasbiy imkoniyatlari salohiyati-ni tasvirlaydi. Pedagogik kompetentlik o'qituvchining pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tushunchalari darajasi, uning individual qobiliyatlari va malakasi, o'zini-o'zi rivojlantirishga va uzluksiz mustaqil ta'lim olishga bo'lgan mo-yilligi, intilishlari, zamonaviy talablar asosida ta'limiy jarayonlarni boshqarish imkoni-yatlari orqali aniqlanadi.

O'qituvchi ilmiy tadqiqot ishlari olib borish davomida ko'pgina omillarni to'playdi, tahlil qiladi. Pedagogik qobiliyatni rivojlantirishda o'qituvchilik kasbiga qiziqish, havas katta rol o'ynaydi. Pedagogik faoliyatning nazariy asosi kasbga oid bilimlardir.

Shunday ekan, o'qituvchi boshqaruv yo'nalishidagi hamda pedagogik tushun-chalarni o'zlashtirmasdan pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish faoliyati bilan shug'ullanishi maqsadga muvofiq emas. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda pedagogik kompetentlik ikki asosiy: boshqaruv va pedagogik kompo-nentlarini o'z ichiga oladi.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish komponentlarining asosiy ko'r-satkichlari sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

- pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish funksiyalarini bajarishda za-monaviy metod va vositalardan foydalanish;
- pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish metodlari va rahbarlik uslub-laridan foydalanishda tashqi muhitning o'zgarishlarini inobatga olish;
- pedagogik jarayon subyektlari hayotiy faoliyatini mavjud vaziyatlarga mos ravishda ta'minlash;
- pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda zamonaviy axborot texno-logiyalari va kommunikatsiya vositalaridan foydalanish;
- pedagogik jarayon faoliyatini boshqarishda ta'lim menejmenti asoslarini amali-yotga tatbiq etishni hamda pedagogik komponentlarning asosiy ko'rsatkichlari sifatida ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va zamonaviy ilmiy-metodik mahsu-lotlar bilan ta'minlash;
- davlat ta'lim standartlarini amaliyotda qo'llash va uning monitoringini olib borish, o'quvchilar o'rtasida anketa so'rovlari va test sinovlari o'tkazishni keltirish mumkin.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari-dan kelib chiqib, o'qituvchi kasbiy tayyorgarligining asosi bu uning kompetentligidir, kasbiy kompetentlik – bu kasbiy bilim, ko'nikma va malakalari darajasining yuqoriligi bo'lsa, pedagogik kompetentlik – qator zaruriy umuminsoniy sifatlarga ega bo'lishidir, deb aytish mumkin.

Kasbiy kompetentlik o'qituvchidan qator yo'nalishlar bo'yicha, ya'ni:

- pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda tizimli yondashuvni tatbiq etish;
- pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish funksiyalari, vositalari, me-todlarining mazmun-mohiyati va ahamiyatini va ularni amalga oshirish usullarini bilish;

- rahbarlik uslublari va ulardan oqilona foydalanish;
- o'quv-me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- ta'lim menejmenti asoslarini bilish;
- axborot texnologiyalari va kommunikatsion vositalardan foydalanish;
- ta'lim-tarbiya jarayoni masalalarini tashkil etish;
- davlat ta'lim standartlari va ularni amaliyotga tatbiq etish mezonlari;
- axborotlar to'plash metodlari va ulardan foydalanishni bilishi va mazkur yo'nalishlar bo'yicha zaruriy tushunchalarga ega bo'lishi zarur.

O'qituvchilar pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, pedagogik jarayon subyektlarini kasbiy va shaxsiy jihatdan rivojlantirish, ma'naviy boyitish hamda intellektual qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan qulay ta'limiy muhitni barqarorlashtirish zaruriyatidan kelib chiqib, o'qituvchilarning kompetentligini quyidagi shaxsiy sifatlar orqali ifodalash mumkin:

- ta'lim oluvchilar faoliyati samaradorligini tahlil qilish va obyektiv baholashga xizmat qiluvchi reflektiv ko'nikmalar;
- ta'lim oluvchilar xatti-harakatlarining natijalarini hamda o'rganilishi rejalashtirilgan mavzuni o'zlashtirishga tayyorgarligini oldindan his etish ko'nikmalari;
- pedagogik jarayonlarda vujudga kelgan muammoli vaziyatlarda ta'lim oluvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmasi;
- o'quvchilarda ijobiy o'quv motivlarini shakllantirish va vaziyatlarga ko'ra o'qituvchilik uslublari bilan oqilona foydalanish ko'nikmasi;
- pedagogik jarayonlarda o'quvchilarni faolligini ta'minlash, ularni hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga undash ko'nikmasi;
- axborotlar to'plash, tahlil qilish, obyektiv baholash, qayta ishlash va axborotlar almashinish ko'nikmasi;
- turli ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatishdan iborat bo'lgan, o'quvchilar o'rtasidagi shaxsiy va texnologik axborotlarning almashuvini tashkil etuvchi axborotlar bilan ishlash funksiyalari va ulardan foydalanishni bilishi;
- joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;
- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlarni qabul qila olishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etishga ko'maklashish, tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil etish;
- ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ilg'or pedagogik tajribalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish, innovatsion faoliyatni tashkil etish va boshqarishni bilishi;
- xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- shaxslararo va tabiat bilan bo'lgan munosabatlarda faol va adolatli hamda muhabbatli bo'lish;
- shaxsiy manfaatlarini umummilliy manfaatlar bilan uyg'un holda ko'ra olish;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish jarayonlarida faol ishtirok etish;
- mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilish

jarayonlarida faollik ko'rsatish;

– ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik kabi tamoyillar-ning mazmun-mohiyatini o'quvchilarga tushuntirishda prinsipiiallik;

– oldindan aniqlanayotgan vaziyatlarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish, o'z-galar muvaffaqiyatini oqilona baholash, moddiy va ma'naviy rag'batlantirishda adolat-lilik.

O'qituvchining pedagogik kompetentligi yo'nalishida qo'yilayotgan eng asosiy ta-lablardan biri – ona yurtga muhabbat va sadoqat, Vatan va vatanparvarlik tuyg'ularini o'quvchilar qalbi va ongiga singdirish, o'quvchilarda mustaqil O'zbekiston ramzlarining mazmun va mohiyati, milliy an'analar, urf-odatlar, qadriyatlar va rasm-rusumlar, mus-taqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati yo'nalishidagi tushunchalarni rivojlantirish yo'nalishlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishni o'z ichiga oladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlar, davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlaridan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilariga yaratib beri-layotgan shart-sharoitlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlariga moslashuvchan, o'zi-ni-o'zi rivojlantiruvchi, keng dunyoqarashga, erkin va mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, o'tmish saboqlari va avlod-ajdodlarimizning bebaho boyligi hamda umumba-shariy qadriyatlarga tayanadigan ma'naviy boy va imon-e'tiqodli, Vatanga, ota-onaga, aka-uka, opa-singil va yoru do'stlariga sodiq, muxtasar qilib aytganda, ma'naviy barka-mol shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan, moslashuvchanlik va tezkorlikni ta'minlovchi takomillashgan ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish zaruriyatini belgilamoqda.

Kasbiy kompetentlik – bu tashkilotchilik, tadqiqotchilik, ijodkorlik qobiliyatlari va muhim ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarni o'z ichiga oluvchi o'zaro bog'liq bo'l-gan komponentlar majmuyi ekanligini ifodalagan holda pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish, mazkur jarayon ishtirokchilariga zarur sharoitlarni yaratib berish yo'nalishlarida o'qituvchining shaxsiy imkoniyatlarini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat.* – T.: O'zbekiston, 2005.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2004-2009-yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida"gi Farmoni. 2004-yil 21-may.

3. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. *Ta'lim menejmenti.* – T.: Voris, 2006.

4. Turg'unov S.T. va boshqalar. *O'qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetent-liligini rivojlantirish mexanizmi.* – T.: Sano-Standart, 2012.

Tahririyat: Har tomonlama mukammal o'qituvchi bo'lish – davr talabi. Peda-gog-o'qituvchilar zimmasiga yuklatilayotgan maqoladagi vazifalar aslida sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan. Shuning uchun muallif ta'kidlagan bilimlar va shaxsiy sifatlarni har bir o'qituvchida bo'lishiga erishilsa, ta'lim sifati yanada oshadi.

**Gulnora QUVONDIQOVA,
Dilnavoz HAMROQULOVA,**

Toshkent Davlat texnika universiteti katta o'qituvchilari

UMUMIY O'RTA TA'LIM FANLARI O'RTASIDAGI UZVIYLIKNING AYRIM JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada umumta'lim fanlari o'zaro uzviyligining ayrim masalalari, fanlarning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, mualliflar fanlarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rni, ularni zamon talablari asosida o'qitish, ilg'or innovatsion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishning muhimligini aytib o'tgan.

Kalit so'zlar. Uzviylik, innovatsiya, xususiyat, ilg'or texnologiya, modellashtirish, metod, tamoyillar.

В статье рассматриваются вопросы взаимосвязи общеобразовательных наук в системе образования на основе их своеобразной специфики. В ней выявлена их роль в общественно-политической жизни общества и процессе обучения на основе современных требований, значимость передовых инновационных образовательных технологий.

Ключевые слова. Непрерывность, инновация, возможности, передовые технологии, моделирование, методы, принципы.

Article deals with the interrelation of general educational sciences in the education system on the basis of their peculiar specificity. It reveals their role in the public and political life of the learning community and the learning process based on modern requirements, the importance of advanced innovative educational technologies.

Key words. Continuity, innovation, opportunities, advanced technologies, modeling, methods, principles.

Respublikamizda ta'lim tizimini demokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirib, uning moddiy-texnik bazasini zamon va davr talablari darajasiga ko'tarish hamda bilimli kadrlar tayyorlash va yoshlarning ma'rifiy salohiyatini kuchaytirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunda umumta'lim fanlarini o'qitish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov mazkur fanlarning jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotidagi o'rni muhim ekanligini ta'kidlab, bu xususda quyidagi fikrlarni aytib o'tgan: "Ko'p asrlik tariximiz shuni ko'rsatadiki, inson dunyoqarashi shakllanishida ma'rifatning, xususan, ijtimoiy fanlarning o'rni beqiyos. Bu jamiyatshunoslik bo'ladimi, tarix, falsafa bo'ladimi, psixologiya yoki iqtisod bo'ladimi – ularning barchasi odamning intellektual kamolotga erishuvida katta ta'sir kuchiga ega".

Ta'lim maqsadlarini oydinlashtirish, o'qitish va o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan treninglar, texnologiyalarning xilma-xilligi ta'lim va tarbiya jarayonlari samaradorligini oshirishga hamda ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishga olib

keladi. O'quv-tarbiya jarayonlarini ilmiy va metodik jihatdan mukammal tashkil etish muvaffaqiyat garovidir. Yangicha yondashuv, yangicha fikrlash asosida o'qitish jarayoniga bilim oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatining samarali shakl va uslublarini joriy etish, ularning mustaqil ishlarini samarali tashkil qilish lozim.

Umumta'lim fanlar turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishda tajribalarni o'rganish va mavjud muammolarni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu fan o'qituvchilari birinchi navbatda mutaxassis, o'z fanini yaxshi biladigan, jamiyat va davlat hayotida, dunyoda sodir bo'layotgan voqealarni teran mushohada qila oladigan, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanadigan, ularning yangi usullarini kashf eta oladigan ijodkor pedagog bo'lishlari lozim.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayoni va uni olib borish uchun axborot texnologiyalari va tizimlari yaratilishida intellektual salohiyatli barkamol avlodning ijodiy mehnatini, izlanuvchanligini, tashabbuskorligini, yangilikka qiziquvchanligini va shu kabi innovatsion jarayonlarga kirib borishi e'tiborga olinadi va bu jarayon rejalashtirilgan natijani qo'lga kiritgunga qadar davom etadi. Bu ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llanilayotgan turli maqsadlardagi bilim berishning ilmiy-uslubiy yo'llari bo'lib, bilim olishning chegarasini va ilmiy tafakkurni kengaytiradi, fikrlashni, ijodkorlikni va sezuvchanlikni (sinchkovlikni) shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir.

Bunda pedagog ta'lim berishda har qanday vaziyatda ham oddiy usulda va mukammal bilim berish yo'llarini izlab topmog'i va ularni mohirona qo'llamog'i kerak. Buning uchun esa, avvalombor, oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarning sifatiga e'tibor berish va ularning mutaxassisliklari bo'yicha ishlashini takomillashtirish zarur. Bu borada ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilarini zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishlari borasidagi bilimlarini oshirish talab etiladi.

Shu boisdan umumta'lim fanlari o'rtasidagi muhim jihat bu o'qituvchilar jamiyat talablaridan kelib chiqib, yetarli tayyorgarlik va bilimlarga ega bo'lishlari, ijtimoiy bilimlarni talabalar ongiga singdirishda fanlararo bog'liqlik va uzviylikni ta'minlay olishlari, O'zbekiston Konstitutsiyasi, Qonunlar, Prezident farmonlari va farmoyishlarini, qarorlarini, hukumat qarorlari talabalar ongiga muntazam singdirib borish ishlarini tashkil eta olishlari muhim ahamiyatga ega.

Ushbu fanlar mazmuniga jamiyatda va davlatimiz hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy bilimlarni fanlar mazmuniga ta'sir yetkazmagan holda mohirlik bilan singdirishga erishish va uyg'unlashtirish lozim. Garchi ijtimoiy fanlar uchun ajratilgan soatlar umumiy hajmiga ko'ra bir-biridan birmuncha farq qilsa-da, talabalarning zarur bilimlarni o'zlashtirishlari va amalda hayotga tatbiq eta olishlariga erishishda ijobiy samarasini berishi lozim.

Hamma narsada bir-biriga uzviy va chambarchas bog'liqlik bo'lgani kabi, jamiyat va ijtimoiy olamda, tabiatda ham hamma narsa bir-biri bilan bevosita ekanini yodda tutish kerak. Umuman, umumta'lim fanlar jamiyat mohiyatini, unda insonning o'rnini, tarixiy taraqqiyot jarayonlarini, insonlar, jamiyatning vazifasini mantiqiy tafakkur asosda aniqlaydi. Undagi masalalarni yoritishda va tahlil qilishda masalaning tub mohiyati, ijtimoiy, siyosiy jarayonlarning asoslari, omillari va rivojlanishi, sabablari, oqibatlari va natijalariga katta e'tibor qaratiladi. Dastlabki pedagogik, falsafiy dunyoqarash fanlar traqqiyotining keyingi tarixiy bosqichida shakllangan bo'lsa ham uning zaminini jamiyatda va inson ongidagi barcha tafakkur jarayonlari va voqealar

tashkil etadi. Bunda zarur atamadan o'z o'rnida va to'g'ri anglagan holda foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, fanlararo uzviylik talabalar olayotgan bilimning aniq tartibga solinishini ta'minlaydi.

Uzviylik darsliklar, o'quv dasturlari, rejalar va darslarning tuzilishida, mazmunida ham namoyon bo'lishi lozim. Ya'ni o'qituvchi mavzuni tushuntirish, takrorlash, mustahkamlay olish malakasiga ega bo'lishi, fanlararo aloqalar masalasiga alohida e'tibor qaratishi kerak. Masalan, umumta'lim fanlari o'qituvchilari kezi kelsa, pedagogika, psixologiya, falsafa, tarix, huquqshunoslik, iqtisodiyot va boshqa fanlarga doir ma'lumotlar va bilimlarni bilishlari muhim ahamiyatga ega. Agar fanlararo aloqalar va o'zaro uzviylik ta'minlansa, ularning bir-birini takrorlanishining, talabalar zerikishining oldi olinib, ularning fanga bo'lgan to'g'ri munosabatining shakllanishiga erishiladi.

Fanlarni o'rganishda ma'lum nazariy-metodologik tamoyillar, ilmiy g'oya va nazariyalarning o'rnini katta. Ular mazkur fanlarning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglashga, fanlarni o'rganishning maqsad va vazifalarini kengroq ochib berishga yordam beradi. Shuning uchun ham ularni ma'lum nazariy-metodologik tamoyillar, ilmiy-nazariy asoslariga tayangan holda o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Umumta'lim fanlarini o'rganishda ma'lum ilmiy, nazariy metod va tamoyillarga tayanish ham muhimdir. Mazkur metod va tamoyillar quyidagilardan iborat:

- ilmiylik, xolislik, tahlil va qiyosiy taqqoslash metodi;
- mantiqiy davomiylik, uzviylik, vorislik va izchillik metodi;
- xronologik ketma-ketlik, g'oyaviylik va vatanparvarlik tamoyili;
- xolislik va o'zaro hurmat, munozara yuritish va isbotlash metodi;
- kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish metodi;
- matematik hisoblash, shakl va modellashtirish metodi;
- ayrimlikdan umumiylikka va umumiylikdan ayrimlikka o'tish metodi kabilardir.

Buning uchun umumta'lim fanlarini o'qitishni takomillashtirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- pedagogika, psixologiya, tarix, falsafa, sotsiologiya, milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari va boshqa fanlar taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari va ularni o'qitishning muhim ahamiyat kasb etishi hamda ustuvor yo'nalishlarini ochib berish;
- fanlarni o'qitishdagi innovatsiyalar va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zaro qiyosiy tahlil etgan holda amaliyotga tatbiq etish;
- fanlarni o'qitishda ta'limning modulli tizimidan keng foydalanish;
- jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy omillaridan kelib chiqib, o'quv fanlari uchun ajratilgan soatlarni ko'paytirish;
- o'quv fanlarning keyslar to'plami va amaliy topshiriqlarini yangi mazmunda tashkil etish.

Yana bir muhim jihat, bu o'qituvchi va talabaning qanday natijaga erishishida darsda qaysi texnologiyadan qanday foydalanishidir. Bunda o'quvchi va talabalarining bilim saviyasi, guruh ish faoliyati sharoitga qarab ishlatilgan texnologiya sanaladi. Masalan, natijaga erishish uchun nafaqat kompyuter bilan ishlash, balki film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasidan foydalanish zarur. Bularning barchasi o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi.

Umumta'lim fanlari doirasida boshqa fanlardan farqli ravishda o'qitish jarayonini

oldindan loyihalashtirish kerak. Bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos jihati, joy va sharoitini, eng asosiysi, talabaniing imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olish lozim. Shundagina kerakli natijaga erishish mumkin. Bunga o'quvchi va talabani ta'limning markaziga olib chiqish zarur.

O'qituvchi jamiyatdagi jadal o'zgarishlar bilan hamohang ravishda har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun dars jarayonini loyihalashtirib olishi zarur. Bunda o'qituvchiga u tomonidan bo'lajak darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, talabalarlarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi.

Xulosa qilib aytganda, umumta'lim fanlarini zamon talablari asosida tashkil etish hamda ushbu fanlar o'qituvchilari faoliyatini to'g'ri tashkil etish, kelajakda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ishlar ko'lamini yangicha asoslarda tashkil etishga va tizimni salohiyatli professor-o'qituvchilar bilan ta'minlash ishiga xizmat qiladi. Fanlararo uzviylikning yana muhim jihati – bu o'qituvchilarni doimo yangiliklarni izlab topishga, mustaqil ijod qilishga undaydi, mavzu haqida tushunchalar berish orqali talabalarlarning dunyoqarashi, tafakkurini, mustaqil ijod qobiliyatlarini namoyon etishlarini, mustaqil kuzatish va shu asosda yakuniy xulosalarni shakllantirishga undaydi. Yana shuni ta'kidlash joizki, ayni davrda zamonaviy pedagogik texnologiya – texnologik, tizimli yondashuvlar asosida o'qitishning shakllarini osonlashtirish, uning natijasini kafolatlash va obyektiv baholash uchun zarur bo'lgan inson salohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro hamkorligini namoyish qiladi. Fanlarning tarbiyaviy ahamiyati esa, o'quvchi va talabalarni vatanparvarlik, milliy g'urur va iffitor ruhida tarbiyalaydi, ularda shaxsiy tashabbus va erkin ijod qilish sifatlarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir: "Fidokor" gazetasi muxbiri savollariga javoblar.* – T.: O'zbekiston, 2000. 33-b.
2. Qo'zilyev T. *Tarix va falsafa fanlarining dialektik aloqadorligida terminologiya masalasi. TMI. Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari.* – T., 2016.
3. Ikromova K. *Darslarda didaktik vositalardan foydalanish. // Umumta'lim fanlari metodikasi.* – T., 2016.

Muxlisa ABIDJANOVA,
Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi

PEDAGOGIK FASILITATSIYA ASOSIDA O'QUVCHILARNING FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada fasilitatsiya, ijtimoiy va pedagogik fasilitatsiya, pedagog fasilitatorning faoliyatlarini tashkil etish va o'tkazish muammolari xususida so'z yuritilgan. Shuningdek, muallif ushbu muammoni hal etishda pedagogik fasilitatsiya imkoniyatlaridan foydalanishning muhim ahamiyatini yoritib bergan.

Kalit so'zlar. Fasilitatsiya, fasilitator, ijtimoiy va pedagogik fasilitatsiya, faollik, hamkorlik, natija, samaradorlik, jarayon, axborot, texnologiya, motiv, metod.

В статье раскрыты вопросы фасилитации, социальной и педагогической фасилитации, организации деятельности педагога фасилитатора, а также пути решения данной проблемы.

Ключевые слова. Фасилитация, фасилитатор, социальная и педагогическая фасилитация, активность, сотрудничество, результат, эффективность, процесс, информация, технология, мотив, метод.

Article deals with issues of facilitation, social and educational facilitation, organization of work of the teacher facilitator, as well as ways to solve this problem.

Key words. Facilitation, facilitator, social and educational facilitation, activity, cooperation, result, efficiency, process, information, technology, motive, method.

Bugungi kunda yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazishda, avvalo, ularda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, o'z faoliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga odatlantirish lozim. Bunday yondashuvni amalga oshirish uchun tarbiya jarayonida o'quvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash muhim pedagogik ahamiyatga ega. Pedagogik qo'llab-quvvatlash jarayoni asosan o'quvchilarga yo'naltiriladi. Bunda o'quvchilarning moddiy borliq, atrof-dagilar va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini o'rganish muhim o'rin egallaydi.

Hozirgi kunda sharoitlarning yaxlitligiga ko'ra (iqtisodiy, moliyaviy va h.k.) ta'lim sohasida yangi bosqichlarga duch kelinmoqda. Ta'limdagi sharoitlarning shakl va mexanizmlarining o'zgarishiga zarurat tug'ilmoqda. Ayniqsa, kasbiy ta'lim sohasida buni yaqqol kuzatish mumkin. Shu nuqtayi nazardan fasilitatsiya jarayoni pedagogika va psixologiyada tobora qiziqarli xarakter kasb etib boraveradi.

Fasilitatsiya so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, "*facilitate*" – yordam berish, yengillashtirish, kuchaytirish degan ma'nolarni anglatadi. Fasilitatsiya tushunchasi yangi bo'lishiga qaramay pedagogikada keng qo'llanilib kelinmoqda.

Fasilitatsiya – o‘quvchiga ijobiy ta’sir etish yo‘li bo‘lib, guruhda ijobiy muhitni hosil qilish, qatnashuvchilarni o‘z kuchlariga ishonishlarini va mustaqil faoliyatlarida ularni qo‘llab-quvvatlashdir.

Hozirgi vaqtda fasilitatsiyaning ijtimoiy va pedagogik turlari ajratilib ko‘rsatiladi.

Ijtimoiy fasilitatsiya ijtimoiy psixologik fenomen hisoblanadi. Ijtimoiy fasilitatsiya lotin tilida – “socialis facilitar” – jamiyatni yengillashtirish, degan ma’noni anglatadi. Pedagogik fasilitatsiya esa, ta’lim oluvchilarning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash asosida ta’limning (o‘qitish, tarbiya) samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bunda pedagog shaxsining alohida muloqot usulini kasbiy-pedagogik jarayonda qo‘llanilishi natijasida rivojlanish kuzatiladi.

“Fasilitatsiya” tushunchasi anglanilgan va maqsadga yo‘nalgan faoliyatning ko‘rinishi bo‘lib, o‘qituvchining qatnashishida aks etadi. Avvalo, fasilitatsiyaning asosiy atributlarini ko‘rsatib o‘tish lozim:

1) faoliyat; 2) subyekt; 3) funktsiya; 4) motiv; 5) maqsad; 6) usul; 7) faoliyat jarayoni; 8) vosita.

1. Faoliyat – shaxs rivojlanishidagi asosiy hal qiluvchi vosita, u insonni ko‘pqirrali faol maqsadga yo‘naltiradi. A.N.Leontev “faoliyat hayotning birligidir va psixikaning asoslangan aksidir”¹ deb ta’kidlaydi. G.P.Shedrovitskiy esa faoliyatga shunday ta’rif beradi. “Faoliyatsiz ishlab chiqarish vositalari ham, belgilari ham, san’at namunalari ham yo‘qdir: faoliyatsiz insonlarning o‘zi ham yo‘q hisob”².

Qadimgi grek olimlarining aytishicha, “uzoq yo‘l nasihat orqali, qisqasi esa o‘rnak, ibrat orqalidir”. Aynan shu “qisqa yo‘l”ni ko‘rsatish fasilitatorning vazifasidir.

2. Faoliyat subyekt: Faoliyat subyektini individ guruh jamoa, ya’ni o‘z motivlariga javob bera oladigan, o‘z faoliyati davomida uni maqsadga ko‘ra amalga oshira oladigan bo‘ladi.

3. Vazifa (funktsiya):

- birinchidan, fasilitatsiya qiziqitirish, rag‘batlantirish vazifasini bajaradi;
- ikkinchidan, fasilitatsiya faoliyatning maxsus turi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi;
- uchinchidan, fasilitatsiya pedagogikaning yetakchi prinsipi sifatida namoyon bo‘ladi;
- to‘rtinchidan, fasilitatsiya ta’lim jarayonini boshqaruv prinsipi sifatida;
- beshinchidan, fasilitatsiya faoliyatining texnologiyasi hisoblanadi;
- oltinchidan, fasilitatsiya shakllanish muhitining sifatlarini mujassam etgan va ijodiy ta’lim muhitini yaratishga yo‘naltiriladi.

Shuningdek, fasilitatsiya munosabatlarini qo‘llab-quvvatlovchi shaxslar yetarli darajada kuchli va ma’suliyatlidir. A.S.Belkinning fikricha, muhitni o‘zi “omad keltiruvchi vaziyatlarga” sharoit yaratib beradi. Aynan muhitlarda ishonchga kiriladi va qadriyat sifatida tan olinadi. O‘z o‘rnida muhit ta’lim oluvchilar uchun ijodiy faoliyatning stimuli – yutug‘i hisoblanadi. K.Rojersning fikricha, “bu munosabatlar o‘qishga mos bo‘lib, samaralidir”³.

4. Motiv – faoliyatga subyektini, avvalo, uning ehtiyojlari, ya’ni ichki qiziqishlari undaydi. Motiv – ma’lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq faoliyatga undovchi sababdir.

¹ Леонтьев Д.А. Психология смысла. – М.: Смысл, 1999. – С. 487.

² Щедровицкий Г.П. Избранные труды. – М.: Изд-во шк. культ, политики, 1995. – С. 759.

³ Роджерс К. Взгляд на психотерапию. – М.: Прогресс, 1994. – С. 497.

5. Maqsad – natijaga erishishning ideal yo'li bo'lib, muvaffaqiyatga yo'nalgan harakatdir. Ta'lim oluvchilarni anglab, korrektirovka qilingach, o'qitishning va dars berishning keyingi usullarini aniqlashtirib oladi.

6. “Faoliyat usuli” tushunchasi keng ma'noga ega bo'lib, ta'lim faoliyat sifatida o'z predmetini bilim, ko'nikma, malakalar, qobiliyatlar, motivlar va boshqalarni dastlabki holatida ko'radi.

7. “Faoliyat jarayoni” tushunchasi faoliyat kategoriyalari mazmunini va “subyekt”, “predmet” va “natija” mazmunini ochib beradi. Shu bilan birga “jarayon” tushunchasining mazmunini ikki xil abstrakt – “metod” va “vosita” ochib beradi.

8. Vosita – keng ma'noda “vosita” so'zi barcha material sharoitini ta'minlaydigan, umuman olganda, jarayonni amalga oshishi uchun zarur hisoblanadi. Ta'lim jarayonida vositalar, masalan, kitob, film, kommunikatsiya vositalari, pedagog fasilitator berayotgan ma'lumotlar va boshqalar bo'lishi mumkin.

Ko'plab tadqiqotlarda fasilitatsiya faoliyatiga asoslangan o'zaro harakat qobiliyatini yetuk shaxsning yuqori rivojlanish darajasi sifatida ajratiladi. Bunda hayotdagi motivatsiyalari ma'noga ega bo'lishi yuqori insoniy qadriyat bo'lib, avvalo, boshqa insonlarning shaxsiy potensialini, ularning sifatlarini ochib berishga va muvaffaqiyatli o'zaro harakatni amalga oshirishga imkon beradi⁴.

Fasilitatsiya haqida so'z ketganda, albatta, fasilitator faoliyati e'tiborga loyiqdir. Fasilitator trenerdan farqli o'laroq ekspert hisoblanmaydi. U qatnashuvchilarni o'qitmaydi, aksincha ularga guruhiiy ishlash uchun maxsus texnologiyalarni taqdim etadi. Fasilitator guruhga yordam beradi, muammolar yechimini topishga harakat qiladi. Fasilitator qatnashuvchilarni ishga yo'naltirib beradi va natijalarni muvofiqlashtirib boradi va berilgan texnologiyalarning qoidaga muvofiq qatnashuvchilar tomonidan bajarilishini kuzatadi.

Fasilitator – dars samaradorligini oshirish maqsadida guruhlarda guruh ishini tashkil etuvchi, olib boruvchi shaxs. Mashg'ulotda reglament, me'yor va mashg'ulot uchun qulay sharoit yaratuvchi. Guruh a'zolarini jiplashtiruvchi, samarali ishlash muhitini yaratuvchidir.

Uning maqsadi – guruh a'zolarini qo'llab-quvvatlash, oldida turgan vazifani bajarishga yo'naltirishdir. U guruh a'zolarining shaxsiy va kasbiy rivojlanishlariga qulay muhit yaratib beruvchi shaxs. Fasilitator guruhlarda o'zaro borayotgan muloqot jarayonini olib boruvchidir.

Fasilitator guruhda ish olib borish jarayonining samaradorligini ta'minlaydi. Uning vazifasi guruhda hamkorlikni, hamfikrlilikni, ijodiy muhitni yaratish, guruhni jiplashtirish va vaqt reglamentini boshqarish. Fasilitator guruhlarning bir-birini qo'llab-quvvatlashga, o'zaro yordam berish muhitida ish yuritishga yo'llovchidir. Turli xil fasilitatsiyalar ajratib ko'rsatiladi. Agar jarayonni fasilitator boshqarsa, guruhga yanada samarali bo'lgan fasilitatsiyani taqdim etadi. Bunda guruh a'zolari o'zlari muhokama va qarorlar qabul qilish jarayonini olib borishadi, fasilitator esa faqat korreksiya-lab, ya'ni muammoni tez va konstruktiv yechish yo'llarini aytib turadi.

⁴ Врублевская Е.Г. Педагогические условия развития у педагога способности к фасилитирующему общению в процессе его профессиональной деятельности (на материале учреждений дополнительного образования детей): Дис. канд. пед. н. – Хабаровск, 1999. – С. 225.

Shunday qilib, axborotlarga boy ta'lim muhitida asosiy shaxs ta'lim oluvchi bo'lib, u o'zining shaxsiy faoliyatida "o'zi quruvchi subyekti" sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchi esa ta'lim muhitining imkoniyatlarini qo'llab, uni keyingi rivojlanish maqsadini ko'zlab, faoliyatga yo'naltiradi. Shu tarzda fasilitatsiya ta'limning androgen modelida pedagog faoliyatining maxsus ko'rinishidir. Avvalo, fasilitatorning haqqoniyligi har bir lahzani o'ylab, his etib yashashidir. Qachonki, bu haqqoniylik o'quvchiga nisbatan qadriyatli munosabatni, g'amxo'rlikni, ishonch va hurmatni mujassam etsa, samarali o'qish jarayoni muhitini barpo etadi. Shu bilan birga bu jarayonda hissiy va empatik eshitishni o'zida jam etsa, o'qishda tashabbuskorlik va o'sish bo'ladi.

Umuman olganda, fasilitatsiya faoliyatiga asoslangan o'zaro harakat qobiliyatining rivojlanishi oliy ta'limdagi pedagogik jarayonning dolzarb maqsadlaridan bo'lib, fasilitatsiya shaxsning mavjudligini, uning potentsial imkoniyatlarini, jamiyatda shaxs birligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Леонтьев Д.А. Психология смысла. – М.: Смысл, 1999. – С. 487.
2. Щедровицкий Г.П. Избранные труды. – М.: Изд-во шк. культ, политики, 1995. – С. 759.
3. Роджерс К. Взгляд на психотерапию. Становление человека. – М.: Прогресс, 1994. – С. 497.
4. Врублевская Е.Г. Педагогические условия развития у педагога способности к фасилитирующему общению в процессе его профессиональной деятельности (на материале учреждений дополнительного образования детей): Дис. канд. пед. н. – Хабаровск, 1999. – С. 225.

Dilmurod MAMATOV,

T.N.Qori Niyoziy nomli O'zPFITI mustaqil izlanuvchisi

BO'LAJAK MEHNAT VA KASB TA'LIMI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH JARAYONIDA MALAKAVIY PEDAGOGIK AMALIYOTNI TASHKIL ETISH METODLARI

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida malakaviy pedagogik amaliyotning vazifalari, uni tayyorlash, tashkil etish va o'tkazish borasidagi tajribalar tahlil etilgan. Muallif malakaviy pedagogik amaliyotni takomillashtirish bo'yicha o'z takliflarini bildirgan.

Kalit so'zlar. Pedagogik amaliyot, ta'lim sifati, samaradorlik, elektron o'quv uslubiy majmua.

В данной статье рассмотрены методы организации квалификационной педагогической практики в процессе подготовки будущих преподавателей трудового и профессионального образования. Автор представил собственные предложения по совершенствованию педагогической практики.

Ключевые слова. Педагогическая практика, качество образования, эффективность, электронное учебно-методическое пособие,

This article examined methods of organizing the qualification of teaching practice in the preparation of future teachers of labor and vocational training. The author presented his own proposals for improving pedagogical practice.

Key words. Pedagogical practice, the quality of education, efficiency, electronic educational and methodical manual.

Bo'lajak mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash tizimida talabalarining o'rta maxsus ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan pedagogik amaliyoti alohida o'rin tutadi. Oliy ta'lim muassasasi auditoriyasida egallangan nazariy bilimlar, malaka va ko'nikmalar maxsus ta'lim muassasalarida amaliyot davomida sinovdan o'tkazilib, rivojlantiriladi.

Pedagogik amaliyot talabalarning kasb-hunar kollejlari, akademik litsey va umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quv-tarbiyaviy ishlarga kasbiy pedagogik va psixologik tayyorlash, ijodiy fikrlash, kasbiy mahorat va qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida tashkil etiladi.

Pedagogik amaliyotning vazifalari quyidagilardan iborat:

– talabalarda kasbiy ishonch va barqaror pedagogik qarashlarni shakllantirish;

– talabalarning pedagogik-psixologik fanlar hamda maxsus fanlar bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash;

– bo'lajak o'qituvchilarni amaliy ko'nikma va malakalar bilan, zaruriy holatlarda umumiy psixologik-pedagogik qonuniyatlarni qo'llash malakalari bilan ta'minlash;

– talabalarni maktab, litsey va kabs-hunar kollejaridagi o'quv-tarbiyaviy ishlarining zamonaviy ahvoli, ilg'or pedagogik tajribalar bilan tanishtirish;

– o'qituvchilarning muhim kasbiy va shaxsiy xislatlarini rivojlantirish;

– talabalarda pedagogik kasbga, mehnatga hurmat va muhabbat uyg'otish;

– talabalarni bevosita pedagogik-psixologik faoliyatda qatnashishlariga erishish;

– talabalarni maktab, litsey, kasb-hunar kolleji o'quvchilarini pedagogik kasbga yo'naltirish va tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishga o'rgatish;

– pedagogik faoliyatning sinfdan va maktabdan tashqari ishlarini joriy va istiqbolli rejalashtirishni o'rgatish;

– talabalarda o'qituvchining ish rejasiga asoslanib, kasb ta'limi yo'nalishini hisobga olgan holda kasb-hunar kolleji o'quvchilari bilan tarbiyaviy ishlarni olib borish malakasini shakllantirish;

– ta'lim-tarbiyaviy ishlarning asosiy shakllari (dars, suhbat, o'yin va boshqalar)ni amaliyotga tatbiq qilishni o'rgatish;

– talabalarda kasb-hunar kolleji o'quvchilarini bilim olish ko'nikmalarini shakllantirish;

– darsni zamonaviy o'qitish metodlarini qo'llagan holda o'tishni o'rganish kabilardan iborat.

Ta'lim jarayonida talabalarga berilayotgan bilimlar chuqurroq va puxtaroq o'zlashtirilishi uchun yangi pedagogik texnologiyalar ta'limining texnik vositalari: multimediya vositalari, kompyuterlar, kinodiaproyektorlar, kino-video-apparaturalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Amaliyot tugagach, talabalar hisobot topshirishadi. Unga kundalik, tavsifnoma, dars rejalari, ochiq darslar muhokamasi qarorlaridan ko'chirma, o'tkazilgan darslar rejasi va konspekti, qatnashgan darslari tahlili bayoni, o'tkazilgan tarbiyaviy ishlarning matni, ikki nafar o'quvchiga psixologik-pedagogik tavsifnoma, amaliyotchining ish dasturi, amaliyot davrida guruhning o'quv-tarbiyaviy ishlari, oylik va yillik (semestr) ish dasturlari, kasb-hunar kolleji haqida ma'lumot, kelgusida kasb-hunar kolleji ishini rivojlantirish, dars sifatini oshirishga oid fikrlari ilova qilinishi kerak.

Pedagogik amaliyotni tayyorlash, tashkil etish va o'tkazish borasidagi tajribalarimizdan quyidagi muammolar mavjudligi aniqlandi:

1. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari talabalarining malakaviy amaliyoti haqida Nizom"da ko'rsatilgan talablar darajasida pedagogik amaliyotni o'tkazish muammoga aylangan. Buning asosiy sabablaridan biri – vazifalar hajmi va mazmunining kengligi, talabalarning metodik ta'minoti yetarli emasligi.

2. Talabaning aqliy, ijodiy va kommunikativ bilimining rivojlanuvchi xususiyatlarini hisobga oladigan pedagogik amaliyotni tayyorlash va o'tkazish.

3. Talabalar malakaviy amaliyotini tashkil etish va boshqarish tizimining mukammal emasligi.

4. Malakaviy amaliyotni obyektiv baholash tizimi ishlab chiqilmaganligi kabi muammolar.

Bo'lajak kasb ta'limi va mehnat ta'limi o'qituvchilarning ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan pedagogik amaliyotida o'quvchilarning mashg'ulotlarni samarali o'tkazish uchun tavsiya qilinayotgan elektron o'quv qo'llanmalar mavjud emas.

Bu muammolar yechimini yangi avlod darsliklari (ma'ruza matnlarining elektron ko'rinishlari, elektron darslik va elektron o'quv qo'llanmalar, multimedia dasturlari, masofaviy ta'lim, internet xizmati) bilan ta'minlanishi, ta'lim jarayonining ilg'or pedagogik texnologiyalar ila boyitilishi orqali hal qilish mumkin. Ular ishchi dastur va reja, mashq va masalalar to'plami, elektron slaydlar majmuasi, ma'lumotlar to'plami, ensiklopediya, “elektron repetitor” shakllarida bo'lishi mumkin.

Taklif etayotgan “Talabalar malakaviy amaliyotini tashkil etish va boshqarish elektron tizimi” ushbu muammoni hal qilishga yordam beradi. Ushbu tizim quyidagi komponentlardan iborat:

- malakaviy amaliyot nizomi;
- malakaviy amaliyot bo'yicha metodik tavsiyanoma;
- malakaviy amaliyot hujjatlari;
- malakaviy amaliyot maydonchalari;
- topshiriqlar;
- galereya;
- namunaviy hisobot;
- qo'shimcha tavsiyalar;
- kutubxona;
- mualliflar.

Malakaviy amaliyotning boshlang'ich bosqichida talabalar amaliyot nizomi va metodik tavsiyanoma bilan tanishishadi hamda kasbiy bilimlarini aniqlash maqsadida mutaxassisliklari bo'yicha to'rtta fandan kirish testi va muammoli vaziyatlardan iborat topshiriqni bajarishadi.

Talabalarda amaliyot davrida bajariladigan topshiriqlar va shu talab asosida tuzib chiqilgan namunaviy hisobot bilan tanishish imkoniyati mavjud. Qo'shimcha tavsiyalar bo'limida ular innovatsion texnologiyalar asosidagi o'quv-metodik majmualar bilan tanishib, o'z faoliyatida foydalanishlari mumkin. Kutubxona bo'limida mutaxassislik fanlari elektron adabiyotlar majmuasidan iborat. Galireya bo'limi malakaviy amaliyotni tashkil etishga ko'mak beradigan rasm, videoroliklar, ochiq dars ishlanmalari, o'tkazilgan tadbirlar, OAVda chiqishlardan iborat. Malakaviy amaliyot so'nggida talabaning kirish va chiqish nazorati natijasi solishtirilib, kasbiy kompetentligini aniqlash imkoni mavjud.

Muammoli vaziyatlar ikki ko'rinishda berilgan: matnli va videorolikli. Videorolikli muammoli vaziyatlar sahna ko'rinishi tarzida beriladi. Javoblar varianti matn ko'rinishida beriladi.

Mehnat va kasb ta'limi yo'nalishlari bo'yicha malakaviy pedagogik amaliyotni takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflar tayyorlandi:

- nazorat natijalari asosida talabalar tomonidan kam o'zlashtirish ko'rsatkichiga ega fanlar va sohalar bo'yicha metodist o'qituvchilar uchun qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda talabalar bilan individual ishlash jarayonini tashkil etish;

– pedagogik amaliyot o‘tkazilishi rejalashtirilgan (shartnoma tuzilgan ta’lim muassasalari) ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi va ilmiy pedagogik salohiyatini o‘rgangan holda doimiy monitoringni olib borish;

– bakalavriyat bosqichida mutaxassislik fanlaridan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini integratsiya qilish va dars soatlarini ixchamlashtirish lozim. Buning natijasida bo‘sh qolgan yuklama vaqtini pedagogik amaliyot jarayoniga qo‘shish mumkin;

– talabalarning pedagogik amaliyot jarayonidagi faoliyatining samaraligini ta’minlash uchun 1-bosqichdan boshlab uzluksiz pedagogik amaliyot tizimini kuchaytirish;

– o‘quv, ishlab chiqarish va malakaviy pedagogik amaliyotga yuqori malakaga ega bo‘lgan tajribali professor-o‘qituvchilar jalb etilish;

– pedagogik amaliyot davomida talabalar o‘rtasida “Eng namunali ochiq darslar” ko‘rik-tanlovini o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish;

– namunali tarzda tashkil etilgan pedagogik amaliyot jarayonini OAVda yoritish, talabalar va amaliyot rahbarlarini moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish kerak.

Yuqoridagilarni inobatga olib, elektron o‘quv-metodik majmuani taklif etamiz.

Elektron o‘quv-metodik majmualar ta’lim mazmunini taqdim etish, tinglovchining bilish faoliyatini boshqarish va nazorat qilish vositalari sifatida ishlatiladi. Aynan bir o‘quv materiali bir qancha vositalar, masalan, nashr, audio-video, CD disklar ko‘rinishida taqdim etilishi mumkin. O‘qitishning har bir vositasi o‘ziga xos didaktik imkoniyatlarga ega. O‘qituvchi bunday imkoniyatlarni yaxshi bilishi va o‘quv materiallarini ushbu vositalar bo‘yicha taqsimlay olishi, ulardan didaktik masalalar yechimiga qaratilgan o‘quv axborotlarni uzatish tizimi sifatida foydalanishi mumkin.

Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida elektron o‘quv-metodik majmuaning ta’lim vositalariga quyidagilar kiradi:

– o‘quv darsliklari, qo‘llanmalarining elektron versiyalari;

– kompyuter multimediali o‘rgatuvchi tizimlar;

– audio o‘quv-axborot materiallari;

– video o‘quv-axborot materiallari;

– virtual laboratoriya ishlari;

– trenajyorlar;

– ma’lumotlar va bilimlar bazasi;

– elektron kutubxonalar;

– ekspert o‘rgatuvchi tizimlar asosidagi o‘qitish vositalari;

– virtual reallik asosidagi o‘qitish vositalari.

Ta’kidlash lozimki, ta’limning elektron vositalari zamonaviy axborot texnologiyalari orqali joriy etiladi. An’anaviy darsliklar, o‘quv-metodik qo‘llanmalar va boshqa nashr materiallarining elektron shakldagi nusxalari elektron o‘quv-metodik majmualar yaratishda ishlatiladi.

Fikrimizga ko‘ra, elektron o‘quv-metodik majmua vositalari va ta’limning axborot-kommunikatsiya muhiti quyidagi asosiy talab va vazifalarning bajarilishini ta’minlaydi:

– tinglovchilarni va ularning axborot muhitidan foydalanish faoliyatlarini qayd etish;

– pedagoglar tomonidan tinglovchilarning mustaqil faoliyatini maslahat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash;

- tinglovchilarga zarur o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirish uchun tavsiya etish;
- o'quv jarayonida tinglovchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni test sinovlari yordamida tashkil qilish;
- elektron o'quv-metodik majmua bazasida tinglovchilarga tavsiya qilingan o'quv materiallaridan, qo'shimcha adabiyot va boshqa vositalardan masofadan foydalanish imkoniyatini yaratish;
- virtual laboratoriya mashg'ulotlari va individual amaliy topshiriqlarni bajarishda masofadan turib kafedra o'qituvchilarining maslahati, shuningdek, boshqa yordamlarni uyushtirish.

Bu talablarni amaliyotga joriy qilish – axborot-ta'lim muhitini yaratishni va fan bo'yicha o'quv-metodik majmuaning shakllanganlik darajasiga ko'ra, uni bosqichma-bosqich amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Malakaviy pedagogik amaliyotning samarali tashkil etilishi o'quvchilarni tarbiyalashga, o'quv va tarbiyaviy jarayonlarni uzviy birlikda amalga oshirishga, talabalarni g'oyaviy-siyosiy, aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy hamda estetik jihatdan tarbiyalashning birligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharipov Sh.S. va boshqalar. *Pedagogika amaliyot. Metodik qo'llanma.* – T.: TDPU, 2006. 34-b.
2. Hasanova Y. va boshqalar. *Talabalar malakaviy amaliyotini tashkil qilish, nazorat etish va baholash metodikasi.* – T., 2008.
3. Isyanov R.G., Mamatov D. *Malaka oshirish kurslari tinglovchilarida pedagogik loyihalashtirish texnologiyasidan foydalanishni shakllantirish. Kasbiy ta'lim: muammolar va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy seminarining ma'ruza materiallari va tezislari.* – T., 2011. 67-70-b.
4. Маматов Д. Педагогическая практика как форма формирования профессиональных компетентностей будущего педагога. *Качества высшего и профессионального образования в постиндустриальную эпоху: сущность, обеспечения, проблемы. Материалы 10-й Международной научно-практической конференции.* – Казан, 12 мая 2016 года, – С. 391-396.
5. Маматов Д. *Особенности педагогического проектирования и реализация электронной информационно-образовательной среды в процессе подготовки будущих учителей профессионального образования // Технологии в образовании.* – Воронеж, 2011. №4. –С. 48-54.

Tahririyat: Har tomonlama yetuk pedagog-kadrlarni tayyorlash doim dolzarb masala bo'lib kelgan. Bu jarayonda malakaviy pedagogik amaliyotlarni o'tkazish, ularning sifatli tashkil etilishi, albatta, bo'lajak o'qituvchi uchun juda zarur. Shu bois muallifning mavzuga oid tavsiyalari va yuzaga kelayotgan muammolarning yechimini taklif etishi e'tiborga loyiq.

Komila TODJIBAYEVA,

O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

TA'LIM JARAYONIDA TOLERANT XULQ- ATVORNI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI METODLARI

Annotatsiya

Maqolada "tolerantlik" tushunchasi turli yondashuvlar nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Muallif o'quvchilarda tolerant xulq-atvorni shakllantirishda ijtimoiy-psixologik treninglarning o'zni beqiyosligiga to'xtalib, ular yordamida muhim vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish mumkinligini ta'kidlagan va o'quvchilarda tolerant xulq-atvorni shakllantirishning o'yin metodlarini tavsiya etgan.

Kalit so'zlar. Tolerantlik, diversifikatsion yondashuv, kognitiv yondashuv, fasilitativ yondashuv, harakatlar algoritmi, tolerantlik tafakkuri, trening mashqi.

В статье проведен анализ понятия "толерантность" с разных точек зрения. Автор рассматривает неопределимую роль социально-психологических тренингов при формировании толерантного поведения, утверждает, что с их помощью можно успешно решить важные задачи и даёт рекомендации по использованию игр при формировании толерантного поведения учащихся.

Ключевые слова. Толерантность, диверсификационный подход, когнитивный подход, фасилитативный подход, алгоритм движение, толерантное мышление, тренинг.

Article analyzes the concept of "tolerance" from different points of view. The author considers the invaluable role of socio-psychological training in the formation of tolerant behavior, he argues that they can be used successfully to solve important problems and gives recommendations on the use of games in the formation of tolerant behavior of pupils.

Key words. Tolerance, diversification approach, cognitive approach, facilitation approach, movement algorithm, tolerant thinking, training.

Konstitutsiyamizning 18-moddasida: "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar"¹ deb belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va tinch-totuv yashagan markaz bo'lib keldi. Etnik sabr-toqat, bag'rikenglik hayot bo'ronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy me'yorlarga aylandi... Ayni shu zaminda ko'p asrlar mobaynida jahon madaniyatlari dunyo miqyosida bir-birini boyitgan. Bu yerda ko'chmanchi xalqlar o'troq xalqlar bilan, eronlik qabilalar turk qabilalari bilan, musulmonlar nasroniylar va yahudiylar bilan ko'p asrlar birga yashab kelganlar"².

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2014.

² Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 2003.

Tolerantlik, ya'ni bag'rikenglik tushunchasi o'ziga xos sinonim va antonimlarga ega bo'lgani holda manbalarda turlicha izohlanadi. Falsafa ensiklopedik lug'atida: “Tolerantlik (lot. tolerantia – chidam, sabr-toqat), bag'rikenglik – o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli, chidamli bo'lish. Bu bir-biriga o'xshamagan odamlarning birga ahillikda yashashidir”³; Ijtimoiy ensiklopedik lug'atda: “Tolerantlik – ijtimoiy ishning boshqaruv tamoyili, individlar, guruhlar va ijtimoiy hamjamiyatlar o'rtasidagi madaniy, irqiy va boshqa tafovutlarni tan olish, odamlarning tashqi qiyofasi, xatti-harakati, qadriyatlar yo'nalishi va ulardagi farqlarga nisbatan bag'rikenglikdir”⁴ deb ta'rif beriladi.

Tolerantlik hamda uning rivojlanish muammosiga doir tadqiqotlar keyingi paytlarda ilmiy hamjamiyatni qiziqitirmoqda. Holbuki, unga doir izlanishlar Geraklit va Seneki, keyinchalik J. Lok, F. Volter, B. Solovyova, P. Florenskiy, N. Berdyayevlarning tadqiqotlarida ham ko'zga tashlanadi. Bizning izlanishlarimizda esa, “tolerantlik” ekzistensial-gumanistik, diversifikatsion, kognitiv, bixevioral va fasilitativ yondashuvlar nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi.

| | |
|-----------------------------------|---|
| Ekzistensial-gumanistik yondashuv | Mazkur yondashuv vakillari tolerantlikni ongli, anglangan hodisa bo'lib, u avtomatizmlar va xatti-harakatlar stereotipiga olib kelmaydi deb hisoblaydilar. Bu qadriyat va hayotiy pozitsiya bo'lib, uning ro'yobga chiqishi aniq vaziyatlarda o'zining muayyan mazmuniga ega bo'ladi, u tolerantlik subyektidan bu mazmunni izlashni talab qiladi. Shu tariqa, tolerantlikni namoyon bo'lishi aksiologik modelni namoyon qiladi. Bu esa qadriyatvositalarini, “boshqa birovga” qadriyatli yondashuv esa, qadriyatli sifat, qadriyatli bilimlarni belgilab beradi ⁵ . |
| Diversifikatsion yondashuv | Tolerantlikka bir qirrali, bir sifatli jarayon sifatida qaramaydi. Tolerantlik – ularning fikricha, murakkab, ko'p qirrali va ko'p komponentli fenomen bo'lib, uning namoyon bo'lishi va rivojlanishi turlicha bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham u insonning butun ijtimoiy va individual hayotini qamrab oladi hamda deyarli har bir psixologik jarayon va holatlarning muhim o'lchovi hisoblanadi. Diversifikatsion yondashuv, shuningdek, tolerantlikning turli shakl va ko'rinishlarini ham ajratib ko'rsatadi ⁶ . |
| Kognitiv yondashuv | Tolerantlikning asosida muayyan bilim va ratsional qarorlar yotadiki, ular “bo'lg'usi haqiqatga” olib boruvchi yo'llarning ko'pligini, murakkabligini, xilmaxilligini tan oladi va ko'p xillikdan qochib bo'lmasligini ta'kidlaydi ⁷ . |
| Bixevioral yondashuv | Mazkur yondashuv vakillari esa, tolerantlikni insonning maxsus xatti-harakati bo'lib, bu “o'zga” bilan konstruktiv munosabatda bo'lishga qaratiladi, tolerantlik – boshqa birovni o'zi bilan teng ko'rish sifati bo'lib, unga nisbatan salbiy hislarni ongli bostirish hissida namoyon bo'ladi deb hisoblaydilar ⁸ . |
| Dialogli yondashuv | Tolerantlikning muhim ko'rinishi – shaxslararo tolerantlikni izohlaydi. Ya'ni shaxslararo tolerantlik – o'zaro munosabatlar, shaxslararo xatti-harakatlar va o'zgalar bilan muloqot o'rnatishning maxsus usulidir. Aynan mana shu ko'rinishda tolerantlik – tolerantlik muammosining barcha jabhalarini qamrab oladi ⁹ . |

³ Falsafa: ensiklopedik lug'at. – T.: O'zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. 343-b.

⁴ Словарь-справочник по социальной работе. Под ред. проф. Е.И.Холстовой. – М., 1997.

⁵ Кабылбекова З.К. Изучению современных педагогических условий для развития толерантных качеств личности учащегося. – Т.: журнал “Falsafa va huquq”, 2010. №1.

⁶⁻⁹ O'sha manba.

| | |
|-----------------------|---|
| Fasilitativ yondashuv | Bunda asosiy e'tibor tolerantlikni adekvat pedagogik-psixologik taktikasiga qaratilib, bunda har bir inson o'zi uchun qulay, shaxsiy, mustaqil pozitsiyani shakllantirishga, tolerantlikni tabiiy, refleksiv va individual xususiyatga aylantirishiga qaratiladi. |
|-----------------------|---|

Mazkur yo'nalishlar turli pedagogik tadqiqotlar o'tkazish, tolerantlikni rivojlantirish uchun turli diagnostik dasturlar tuzish, shuningdek, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida tolerant xulq-atvorli shaxslarni shakllantirish uchun zarur muhitni yaratishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Tolerant xulq-atvoriga ega shaxsni shakllantirish – murakkab jarayon bo'lib, o'quvchilarning tengdoshlar va atrofda kishilar bilan muloqotga kirishish asosida hamda boshqa kishilarga munosabati va qarashlari bilan bog'liq ijtimoiy voqelik ta'sirida amalga oshadi.

Faylasuf olimlarning fikriga ko'ra, tolerantlik tafakkuriga egalik ma'naviy-axloqiy sifat bo'lib, u samarali tashkil etilgan maqsadli ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadi. Tolerantlik tafakkuriga egalik individning shaxs sifatidagi taraqqiyoti va shakllanishi, uning gumanitar talablari asosidagi kamoloti, ma'naviy-axloqiy yetukligi, sivilizatsiya qadriyatlarini asosida shakllantirilgan keng dunyoqarashi, tolerantlikni qo'llay olish qobiliyati, fuqarolik jamiyati hayotida faol bo'lish malakalari kabi xususiyatlarni anglatadi. "Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi" da ta'kidlanganidek: "Ta'lim va tarbiya tolerantlik tafakkurining o'rnatilishida eng samarali yo'l hisoblanadi"¹⁰.

M.I. Rojkov, L.V. Baybarodova, M.A. Kovalchuklar tolerantlikni shakllantirishning quyidagi metodlarini ajratib ko'rsatadilar¹¹.

1. Intellektual sohada: ishontirish, o'z-o'zini ishontirish metodlari.
2. Emotsional sohada: uqtirish metodi.
3. O'z-o'zini nazorat qilish sohasida: xulq-atvorni korreksiya qilish va o'z-o'zini korreksiya qilish metodi.
4. Ekzistensial sohada: muammoli mavzudagi suhbat, munozara va refleksiya metodlari.
5. Irodaviy sohada: tashabbusni va qat'iyatlilikni rivojlantirish metodlari.
6. Vositali-amaliy sohada: tarbiyalovchi vaziyatlar metodi.
7. Motivatsion sohada: rag'batlash metodi.

P.V. Stepanov o'quvchilarni tarbiyalash jarayonida ularda tolerantlikni shakllantirish uchun quyidagi harakatlar algoritmini tavsiya etadi¹².

1. O'quvchilarni o'zga madaniyat namunalari bilan tanishtirish maqsadida uchra-shuvlar tashkil qilish (o'smirlar e'tiborini jalb eta olish darajasida maxsus binolarda va chiroyli tashkil etilgan joylarda).
2. O'zga madaniyat vakillariga nisbatan munosabatni qaror toptirish.
3. Muammoli muzokaralar tashkil etish.
4. O'quvchilarni o'zga madaniyat vakillariga bo'lgan munosabatini refleksiya tarzida o'zlarida his qilish imkonini yaratish.
5. O'quvchilarda tanqidiy tafakkur, munozara olib borish, o'zining va o'zgalarning nuqtayi nazarini tahlil qila olishiga yordamlashish.

¹⁰ Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi. YUNESKO vakolatxonasi nashri. Nashr uchun mas'ullar: A. Saidov, K. Jo'rayev. – T., 1999.

¹¹ Рожков М.И., Байбородова Л.В., Ковальчук М.А. Воспитание толерантности у школьников. – Ярославль, 2003.

¹² Степанов П.В. Воспитание толерантности у школьников: теория, методика, диагностика, Под ред. Л.И. Новиковой. – М.: АПКППО, 2005.

Shuningdek, o'quvchilarda tolerant xulq-atvorni shakllantirishda ijtimoiy-psixologik treninglarning o'rni beqiyos. Ijtimoiy-psixologik treninglar yordamida quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish mumkin:

I. O'quvchilarida hayotni sevish, o'zgalarni qabul qilish va tushunish, ular bilan pozitiv munosabatda bo'lish:

– turli ko'rinishdagi zo'ravonlik va agressiyaga nisbatan negatív munosabatni shakllantirish;

– o'z-o'ziga va o'zga insonlarga, ularning madaniyatiga nisbatan hurmat va tan olish hissini shakllantirish;

– xalqaro va dinlararo munosabatlarni o'rnatish qobiliyatini shakllantirish; ba'zi so-tsiúm vakillari bilan (ularning kelib chiqishi va dunyoqarashidan qat'i nazar) konstruktív munosabat o'rnatish, tolerant muloqot o'rnatish qobiliyatlarini shakllantirish;

– tolerantlik chegaralarini belgilab olish malakalarini shakllantirish.

II. Jamiyatda va ta'lim tizimida tolerant muhitni yaratish:

– jamiyatdagi terrorism, ekstremizm va agressiyalar profilaktikasi;

– kattalar va kichiklar o'rtasida, ta'lim va tarbiya orasidagi munosabatlarni gumani-zatsiyalash va demokratizatsiyalash;

– tolerantlik pedagogikasidagi ilg'or g'oyalarni qayta ko'rib chiqish va qaytadan ya-ratish;

– bo'lg'usi pedagoglarni o'zlariga o'xshagan tolerant xulq-atvorli o'quvchilar tarbiya-lash va yetishtirishlariga erishish.

Tolerantlikni shakllantirishga yordam beruvchi quyidagi trening mashqlarini misol keltiramiz:

“Ijtimoiy rollar” mashqi

Maqsadi: Turli ijtimoiy guruh vakillariga nisbatan empatiya va mehribonlik tuyg'usi-ni shakllantirish. O'zgalar fikriga nisbatan tolerantlik darajasini aniqlash. Kommunikativ malakalarni shakllantirish.

Ko'rsatma: Ishtirokchilarning boshlariga, o'zlariga ko'rsatmagan holda turli ijtimoi-y rollar yozilgan qog'oz halqalar kiygiziladi (prezident, qochoq, kollej direktori, bemor, nogiron, nafaqaxo'r, mardikor, yangi boy va h.k.) Ishtirokchilar bir-birlariga yaqinlashib, har kimning ijtimoiy maqomiga ko'ra muloqot qurishlari, savol berishlari yoki biror nar-sani so'rashlari lozim, lekin ularning kim ekanligi oshkor qilinmaydi. So'ngra tahlil o'tka-ziladi: o'zingizni qulay his qildingizmi? O'z qahramoningizning ijtimoiy maqomini topa oldingizmi, agar ha bo'lsa, qanday belgilarga asoslanib? Biz o'zga odamlarga nisbatan qay darajada toqatlimiz? Tahlil jarayonida trener ishtirokchilarning fikrlarini diqqat bilan tinglashi lozim.

“Ko'prik” mashqi

Maqsadi: Vaziyatni boshqa inson pozitsiyasidan turib baholashni o'rganish. Ijtimoiy persepsiya, empatiya, identifikatsiya mexanizmlarini shakllantirish.

Ko'rsatma: Polga tor yo'l – “ko'prik” chiziladi. Uning qarama-qarshi tomonidan bir vaqtning o'zida ikki odam o'tishi lozim. “Ko'prik” ostidan “daryo” oqib o'tadi. Ishtirokchilar ikki guruhga bo'lingan holda ikki qirg'oq tarafidan joy oladilar. “Ko'prik”dan o'tish istalgan usulda amalga oshirilishi mumkin. Faqat oldindan kelishib olishga yo'l qo'yilmaydi.

Trenerg maslahat: Guruh ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini kuzatish va ular qay yo'sinda hamkorlik qilish va bir-birlarini tushunishga harakat qilayotganliklarini kuzatish lozim. Tahlil uchun savollar: Ko'prikni kechib o'tish usullari haqida nimalar deya olasiz? Biz o'zgalarga yon berishga qay darajada tayyormiz? Hayotda bunday vaziyatlar tez-tez kuzatiladimi?

Mazkur o'yinlar orqali o'quvchilar xulq-atvorida tolerantlikni shakllantirish, vaziyatni o'zga inson nuqtayi nazari bilan baholashga o'rgatish, o'ziga va o'zgalarga e'tiborli bo'lishni shakllantirish, o'z-o'zini nazorat qilish malakasini rivojlantirish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytilish mumkinki, tolerantlik muhim axloqiy me'yor sifatida har bir kishida shakllanishi lozimligini ijtimoiy taraqqiyotning o'zi taqozo qilmoqda. Bu borada o'quvchilarda tolerantlik tushunchasini shakllantirishda oila a'zolari bilan bir qatorda, o'qituvchi ham muhim o'rin tutishini aytilish lozim. Shunday ekan, pedagogik jarayonni yangi fikrlar bilan boyitish va qurollantirish, bo'lajak o'qituvchilar xulq-atvorida tolerantlikni shakllantirish bo'yicha zamonaviy, demokratik va fuqarolik jamiyati talablariga javob bera oluvchi pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish zarurligini inobatga olib, quyidagilarni tavsiya etamiz:

– pedagogika kasb-hunar kolleji o'quvchilarida tolerantlik tafakkurini shakllantirishning samaradorligini ta'minlashda mustaqil ta'lim tizimini shakllantirish hamda ular mazmunini zamonaviy bilimlar bilan boyitib borish;

– ijtimoiy fanlardagi mavzular mazmunini maqsadli ravishda tolerantlik bo'yicha zamonaviy bilimlar bilan takomillashtirish;

– ijtimoiy institutlar faoliyatini, ish jarayoni va dasturlarini maqsadli ravishda tolerant xulq-atvorni shakllantirish faoliyatiga yo'naltirish hamda muvofiqlashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2014.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 2003.
3. Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi. YUNESKO vakolatxonasi nashri. Nashr uchun mas'ullar: A.Saidov. K.Jo'rayev. – T., 1999.
4. Словарь-справочник по социальной работе. Под ред. проф. Е.И.Холстовой. – М.:1997.
5. Кабылбекова З.К. Изучения современных педагогических условий для развития толерантных качеств личности учащегося. – T.: журнал "Falsafa va haqiq", 2010. №1.
6. Рожков М.И. Байбородова Л.В., Ковальчук М.А. Воспитание толерантности у школьников. – Ярославль, 2003.
7. Степанов П.В. Воспитание толерантности у школьников: теория, методика, диагностика, Под ред. Л.И. Новиковой. – М.: АПКuПРО, 2005.

Tahririyat: Shiddat bilan rivojlanayotgan zamonimizda insoniyat oldida paydo bo'layotgan ko'plab muammolar orasida tolerantlik xulq-atvoriga ega bo'lish masalasi ham borki, bu mas'uliyatli vazifadan aslo ko'z yumib bo'lmaydi. Aholi, ayniqsa, yoshlarning tolerantlik xulq-atvorini shakllantirish bugungi globallashayotgan davr nuqtayi nazaridan juda muhim. Buni ta'lim muassasalarida ishlayotgan har bir o'qituvchi o'z faoliyatida qo'llab, uni yoddan chiqarmasliklari lozim.

Mavluda GULYAMOVA,

O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti
katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

CHET TILLARNI O'RGANUVCHI TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA “ROLE PLAY” METODINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada chet tillarni o'qitishda talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda “Role play” uslubining xususiyatlari yoritib berilgan. Muallif “Role play”ning unumli va samarali uslublardan biri ekanligini misollar bilan tahlil qilgan.

Kalit so'zlar. Kommunikatsiya, komponent, uslub, motivatsiya, lingvistik, pragmatik, sotsiologiyistik, strategik, leksika, jarayon, bosqich, integratsiya, texnologiya.

В статье рассматриваются особенности формирования коммуникативной компетенции у студентов, изучающих иностранный язык и специфика использования ролевых игр как эффективного подхода к обучению иностранному языку.

Ключевые слова. Коммуникация, компонент, приём, мотивация, лингвистический, прагматический, социолингвистический, стратегический, лексика, процесс, этап, интеграция, технология.

Article deals with the peculiarities of the formation of communicative competence among students studying a foreign language and the specificity of using role games as an effective approach to learning a foreign language.

Key words. Communication, component, reception, motivation, linguistic, pragmatic, sociolinguistic, strategic, vocabulary, process, stage, integration, technology.

Davrning integratsiya va globallashuvi jarayoni ta'lim tizimiga yangicha va zamonaviy ta'lim texnologiyalarni tatbiq etishni taqozo etmoqda. Xorijiy tilga bo'lgan munosabat va qiziqish kundan-kunga oshib bormoqda. Ta'lim tizimida chet tillarni o'qitishning yana bir asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lgan talabalarning kommunikativ kompetensiyani integrativ yondashuv orqali shakllantirish bugungi kunning navbatdagi dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Ushbu maqsadga erishish uchun til o'rganuvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida ahamiyat beriladi. Negaki, faqat shu yo'l orqali talabalar o'z fikrlarini bayon eta oladi va turli ijtimoiy, madaniy muhitga mos ravishda muloqot olib borish ko'nikmasini shakllantiradi. Kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda o'yin va texnologiyalar orqali o'qitish yaxshi samara beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida "Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish"¹ ta'kidlangan.

Darhaqiqat, til o'rganuvchi talabalarda og'zaki nutqni shakllantirish hamjihatlikda o'qitish va o'rgatish "Role play" (kichik sahna ko'rinishi) metodi orqali o'z aksini topadi. Ma'lumki, hozirgi kunda aksariyat oliy ta'lim muassasalarida eng samarali metodlardan biri bo'lgan hamjihatlikda o'qitish va o'rganish metodi keng tatbiq etilmoqda. Ushbu metod orqali dars olib borilganda o'qituvchidan ikkinchi darajali nazoratchi, yordamchi va yo'l ko'rsatuvchi bo'lishi talab etiladi. Biroq dars boshida o'qituvchi guruhidagi barcha talabalarning tafakkuri, intellektual salohiyati va psixologiyasini o'rgangan holda ularning har biriga individual yondashmog'i lozim. Talabalarning mustaqil muloqotga kirishishlari uchun so'zlashish muhitini yaratib berish muhim hisoblanadi. Talaba esa darsda asosiy muloqotchi vazifasini bajarib, erkin suhbat quruvchi va mustaqil fikrlovchi, mushohada yurituvchi hisoblanadi. Aynan biz taklif qilayotgan "Role play" ham til o'rganuvchilarda bir qancha kompetensiyalarni shakllantirish va uni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bu haqda Donn Byurne shunday fikrni bayon qiladi: "Role play" drama faoliyatining bir bo'lagi hisoblanadi.

Jonna Budden fikricha, "... gapirish ko'nikmasini shakllantiruvchi, shu bilan bir qatorda rol ijro etish jarayonida sen o'zingni bironi o'rniga qo'yasan yoki o'zingni o'ringda bo'lib, hayotiy jarayonlarda rol o'ynaysan".

Lorsen Frimen ta'kidlashicha, "Role play" kommunikativ yondashuvda muhim o'rin tutadi, chunki u talabalarni turli ijtimoiy jarayonlarda har xil rollarni ijro etgan holda muloqot qilish imkonini beradi.

Laddus esa, "Role play"ni "... muloqot jarayonida tilda sof gapirish va bir-biri bilan muloqot qilish orqali sinfda motivatsiyani uyg'otish imkonini yaratadi" deydi.²

Svniki va Makkezi ta'biricha, kichik sahna ko'rinishi talabalarning nafaol kuza-tuvchi bo'lishlaridan ko'ra, faol qatnashuvchi bo'lishga chorlaydi, shu bilan bir qatorda qaror qabul qilish, muammolarni yechish va qabul qilingan qarorlarga muvofiq natijani namoyon qilish ko'nikmasini shakllantiradi.³

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda "Role play" til o'rganuvchi talabalarda tinglab tushunish, gapirish, muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish bilan birgalikda motivatsiyalarini uyg'otib, ularni ruhlantiradi, degan ta'rifni taklif qilamiz.

Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda nafaqat xorijiy tillarni o'rganish, balki aniq bir mavzuga doir sahnalashtirilgan kichik sahna ko'rinishlari ke-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2012-yil 10-dekabr.

² B Aju Diyah Harni Susant. Using role play in teaching speaking. Jakorta, 2000 – P. 46.

³ Svnicki, M, and McKeachie, W.J (2011) Teaching tips: Strategies research, and theory for college and University teachers (13 th ed) Belmont, CA: Wadsworth, Cengage.

lajakda talabalarni hayotga tayyorlaydi, ya'ni tarbiyaviy xususiyatlarini, malaka va ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ular kommunikatsiyaga kirishishlarida ham kontekstga qarab yondashishadi va savol-javob tarzida, uzr so'rab tushunmaganlariga oydinlik kiritishadi. Ushbu holatda kommunikativ kompetensiyalarning asosiy komponentlaridan: *lingvistik*, *pragmatik*, *sotsiolingvistik* va *strategik* kompetensiyalariga murojaat qilinadi va ushbu ko'nikmalar orqali so'zlashish malakalarini rivojlantiradi.

Muloqot jarayonida tushunarsizini aniqlashtirib, ensiklopedik bilimlardan foydalangan holda muloqotni davom ettirish pragmatik kompetensiyada o'z aksini topadi.

So'zlarni paragraflarda, kontekstlarda va katta matnlarda to'g'ri qo'llay olish ko'nikmasini sotsiolingvistik kompetensiya orqali o'rganiladi. Ularda turli xil so'zlarni o'z o'rnida to'g'ri qo'llash ko'nikmasi oshadi. Masalan: *Is he a high man?* Ushbu gapda *high* leksik birligi noo'rin qo'llangan, uning o'rniga *tall* sinonimini ishlatish darkor. *Is he a tall man?*

Talabalar strategik kompetensiya orqali bilmagan, tushunmagan yoki xotirasida saqlay olmagan so'zlarini sinonimlar orqali yoki mos ta'riflab berish jarayonida tushuntirib berishga harakat qiladilar. Masalan: *Can you go to the cinema?* Ushbu gapda *cinema* leksemasini talaba eslay olmadi, bunda u vaziyatdan chiqish maqsadida *cinema* so'zi o'rniga *a place where you can see movies?* deb izohlaydi.

J.Xarmer “Role Play” orqali muvaffaqiyatga erishishning quyidagi yo'llarini taklif qiladi:

1. Samarali ravishda tayyorlanish (Prepare carefully) – mavzu va situatsiya talabalarga tushuntirib beriladi va ular yaxshilab tushunganliklariga ishonch hosil qiladi.

2. Maqsadga erishish (Set a goal and outcome) – talabalar yakunda ulardan kutilayotgan natijani to'liq anglashlari kerak.

3. Situatsiyali rollar yozilgan kartochkadan foydalanish (Use role cards) har bir talabaga bilim darajasiga qarab ijro belgilab beriladi. Bilim jihatdan kuchli bo'lgan talabalarga murakkab va kuchsiz talabalarga osonroq ijro taqsimlanadi.

4. Aqliy hujum (Brainstorming) – kichik sahna ko'rinishi boshlanishidan oldin guruhda yangi so'zlar grammatika va idiomatik birikmalarni qanday ishlatilinishi haqida umumiy fikrlar yig'iladi.

5. Kichik guruhlarni tashkil etish (Keep groups small) – turli xil bilim darajadagi talabalar uchun qo'l keladi hamda ko'proq gapirishga imkoniyat yaratiladi.

6. Tayyorgarlik uchun vaqt berish (Give students time to prepare) – har bir talaba uchun alohida mustaqil ishlashga hamda fikrlarini yozishga va ifodalashga vaqt berish.

7. Talabalar bilim darajalari, salohiyatlari yetarli darajada ishlashlariga ruxsat berish (Allow students to work at their own levels) – har bir talabada individual talabalar ko'nikmalari va guruhlarda ishlashga individual yondashuv mavjud.

8. Ijro etish (Do topical follow up) – talabalarga kichik sahna ko'rinishini sinfda ijro etib berish imkonini yaratish.

9. Lingvistik tavsiyalar berish (Do linguistic follow up) – kichik sahna ko'rinishi

tugagach talabalarning tilda qilgan grammatik, leksik va fonetik xatolari tuzatiladi va ko'rsatmalar beriladi.⁴

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda "Role play"ning o'tkazilish tartibi bosqich-ma-bosqich quyidagicha rejalashtiriladi:

1-bosqich. Mavzu bir necha kun avval talabalarga tayyorgarlik ko'rish uchun e'lon qilinadi va 1-bosqich talabalari uchun rollar bo'lib beriladi. Ular guruh bilan birga matn tuzishadi va o'zlariga birlashtirilgan rollarni ijro etishadi. O'qituvchi tuzgan matnlarni tekshiradi va ishlash jarayonini kuzatadi, nazorat qilib boradi.

2-bosqich. Talabalar uchun mavzu tanlanadi, guruh ikkiga bo'linadi va qisqa vaqt ichida sahna ko'rinishni ko'rsatib berishlari taklif etiladi. Sahna ko'rinish yakunida xatolar o'qituvchi tomonidan tuzatiladi.

3,4-bosqich. Talabalarga murakkabroq vaziyatli sahna ko'rinish mavzusi beriladi va darsning o'zida ijro etib berishlari so'raladi. Talabalar guruhlariga bo'linib matn tuzishadi va rollarni bo'lib olishadi, so'ng qisqa vaqt ichida ijro etishadi. Guruhlar o'zaro bir-birlarini kuzatadi va grammatik, leksik hamda fonetik xatolarini oxirida tuzatib, o'z fikrlarini (feedback) bildirishadi.

Ma'lum bo'ladiki, topshiriqlar oddiydan murakkabga asta-sekinlik bilan o'tib boradi va jamoa bo'lib hamjihatlikda bajariladi. Fikrimizning dalili sifatida buyuk Sharq mutafakkirlaridan biri Ibn Sinoning "...bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik, ta'limda yengildan og'iriga borish orqali bilim berish, olib boriladigan mashqlar bolalarning yoshiga mos bo'lishi, jamoa bo'lib o'qitishga e'tibor berish, bilim berishda bolaning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish, o'qitishni jismoniy mashqlar bilan olib borish darkor" degan fikrini esga olsak, maqsadga muvofiqdir.

Olib borilgan tajriba sinov ishlarimiz jarayonida chet tillarini o'rganuvchi talabalarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda "Role play" dars jarayonida samarali natija beruvchi usulardan ekanligi va ular oliy ta'lim muassasalari ingliz tili mutaxassislariga dars jarayonida amaliyotda foydalanishlari uchun tavsiya etildi. "Role play" metodi orqali talabalarda quyidagi xususiyatlar shakllanadi:

- dars jarayonida nafaol talabalarni jonlantiradi;
- talabalarda o'ziga bo'lgan ishonchni orttiradi;
- darsga motivatsiya uyg'otadi;
- mushohada qilish ko'nikmasi rivojlantiriladi;
- tinglab tushunish qobiliyatini o'stiradi;
- tanqidiy fikrlashga undaydi;
- fikr almashishni o'rganadi;
- lug'atlarni yangi o'rgangan so'zlari bilan boyitadi;
- ma'lumot qidirish va uni esda saqlab qolish qobiliyatini rivojlantiradi;
- til ko'nikmalarini amaliyotga tatbiq etadi;
- jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasi shakllanadi.

Xullas, xorijiy til o'rganuvchilarda o'qishni samarali tashkil etishda turli usul va texnikalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. "Role play" kommunikativ kompe-

⁴ Binita Chaurasiya. Effectiveness of role play technique in teaching dialogue. Tribbuvan University. Kirtipur. – Kathmandu. 2002. – P. 49

tensiyalarni shakllantirishda samarali metodlardan biri bo'lib, u talabalarda tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantiradi, rivojlantiradi va takomillashtiradi.

“Role play” uslubi orqali nafaqat talabalar ta'lim olishadi, balki ta'lim orqali hayotda barkamol, yuksak ma'naviyatli va intellektual salohiyatli shaxs bo'lib kamol topishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. 2012-yil 10-dekabr.
2. Ziyamuxammedov B. *Pedagogika*. – T.: Tamaddun nashriyoti, 2014. 256-b.
3. Шульгина. Е.М. *Методика формирования иноязычной коммуникативной компетенции студентов посредством технологии веб-квест. ...дисс. на соис ученой степени канд пед.наук. – Томск: 2014. – С. 243.*
3. Aju Diyah Harni Susanti. *Using role play in teaching speaking*. – Jakarta: 2000, – P. 46.
4. Moore K.D. *Effective instructional strategies: from theory to practice*. Thousand Oaks, CA: Sage Publications, 2005.
5. Svnicki M and McKeachieW.J. *Teaching tips: Strategies research, and theory for college and University teachers (13 th ed)* Belmont, CA: Wadsworth, Cengage. 2011.
7. Binita Chaurasiya. *Effectiveness of role play technique in teaching dialogue*. Tribbuvan University. Kirtipur. – Kathmandu: 2002. – P. 49.

Tahririyat: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorining qabul qilinganligi soha mutaxassislari uchun “imkoniyat eshiklari”ni ochib berdi. Ammo bugungi kunda pedagog-o'qituvchilar tomonidan chet tillarni o'rganish va o'rgatishga oid innovatsion metodlarni tavsiya etishga oid izlanishlar sanoqli.

Muallif ushbu mas'uliyatni his etgan holda taqdim etgan “Role play” metodi chet tillarni o'rganish jarayonlarini yanada tezlashtirishga turtki bersa, ajab emas.

Baxtiyor DANIYAROV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

TA'LIM MUASSASALARIDA ICHKI TA'LIM SIFATINI BAHOLASHNI INNOVATSIYAVIY TASHKIL ETISH MASALALARI

Annotatsiya

Maqola ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini baholash masalalariga bag'ishlangan. Xususan, ta'lim sifatini ta'minlashda muassasaning metodik quvvatini tashkil etuvchi ko'rsatkichlar, informatsion-metodik hamda ta'limiy-texnologik manbalarni tahlil qilish, moddiy-moliyaviy manbalarni hisobga olishning aniq mezonlari bayon etilgan. Shuningdek, muallif ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini rivojlantirishda "Oila – mahalla – ta'lim muassasasi" hamkorligiga asosiy urg'uni berib, ta'lim sifatini baholashning yangi metodikasini tavsiya etgan.

Kalit so'zlar. Ta'lim sifati, jarayon, baholash, mezon, ko'rsatkich, hamkorlik, metodika, jamoatchilik, "Oila – mahalla – ta'lim muassasasi" hamkorligi.

Статья посвящена вопросам оценки качества образования в образовательных учреждениях. В частности, автор определяет показатели эффективности методической службы при обеспечении качества образования учреждения, анализирует информационно-методические и образовательно-технологические источники, характеризует критерии учёта материально-финансовых источников. Особое внимание уделяется вопросом сотрудничества "Семья – махалля – образовательное учреждение", направленного на развитие образовательного процесса в образовательных учреждениях. Автор рекомендует новую методику оценки качества образования.

Ключевые слова. Качество образования, процесс, оценка, критерий, показатель, сотрудничество, методика, общественность, сотрудничества "Семья – махалля – образовательное учреждение".

Article is devoted to the issues of assessing the quality of education in educational institutions. In particular, the author determines the indicators of the effectiveness of the methodological service while ensuring the quality of the institution's education, analyzes information-methodological and educational-technological sources, and criteria for accounting for material and financial sources. Particular attention is paid to the issues of cooperation "Family - mahalla - educational institution", aimed at the development of the educational process in educational institutions. The author recommends a new method for assessing the quality of education.

Key words. Quality of education, process, evaluation, criteria, indicator, cooperation, methodology, public cooperation, "Family - mahalla - educational institution".

Qzbekistonda mustaqillikning ilk davridan boshlab umumiy o'rta ta'lim olish, kasbni va tegishli maxsus tayyorgarlikni o'tish jarayoni tizimli amalga oshirilib, uning asosini o'sib kelayotgan yosh avlodni yuksak ma'naviyatli va chuqur bilimli, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirishga qodir, intellektual

rivojlangan hamda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan shaxs qilib tarbiyalashga oid ustuvor yo'nalishlar belgilandi.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlaydigan asosiy omil sifatida e'tirof etilib, xalqaro tashkilotlar hamda dunyoning aksariyat mamlakatlari tomonidan 2030-yilgacha belgilangan yangi ta'lim konsepsiyasida “ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish” dolzarb vazifa etib belgilandi¹.

Ta'lim sifatini ta'minlashda ta'lim muassasasidagi manbalarning sifati ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday muhim manbalar sirasiga umumiy o'rta ta'lim muassasasidagi pedagogik kadrlar, informatsion-metodik, ta'limiy-texnologik, moddiy-moliyaviy manbalarni kiritish mumkin.

Shuningdek, ta'lim sifatini aniqlash uchun quyidagilarni tahlil etish talab etiladi:

– amalda qo'llanilayotgan o'quv dasturlarining samaradorligi va maqsadga muvofiqligi;

– metodik hamda tashkiliy innovatsiyalar;

– mazkur innovatsiyalarning o'qitish natijalarining sifati va bitiruvchilarning bilimdonlik darajasiga ko'rsatadigan ta'siri;

– o'quv jarayonining texnologik jihatdan ta'minlanganlik darajasi;

– umumiy o'rta ta'lim muassasasining turli bo'g'inlari faoliyati maqsad va vazifalarining o'zaro muvofiqligi;

– o'qitish konsepsiyalari, davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va o'quv-metodik majmualar mazmuni orasidagi o'zaro uzviylik;

– pedagogik, metodik, boshqaruv sohasidagi axborot tarmoqlarining samaradorligi, ularni ommalashtirish va foydalanish uchun qulayligi va ishonchililigi;

– fanlar bo'yicha ta'lim sifati baholanishini ta'minlovchi kvalimetrik, tashxislash metodikalarining o'qituvchilar tajribasida foydalanilganligi va sinovdan o'tkazilganligi kabilar.

Ta'lim sifatini aniqlashda umumiy o'rta ta'lim muassasasining metodik quvvatini tashkil etuvchi ko'rsatkichlar ham muhim o'rin egallaydi. Jumladan:

– avvalgi yillarda tuzilgan o'quv dasturlari;

– umumiy o'rta ta'lim muassasasida ishlab chiqilgan metodik hamda didaktik materiallar;

– sinovdan o'tkazilgan o'rgatuvchi va tashxislovchi metodikalar;

– innovatsiyaviy g'oyalar banki;

– metodik ishlarining tashkiliy shakllari, ilg'or tajribalarni aniqlash, tanlash, umumlashtirish va ommalashtirish kabilar.

Ta'lim sifatini aniqlashda informatsion-metodik hamda ta'limiy-texnologik manbalarni tahlil qilish ham alohida qimmatga ega. Uning asosiy ko'rsatkichlari:

– ekspert xulosalari;

– nazorat va tekshirish natijalarini ifodalovchi materiallar;

– yig'ilishlar, kengashlarning materiallari;

– metodik seminarlarning materiallari kabilar.

Ta'lim sifatini aniqlashda moddiy-moliyaviy manbalarni hisobga olish ham nihoyatda zarur. Mazkur manbalar sirasiga:

¹ Incheon declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea). – P. 48.

– ta’lim muassasasida amalga oshiriladigan alohida tadbirlarni moliyalashtirish manbalari;

– umumiy o’rta ta’lim muassasasidagi sinf xonalari va o’quv kabinetlarining kompyuterlar, audio, video-vizual texnikalar va laboratoriya jihozlari, aloqa vositalari, o’quv-metodik adabiyotlar, sport maydonchalari, zallari, inventarlari bilan ta’minlanganligi;

– o’qitish jarayoni sifatining o’quv jarayoni sifati natijalari bilan mos kelishining ta’minlanganligi;

– umumiy o’rta ta’lim muassasasida masofaviy ta’limni joriy etish uchun moddiy-texnik bazaning mavjudligi kabilarni kiritish mumkin.

O’quv jarayoni sifatini miqdor va sifat ko’rsatkichlari asosida ifodalash mumkin. Miqdor ko’rsatkichlari sifat ko’rsatkichlarini o’zaro qiyoslash uchun muhimdir.

Ta’lim sifati tarkibida o’quv jarayonining sifati alohida ahamiyatga ega. Jumladan:

– o’quv jarayonini tashkil etishning aniqligi;

– o’quv jarayonining davlat ta’lim standartlari, didaktik talablar va me’yorlarga muvofiqligi;

– o’quv jarayonida qo’yilgan maqsadning aniqligi;

– o’qituvchi hamda o’quvchilar harakatlarining barqarorligi, xavfsizligi, to’g’riligi;

– belgilangan tartibga muvofiq tarzda o’quv rejalari va dasturlarning aniq bajarilishi;

– o’quv jarayonida ijtimoiy-psixologik qulaylikning mavjudligi;

– belgilangan yuklamalarning o’quvchilar salomatligiga xavf tug’dirmasligi kabilar.

Ta’lim sifatini aniqlash uchun o’quv jarayonini har tomonlama tahlil qilish talab etiladi. Tahlil jarayonida quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

– umumiy o’rta ta’lim muassasasi rahbariyati va metodistlarning o’quv jarayonini tahlil qilishlariga asoslangan holda darsning sifatiga bergan baholari;

– o’quv jarayonining ilmiy-didaktik asoslarga tayangan holda tashkil etilganligi;

– o’quv jarayonining texnologiyalashtirilganlik darajasi;

– o’quv jarayoni asosiy parametrlarining davlat ta’lim standartlari va didaktik me’yorlarga muvofiqligi; bunda quyidagilar hisobga olinishi kerak: o’qituvchining haftalik yuklamasi, o’quv maydoni bilan ta’minlanganlik darajasi, o’quv jarayonining texnik vositalar bilan ta’minlanganligi, o’quv jarayoniga ijobiy ta’sir ko’rsatadigan kutubxona fondining mavjudligi, har bir o’quv predmeti mazmuniga mos keladigan o’quv-metodik majmualarning mavjudligi kabilar;

– sinfdan tashqari o’quv ishlarini tashkil etish va o’tkazish sifati;

– o’quv jarayonining ma’muriyat harakatlarining muvofiqligi, qo’yilgan maqsadga erishish uchun o’qituvchi hamda o’quvchilar harakatlarining yo’naltirilganligi, o’quv va taqvimiy rejalarning bajarilishi, maqsadli hamda umumlashgan dasturlarning ijrosi ta’minlanganligi;

– asosiy parametrlarning barqarorlik darajasi, o’quv jadvali, o’quv rejasi va dasturlarning aniq bajarilganligi;

– yuklamalarning o’quvchilar salomatligiga salbiy ta’sir ko’rsatishiga yo’l qo’yilmasligi;

– o’quv jarayonida ta’minlanadigan ijtimoiy-psixologik qulaylik darajasi.

Ta’lim sifatini baholashda tarbiyaviy jarayonlarning sifatini aniqlash ham talab etiladi. Tarbiyaviy jarayonlarning sifatini quyidagi ko’rsatkichlar yordamida belgilash mumkin:

- harakatchanlik;
- izchillik va muntazamlilik;
- individual-shaxsiy va insoniy yo‘nalganlik;
- tashkiliy shakllarni takomillashtirish va moslashtirish;
- umumiy o‘rta ta‘lim muassasasidagi tarbiyaviy ishlar moddiy-texnik asosining to‘liqligi; jumladan: tarbiyaning mujassamlashgan rejasi, eslatmalar, kodekslar, xulq-atvor qoidalari, ijodiy tanlovlarning Nizomlari mavjudligi;

- umumiy o‘rta ta‘lim muassasasidagi tarbiyaviy ishlarda maktab rahbariyati, ota-onalar, mahalla faollari, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari va boshqa jamoatchilik vakillarining ishtirok etishlari;

- umumiy o‘rta ta‘lim muassasasida qonuniylik, tartiblilik, intizom, ish tartibi, sog‘lom turmush tarzi talabalariga sifatli rioya qilinishi.

O‘quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish orqali ham uning sifatini ta‘minlash mumkin. Unda quyidagilarga e‘tibor qaratiladi:

- ta‘lim-tarbiya jarayonining mazmuni har uch-to‘rt yilda modernizatsiyalashtirilganligi;

- umumiy o‘rta ta‘lim muassasasida o‘quv dasturlari takomillashtirilganligining natijasi;

- mualliflik dasturlarining ishlab chiqilganligi, amaliyotga tatbiq etilganligi, ommalashtirilganligi;

- kengaytirilgan va chuqurlashtirilgan ta‘lim dasturlarining yaratilganligi;

- tashkiliy yangiliklarning mavjudligi va ta‘lim jarayonida qo‘llanilganligi;

- pedagogik monitoring yangi shakllarining o‘zlashtirilganligi;

- o‘quvchilarni rivojlantiruvchi, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari va axborot texnologiyalarining ta‘lim jarayoniga tatbiq etilganligi;

- yakunlangan pedagogik tajriba-sinov natijalarining mavjudligi kabilar.

Ta‘lim sifatining namoyon bo‘lishida o‘qituvchilarning shaxsiy yutuqlari muhim o‘rin egallaydi. Ularning shaxsiy yutuqlari quyidagilarda aks etadi:

- o‘quv dasturlarining o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirishdagi natijalari;

- ta‘lim jarayonini takomillashtirish sohasidagi yutuqlari;

- o‘qituvchilarning metodik, ilmiy, ixtirochilik ishlari;

- o‘qituvchilarning turli tanlovlarda ishtirok etish darajalari;

- shaxsiy-ta‘limiy quvvatlarini oshirishga yo‘naltirilgan faoliyatlari;

- mustaqil bilim olish va o‘zlarini takomillashtirish yo‘nalishidagi ishlari kabilar.

Ta‘lim sifatini ta‘minlashda asosiy o‘rin egallaydigan holatlardan yana biri o‘quv rejasining bajarilishidir. O‘quv rejasining bajarilganligini bir qator holatlar tasdiqlaydi:

- me‘yorlar va ularning bajarilishi;

- o‘quv rejasining alohida o‘ziga xos yo‘nalishlari ijrosi;

- ta‘lim sohalari;

- sinflarni ixtisoslashtirish va maxsus yo‘nalishlarni tashkil etish;

- o‘quv rejasidagi maktab komponentiga rioya qilish;

- o‘quvchilar bilan individual ishlash ko‘lami;

- o‘quvchilarning tanlovlariga asoslangan holda chuqurlashtirilgan ta‘lim bilan qamrab olish;

- o‘quvchilarning o‘quv yuklamalari ko‘lami kabilar.

Ta‘lim sifatini ta‘minlashda umumiy o‘rta ta‘lim muassasasi faoliyatining ijtimoiy samaradorligi ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Bu quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- o‘quv jarayoni subyektlarida mazkur jarayondan qoniqishning hosil bo‘lishi;
- o‘quv jarayonining tashkil etilishi, borishi, natijalari va sifatining namoyon bo‘lishi;
- o‘quv jarayoni subyektlarining o‘zaro hamkorligi;
- umumiy o‘rta ta‘lim muassasasining mavjud mavqeyi;
- umumiy o‘rta ta‘lim muassasasida amal qiladigan strategiyalar kabilar.

Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasi va mazkur darajadan o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi muassasalarining qoniqishi ham ta‘lim sifatini ifodalaydi. O‘qitish sifatini boshqarishning muhim mexanizmi unga o‘quv jarayonini yaxshilash orqali ta‘sir ko‘rsatishda namoyon bo‘ladi. Binobarin, ta‘lim sifati monitoringini davlat-jamiyat, ya‘ni “Oila – mahalla – ta‘lim muassasasi” hamkorligi asosida amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur monitoring maqsadga yo‘naltirilgan, maxsus tashkil etilgan, ta‘lim sifatida ro‘y beradigan asosiy o‘zgarishlarni uzluksiz kuzatadigan jarayondir. Uning asosiy maqsadi – o‘z vaqtida ta‘lim jarayonini boshqarishga oid to‘g‘ri qarorlar qabul qilish, unga tuzatishlar kiritish, bashorat va materiallarning tahlili hamda uni takomillashtirishga xizmat qiladigan sharoitlarni yaratishdan iborat.

Shu o‘rinda ta‘lim-tarbiya sifatini ta‘minlashda “Oila – mahalla – ta‘lim muassasasi” hamkorligi samaradorligini o‘rganish, umumlashtirish va chora-tadbirlar belgilash metodikasini tavsiya etamiz.

1-yo‘nalish: Ta‘lim tarbiya jarayoni ishtirokchilari (*maktab rahbariyati, o‘qituvchilar, o‘quvchilar, ota-onalar, mahalla vakillari*)ning ta‘lim-tarbiya jarayoni sifatini ta‘minlashdagi hamkorligini baholash.

| T.r | Ko‘rsatkich va savollar | Bu fikrga umuman qo‘shilmayman | Bu fikrga qisman qo‘shilaman | Bu fikrga ba‘zan amal qilinadi | Bu fikrga tez-tez amal qilinadi | Bu fikr kundalik hayotda doimo kuzatiladi |
|-----|--|--------------------------------|------------------------------|--------------------------------|---------------------------------|---|
| 1. | Maktab rahbariyati, o‘qituvchilar, o‘quvchilar o‘rtasida samimiylik va ishonch. | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 2. | O‘qituvchi – ota-onalar, mahalla vakillari o‘rtasida samimiylik va ishonch mavjud. | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 3. | “Oila – mahalla – ta‘lim-muassasasi” hamkorligi konsepsiyasi talablarining bajarilishi yuzasidan ta‘lim muassasasida muntazam muhokamalar tashkil etish. | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 4. | Maktab muammolari ochiq tarzda ota-onalar, o‘quvchilar, mahalla vakillari va o‘qituvchilar o‘rtasida muhokama qilish. | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 5. | Maktab rahbariyati, o‘qituvchilar, ota-onalar va mahalla vakillari hamjihatlikda maktab manfaatlarini birgalikda himoya qilish. | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |

| | | | | | | |
|-----|---|---|---|---|---|---|
| 6. | Ma'naviy va moddiy rag'batlantirish keng jamoatchilik ishtirokida muhokama yo'li bilan adolatli va ochiq yo'lga qo'yish. | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 7. | O'g'il va qiz bolalarning yosh psixologiyasini hisobga olgan holda ular bilan ishlash ota-onalar, mahalla vakillari va hamkorlar bilan tizimli tashkil etish. | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 8. | O'quvchilar tarbiyasida mahalla, jamoatchilik nufuzini oshirishga qaratilgan tadbirlarni muntazam o'tkazish. | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 9. | Maktabda o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalar uchun psixologik xizmatni yo'lga qo'yish. | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 10. | Maktabning psixologik muhiti yaxshi, hammani qoniqtiradi (<i>o'quvchilar, o'qituvchilar, ota-onalar va mahalla vakillari maktabga jon dillari bilan keladilar</i>). | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |

2-yo'nalish: “Oila – mahalla – ta'lim muassasasi” hamkorligi asosida o'quvchilarning iqtidorlarini aniqlash, rivojlantirish hamda kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining tizimli tashkil etilganligi.

| T.r | Ko'rsatkich va savollar | Bu fikrga umuman qo'shilmayman | Bu fikrga qisman qo'shilaman | Bu fikrga ba'zan amal qilinadi | Bu fikrga tez-tez amal qilinadi | Bu fikr maktabimiz kundalik hayotida doimo kuzatiladi |
|-----|---|--------------------------------|------------------------------|--------------------------------|---------------------------------|---|
| 1. | Maktab va mahalla hamkorligini ta'minlashga yo'naltirilgan ish reja mavjud va shu asosida chora-tadbirlarni amalga oshirish. | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 2. | Mahalla hududida istiqomat qilayotgan xalq ustalari, san'atkorlar, ziyolilar imkoniyatlaridan foydalanib, turli to'garaklar va kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil qilish. | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 3. | Mahalla vakillari tomonidan tarbiyasi og'ir o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan profilaktik chora-tadbirlar amalga oshiriladi, o'qishni xohlamaydigan, huquqbuzarlikka moyil o'quvchilarga ma'muriy tashkilotlar bilan hamkorlikda tegishli choralar ko'riladi. | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |

| | | | | | | |
|-----|---|---|---|---|---|---|
| 4. | Ta'lim muassasasida respublikamizdagi akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari ro'yxati va ular to'g'risida umumiy ma'lumotlar mavjud hamda kasb-hunar kollejlari vakillari ishtirokida muntazam uchrashuvlar tashkil etiladi, bunda bolalar o'zlari qiziqqan kasblari to'g'risida ma'lumot olish imkoniyatiga ega. | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 5. | Maktab va mahalla hamkorligi asosida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari uzluksiz tashkil etish. | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 6. | Ta'lim muassasalarida bolalar va o'smirlar o'rtasida sport musobaqalari, sport to'garaklari tashkil etilgan, sport sohasida muvaffaqiyatga erishayotgan yoshlar mahalla va jamoatchilik tomonidan moddiy-ma'naviy jihatdan rag'batlantirilib, ularning faoliyatini targ'ibot qilish. | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 7. | Mahalladagi kam ta'minlangan, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, boquvchisini yo'qotgan oilalar farzandlari o'quv qurollari va darsliklar bilan muntazam ta'minlanadi va bu yo'nalish doimo mahalla vakillarining nazoratida. | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 8. | Erishilgan ijodiy yutuqlar tizimli ravishda tahlil qilib boriladi (<i>o'quv-tarbiya jarayoni natijalari, o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar, jamoatchilik vakillari bilan birgalikda muhokama qilinadi</i>). | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 9. | Mahalla vakillari va hamkor tashkilotlar tomonidan o'quvchi-yoshlarning ta'lim-tarbiya olish jarayonida turli xil chalg'ituvchi vositalar (<i>qo'l telefonlari, video tasmalar, internet tarmog'idagi ma'lumotlar, kompyuterdagi o'yinlar</i>)ning zarari va ularning oqibatlarini oldini olish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish. | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 10. | Ta'lim tarbiya jarayonida o'quvchilar shaxsiga yo'naltirilgan, o'quvchilarning turli sohalar bo'yicha kasb-hunar egallashlari uchun ularning qiziqishlarini inobatga olish. | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 11. | O'qituvchilarni hamkasblari bilan, o'quvchilarni tengdoshlari bilan o'z yutuqlarini o'rtoqlashish tizimi yaratilgan. Homiylar tomonidan ularni rag'batlantirish. | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 12. | Ta'lim muassasalari va mahalla hamkorligida bitiruvchi sinf o'quvchilarining kasb-hunar ta'limi muassasalariga joylashtirilganligi ota-onalar va mahalla vakillari ishtirokida muntazam muhokama qilinadi. | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |

| | | | | | | | | | | | |
|--|----|---|---|----|----|----|----|----|----|----|----|
| Maktab, oila va mahalla hamkorligi asosida o'quvchilarning iqtidorlarini aniqlash, rivojlantirish hamda kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining tizimli tashkil etilganligi yo'nalishi | 60 | Oila, maktab va jamoatchilikning samarali hamkorligiga erishish uchun harakatlanayotgan maktab | Oila, maktab va jamoatchilikning samarali hamkorligi mavjud bo'lgan, rivojlanayotgan maktab | | | | | | | | |
| | 55 | | | | | | | | | | |
| | 50 | | | | | | | | | | |
| | 45 | | | | | | | | | | |
| | 40 | | | | | | | | | | |
| | 35 | Oila, maktab va jamoatchilikning samarali hamkorligini shakllantirishga shoshmayotgan maktab | | | | | | | | | |
| | 30 | | | | | | | | | | |
| | 25 | | | | | | | | | | |
| | 20 | | | | | | | | | | |
| | 15 | Oila, maktab va jamoatchilikning samarali hamkorligi mavjud bo'lmagan, orqaga ketayotgan maktab | Hamkorlikni tizimli tashkil etmagan, o'z holicha ketayotgan maktab | | | | | | | | |
| | 10 | | | | | | | | | | |
| | 5 | | | | | | | | | | |
| | 0 | 0 | 5 | 10 | 15 | 20 | 25 | 30 | 35 | 40 | 45 |

“Ta’lim tarbiya jarayoni ishtirokchilari (maktab rahbariyati, o’qituvchilar, o’quvchilar, ota-onalar, mahalla vakillari)ning o’qitish sifatini ta’minlashdagi hamkorligi” to’g’risidagi 10 ta va “Oila – mahalla – ta’lim muassasasi” hamkorligi asosida o’quvchilarning iqtidorlarini aniqlash, rivojlantirish hamda kasb-hunarga yo’naltirish ishlarining tizimli tashkil etilganligi”to’g’risidagi 12 ta savol bo’yicha to’plangan umumiy ballning kesishgan joyidan maktabning qanday ahvolda ekanligi kelib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *“Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash — mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi.* – T.: O’zbekiston, 2012. 179-b.
2. Qurbonov Sh.E., Saytxalilov E. *Ta’lim sifatini boshqarish.* – T.: Turon-iqbol, 2006. 512-555-b.
3. Кулакова Н.И. *Мониторинг как средство повышения качества образования в современной школе: диссертация ... кандидата педагогических наук: 13.00.01 / Кулакова Наталья Ивановна; [Место защиты: Юж.-Ур. гос. ун-т]. – Челябинск, 2008. – С. 188.*
4. *Incheon declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).*

Ixtiyor ASQAROV,
O‘MKHTTKMO va UQT instituti
katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

BO‘LAJAK KASB TA‘LIMI PEDAGOGLARINING TADQIQOTCHILIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING MOHIYATI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak kasb ta‘limi pedagoglarining tadqiqotchilik ko‘nikmalarining mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, malakali bo‘lajak kasb ta‘limi pedagogining qaror topishi kasbiy muhim sifatlarni shakllantirish va yuqori malakali bo‘lajak kasb ta‘limi pedagoglarini zamonaviy tayyorlashdagi talablar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Ko‘nikma, kompetensiya, komponent, qobiliyat, kasbiy ta‘lim, kasbiy sifatlar, tadqiqotchilik ko‘nikmasi, tadqiqotchilik faoliyati, kasbiy kompetensiyalar.

В статье раскрыта сущность развития исследовательских умений у будущих педагогов профессионального образования, изложены теоретические предпосылки, определяющие связь профессиональных и личностных качеств, пути их формирования на уровне требований к современным высококвалифицированным педагогическим кадрам профессионального образования.

Ключевые слова. Навыки, компетенция, компонент, способность, профессиональное образования, профессиональное качество, исследовательская деятельность, профессиональные компетенции.

Article reveals the essence of the development of research skills among future teachers of professional education, sets out the theoretical prerequisites that determine the relationship between professional and personal qualities, the ways of their formation at the level of the requirements for modern highly qualified pedagogical staff in vocational education.

Key words. Skills, competence, component, ability, professional education, professional quality, research activity, professional competence.

Tadqiqotchilik ko‘nikmalari mohiyatini ochib berishga nafaqat tuzilishi, balki namoyon bo‘lishi, bog‘liqligi va ularning bo‘lajak kasb ta‘limi pedagoglarining boshqa kasbiy sifatlari bilan aloqalarini aniqlashga imkon beruvchi asosiy nazariy qoidalar bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

– bo‘lajak kasb ta‘limi pedagoglarining tadqiqotchilik ko‘nikmalarini o‘ziga xos xususiyatlari tavsifi;

– tadqiqotchilik faoliyatini bo‘lajak kasb ta‘limi pedagoglarida shakllantirish asosi sifatida ko‘rib chiqish.

Buning uchun esa, eng avvalo, oliy ta‘lim muassasalarida tayyorlanayotgan bo‘lajak pedagoglarga xos quyidagi tushunchalarni aniqlashtirish zarur:

- kasbiy ta'lim;
- kasbiy kompetensiya;
- umumiy kompetensiya;
- tadqiqotchilik faoliyati;
- tadqiqotchilik ko'nikmalari.

Malakali bo'lajak kasb ta'limi pedagogining qaror topishi va kasbiy muhim sifatlarining shakllanishi kasbiy ta'lim berish jarayonida ro'y beradi. Kasbiy ta'lim – bu mahsuldor (unumli), intellektual va amaliy, shu jumladan, ishlab chiqarish faoliyati davomida tanlangan kasbiy faoliyatga maqsadga yo'naltirilgan holda tayyorgarlik bosqichidir.

Kasbiy ta'lim quyidagilarni nazarda tutadi:

1) ta'lim oluvchilarning ilmiy bilimlar va bilim olishga oid ko'nikmalar, malakalar tizimini o'zlashtirish jarayoni va natijasi asosida bo'lajak mutaxassislarining dunyoqarashi va boshqa sifatlarining shakllantirishi;

2) pedagog va ta'lim oluvchilarning maqsadga yo'naltirilgan o'zaro ta'sirlanish jarayoni;

3) ta'lim oluvchining yangi bilimlarini o'zlashtirish va uning usullarini egallash bo'yicha faol faoliyati.

Yuqori malakali bo'lajak kasb ta'limi pedagoglarini zamonaviy tayyorlashga talablar kompetensiyalarga tayanadi. Kasbiy ta'lim tizimining yaxlitligi uning obyektiv tavsifi bilan shartlanilgan bo'lib, maxsus fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchilar zarur nazariy tayyorgarlikga ega bo'ladi va bu tayyorgarlik ishlab chiqarish ta'limining borishida kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan parallel holda amalga oshiriladi. Natijada bo'lajak kasb ta'limi pedagoglarini kasbiy faoliyatga majmuaviy tayyorlash amalga oshirilib, umumiy va kasbiy kompetensiyalar shakllanadi.

Kompetensiyalarni shaxsning ma'lum sohada muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatga tayyorgarligini belgilab beruvchi bilim, ko'nikma, shaxsiy sifatlar va amaliy tajriba tizimi sifatida tushuniladi.

Umumiy kompetensiyalarga quyidagilar kiradi:

– ta'lim oluvchilarning ichki tuyg'usi uyg'onishi asosida faoliyatni amalga oshirishga tayyor turishi tarzidagi motivatsiyaning mavjudligi;

– pedagog tomonidan qo'yilgan maqsadni hisobga olgan holda faoliyat vazifalarini aniqlash qobiliyati;

– aniq masalalarni ifodalash va ular asosida o'z faoliyatini rejalashtirish qobiliyati;

– o'zining individual qobiliyati doirasida harakatlar natijasiga ma'suliyatni zimmasiga olishga tayyorligi;

– texnologik jarayonda ko'zda tutilgan amallarni mustaqil bajarish qobiliyati;

– ishbilarmonlik muloqotining borishida ishni bajarishning eng samarali yo'llarga oid qarorlarni jamoa bo'lib qabul qilishda ishtirok etish, etika me'yorlarga amal qilgan holda o'z fikrini ishonchli, isbot bilan taqdim etish va himoya qilishga tayyorligi;

– axborotni tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lish, undan asosiy fikrni ajrata olish, tuzilmalarini boshqalar uchun qulay ko'rinishda taqdim etish, taqdimot o'tkazish ko'nikmasi;

– axborot manbalarini aniqlash va mustaqil qidirish asosida amaliy masalalarni hal etish;

– shaxsiy kasbiy qiyinchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish vositalarni aniqlash qobiliyati;

– standart vaziyatlarda faoliyatni amalga oshirishning eng maqbul usullari va vositalarini tanlay olish;

– turli xil omillarning ta'sirini hisobga olgan oddiy vaziyatda va uning oldindan

ma'lum bo'lgan holda o'zgarishida jarayon va natijalar bo'yicha o'z harakatlarini nazorat qilish, baholash va tuzatish qobiliyati;

– aniq bir faoliyatda kasbiy masalalarni hal etish uchun amaliy va nazariy kasbiy bilimlardan foydalanishga, bilim va ko'nikmalarini, o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy masalalarni hal etish vositasi sifatida egallashga tayyorligi;

– o'zlashtirilayotgan kasbi bo'yicha bevosita majburiyatlari doirasidan cheklangan ishlab chiqarish amaliy masalalarini hal eta olish.

Qayd etilgan umumiy kompetensiyalarni tahlil qilish bo'yicha tadqiqotchilik ko'nikmalari zamonaviy mutaxassisning umumiy kompetensiyalarining asosi ekanligi to'g'risida gapirishga imkon beradi.

Kasbiy tayyorgarlikka umumiy kompetensiyalar ko'rinishida qo'yiladigan zamonaviy talablar aniq bilimlar va ko'nikmalar tizimida ifodalanadi.

Kasbiy kompetensiyalar – bu kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur kompetensiyalardir. “Kasb ta’limi” (Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi) talabalarining kasbiy faoliyatini va mazkur yo'nalish bo'yicha o'quv jarayonini tahlil qilish natijasi komponentlarining asosiy kasbiy kompetensiyalari bilan o'zaro aloqasi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq kasbiy faoliyat turlari bilan o'qitishning nazariy asoslari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri o'zaro aloqa va o'zaro bog'liqlik mavjud.

1-jadval

“Kasb ta’limi” (Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi) yo'nalishi bo'yicha bo'lajak mutaxassislar faoliyati turlari va uning nazariy asoslari

| Kasbiy faoliyat turi | Kasbiy faoliyatning nazariy asoslari |
|--|--|
| Avtotransport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini bajarish | Materialshunoslik va chilangarlik ishi. Avtomobil tuzilishi. Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi |
| Avtomobil vositalaridan foydalanish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni yuritish | Avtotransport vositalaridan foydalanishni tashkil etish |
| Avtotransport vositalarini boshqarish | Yo'l harakati qoidalari. Transport vositalarini boshqarish asoslari va harakatlanish xavfsizligi |
| Mehnat xavfsizligiga rioya qilish, ishlab chiqarish sanitariyasi va gigiyenalari, atrof muhitni himoyalash hamda yong'in bilan bog'liq talablarga rioya qilish | Mehnat muhofazasi xavfsizligi |

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, bo'lajak kasb ta'limi pedagogi kasbiy faoliyatining turlari va nazariy asosining o'zaro aloqasi va bog'liqligi yetarlicha tavsiflanmagan. Kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish jarayonini tashkil etish uchun ko'nikma tushunchasini batafsilroq ko'rib chiqish kerak. Aynan ko'nikma nazariy bilimlarning tabiqi shakli bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birgalikda aynan ko'nikma o'qitishning hayot bilan aloqasini amalga oshirishga imkon beradi. O'z mohiyatiga ko'ra ko'nikma – bu bilim va ko'nikmalarning real harakatlarida zichlashuvdir.

“Tadqiqotchilik ko'nikma”si tushunchasi talqini bo'yicha quyidagi bir necha qarashlar mavjud:

1. Ko'nikma – bilimdan masalaga o'tish bosqichi.
2. Faoliyat komponenti bo'lib hisoblanuvchi harakat.
3. Bilim va malakaga asoslangan qobiliyat.

Quyi darajada ko'nikma bu past darajada avtomatlashtirilgan ko'nikma sifatidagi malaka, rivojlanishning ancha yuqori darajasida – bu ko'nikma mahorat bo'lib, umuman avtomatlashtirilmaydi. Umumlashtirilgan ko'nikma uchun malakalar birlamchidir. Faqat ularga erishgandan keyingina murakkab ko'nikmalardan to'la foydalanish mumkin bo'ladi.

Tadqiqotchilik faoliyati jarayonida shakllanadigan ko'nikmalar tadqiqotchilik ko'nikmalari bo'lib hisoblanadi. Ularning tavsiflarini tahlil qilish uchun bu tushunchani o'rganish bilan shug'ullangan mualliflarning ta'riflariga qarab chiqish zarur.

Tadqiqotchilik ko'nikmalari – bu ilmiy izlanishni rejalashtirish va amalga oshirishni o'ylab qo'yilgan fikrning tadqiqot mantig'i va dasturini ishlab chiqish, ilmiy metodlarini tanlab olish va ularni qo'llay olish, tajriba sinov ishini tashkil etish va amalga oshirish, olingan natijalarga ilmiy matn ko'rinishida ishlov berish, tahlil qilish va rasmiylashtirish, xossalarni ifodalash va ularni mazkur ilmiy sohadagi yetakchi olimlar va mutaxassislar hamjamiyati oldida himoya qilish ko'nikmasidir.¹

Tadqiqotchilik ko'nikmalari – bu tafakkurning qat'iy nazorati ostida mavjud bilimlar va malakalardan ongli foydalanish asosida tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirishga tayyor turish va o'zini hamda olamni anglash qurolidir.²

Tadqiqotchilik ko'nikmalari – bu izlangan va izlanish – tajriba faoliyat sharoitida amalga oshiriluvchi juda murakkab umum o'quv va majmuaviy didaktik ko'nikmalardir.³

Turli xil talqinlarni tahlil qilish va umumlashtirish tadqiqotchilik ko'nikmalari tarkibiga kiruvchi quyidagi asosiy tashkil etuvchilarni ajratib olishga imkon berdi:

- kuzatishlarni amalga oshirish;
- tajribalar o'tkazish;
- eksperiment qo'yish;
- yangi qurilma va asboblarning ishlashini anglab yetish;
- ilmiy adabiyotlar bilan ishlash;
- tadqiqotchining o'z mehnatini tashkil etish;
- tadqiqot natijalariga ishlov berish va umumlashtirish.

Tadqiqotchilik ko'nikmalarini qarab chiqish harakatlarni amaliy jihatdan amalga oshiruvchi va ichki mantiqqa ega bo'lgan quyidagi bir qator komponentlar: motivatsion muomala, tashkiliy jarayonli kommunikativ texnik va natijaviy komponentlardan iborat bo'lishini ko'rsatadi.

1. Motivatsion komponent: bilim va ko'nikmalarni egallashning samaradorligini o'quv-ishlab chiqarish kasbiy masalalarini yechish mobaynida reproduktiv tarzda emas (kimningdir orqasidan takrorlab yoki oddiygina eshitib), balki mustaqil ravishda aniqlay olish, faoliyatning mazkur turiga ichki sabablarni topa olish, kasbiy darajani mustaqil ta'lim olishga tayyorlik darajasiga bog'liqligini tushuna olish ko'nikmalaridir.

¹ Бордовская Н.В. Современные образовательные технологии: учебное пособие для студентов, аспирантов, докторантов, магистрантов школьных педагогов и вузовских преподавателей [Н.В.Бордовскаяидр.]; подред. Н.В.Бордовской, – М.: Кно Рус, 2010. – С. 431.

² Юлпатова Е.А. Формирование исследовательских умений старшеклассников в системе профильного обучения. ... дис. канд. пед. наук. – Волгоград 2007. – С.137.

³ Орлова Т.В. Перспективное планирование развития школы. – М.: Сентябрь, 2000. – С. 143.

2. Mazmunli komponent: standart ishlab chiqarish vaziyatni namunaviy bo'lmagan vaziyatdan farqlay olish, o'zining ishlab chiqarish harakatlarini tahlil qilish, ularning betakrorligini va noyobligini aniqlash, harakat natijasini uni bajarish texnologiyasiga bog'liqligini aniqlay olish, kasbiy faoliyatda foydalaniladigan turli xil kategoriyalar o'rtasidagi sababli oqibat aloqalarini o'rganish ko'nikmalari.

3. Tashkiliy komponent: ishlab chiqarish ishlarini bajarishda o'zining ish vaqtini mustaqil taqsimlay olish, muammoni hal qilish jarayonini bosqichlarga ajrata olish ko'nikmasi; oldindan belgilagan reja bo'yicha bosqichma-bosqich harakatlanish ko'nikmasi; mehnat topshiriqlarini bajarish uchun o'ziga sharoitni mustaqil yaratish ko'nikmasi.

4. Protsessual komponent: turli xil ishlab chiqarish vaziyatlarini tahlil qilish ko'nikmasi; aniqlangan qiyinchiliklar asosida muammoni ifodalay olish, mazkur muammoni hal qilishga oid taklif etilgan variantlardan eng optimalini tanlay olish, zarur bo'lganda mazkur muammoni hal qilish usullarini mustaqil ishlab chiqish, taklif etilgan sharoitlarda ishlab chiqarish masalasi yechimini amaliy tarzda ishlata olish, o'zining kasbiy qiyinchiliklarini va ularni yengib o'tish vositalarini aniqlay olish, standart sharoitlarda faoliyatni amalga oshirishning eng optimal vositalarini va usullarini tanlay olish, turli xil ishlab chiqarish vaziyatlarida, jumladan, namunaviy bo'lgan vaziyatlarda ham o'z harakatlarini amalga oshira olish, faoliyatning aniq bir sharoitlarida kasbiy masalalarni hal qilish uchun amaliy va nazariy bilimlardan foydalana olish, bilim va ko'nikmalarni, o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy masalalarni hal qilish vositasi sifatida egallay olish ko'nikmalari.

5. Kommunikativ komponent: o'z fikrlarini verbal tarzda umum qabul qilgan shaklda ifodalay olish, umumiy muammo bo'yicha asosli tarzda munozara qilish, umumiy natijaga tezroq erishish uchun vazifalarni taqsimlash maqsadida o'zining va hamkasblarining imkoniyatlarini asosli baholay olish, umumiy ishni bajarishda hamkasblari xatoga yo'l qo'ygan holatlarda ularni tuzatish, o'z faoliyati va hamkasblari faoliyati natijalariga kerakli va muhim baho bera olish ko'nikmasi; ishni bajarishning eng samarali usullarni aniqlash bo'yicha qarorlarni jamoa bo'lib qabul qilishda ishtirok etish.

6. Texnik komponent: axborotni tahlil qila olish, undan asosiy g'oyani ajrata olish, tizimlashtirish, qulay ko'rinishda taqdim eta olish, axborot manbalarini mustaqil izlash asosida amaliy masalalarni yecha olish ko'nikmasi; o'zining kasbiy faoliyatida foydalanadigan qurilmalarning (chizmalar, sxemalar, turli ko'rinishdagi yo'riqnomalar) tavsifini o'qiy olish, katta hajmdagi axborotning asosiysini ajrata olish, texnologik operatsiyalarning bajarilishini qisqa va mufassal tavsiflay olish, turli shaklda mavjud bo'lgan texnik-texnologik tavsiflar asosida amaliy harakatlarni bajarish ko'nikmalari.

7. Natijaviy komponent: o'zini ancha tajribali xodimlar bilan almashtira olish, aniq ishlab chiqarish masalasini hal qilish uchun o'z imkoniyatlari darajasini aniqlashi, o'quv ishlab chiqarish masalalarini mustaqil yechishning o'z kasbiga ta'sir ko'rsatish darajasini baholay olish ko'nikmalaridan iborat.

N.A.Demchenkovaning bu ishiga tayangan holda bo'lajak kasb ta'limi pedagoglarining tadqiqotchilik ko'nikmalari bloklari ishlab chiqildi:

1-blok – tadqiqotchilik faoliyatining anglanganligi haqida, tadqiqotchilik yo'nalishidagi eng oddiy masalani mustaqil yechish uchun zarur bilimlar minimumiga ega bo'lish to'g'risida gapirishga imkon beruvchi umumiy xususiyatga egaligi;

2-blok – tadqiqotchilik topshiriqlarini hal qilishning turli xil variantlarini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan ancha yuqori darajadagi bilimlar;

3-blok – real vaqt rejimida bo'lajak kasb ta'limi pedagogiga masalani hal qilish uchun zarur bo'lgan usullarni taqdim etish.

Ko'nikmaning murakkabligi uning darajasiga bog'liq holda ko'nikmalar bloklarini ajratish oliy ta'lim muassasalarining kasbiy ta'lim yo'nalishi sharoitida mazkur ko'nikmalarni shakllantirish jarayonini yanada adekvat ravishda qurishga imkon beradi.

“Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi” yo'nalishi talabalariga qo'yilgan talablar va bo'lajak kasb ta'limi pedagoglarining tadqiqotchilik ko'nikmalari tahlili, umumiy kompetensiyasini tashkil etuvchi ko'nikmalarning ma'lum qismini tadqiqotchilik ko'nikmalari deb atash mumkin.

Ma'lumoti turli xil darajada bo'lgan ta'lim oluvchilarning (oliy, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, umumiy o'rta) tadqiqotchilik ko'nikmalarining mazmunini tahlil qilish bu muammoni ko'rish va uni hal etish usullarini topish qobiliyatiga, o'quv bilim faoliyati usullarini samarali qo'llashga va ularni ishlab chiqarish va o'quv mehnatining borishida turli xil sohalarga ko'chirishga asoslangan amaliy va aqliy harakatlar tizimini ongli o'zlashtirish ekanini aniqlashga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqotchilik ko'nikmalari murakkab ichki tashkil etuvchilar sifatida uning tarkibiga kiruvchi oddiy ko'nikmalar majmuidan sifat jihatdan farq qiladi.

Tadqiqotchilik ko'nikmalari mazmun va mohiyatini ochib berish, tadqiqotchilik ko'nikmalari tarkibiga kiruvchi bir qator komponentlarni ajratish bo'lajak kasb ta'limi pedagoglarida tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni mazmuni va uni tashkil etish metodikasini aniqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlari.* – T., 2001 y.
2. *Макет Федерального государственного образовательного стандарта Начального профессионального образования нового поколения по Профессии автомеханик, Московский государственный агроинженерный университет. Горячкина,* – М.: 2007 – С. 31.
3. *Маркова А.К. Психология профессионализма.* – М., 1996. – С. 222.
4. *Бабанский Ю.К. Интенсификация процесса обучения // Избранные Педагогические труды / Сост. М.Ю. Бабанский.* – М.: Педагогика, 1999. – С. 379-416.
5. *Милерян Е.А. Психология формирования общетрудовых политехнических умений. Автореф. дисс. докт. психол.н.* – Л., 1993. – С. 118.
6. *Бордовская Н.В. Современные образовательные технологии: учебное пособие для студентов, аспирантов, докторантов, магистрантов, школьных педагогов и вузовских преподавателей. подред. Н.В. Бордовской,* – М.: Кно Рус, 2010. – С. 431.
7. *Юлпатова Е.А. Формирование исследовательских умений старшеклассников в системе профильного обучения. ... дис. канд. пед. наук.* – Волгоград., 2007. – С. 137.
8. *Орлова Т.В. Перспективное планирование развития школы.* – М., 2000. – С. 143.

Safibullo ABDULLAYEV,
Namangan viloyati XTXQTMOI rektori

MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH MUASSASALARINI MALAKALI MUTAXASSISLAR BILAN TA'MINLASHNING TASHKILIIY-USLUBIIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish hamda tashkiliy uslubiy, vazifalar bayon etilgan. Shuningdek, muallif mazkur vazifalarni bajarishda malakali mutaxassislar oldiga qo'yilgan bir necha talablar xususida fikr bildirib o'tgan.

Kalit so'zlar. Malaka oshirish, mutaxassis, pedagogik jarayon, innovatsion usul, rahbar, pedagog xodim, zamonaviy usul.

В данной статье рассматриваются факторы обеспечения эффективности системы повышения квалификации работников народного образования. Определены требования и задачи, стоящие перед специалистами системы переподготовки и повышения квалификации педагогических работников.

Ключевые слова. Повышение квалификации, специалист, педагогический процесс, инновационный метод, руководитель, педагог сотрудник, современный метод.

This article examines the factors ensuring the effectiveness of the system of professional development of public education personnel. Also determined the requirements and tasks facing the specialists of the system of retraining and advanced training of pedagogical personnel.

Key words. Advanced training, specialist, pedagogical process, innovative method, leader, teacher, employee, modern method.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar bilan bir qatorda ta'limni modernizatsiya qilish yo'nalishida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantiradi. Ta'lim muassasalari rahbarlari va pedagog xodimlarning asosiy vazifasi o'quvchi-talabalarning fan asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini ta'minlaydi. O'quvchilarda bilim o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni, kasb tanlashni shakllantirish kabi yo'nalishlarni belgilab berdi.

Bugungi kunda ta'lim tiziminining modernizatsiya qilinishi uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiyaning, iqtisodiyot va madaniyatning

jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim dasturlarini o'zgartirib, yangilab borishni ko'zda tutadi.

Ilg'or texnologiyalarni keng o'zlashtirilishi, iqtisodiyotdagi ijobiy o'zgarishlar, chet el investitsiyalari ko'lamining kengayishi tadbirkorlik, kichik va xususiy biznes rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Uzluksiz ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi, o'quvchi-talabalarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etilishi, shuningdek, ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarining yaratilishi pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirishga asos bo'lmoqda.

Bu, o'z navbatida, ta'lim, fan, texnika va texnologiyalarning jahon miqyosidagi yutuqlarini, ilmiy asoslangan innovatsiyalarni tatbiq etgan holda pedagogik jarayonlar ergonomik asosda tashkil etilmoqda. Pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta'minlash yo'nalishidagi mavjud noan'anaviy muammolarni ijobiy hal etish borasida turli yangi vazifalarni ishlab chiqmoqda.

Ta'lim muassasalari rahbarlari va pedagog xodimlar pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning innovatsion usullarini bilishi va ularga asoslanib ish olib borishlari lozim. Shuningdek, ilg'or pedagogik tajribalarni va fan-texnika yutuqlarini muntazam o'rganib, o'z faoliyatiga tatbiq etishi, pedagogik jarayonlar subyektlarining innovatsion faoliyatini tashkil etish va boshqarishning zamonaviy usullarini o'zlashtirgan bo'lishi zarur hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-avgustdagi 234-sonli, Xalq ta'limi vazirligining 2015-yil 31-oktabrdagi 7-son Hay'at yig'ilishi qarorlariga asosan ta'lim tizimini takomillashtirish va rivojlanishini ta'minlashda malaka oshirish ta'lim muassasalarini malakali mutaxassislar bilan ta'minlashning tashkiliy-uslubiy asoslarini va rahbarlar tomonidan boshqaruv faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish ko'zda tutilgan. Zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini qo'llash, ta'lim muassasasi faoliyati samaradorligini oshirishda innovatsion metodlar va usullardan foydalanishni bilishlari talab etilishi ko'rsatib o'tilgan. Ushbu meyoriy hujjatlar malaka oshirish ta'lim muassasasining kafedra mudiri ta'lim muassasasida vujudga keladigan muammoli vaziyatlarda rahbarlarga xos ravishda, o'z vakolati doirasida faoliyat ko'rsatishi lozim. Jamoada mavjud bo'lgan sun'iy to'siq va muammolarni hal etishda, qaror qabul qilishda jamoa fikrini o'rganishi zarur.

Boshqaruvda bevosita o'zaro ta'sir jarayonining mavjudligi va unda “rahbar-xodim” munosabatlarining ko'p qirrali ekanligini e'tiborga olish, ta'lim muassasasida innovatsion ta'limiy muhitni vujudga keltirish, o'zini o'zi rivojlantirish, refleksiv yondashuvlarga asoslangan hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish kabi qator talablarni qo'yimoqda.

Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, malaka oshirish ta'lim muassasalari amaliyotida kafedra mudirlarining, bo'lim boshliqlarining va boshqaruv tizimida ishtirok etuvchi rahbarlarning ko'pchiligida boshqaruv yo'nalishlari bo'yicha zaruriy bilim, kasbiy faoliyat tajribalari, pedagogik mahorat, ko'nikma va malakalar yetarli darajada emasligi ta'lim jarayonini boshqarishda muammolarni vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Mazkur muammolarning ijobiy yechimini topishda, malaka oshirish ta'lim muassasalari boshqaruv tizimi ishtirokchilari faoliyatining metodologiyasi hamda ahamiyatini asoslashda quyidagi dolzarb masalalar hal etilishi zarur:

– Respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy sohalarida qisqa vaqt ichida amalga oshirilayotgan hamda hayotimizda juda katta ahamiyat kasb etayotgan islohotlar bilan malaka oshirish ta'limi jarayonidagi inersion tendensiyalar o'rtasidagi ziddiyatlar;

– kafedra mudirlarining, bo'lim boshliqlarining va boshqaruv tizimida ishtirok etuvchi rahbarlarning shaxsiy xislatlari va kasbiy qobiliyatlarini shakllantirish darajasi bilan malaka oshirish ta'lim muassasalariga qo'yilayotgan zamonaviy talablar o'rtasidagi ziddiyatlar;

– malaka oshirish ta'limi tizimida vujudga kelayotgan tashabbus hamda yaratilayotgan, qo'llanilayotgan yangiliklarni joriy etish sur'ati bilan ilmiy-metodik ta'minot va boshqaruv faoliyati o'rtasidagi nomuvofiqlik;

– kafedra mudiri boshqaruv faoliyatining integrativ tabiatiga mos yondashuvlar va ularni shakllantirish texnologiyalarining mavjud emasligi.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, ta'lim tizimini takomillashtirish yo'nalishida amaliyotga tatbiq etilayotgan yangiliklar malaka oshirish va qayta tayyorlash institutlarini malakali mutaxassislar bilan ta'minlashning tashkiliy-uslubiy asoslarini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Bular o'z navbatida, ta'lim muassasasi rahbarlari va pedagog xodimlar pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishi lozim. Pedagogik jarayonlar samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlashi, mazkur jarayon ishtirokchilari faoliyatini takomillashtirish yo'nalishlaridagi qarorlarni qabul qilishda mavjud vaziyatlarni, subyektlarning moyilligi, ehtiyoji va qiziqishini o'rganishi, ta'lim muassasasida tarbiyaviy munosabatlar jarayonining pedagogik jarayon sifatida hamda tarbiyaviy munosabatlar ko'p qirrali ekanligi va mazkur jarayonda bevosita e'tiborga olishi zarurligini taqozo etadi.

Malaka oshirish ta'lim muassasasida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda alohida e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan omillardan biri – pedagogik jarayonlarda tinglovchilar faolligini ta'minlash, tinglovchilarning o'zini o'zi tarbiyalash ko'nikmalarini shakllantirish, ularning mustaqil ta'lim olishlari uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, refleksiv ta'limiy muhitni hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'sir jarayonini tashkil etishdan iborat.

Pedagogik jarayonni tinglovchilarning mustaqil olgan tushunchasi asosida tashkil etish va mazkur jarayonda uni ijodiy fikrlashga o'rgatish asosida faolligini ta'minlash hamda refleksiv qobiliyatlarini shakllantirishi lozim. Pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlashda tinglovchining mustaqil ishlashi va mustaqil o'rganishi uchun alohida topshiriq berish va unda uning boshlang'ich tushuncha darajasining moyilligini o'rganish, tahlil qilish va obyektiv baholash zarur. Berilayotgan topshiriqlarni bajarishda tinglovchining qiziqishini shakllantirish, yo'nalishlarda obyektiv axborotlar to'plab hamda ularga asoslanib pedagogik jarayonlarni tashkil etish kerak.

Ta'lim tizimini rivojlantirish yo'nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar barcha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va boshqarishda fan-texnika yutuqlariga asoslangan boshqaruvning eng samarali, innovatsion metodlaridan foydalanishni, boshqaruv yo'nalishida bilim, ko'nikma va malakalarni, professor-o'qituvchilardan yangi shaxsiy va kasbiy sifatlarni talab qiladi.

Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlarda professor-o'qituvchilar dars jarayoniga rahbarlik qilishar ekan, bu jarayonlarning samaradorligini ta'minlashning tashkiliy-uslubiy asoslarini, rahbarlik faoliyatining o'ziga xos murakkab tomonlarini bilishlari zarur. Pedagog xodimlarning nafaqat magistr akademik darajasiga, balki yetarli kasbiy tayyorgarlikka, boshqaruv yo'nalishida, malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalari ta'lim jarayonini ta'minlashning tashkiliy-uslubiy asoslari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga, ma'lum tajribaga ham ega bo'lishni talab etadi.

Malaka oshirish ta'lim muassasalarini boshqarishda rahbarlarning eng asosiy va muhim ahamiyat kasb etuvchi funksiyalaridan biri – bu qaror qabul qilish funksiyasi bo'lib, bunda nazorat qilish va bajarilishini ta'minlash sifati pedagogik jarayonlarning samaradorligi, pedagog xodimlar va tinglovchilar faolligi bilan bir qatorda, ta'lim muassasasi faoliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Boshqarish funksiyalari bir qancha vazifalarning bajarilishini, ya'ni pedagogik jarayon subyektlariga zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, ularning faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholashni o'z ichiga oladi. Mazkur jarayonni amalga oshirish uchun moddiy-texnika bazani yaratish va mustahkamlab borish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari bilan qurollantirish, yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash bilan bir qatorda quyidagi vazifalarni ham amalga oshirishni nazarda tutadi:

- rahbarlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlarining tajribasini o'rganish;

- rahbar xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish yo'nalishidagi mavjud o'quv-me'yoriy hujjatlarni tahlil qilish;

- zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarda rahbar xodimlarning boshqaruv faoliyatida hamda ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish yo'nalishidagi mavjud kamchiliklar aniqlanib, to'plangan ma'lumotlar umumlashtirilib bajarilishi zarur bo'lgan vazifalar belgilab olinadi.

Kafedra mudirlari, bo'lim boshliqlari va malaka oshirish ta'lim muassasasi boshqaruv tizimida ishtirok etuvchi rahbarlar faoliyatining metodologik asoslari, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarda kafedrani boshqarish muammolariga konseptual yondashuvlar o'rganilib, kafedrani boshqarish funksiyasi va metodlari aniqlanadi. Bunda:

- boshqaruv faoliyatining modeli ishlab chiqiladi;

- shaxsi strukturasi va uning komponentlariga mos ravishda baholash mezonlarining belgilanishi;

- kafedra mudirlarining malakasini oshirishga qo'yilgan davlat talablari o'rganilishi, qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonining mazmuni tahlil qilinishi;

- rahbar xodimlarni malakasini oshirishga belgilangan davlat talablariga mos ravishda ta'lim boshqaruvi (menejment)dan o'quv dasturi va mazkur o'quv dasturi asosida ma'ruza matnlari, o'quv-metodik qo'llanmalar, tavsiyalar tayyorlanishi;

- tayyorlangan o'quv dasturiga ta'lim muassasasi rahbarlari, tinglovchilar va malaka oshirish ta'lim muassasasi o'qituvchilarining munosabatlarini o'rganish;

– tayyorlangan o‘quv dasturiga mos ravishda malaka oshirish jarayoniga blok-modulli yondashuv texnologiyasini ishlab chiqish hamda ta’lim jarayoniga tatbiq etish kabi vazifalar shular jumlasidan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga va uning samaradorligini ta’minlashga mas’ul shaxs hisoblangan rahbarlar va pedagog xodimlar nafaqat pedagogik tajribaga, balki boshqaruv funksiyalari va ularning vazifalari, boshqaruv metodlari va ulardan foydalanish, boshqaruv algoritmi va uning mohiyati, boshqaruv qarorlari va ularni qabul qilish yo‘llari hamda rahbarlik uslublari va ularni qo‘llash kabi qator yo‘nalishlar bo‘yicha yetarli tushunchalarga ega bo‘lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Abdullayev S.X., Turg‘unov S.T. Ta’lim muassasalari rahbarlari boshqaruv faoliyati samaradorligining nazariy asoslari. “Kasb-hunar ta’limi” jurnali. – T., 2006. № 1.*

2. *Djurayev R.X., Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti. O‘quv qo‘llanma. – T.: Voris, 2006.*

3. *Turg‘unov S.T., Abdullayev S.X. Ta’lim muassasalarida boshqaruv faoliyatini loyihalashtirish. “Xalq ta’limi” jurnali, – T., 2008. № 6.*

Tahririyat: Bugungi kunda ta’lim tizimining modernizatsiya qilinishi, o‘z navbatida, ta’lim muassasalari rahbarlari va pedagog xodimlar zimmasiga katta mas’uliyat yuklamoqda. Albatta, ta’lim muassasalari rahbarlari ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘z faoliyatiga tatbiq etayotganligi quvonarli.

Ammo ular boshqarishning zamonaviy usullaridan yetarlicha foydalana olmayotganligi achinarlidir. Shu bois mazkur muammolarning ijobiy yechimini topishda muallif bergan tavsiyalardan amaliyotda foydalanilsa, o‘z samarasini beradi.

A'lamjon IBRAGIMOV,

T.N.Qori Niyoziy nomli O'zPFITI katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

XALQ TA'LIMI TIZIMI XODIMLARI MALAKASINI OSHIRISHNING O'QUV REJA VA DASTURLARINI TUZISH HAMDA JORIY QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada ta'lim mazmunini belgilashda ustuvor tarkibiy qism sifatida o'quv rejasi va o'quv dasturlarining ahamiyati va vazifalari yoritilgan. Muallifning xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirishning o'quv rejasi va dasturlarini tuzishda uning ishtirokchilari va o'quv jarayonini tashkil qilishning alohida xususiyatlarini inobatga olish, zarur shart-sharoitlar yaratish va tegishli ta'lim subyektlarining majburiyatlari borasidagi taklif va mulohazalari berilgan.

Kalit so'zlar. Davlat talablari, o'quv rejasi, invariant va variativ, o'quv dasturi, o'quv dasturlari turlari, tayanch ta'lim muassasalari, ta'lim subyektlari, o'quv rejasini shakllantirish modeli.

В статье освещены задачи и значение учебных планов и программ как приоритетная составная часть в определении содержания образования. Изложены предложения и мнения автора об обязанностях соответствующих субъектов образования и создании благоприятных условий, учитывающих особенности организации учебного процесса и составления учебных планов и программ повышения квалификации работников народного образования.

Ключевые слова. Государственные требования, учебный план, инвариантность и вариативность, учебная программа, виды учебных программ, базовое образовательное учреждение, обязанности субъектов образования, модель формирования учебного плана.

Article highlights the tasks and importance of curricula and programs as priority components that determine the content of education. Suggestions and opinions of the author on the duties of the relevant subjects of education and the creation of favorable conditions, taking into account the specifics of the organization of the educational process and the development of curricula and programs for improving the skills of workers in public education.

Key words. State requirements, curriculum, invariance and variability, curriculum, types of curricula, basic educational institution, responsibilities of subjects of education, model of curriculum formation.

Jamiyatimiz va mamlakatimizning kelajagi uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta'limning yangi zamonaviy usullarini joriy etish sohasidagi ishlarni izchil amalga oshirishga qo'yilgan dolzarb vazifalardan biri – tajribali pedagog va mutaxassislarni jalb etgan holda o'quv reja va dasturlarni tubdan qayta ko'rib chiqish, hozirgi kun talablariga javob beradigan istiqbolli va samarali turlarini tatbiq qilishdan iborat.

Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish o'quv mazmuni tegishli me'yoriy hujjatlar, birinchi navbatda, "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda qo'yiladigan davlat talablari" bilan belgilanadi. Davlat talablari davlat va jamiyatning pedagog xodimlar kasbiy bilimlari va ko'nikmalarini yangilash va chuqurlashtirish, ularni raqobatbardosh holatda ushlab turishga qo'yadigan yuqori andoza sifatida "...o'quv rejalari va dasturlarini, shuningdek, qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'limi muassasalarining o'quv jarayonini, ta'lim sifatini nazorat qilish va baholash tartibini, ular faoliyatini attestatsiyadan o'tkazish tartib-qoidalarini tartibga soladigan boshqa hujjatlarni ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi".¹ Davlat talablari tizimga qo'yiladigan umumiy talablarni belgilasa, o'quv rejasi va dasturlari ta'lim muassasalarining xususiyatlarini inobatga olish, o'quv faoliyati tafsilotlarini mufassal bayon qilish, avvaldan rejalashtirish va boshqarish imkoniyatini yaratadi hamda malaka oshirishga qo'yilgan aniq talablardan kelib chiqadi.

O'quv rejasi me'yoriy hujjat hisoblanib, o'quv modullarining Davlat talablariga muvofiqligini aniqlaydi. Muayyan malaka oshirish toifasi bo'yicha o'quv jarayoni jadvali, o'quv faoliyati turlari, o'quv bloklari va modullarining nomlanishi, ularga ajratilgan soatlar va haftalarga taqsimlanishini o'zida mujassam etadi, shuningdek, "o'quv rejasi modeli o'quv dasturiy hujjatlarni DTS doirasidagi loyihalash bo'yicha umumiy strategiyani belgilaydi". O'quv rejasida o'quv modullarining uzviyligi ta'minlanishi va haftalarga oqilona taqsimlanishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

O'quv rejasi malaka oshirish ta'limi muassasasi o'quv jarayonini tashkil qilishning asosiy unsuri bo'lishi bilan birga muhim iqtisodiy hujjatdir. Chunki o'quv rejasi kafedralarga tegishli shtatlar va professor-o'qituvchilar o'quv yuklamalarini shakllantirish uchun ham asos bo'ladi.

O'quv rejasini tuzishda bir taraflama yoki ixtiyoriy holatda o'quv soatlarini haftalarga taqsimlashning o'zi yetarli bo'lmaydi va uning sifatini ta'minlamaydi. Shuning uchun o'quv rejalarini tuzishda faqatgina to'plangan tajribalarga tayanmasdan ularni jiddiy takomillashtirish va ilmiy asosda qurishga ehtiyoj seziladi, chunki o'quv rejasining sifati butun o'quv jarayonini boshqarishning samaradorligi ta'minlanishiga sharoit yaratadi. Bu, ayniqsa, pedagog xodimlar kasbiy kompetentligini oshirib borishga qo'yilayotgan talablarning ortib borishi va mavjud resurslardan samarali foydalanish zaruriyati sharoitlarida juda dolzarbdir.


Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda qo'yiladigan Davlat talablarining belgilanishi, malaka toifalarining 141 taga ajratilishi va ularning xususiyatlarini e'tiborga olgan holda 25 ta tayanch o'quv rejalarining ishlab chiqilishi malaka oshirish ta'limi mazmunini modernizatsiyalashda muhim qadam bo'ldi. Mazkur o'quv rejalari asosida malaka oshirish kurslarining o'quv-mavzu rejalari va dasturlari qayta ko'rib chiqilib, davlat talablari asosida yangilandi hamda o'quv jarayonini blok-modulli shaklda tashkil etish yo'lga qo'yildi. O'quv reja va o'quv dasturlarini davlat va jamiyatning pedagog xodimlar kasbiy kompetentligini uzluksiz oshirib borishga qo'yayotgan talablari, pedagog xodimlarning shaxsiy kasbiy ehtiyojlari asosida doimiy takomillashtirish, o'quv reja va o'quv dasturlarining variativ, individual va aniq manzilli bo'lishligini ta'minlashdan iborat. Amaliyotda foydalanilayotgan o'quv-metodik majmualarning sifati zamonaviy talablarga javob bermasligi, malaka oshirish tinglov-

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006, 6-7-son. 39-modda.

chilari uchun o'quv qo'llanmalarining deyarli yo'q darajada ekanligi ham o'zining tezkor yechimini kutayotgan muammolardan iborat.

O'quv rejasi ta'lim mazmunini shakllantirishda ta'limni boshqaruv organlari (davlat komponenti) hamda malaka oshirish ta'limi muassasasi (ta'lim muassasasi komponenti) vakolati va mas'uliyatini belgilovchi mexanizm sifatida ham namoyon bo'ladi (1-shakl).

1-shakl. Malaka oshirish o'quv rejasining tuzilishi



O'quv rejasining invariant qismi barcha toifadagi malaka oshirish kurslari uchun majburiy hisoblanadi, ya'ni davlat talablarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zida ifoda etadi. U pedagog xodimlarning umumiy tayyorgarligini, kasbiga qo'yilgan talablarga muvofiqligini va shaxsiy fazilatlariga oid kompetensiyalarini takomillashtirishga imkon yaratadi.

Variativ qismi esa, individual xarakterga ega bo'lib, malaka oshirishga ehtiyojni to'liqroq qamrab olish va tezkor qondirishga yo'naltirish uchun sharoit yaratadi. O'quv rejasining variativ qismi pedagog xodimga fanining mazmuniga doir bilim, ko'nikma, malakalarini chuqurlashtirish va kengaytirish hamda uning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat olib borishi yoki kasbiy ta'limini davom ettirish imkonini beradi.

O'quv rejasining tarkibiga quyidagi formal talablar qo'yiladi: o'quv jarayoni hajmining aniq belgilanishi; tayanch va variativ qismi, shuningdek, zaruriy bo'lim va modulning mavjudligi; o'quv dasturlarini o'zlashtirishning haftalarda ko'rsatilgan davriyligi; o'quv mashg'ulotlarining turlariga ko'ra, ya'ni, ma'ruza, amaliy, laboratoriya, seminar mashg'ulotlarining hajmi; mustaqil ta'limning hajmi.

Malaka oshirish ta'limining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda auditoriya mashg'ulotlarining asosiy qismi amaliy mashg'ulotlardan iborat bo'lishi va ma'ruzaning hajmi ko'pi bilan 30 foizgacha qilib belgilanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Formal talablar bilan birgalikda malaka oshirish ta'limi maqsadlariga erishishga nisbatan o'quv rejasida uning mazmunini to'ldiruvchi, zaruriy kompetensiyalarni, bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantiruvchi faoliyat turlari ham belgilanadi.

O'quv dasturi ta'lim muassasalari ta'limiy faoliyatining asosi bo'lib hisoblanadigan me'yoriy hujjatdir. O'quv dasturida har bir modul bo'yicha tinglovchilar tomonidan o'zlashtiriladigan asosiy bilim va zaruriy ko'nikmalar mazmuni, mavzularni o'rganish mantiqiy ketma-ketligi va mavzularni yoritishga ajratilgan vaqt hajmi nazarda tutiladi.

O'quv dasturlari ta'limning qaysi sohasi yoki bosqichiga taalluqli bo'lishidan qat'i nazar, quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- me'yoriy, ya'ni to'liq hajmda bajarilishi shart bo'lgan hujjat hisoblanishi;
- maqsadga mo'ljallanganlik, ta'limning muayyan sohasiga tegishli maqsadlarni ifodalashi;
- ta'lim mazmunini belgilash, tinglovchilar tomonidan o'zlashtiriladigan o'quv mazmunining minimal unsurlarini va murakkablik darajasini aniqlashi;
- protsessual, ya'ni o'qitish sharoiti va vositalarini, tashkiliy shakl va uslublarini hamda o'quv mazmunini o'zlashtirishning mantiqiy ketma-ketligini aniq belgilashi;
- baholash, ya'ni o'quv mazmuni unsurlarini o'zlashtirilganlik saviyasini, o'quvchilarning o'rgatilganlik darajasining baholash mezonlari va nazorat obyektlarini ko'rsatishi.

O'quv dasturlarini tuzishda "...o'quv dasturi ta'limning asosiy va xususiy maqsadlariga tayanilgan holda tuzilishi, o'quv yuklamasining DTSlari talablariga asoslangan hajmda ifodalanishi, taqdim etiladigan mavzular muayyan izchillikda konsentrizm va tadrijiylik tamoyiliga asoslangan holda taqdim etilishi" va quyidagi sifatlarga ega bo'lishiga e'tibor qaratish lozim:

- dolzarbligi (jiddiy va aniq muammolarni yechishga mo'ljallanganligi);
- istiqbolli (kelajakka yo'naltirilgan va o'zgarayotgan sharoitlar talablariga hamohangligi);
- ratsionalligi (yuqori foydali natija olishga qaratilgan maqsadlar aniqligi va erishish usullari ko'rsatilganligi);
- amaliyligi (vaqt me'yorlarining belgilanganligi, moliyaviy asoslarining aniqligi);
- nazorat qilinuvchanligi (belgilangan maqsadlarga erishishida olingan natijalarni tekshirish usullarining mavjudligi);
- xatolikka sezgirli (o'quv dasturining oldindan nazarda tutilgan holatlardan chetga og'ishini o'z vaqtida aniqlash xususiyati).

Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish o'quv dasturlarining mazmuni va pedagogik faoliyat jarayonini tashkil etilishi shakllariga ko'ra tasniflash mumkin (2-shakl).


Namunaviy o'quv dasturi – o'quv rejasida belgilangan modullar bo'yicha davlat talablari asosida ishlab chiqilgan va o'quv materiallarini o'zlashtirishga hamda o'qitish mazmuniga qo'yiladigan majburiy talablarni o'z ichiga olgan, vazirlik tomonidan tasdiqlanadigan va tegishli malaka oshirish toifasi bo'yicha namuna sifatida tavsiya qilinadigan me'yoriy hujjat.

Ishchi o'quv dasturi – o'quv rejasida belgilangan modullar bo'yicha namunaviy o'quv dasturi asosida ishlab chiqilgan, o'quv jarayonining metodik, axborot, moddiy-texnik ta'minotini hamda ta'lim muassasasi va hududiy ehtiyoj va imkoniyatlarni inobatga olgan, modulning mazmuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan, mavzularning o'qitish ketma-ketligiga rioya qilingan hamda ajratilgan soatlar aniq ko'rsatilgan me'yoriy hujjat.

Mualliflik o'quv dasturlari – pedagog yoki pedagoglar jamoasi tomonidan yoziladigan, mazmuni jihatidan ta'limdagi muammolarni yechish yo'llari va takliflarning yig'indisini ifodalovchi, o'zining dolzarbligi va yangiligi bilan ajralib turuvchi hujjatdir.

Mualliflik dasturlari pedagoglarning doimiy o'zgaruvchan ehtiyoj va talablarini qondirish, ijodiy kamoloti uchun imkoniyatlar yaratish, maqsadlarni aniqlashtirish va unga yetish yo'llarini belgilashda samarali hisoblanadi.

2-shakl. Malaka oshirish o'quv dasturlarining turlari



Maqsadli o'quv dasturlari – ta'lim tizimiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlardagi o'zgarishlar, davlat ta'lim standartlarining takomillashtirilishi, o'quv dasturlariga yangi mavzular kiritilishi, fanlarni o'qitishda samarali metod va vositalardan foydalanishni o'rgatishga yo'naltirilgan hujjatdir. Maqsadli dasturlarni tuzishda pedagog xodimlarning ilmiy-metodik tayyorgarli darajasini hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini orttirishni ta'minlash maqsad qilib olinadi.

Muammoli o'quv dasturlari – tinglovchilarning pedagogik tafakkurini kengaytirish, kasbiy-pedagogik tayyorgarligi darajasini orttirish, muayyan muammoni hal etish uchun zarur bo'lgan metodik bilim, ko'nikma va malakalarini yangilash, chuqurlashtirish maqsadida tuziladi. Mazkur dasturlar ta'lim jarayonida pedagog xodimlar malakasini oshirishning jadallashtiruvchi shakli sifatida qo'llaniladi.

Modulli o'quv dasturlari – tinglovchilarning aniq o'quv moduli va kasbiy amaliyotga doir tayyorgarligi darajasi mazmuniga qo'yiladigan talablarni amalga oshirishga qaratilgan me'yoriy hujjat.

Tajriba-sinov o'quv dasturlari – mazmunning o'zgarishi, o'qitish metodlari va tashkiliy-pedagogik asoslari, yangi bilim sohalariga takliflar, innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilishni maqsad qiladi. Shuningdek, tajriba-sinov dasturlari ta'lim jarayonida biror-bir amaliy masalani yechishda paydo bo'lgan qiyinchiliklar va pedagoglar tomonidan muayyan vaziyatlardan qoniqmaslik holatlari kuzatilganda ham amalga oshirilishi mumkin.

O'zgaruvchan (modifikatsiyalangan) o'quv dasturlari – guruhlarning tashkil etilishi va shakllanishi, o'qitish natijalarining o'ziga xosligi, faoliyatning tartibi va vaqt o'lchamlariga doir parametrlarining o'zgarishini inobatga olib tuziladigan me'yoriy hujjat. Mazkur dasturlar namunaviy o'quv dasturlariga asoslanadi va ta'lim muassasasining

xususiyatlarini, tinglovchilar tarkibini va o'qitishning individual natijalari belgilangan mezonlarga mos kelmagan holatlarda qo'llaniladi.

O'quv rejasi va o'quv dasturi malaka oshirish ta'limi mazmunini hamda o'quv jaryonini yuqori saviyada tashkil etilishini belgilovchi asosiy me'yoriy hujjatlar sifatida mamlakatimiz va xorijiy davlatlar ilg'or tajribalari asosida muntazam takomillashtirilib borilishini, pedagog xodimlarning ehtiyojlariga asoslanishi va tizimning o'zgaruvchan ehtiyojlarini qondirishni, tezkor amalga oshirilishiga erishishni, variativligini ta'minlanishini taqozo etadi.

Amaldagi o'quv-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish, o'quv-metodik materiallarni ishlab chiqish va joriy qilish maqsadida zamonaviy o'quv-metodik va moddiy-texnik bazaga, yuqori salohiyatli professor-o'qituvchilar tarkibiga va ilg'or tajribalarga ega bo'lgan xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institut (markaz)larini tegishli malaka oshirish toifalari kesimida tayanch ta'lim muassasalarini belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tayanch ta'lim muassasasining asosiy vazifasi sifatida mamlakatimiz va xorijiy ilg'or tajribalarni o'zida mujassam qilgan, innovatsion yondashuvga asoslangan hamda davlat va jamiyatning ta'lim oldiga qo'yayotgan vazifalari, Davlat talablari, buyurtmachilar, shuningdek, rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarning takliflari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda xalq ta'limi muassasalari rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning ustuvor yo'nalishlariga mos bo'lgan samarali va sifatli o'quv reja, o'quv dasturi va o'quv-metodik majmualarini ishlab chiqishdan iborat etib belgilanadi.

Tayanch ta'lim muassasasi mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- ta'lim muassasasida to'plangan zamonaviy metodikalar va tajribalar, hududdagi ilg'or o'qituvchilar, uslubchilar, oliy ta'lim muassasalari va boshqa hududiy malaka oshirish ta'limi muassasalarining tegishli yo'nalish bo'yicha yetakchi professor-o'qituvchilarining salohiyati, moddiy va axborot resurslaridan samarali foydalangan holda amaldagi o'quv reja, o'quv dasturi va o'quv-metodik majmualarning joriy holati tahlilini olib borish, mamlakatimiz va xorijiy ta'lim muassasalaridagi ilg'or tajribalarni o'rganish, ijtimoiy va kasbiy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan moslashuvchan variantlarini yaratish;

- qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimining o'zgaruvchan ehtiyojlariga asoslangan, Davlat talablariga muvofiq takomillashtirilgan va moslashuvchanligi ta'minlangan o'quv reja, o'quv dasturi va o'quv-metodik majmualarini ishlab chiqish;

- o'quv reja, dasturlari va o'quv-metodik majmualarni yaratishga innovatsion ta'lim texnologiyalariga asoslangan va istiqbolli yondashuvlarni tatbiq qilish;

- me'yoriy va metodik materiallarni ishlab chiqishda ta'limning uzviyligi va izchilligi ta'minlanishi hamda o'quv reja, o'quv dasturi va o'quv-metodik majmualarga qo'yiladigan zamonaviy talablar va me'yoriy-huquqiy hujjatlarga tayanish;


- me'yoriy hujjatlar va o'quv-metodik materiallarni ishlab chiqishda buyurtmachilarning o'quv dasturlariga bo'lgan talablariga e'tibor qaratish hamda ular bilan ilmiy, o'quv va tashkiliy aloqalarni kengaytirish va chuqurlashtirish.

Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirishning muayyan xususiyatlaridan kelib chiqib, o'quv reja va dasturlarni shakllantirish alohida yondashuvni talab qiladi. Quyidagilar malaka oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha ta'lim dasturlari mazmuniga qo'yiladigan bazaviy talablar hisoblanadi:

- 1) kasblar va lavozimlarga bo'lgan kasbiy malaka talablariga muvofiqlik;
- 2) ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini bilishga qaratilganlik;
- 3) qayta tayyorlash va malaka oshirishga jamiyat buyurtmasi va shaxs ehtiyojining uyg'unligi;
- 4) ta'lim turlari va bosqichlari bo'yicha davlat talablari (davlat ta'lim standartlari) ning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashga qaratilganlik;
- 5) tinglovchilarning kasbiy bilimlarini yangilash va chuqurlashtirishga qaratilganlik;
- 6) yangi, qo'shimcha kasbiy malaka va ko'nikmalarni hosil qilish va takomillashtirishga qaratilganlik;
- 7) ta'lim-tarbiyaning samarali usullari, texnologiyalarini egallash, takomillashtirishga qaratilganlik;
- 8) zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana olishni nazarda tutish;
- 9) davlat talablari hajm va mazmunining qayta tayyorlash va malaka oshirish muddatlariga muvofiqligi.

Malaka oshirish o'quv reja va o'quv dasturlarini tuzish va ularni amaliyotga joriy qilishda tegishli ta'lim subyektlari doimiy aloqada bo'lishlari, ehtiyojlar hamda o'zgarishlarga sezgirlik va tezkor yechimni topishga yo'nalgan bo'lishlari kerak. Bu kutilgan natijalarga erishish, shu bilan birgalikda, o'quv reja va o'quv dasturlarining samaradorligini ta'minlaydi (3-shakl).

3-shakl. O'quv reja va dasturlarni shakllantirish va joriy qilish sikli



Malaka oshirish o'quv rejasi va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va joriy qilishda tegishli tashkilotlar quyidagi vazifalarni bajaradilar:

- Xalq ta'limi vazirligi – ishlab chiqilgan o'quv reja va o'quv dasturlarini tegishli xulosalar asosida tasdiqlaydi va amaliyotga joriy etish uchun yo'naltiradi;
- xalq ta'limi tizimidagi ta'lim muassasalari – pedagog xodimlarini o'tkaziladigan turli monitoringlar hamda anketa so'rovnomalari va pedagogik tashxis natijalariga ko'ra ularning kasbiy ehtiyojlarini aniqlaydi;

– ehtiyojlarni o‘rganish natijalariga ko‘ra, malaka oshirish turlari va shakllarini belgilaydi hamda tegishli tartibda ta‘limni boshqaruv hududiy organlariga taqdim qiladi;

– ta‘limni boshqaruv hududiy organlari – ta‘lim muassasalarining ehtiyojlarga asoslangan taklif va tavsiyalariga ko‘ra malaka oshirish o‘quv rejaları va dasturlarining mazmuni bo‘yicha buyurtmalarni belgilangan muddatlarda hududiy malaka oshirish ta‘limi muassasalariga kiritadi;

– malaka oshirish ta‘limi muassasalari (tegishli malaka oshirish toifasi bo‘yicha tayanch ta‘lim muassasasi sifatida) – ta‘lim sifatı va samaradorligini oshirib borish bo‘yicha amaliy tajribalarga tayanilgan va asosli takliflarni tayyorlaydi va tegishli tartibda kiritadi;

– hududdagi eng ilg‘or o‘qituvchilar, uslubchilar, oliy ta‘lim muassasalari va institutda faoliyat olib borayotgan, shuningdek, boshqa hududiy malaka oshirish ta‘lim muassasalarining tegishli yo‘nalish bo‘yicha yetakchi professor-o‘qituvchilaridan iborat ishchi guruhlarni tashkil etadi va faoliyati uchun zaruriy sharoitlar yaratadi;

– rahbar va pedagog xodimlarning kasbiy ehtiyojlari asosida malaka oshirish mazmuniga berilgan taklif va tavsiyalarni hamda amaldagi o‘quv dasturlarini qiyosiy tahlil qiladi va natijalarini umumlashtiradi va shu asosda tegishli malaka oshirish toifasi bo‘yicha takomillashtirilgan o‘quv-mavzu reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqadi;

– tegishli malaka oshirish toifasi bo‘yicha namunaviy o‘quv-metodik majmualarni tayyorlaydi;

– tegishli qayta tayyorlash va malaka oshirish toifalari o‘quv rejasi va o‘quv dasturlaridagi o‘zgarishlar yuzasidan doimiy monitoringni yo‘lga qo‘yadi va uning natijalariga ko‘ra “Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda qo‘yiladigan davlat talablari”ni takomillashtirishga doir takliflar kiritadi;

– markaziy institut (tizimning bosh ta‘lim muassasasi sifatida) – tayanch ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilari uchun me‘yoriy hujjatlar va o‘quv-metodik materiallarni yaratish bo‘yicha o‘quv seminarlarini tashkil qiladi;

– Davlat talablari asosida o‘quv reja va o‘quv dasturlari mazmunining invariant va variativ qismlarini belgilaydi;


– tayanch ta‘lim muassasalari tomonidan taqdim etilgan qayta tayyorlash va malaka oshirish toifalarining o‘quv rejasi, o‘quv dasturi va o‘quv-metodik majmualarini ekspertizadan o‘tkazadi va tegishli tartibda tasdiqlashga kiritadi.

Xalq ta‘limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish o‘quv rejaları va dasturlari davlat va jamiyatning ta‘lim oldiga qo‘yayotgan vazifalari, Davlat talablari, buyurtmachilar va rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarning takliflari va ehtiyojlariga muvofiq shakllantiriladi (4-shakl).

Ta‘lim maqsadlariga erishish va o‘quv jarayonini samarali tashkil qilish o‘quv reja va dasturlarni sifatlilik va ehtiyojlarga asoslanganlik darajasiga bevosita bog‘liq. Malaka oshirish tizimiga doir o‘quv reja va o‘quv dasturlarini tuzishda tayyor dasturlarni taklif etish amaliyotidan voz kechib, ularni ishlab chiqish jarayonida ta‘lim muassasalari va pedagog xodimlarning ishtirok etishi imkoniyatini ta‘minlash kutilgan natijalarga erishishi omili bo‘ladi.

Shu o‘rinda tinglovchilarning shaxsiy malaka oshirish dasturlarini tuzish, ya‘ni pedagog xodimlarda o‘z uzluksiz ta‘limining individual yo‘nalishlarini belgilash ko‘nikmalarini rivojlantirish ham alohida yondashuv talab qiladigan muhim vazifadir.

4-shakl. Malaka oshirish o'quv rejasini shakllantirish modeli



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. *Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak* // “Xalq so'zi” gazetasi. 2017-yil 16-yanvar, 11-son. 4-b.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”-gi qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006, 6-7-son. 39-modda.
3. Mavlonova R., Rahmonqulova N. va boshqalar. *Umumiy pedagogika // darslik*. – T.: Navro'z, 2016. 500-b.
4. Safarova R. va boshqalar. *Umumiy o'rta ta'lim mazmunini modernizatsiyalashning didaktik parametrlari*. – T.: Fan, 2008. 224-b.
5. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. *Ta'lim sifatini boshqarish*. – T.: Turon-Iqbol, 2006. 592-b.

Tahririyat: Har bir sohada aniq reja asosida ish tutish, dasturlar ishlab chiqish faoliyat samaradorligini oshirishda muhim mezon hisoblanadi. Muallif maqolada xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirishning alohida xususiyatlariga e'tibor qaratib, ushbu tizimda predmet mazmunini belgilashning ustuvor yo'nalishlarini tahlil etgan. Agar maqoladagi fikrlardan o'rinli foydalanilsa, o'z samarasini berishi, tabiiy.

Begzod XODJAYEV,

Toshkent Davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi

PKQTMO tarmoq markazi direktori,

pedagogika fanlari doktori, professor,

Akmal ABDIYEV,

Toshkent Davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi

PKQTMO tarmoq markazi bo'lim boshlig'i

ANDRAGOGIK TA'LIMDA CHET TILLARNI O'QITISHNING AYRIM METODOLOGIK MASALALARI

Annotatsiya

Maqolada andragogik ta'limda chet tillarni o'qitish tamoyillari, omillari va tashkiliy-texnologik asoslari yoritilgan. Shuningdek, fasilitator tomonidan andragogik ta'limda chet tillarini o'qitish jarayonida yuzaga keladigan ayrim kognitiv, emotsional va psixologik qiyinchiliklarni bartaraf etish lozimligi aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Andragogika, andragogik ta'lim, o'qitish, omil, metodika, texnika, amaliyot.

В статье рассмотрены принципы, факторы и организационно-технологические основы преподавания иностранных языков в андрагогическом образовании, обозначены трудности когнитивного, эмоционального и психологического характера которые необходимо преодолевать в процессе образования взрослых.

Ключевые слова. Андрагогика, андрагогическое образование, обучение, фактор, методика, техника, приём.

Article considers principles, factors and organizational and technological foundations of teaching foreign languages in adult education, also indicated cognitive, emotional and psychological difficulties that must be overcome in the process of adult education.

Key words. Andragogy, adult education, teaching, factor, methods, technique, admission.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan va texnologiyaning jadal rivojlanishi ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug'ullanayotgan mutaxassislarining chet tillarni mukammal bilishini taqozo etmoqda. Mazkur jarayonning samarali bo'lishiga esa, Respublikamiz ta'lim tizimiga chet tillarni o'rgatish bo'yicha xalqaro standartlarni joriy etish orqali erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida uzluksiz ta'lim tizimida chet tillarini o'rganish konsepsiyasi ishlab chiqildi.¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi "Oliy ta'lim muassalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2012-yil 10-dekabr.

yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni² hamda Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 20-avgustdagi “Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori³ asosida oliy ta'lim muassasasi pedagog kadrlarining chet tilini amaliy o'zlashtirish darajasini oshirish va undan o'z kasbiy mahoratini, pedagogik va ilmiy faoliyatini muttasil oshirib borish uchun keng foydalanish masalasi alohida belgilab qo'yildi.

Mazkur vazifani muvaffaqiyatli hal etish andragogik ta'limda chet tillarni o'qitishda aniq metodologik asoslarga tayanish lozimligini shart qilib qo'yadi. Chunki andragogik ta'limning bosh maqsadi – shaxsning kasbiy, ijtimoiy va shaxsiy kompetentligini rivojlantirishdan iboratdir. Mazkur ta'lim turida pedagogik jarayon subyektlarining qiziqish va ehtiyojlariga asoslangan holda tashkil etiladigan jarayon hisoblanib, unda ta'lim maqsadlarining xususiy darajasi hamda bilimlarni o'zlashtirishning amaliy jihatlarini hisobga olish birlamchi mezon sanaladi.

Andragogik ta'limni tashkil etish qator omillarni hisobga olishni talab etadi:

– “auditoriyaning ijtimoiy portreti”ni oldindan to'g'ri ayta bilish, auditoriyadagi qatnashchilarning qiziqishlari, mavjud tajribasi, intellektual salohiyatini to'g'ri baholay olish;

– qatnashchilarning ehtiyojlariga asoslangan holda fan, soha va mavzuga oid axborot-ma'lumotnoma bazasini shakllantirish;

– pedagog-andragog (andragogik ta'lim bilan shug'ullanuvchi shaxs) o'quv mashg'ulotlari jarayonida “fasilitator” (faollashtiruvchi, yordamchi) rolida harakat qilishi va asosiy e'tiborni qatnashchilardagi mavjud kasbiy kompetentlik darajasini ularning mehnat tajribasi, o'quv-bilish motivatsiyasi hamda bilim, ko'nikma va malakalar tizimidan kelib chiqib rivojlantirish maqsadiga yo'naltirish;

– o'quv jarayonining tarkibiy tuzilishini to'g'ri belgilash, xususan, qatnashchilarning mehnat tajribasi, ijtimoiy va kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi o'qitishning innovatsion shakl, metod va vositalarini tanlash hamda hamkorlikdagi erkin-ijodiy ta'lim muhitini yaratish va h.k.⁴

Andragogik ta'limda chet tillarni o'qitishning muvaffaqiyatini belgilovchi qator omillar mavjudki, mazkur jihatlarga fasilitator e'tibor qaratishi lozim:

– amaliy hayotiy tajribaga egalik. Katta yoshdagi ta'lim oluvchilar boy hayotiy tajribaga ega va ushbu jihat auditoriyadagi butun dars amaliyotini boyitishga xizmat qiladi. Amaliyotchi o'qituvchilarning ta'kidlashicha, auditoriyada katta yoshdagi ta'lim oluvchilarning bo'lishi foydadan xoli emas, chunki ular auditoriyada o'zlarining boy tajribalari haqida so'zlashdan tortinibmaydi va turli-tuman mavzular xususida ham o'z fikrlarini erkin bayon etishadi;

– yuqori motivatsion yo'nalganlik. Shuni unutmazlik lozimki, katta yoshdagi ta'lim oluvchilarda chet tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish, odatda sertifikat, diplom olish bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmaydi, bu ularning ichki bir tashabbusi orqali

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni. 2015-yil 12-iyun.

³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. 2015-yil 20-avgust.

⁴ Ishmuxammedov R., Mirsoliyeva M. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T., 2014.

yuzaga keladi. Katta yoshdagi ta'lim oluvchilarning chet tillarni o'rganishga motivatsion yo'nalganligi yoshlarnikiga qaraganda kuchliroqdir. Aynan motivatsion yo'nalganlikning yuqori ekanligi ularning dars qoldirmasliklari, dars jarayonida har doim faol bo'lishi va uyga berilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida o'z aksini topadi;

– ijtimoiy idrokning barqarorligi. Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishida amaliy xorijiy tilning o'qitish jarayonida katta yoshdagi ta'lim oluvchilarda kuchli ijtimoiy tavsifga ega xususiyatlar mavjud. Ijtimoiy idrokning o'ziga xos psixologik tuzilmaga ega bo'lgan shaxs tiplari, shaxslilik xususiyatlari hamda kognitiv emotsional va xulqiy komponentlarga bog'liq holda rivojlanadi. Aynan katta yoshdagi ta'lim oluvchilarning boshqa tinglovchilar bilan tezda va oson til topishishi, darsdan bo'sh vaqtlarda ham birga ijtimoiy tadbirlar uyushtirishi mazkur jarayonga samarali ta'sir ko'rsatadi;

– til o'rganishga ijobiy munosabatning mavjudligi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, katta yoshdagi ta'lim oluvchilarda hayotga va til o'rganishga munosabat ijobiy tavsifga ega. Ular o'qituvchilar hamda auditoriyadagi boshqa tinglovchilarga nisbatan o'zaro hurmat va xushmuomala munosabatda bo'lishi bilan ajralib turadi.

Yuqoridagi ijobiy omillar bilan bir qatorda fasilitator tomonidan andragogik ta'limda chet tillarni o'qitish jarayonida yuzaga keladigan ayrim kognitiv, emotsional va psixologik qiyinchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish talab etiladi:

1. Tinglovchilarning tinglab-tushunishlari uchun qulaylik yaratish. Eshitish qobiliyatining susayishi katta yoshdagilarning til o'rganishiga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatadi. O'qituvchilar katta yoshdagilarning eshitish qobiliyati susayishi tufayli vujudga keladigan ayrim qiyinchiliklarning ta'sirini kamaytirish uchun quyidagi jihatlarga e'tibor qaratishlari lozim:

– ravon gapirish va tinglovchilar o'qituvchining mimik va pantomimik harakatlarini aniq ko'rishlari;

– video va tinglash mashqlarida ovozni moslashtirish;

– tinglashga doir matnlarni takrorlash;

– qisqa filmlar va videoroliklardan foydalanish, bu orqali tinglovchilar lavhalaridagi yuz va lab qimirlashlarini oson ilg'ay olishadi;

– auditoriyadagi ortiqcha shovqinni mumkin qadar kamaytirishga erishish.

2. Vizuallikni ta'minlash. Yosh ulg'aygan sari ko'rish qobiliyati ham susayishi mumkin. Bilim olish jarayonida ko'rish qobiliyati juda muhimdir, chunki bilim olishning salkam sakson foizi ko'rish orqali amalga oshiriladi. Bu kabi qiyinchiliklarning ta'sirini kamaytirish maqsadida quyidagi vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

– bosma matnlarda yirik harflardan foydalanish;

– katta yoshdagi ta'lim oluvchilarni doskaga yaqinroq joylarda o'tirishlarini ta'minlash;

– doskaga ma'lumotlarni aniq-ravshan tarzda yozish;

– auditoriyada yorug'likning yetarlicha bo'lishiga erishish.

3. Qulay harakatlanish uchun sharoit yaratish. Andragogik ta'lim subyektlarida yosh bilan bog'liq faol harakatlanishga to'sqinlik qiluvchi omillar ularning auditoriyada erkin harakatlanishini qiyinlashtiradi. Ushbu qiyinchiliklarni qisman bartaraf etish maqsadida quyidagi vositalardan foydalanish tavsiya etiladi:

– auditoriyani qulay stol-stullar bilan jihozlash;

– faol harakat qilishni talab etuvchi mashg'ulotlar jarayonida o'quv harakatlarini bajarish uchun tinglovchilarga ko'proq vaqt taqdim etish shular jumlasidan.

4. Xotirani mustahkamlashga e'tibor qaratish. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ulg'aygan sari kishida xotirada saqlash, kognitiv rivojlanish va muammoning yechimini topish kabi xususiyatlar zaiflashadi. Ushbu muammolarga duch kelganda katta yoshdagi ta'lim oluvchilarning chet tillarni o'rganishlarini osonlashtirish maqsadida quyidagi usullardan foydalanish zarurdir:

- xotira mashqlarni mashg'ulot maqsadi bilan uyg'unlashtirish;
- audiovizual vositalardan ko'proq foydalanish;
- misollar va mashqlarni takrorlab turishga ko'proq e'tibor qaratish;
- yangi so'zlarni, grammatika va iboralarni muntazam takrorlab borish;
- tinglovchilarning avvalgi faoliyatida qo'llagan samarali usullarini hisobga olish.

5. O'z-o'ziga nisbatan ishonchni qaror toptirish. Ko'pchilik katta yoshdagi ta'lim oluvchilar chet tillarni o'rganish paytida avvalgi urinishidagi muvaffaqiyatsizliklari yoki “katta yoshdagi kishilar chet tillarni o'rganish borasida juda qoloq bo'ladi”, degan mulo hazalardan ko'proq tashvishga tushishadi va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqishadi. Katta yoshdagi ta'lim oluvchilarda o'z-o'ziga nisbatan ishonchni orttirish, stress holatini kamaytirish uchun quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- katta yoshdagi ta'lim oluvchilarning chet tilini o'rganishdan maqsadi nima ekanligini aniqlash hamda dars metodologiyasini unga moslashtirish;
- o'qituvchi-tinglovchi va tinglovchi-tinglovchi o'rtasida o'zaro hamfikrlilikni rivojlantirish uchun antropotsentrik usullardan foydalanish;
- tinglovchilarning o'z-o'ziga ishonchini mustahkamlash uchun ularning xatolarini tuzatishni kamaytirish;
- katta yoshdagi ta'lim oluvchilarning sarosimaga tushishiga sabab bo'luvchi ma'lum vaqt oralig'ida bajarishni talab etadigan testlardan voz kechish;
- katta yoshdagi tinglovchilarning mashqlarni yakunlashi uchun ko'proq vaqt ajratish; dars o'tiladigan auditoriyada do'stona va osoyishta muhitni yaratish va h.k.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, katta yoshdagi ta'lim oluvchilar dars jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni ta'lim muhiti, o'quv materiallarini yosh davri xususiyatlari bilan uyg'unlashtirish, samarali o'qitish metodikasini ishlab chiqish asosida bartaraf etish mumkin.

C.Keillor va J.Littlefieldlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlardan ma'lumki, katta yoshdagi tinglovchilarni chet tillarni o'rganishga tayyorlash uchun quyidagi mezonlarni hisobga olish lozim:

- a) sokin, osoyishta va do'stona muhitni yaratish;
- b) tabiiylik, tolerantlik, hurmat va hamfikrlilik madaniyatini qaror toptirish;
- d) o'rganish lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar diagnostikasi ustida hamkorlikda ishlash;
- e) o'zaro hamkorlikda chet tilni o'rganish rejasini ishlab chiqish;
- f) o'rganilayotgan amaliy faoliyat tajribasining mavjud ehtiyojlarga mosligini ta'minlash.⁵

Andragogik ta'lim jarayonida samarali ta'lim muhitini yuzaga keltirish uchun Lee Bash ta'kidlaganidek, katta yoshdagi ta'lim oluvchilarning o'zlari yaxshi bilgan olamning ilmiy manzarasi bilan ularga hali unchalik ma'lum bo'lmagan bilimlar dunyosini bir-biriga bog'lash juda muhimdir.⁶

⁵ Keillor C. Littlefield J. Engaging Adult Learners with Technology. Library Technology Conference: Macalester College. 2012.

⁶ Bash L. Adult Learners in the Academy. Bolton, – M.: Anker Publishing Company. 2003.

Andragogik ta'lim g'oyasi "an'anaviy" va katta yoshdagi ta'lim oluvchilar o'rtasidagi farqlarni izohlovchi ko'plab xususiyatlarni vujudga keltirdi. Mazkur xususiyatlar katta yoshdagi kishilarga ta'lim berishda eng samarali o'qitish metodlarini tanlab olish mezonini bo'lib xizmat qiladi. Katta yoshdagi ta'lim oluvchilar ko'pgina holatda o'z xohish-istaklariga qarab nimani o'rganishlarini tanlaydi. Ya'ni "ular o'zlariga tegishli bo'lgan narsalarnigina o'rganishadi, o'zlari qiziqmagan narsalarni o'rganishni har doim ham xohlashmaydi".

Andragogik ta'limning yana bir o'ziga xosligi katta yoshdagi ta'lim oluvchilar o'rganish usullarini ham o'zlari mustaqil tanlay olish imkoniga egadirlar, buni ta'lim jarayonida o'z-o'zini boshqarish deb ham atash mumkin. Malcolm Knowlesning ta'kidlashicha, o'z-o'zini boshqarish usuli bu shunday jarayonki, bunda ta'lim oluvchilar o'qitish dasturini mustaqil tanlashadi, o'qitish maqsadini mustaqil aniqlashtiradi, o'rganish usullarini ham o'zlari belgilab olishadi, o'quv materiallarni ham individual tarzda tizimlashtirishadi va o'z-o'zini nazorat qilishadi va baholab borishadi.⁷

Ma'lumki, katta yoshdagi kishilarda ma'lum darajada biror-bir narsani o'rganish qobiliyati allaqachon shakllangan bo'ladi, masalan, zaruriy ma'lumotlarni yozib olish, ma'lumotlarni umumlashtirish va h.k. O'z-o'zidan savol tug'iladi: biz qay tarzda ularda avvaldan shakllangan o'zlashtirish qobiliyatidan samarali foydalanishimiz mumkin?

Masalan, katta yoshdagi ta'lim oluvchilarga dars davomida ko'rsatilgan video haqida qisqacha hikoya yozish yoki o'qish amaliyotiga doir topshiriqlarni berish mumkin. Shuningdek, ularni turli xil grafik organayzerlar ustida ishlashga jalb etish mumkin. Katta yoshdagi ta'lim oluvchilarga bajarish qiyinroq, ammo ko'p vaqtni olmaydigan topshiriqlar berish lozim. Chunki ularda vaqt chegaralangan bo'lishi mumkin, ular intellektni talab etuvchi mashqlarni yaxshi bajara oladi.

Katta yoshdagi kishilarning chet tillarni o'rganish ishtiyoqi o'zining qiziqishi, o'rganishning zarurligi, o'z lavozimida yuqori pog'onaga ko'tarilish istagi, chet elga safarga chiqish kabi omillar bilan bo'g'liq bo'lib, mazkur qiziqishni so'ndirib qo'ymaslik uchun eng avvalo, ularning o'qishdan maqsadini (GROW va 3D texnikasi yordamida) aniqlashtirib olish zarur. Masalan, agar tinglovchilar ingliz tilini biznes bilan shug'ullanish uchun o'zlashtirayotgan bo'lishsa, mashg'ulotlarni shu sohaga oid materiallar bilan boyitish zarur. Jumladan, ishga kirish uchun suhbatlashish, biznes iboralarini o'zlashtirish yoki rasmiy elektron xatlar yozish kabi vazifalarni bajartirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Katta yoshdagi kishilarni o'qitishdagi eng katta afzalliklardan biri – bu ularning katta hajmdagi bilim va ko'nikmalarga egaligidir. Shuni unutmaslik lozimki, ularning ingliz tilini bilish darajasi past bo'lishi mumkin, biroq o'z sohasi doirasida ular tajribali ekspert. Katta yoshdagi ta'lim oluvchilardan ular bilgan narsalar haqida so'rashdan osoni yo'q. Masalan, she'r yozib turadigan tinglovchilardan o'zlari yozgan she'rdan parcha o'qitirish va birga tarjima qilish kabi. Ingliz tilini yaxshi biladigan tinglovchilar butun guruh uchun biror bir shoir ijodiga doir taqdimot o'tkazishlari mumkin. Aynan chet tilini o'rgatishda tinglovchilarning qiziqishlari hamda kasbiy faoliyati to'g'risida bilish juda muhimdir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, andragogik ta'limda chet tilini o'qitishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

⁷ Malcolm S. Knowles. *The Adult Learner: A Neglected Species*. American society for training and development. Madison.

1. Akmeologik nuqtayi nazardan katta yoshdagi ta'lim oluvchilarda o'z-o'zini boshqarish kompetentligi yuqori darajada rivojlangan. O'qituvchining vazifasi ularga faqat bilimlarni yetkazib berishdan iborat bo'lib qolmasdan, balki tinglovchilarni ma'lumotlarni tahlil qilish, qarorlar qabul qilish kabi usullardan foydalanishga jalb etishi lozim.

2. Katta yoshdagi kishilarning amaliy faoliyat tajribasiga tayanish chet tilini o'rganishning muhim manbaidir. Avvaldan rejalashtirilgan trening-mashg'ulotlari, munozaralar, keys topshiriqlari hamda ijodiy-izlanishga doir vazifalar katta yoshdagi ta'lim oluvchilarga chet tillarni o'rgatish metodikasining asosini tashkil etishi lozim.

3. Katta yoshdagi ta'lim oluvchilarga chet tillarni o'rgatishni ularning qiziqish doiralari bilan bog'liqlikda amalga oshirish maqsadga muvofiq. Chunki ularda aniq hayotiy maqsad va ehtiyojlar hamda qadriyatlar tizimi shakllangan.

4. Katta yoshdagi kishilar kompetensiyaviy yondashuvga tayanadigan ta'lim oluvchilardir, ular o'zlari o'rgangan narsalarni tezda real hayotga tatbiq etishga harakat qilishadi. Amaliy ish va tinglovchilarning pedagogik faoliyat sohasiga mos o'qitish tizimiga asoslangan yondashuv an'anaviy ta'lim paradigmasidan qator afzalliklarga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2012-yil 10-dekabr.*

2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 2015-yil 12-iyun.*

3. *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2015-yil 20-avgust.*

4. *Ishmuxammedov R., Mirsoliyeva M. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T., 2014.*

5. *Keillor, C. & Littlefield, J. Engaging Adult Learners with Technology. Library Technology Conference: Macalester College. 2012.*

6. *Rubenson, K. Adult Learning and Education. Saint Louis, – M.: Academic Press. 2011.*

7. *Malcolm S.Knowles. The Adult Learner: A Neglected Species. American society for training and development. Madison.*

Shuhrat RAHIMOV,
mustaqil tadqiqotchi

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini sanalgan maktabgacha ta'lim muassasalarining ahamiyati, maqsad va vazifalari qayd etilib, bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish borasida amalga oshirilishi zarur bo'lgan jihatlarga urg'u berilgan. Shuningdek, muallif maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini kontent tahlil etib, o'z mulohazalarini keltirib o'tgan. Buning uchun barcha huquqiy asoslar yetarli ekanligi, ayniqsa, ayni paytda qabul qilingan qarorlar mazkur tizimni rivojlantirishga xizmat qilayotganini ta'kidlagan.

Kalit so'zlar. Maktabgacha ta'lim muassasalari, sog'lom va komil inson, davlat tili, davlat dasturi, kompleks chora-tadbirlar, qisqa muddatli guruhlar, harakat strategiyasi.

В статье отмечается значение, цели и задачи дошкольных образовательных учреждений, являющихся начальным звеном образовательной системы, выделяются основные аспекты совершенствования деятельности ДОУ, приведен ряд предложений. Автор утверждает достаточность правовых основ для развития ДОУ, особенно принятые правовые решения в последнее время.

Ключевые слова. Дошкольные образовательные учреждения, Государственный язык, Государственная программа, группы кратковременного пребывания детей, стратегия действий.

Article notes the importance, objectives and tasks of preschool educational institutions (PEI), which are the initial links of the educational system, identifies the main aspects of the improvement of the activity of preschool by indicating the number of proposals. The author affirms the sufficiency of legal bases for the development of the PEI, especially the recently adopted legal decisions.

Key words. Preschool educational institutions, state language, state program, short-term children's groups, strategy of action.

Mustaqillik yillarida respublikamizda milliy ta'lim va tarbiya tizimi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning bevosita rahbarligida ishlab chiqilgan va jahon hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturining muvaffaqiyatli joriy etilishi natijasida mamlakatda noyob uzluksiz ta'lim tizimi barpo etildi.

O'zbekistonda amaliyotga tatbiq etilgan uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim alohida o'rin tutib, bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanadigan,

uning o'qishga intilishini va bilim olishga bo'lgan dastlabki qiziqishini uyg'otadigan muhim bosqichga aylantirildi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida ko'rsatib o'tilganidek, kadrlar tayyorlash tizimining demokratik o'zgarishlar va bozor islohotlari talablariga muvofiq emasligi, o'quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi yetarli emasligi, yuqori malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi, sifatli o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda didaktik materiallarning kamligi, ta'lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o'rtasida puxta o'zaro hamkorlik va o'zaro foydali integratsiyaning yo'qligi kadrlar tayyorlashning mavjud tizimidagi jiddiy kamchiliklar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmadi.

Ta'lim-tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolari hozirgacha oxirigacha o'z yechimini topmagan. Amaldagi maktabgacha ta'lim tizimi bugungi kundagi talablarga ya'ni, iste'molchilar (davlat, jamiyat, ota-onalar) xohish-istaklariga to'liq javob berishni ta'minlay olmayapti.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimining bugungi kundagi holatini o'rganish natijasida bog'cha yoshidagi bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrovi haligacha pastligicha qolmoqda. Maktabgacha ta'lim muassasalaridan va oiladan maktabga kelgan bolalarning tayyorgarlik darajasi o'rtasida sezilarli tafovut saqlanib qolmoqda. Shu bilan birga, bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlari va o'quv-tarbiyaviy rejalariga qo'yilgan davlat talablarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aksariyat maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi zamon talablariga javob bermaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim beruvchilarning aksariyat qismi yaxshi tayyorgarlik ko'rmaganligi, ularning bilim va kasbiy kompetentligi pastligi jiddiy muammodir.

Inson o'z umri davomida oladigan barcha bilimlarning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda olishini unutmash zarur. Shuning uchun kelajak avlodga ta'lim-tarbiya berishda maktabgacha ta'lim muassasalarining o'rni beqiyos sanaladi.

Bugungi kunda barcha sohalar singari ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan bosh maqsad – voyaga yetayotgan farzandlarimizni insonparvarlik, vatanparvarlik, bag'rikenglik ruhida sog'lom va komil inson qilib tarbiyalashdir. Shu asnoda yoshlarni boy va betakror tariximiz, milliy an'analarimiz o'g'itlari asosida tarbiyalash bugungi kun talabi hisoblanadi.

Farzand ulg'aya borar ekan ijtimoiy hayot, ijtimoiy munosabatlar, atrofdagi hodisalarga o'z nuqtayi nazari bilan moslasha boradi. Bolada bu jarayonning kechishi shaxsni o'rab turgan muhitning, jamoaning, oilasining qay darajada milliy va dunyoviy jarayonlarga munosabati asosida vujudga keladi.

Maktabgacha ta'lim – bu O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim muassasalarining boshlang'ich qismi bo'lib, u bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlaydi, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Maktabgacha ta'lim muassasalari 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, nazorat qilishni, parvarishlashni va sog'lomlashtirishni ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish muassasadagi tibbiyot xodimlari, shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasasiga birlashtirilgan sog'liqni saqlash organlarining tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yuqoridagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etishning aniq yechimi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida to'liq aks etgan. Ya'ni ushbu qaror maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasida qayta tashkil etish hamda bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish imkonini beradi.

Ushbu Qaror 2017-2021-yillarga mo'ljallangan keng ko'lamli kompleks tadbirlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi. Unda bolalarni maktabga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish belgilangan. Jumladan, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash chora-tadbirlariga alohida urg'u beriladi.

Shu ma'noda, mazkur qaror asosida maktabgacha ta'lim sifati tubdan yaxshilanaadi, undagi ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ilg'or tajribalar joriy etiladi. Bola shaxsini kamol toptirish, unga faqatgina harfni o'rgatish emas, balki ijobiy fazilatlarini shakllantirish, uning ruhiyatida atrof-olam, jamiyat va ota-onasiga nisbatan hurmat his-sini, ona Vatanni sevishdek muqaddas tuyg'ular singdiriladi.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarida 5-6 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha an'anaviy maktabga tayyorlash shakllari bilan bir qatorda uning muqobil shakllarini yaratish va rivojlantirish ham ko'zda tutilgan. Jumladan, yurtimiz bo'yicha maktabgacha ta'lim muassasalarida qisqa muddatli guruhlar tashkil etilishi rejalashtirilgan. Maktabgacha ta'lim muassasidagi qisqa muddatli guruhlarni tashkil etish bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning samarali shakli bo'lib qoladi.

Qisqa muddatli guruhlarning yana bir muhim jihati, bu guruhlar bir tomondan yosh oilalarga qulaylik tug'diradi, ya'ni ularga moliyaviy yengillik beradi. Eng muhimi esa, bolalarning maktabgacha ta'limga qamrovi oshib, boshlang'ich sinflarda o'quvchilar orasidagi tavofutga barham beriladi.

Yana muhim jihatlardan biri – maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha zarur didaktik o'yin va o'yinchoqlar bilan ta'minlanishi, kichik kutubxonalarining tashkil etilishidir. Bolajonlarda badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishini yoshligidanoq uyg'otish va eng asosiysi, ona-Vatanimizga nisbatan mehr-oqibatli va sadoqatli farzandlar bo'lib voyaga yetishlarida muhim rol o'ynaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun pedagog-kadrlar tayyorlash va ular malakasini oshirish ham qarorda belgilangan. Chunki zamon shiddat bilan taraqqiy etayapti. Texnika va texnologiyalar yil sayin yangilanib borayotir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va uslublarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim muassasalariga pedagog-kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishning o'quv reja va dasturlarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilgan.

Qaror bilan belgilangan kompleks tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshiribgina biz yuqori sifatli maktabgacha ta'lim tizimini ta'minlaymiz, ya'ni bolalarni sifatli maktabga tayyorlash tubdan yaxshilanaadi va ta'lim-tarbiya jarayoniga muqobil dasturlar joriy etiladi; 3-6 yoshdagi maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olinmagan bolalarni ularning ota-onalarini metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash orqali maktab ta'limiga tayyorlash tizimi joriy etiladi; maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'i yangi qurilish hamda mavjud muassasalarni rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash orqali kengaytiriladi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'limni rivojlantirish va bolalarni maktabga tayyorlashda milliy an'ana va qadriyatlarni ularga singdirishga qaratilgan bir qator maqsadli vazifalar amalga oshiriladi, jumladan:

- bolalarni maktabda o'qishga maqsadli va tizimli tayyorlash;
- bolalarning shaxsiy qobiliyatlari va iste'dodlarini rivojlantirish;
- bolalarni milliy, umuminsoniy va madaniy qadriyatlar bilan tanishtirish, bolani intellektual rivojlantirish;
- bolalarda yuqori ma'naviy va odob-axloq asoslarini shakllantirish;
- bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini mustahkamlash.

Demak, kelgusida maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, ilg'or xorijiy tajriba va texnologiyalarga tayangan holda, mamlakatimizdagi barcha qishloq aholi punktlarida yangi maktabgacha ta'lim muassasalarini qurish, ularni talab darajasidagi jihoz, uskunalar, o'quv-metodik qo'llanmalar, multimedia resurslari bilan ta'minlash oldimizga qo'ygan asosiy vazifalarimizdan biri sanaladi.

Istiqbolda “ta'lim xizmatlari bozorini” takomillashtirish, nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ularning faoliyatiga doir huquqiy-me'yoriy hujjatlarni maqbullashtirish yo'nalishida qator muhim vazifalarni amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bugungi kunda respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimi o'ziga xos tadrijiy rivojlanish yo'lidan bormoqda. Zero, maktabgacha ta'lim muassasalarida zamonaviy sharoit yaratish, ularni moliyalashtirish, bola shaxsini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim tamoyillari, bolalarning xorijiy tillarni o'zlashtirishiga alohida e'tibor qaratish, bu borada erishilayotgan yutuqlarni keng targ'ib etish sog'lom va bar-kamol avlodni voyaga yetkazishning kafolati hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch: – T.: Ma'naviyat, 2008.*
2. *O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. 1997-yil 29-avgust.*
3. *O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida”gi Qonuni. 1997-yil 29-avgust.*
4. *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida”gi qarori. 2004-yil 5-avgust.*
5. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017–2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” qarori. 2016-yil 29-dekabr.*
6. *Nurjanova R. Pedagogika fanini o'qitish metodikasi. O'quv uslubiy majmua. – Nukus., Nukus davlat pedagogika universiteti, 2012.*

Nargiza KAYUMOVA,
Nizomiy nomidagi TDPU katta o'qituvchisi

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA TA'LIM-TARBIYA ISHLARINI REJALASHTIRISH YO'NALISHLARI

Annotatsiya

Maqola maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirish masalalariga bag'ishlangan. Shuningdek, muallif maktabgacha ta'lim muassasalarida bir-birini to'ldirib boradigan bir necha xil rejalar haqida ma'lumot berib, bunday rejalashtirish pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qilishini ta'kidlab o'tgan.

Kalit so'zlar. Ta'lim-tarbiya, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, jarayon, metod, ishlarni rejalashtirish, kitob o'qish, o'yin faoliyati.

В статье раскрыты особенности планирования учебно-воспитательного процесса в дошкольных образовательных учреждениях. Описаны некоторые виды планов в дошкольном образовании. Обосновываются условия организации планирования педагогического процесса педагогами ДОУ и его значение при подготовке детей к обучению в школе.

Ключевые слова. Образование, воспитатель, воспитанник, процесс, метод, планирование работ, чтение, игровая деятельность.

The scientific article reveals the features of planning the educational process in pre-school educational institutions. Described some types of plans in preschool education. Also substantiated the conditions for organizing the planning of the pedagogical process by pedagogues of the PEI and its significance in preparing children for schooling.


Key words. Education, educator, pupil, process, method, work planning, reading, playing activity.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasasida (MTM) ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish pedagog, tarbiyachi-metodist, mudira faoliyatining oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. Rejalashtirishning maqsadi – "Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari"ning bajarilishini ta'minlashdir. Pedagogik jarayonni yaxlit tashkil etishda rejalashtirish – bolalar jamoasi va ayrim bolalarni tarbiyalash vazifasini aniqlashga, bolalarni yoshiga ko'ra pedagogik ta'sir mazmunini va usullarini tanlashga, ularning faoliyat turlari, rahbarlik metodlari hamda bu kabilarni tashkil etishda turli shakllardan foydalanishga yo'llangan bo'lishi lozim.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirish murakkab jarayon bo'lib, tarbiyachidan bolalarning ruhiy fiziologik darajasi to'g'risidagi bilimlarni, ta'lim-tarbiya dasturini, ta'lim va tarbiyaning metod va usullarini bilishni taqo-

zo etadi. Reja asosida olib borilgan ish bolalar bilan amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya mashg'ulotlariga oldindan puxta tayyorgarlik ko'rish, metod va usullarni yaxshilab o'ylab olish, kerakli material va jihozlarni tayyorlash imkonini yaratadi. Tarbiyachi rejalashtirgan barcha ishlar har bir bolaning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qilishi lozim. Shu bilan birga reja qotib qolmasligi, vaziyatdan kelib chiqib, unga o'zgartirishlar kiritish mumkin.

Shu sababdan maktabgacha ta'lim muassasasida bir-birini to'ldirib boradigan rejalar tuziladi. Bularga:



Yillik reja asosan MTM rahbari, metodist tarbiyachi tomonidan tuzilib, bolalar muassasasida amalga oshiriladigan barcha ishlarni o'z ichiga oladi. Istiqbolli reja 1-3 oyga mo'ljallangan bo'lib, undan ko'zlangan asosiy maqsad bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarini tartibga solish va uning samaradorligini ta'minlashdir.

Istiqbolli rejada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ta'lim-tarbiya ishlarining tizimi bolalar faoliyatining barcha turlarida aniq mavzular bo'yicha belgilab chiqiladi. Kalendar reja 10-12 kunga tuziladi. Kun davomida amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya jarayoni aks ettiriladi. Uni tuzishda dasturning talablari, bolalarning rivojlanish va tarbiyalanish darajalari, maktabgacha ta'lim muassasasining ish sharoiti hisobga olinadi.

Kunning ikkinchi yarmini rejalashtirish, ikki qismdan iborat bo'lib, bunda bolalarning guruhdagi faoliyati va sayrdagi ishlar rejalashtiriladi.

Uyqudan keyingi o'yin uchun kichik guruhga 45 daqiqa, o'rta guruhga 1 soat, katta guruhga 1 soat, tayyorlov guruhiga 1,5 soat ajratiladi.

Syujetli-rolli o'yinlar ham rejalashtiriladi (faqat nomi yoziladi). Rejada, shuningdek, stol ustida o'ynaladigan bosma o'yinlar, didaktik o'yinlar hamda dramalashtirilgan o'yinlar rejaga kiritiladi. Mazkur o'yinlarning qoidasi rejaga yoziladi va o'yin qoidasi tushuntiriladi.

Atributlar yasab, biror narsani kubiklar yordamida qurishni, tarbiyachi o'z rejasiga kiritadi. Shuningdek, mazkur o'yinlarning faol ishtirokchisi o'zi ekanligini reja daftariga yozib qo'yadi.

Kunning ikkinchi yarmida ko'ngilochar o'yinlarni hamda mashg'ulotlarni rejalashtirish mumkin. Mashg'ulotlar haftasiga bir marta o'tkaziladi. Katta va tayyorlov guruhiga hajmi katta kitoblarni bir necha kun davomida o'qib berish lozim. Tarbiyachi har gal kitobni o'qishdan oldin "Oldingi gal men sizlarga nima o'qib bergan edim?" degan savolni o'rtaga tashlaydi. Bolalar esga tushganini so'zlab berishadi.

Kunning ikkinchi yarmida asosan tetiklashtiruvchi, quvnoq o'yinlar tashkil etiladi. Bolalarning syujetli-rolli o'yinlari uchun sharoit yaratish, o'yinchoqlar bilan o'ynashga o'rgatish va boshqalar kalendar rejasiga yoziladi. Mazkur o'yinlarda tarbiyachining

qatnashishi ham rejada qayd etiladi. Bu esa bolalar o'yinini tashkil etib, unga tarbiyachining rahbarlik qilishi uchun shart-sharoit yaratiladi.

Katta va tayyorlov guruhlarida tarbiyachining bolalar o'yiniga rahbarligi o'zgarib, bevosita rahbarlikdan bilvosita rahbarlikka o'tadi, tarbiyachi bolalarning mustaqil faoliyatini rag'batlantiradi. Shu mobaynida tarbiyachi qurilish materiallari bilan o'ynaladigan, sahnalashtirilgan va qoidali o'yinlarni ham rejalashtiradi.

Kunduzgi uyqudan keyin guruh xonasini yig'ishtirish, yirtilgan kitoblarni ta'mirlash, qo'g'irchoq kiyimini yuvish, kichik bolalar uchun o'yinchoqlar yasab berish, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish kabi mehnat faoliyati rejalashtiriladi. Tarbiyachi ko'ngilochar o'yinlarni ham unutmaydi. Bunga qo'g'irchoq teatri, soya teatri, konsert, sport, musiqa va badiiy ko'ngilochar soatlar, musiqa eshitish va shunga o'xshashlar kiradi. Tarbiyachi badiiy asarlarni o'qib berishni, klassik va zamonaviy rassomlarning san'at asarlarini bolalar bilan tomosha qilishni ham o'z rejasiga kiritadi. Kunning ikkinchi yarmida sayr o'tkaziladi, uning mazmuniga esa harakatli va ijodiy o'yinlar hamda mehnat faoliyati kiradi.

Buyumlarni, ijtimoiy hayot voqealarini kuzatish, jonli obyekt bilan muloqotda bo'lish ham kalendar rejasidan o'rin egallashi kerak.

Pedagogik jarayonning rejasida kun davomida har bir bola mazmunli, qiziqarli faoliyat bilan shug'ullanadigan qilib tuzilishi lozim. Tarbiyachi bolalarning o'zlari qiziqqan faoliyat bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoit yaratadi.

Ta'lim-tarbiyaviy ishning mazmuni, metod va usullari hamda uni tashkil etish turlari, bolalar xulq-atvorini tarbiyalash mazmuni, ularda madaniy-gigiyenik malakalarni shakllantirish, bolalar mehnati va o'yinlariga rahbarlik usullari, ko'ngilochar daqiqalarni tashkil etish, shuningdek, ota-onalar bilan ishlash jarayonlari rejalashtirilishi lozim.

O'qitishning har bir bo'limiga doir mashg'ulotlarni rejalashtirishda bilimlarni egalashning asosiy bosqichlari hisobga olinadi. Rejada bilimlar mazmunining takrorlanishi, ularni sekin-asta murakkablashtirib borishi qayd etiladi. Istalgan bo'limga doir mashg'ulotlarni rejalashtirishda mazkur bo'lim bilan bog'langan asosiy ta'lim-tarbiyaviy masalalardan tashqari dasturning boshqa bo'limlaridan ayrimlarni kiritish lozim. Mashg'ulotlarni bunday yaxlitlash ularning rivojlantiruvchi samaradorligini oshiradi.

Tarbiyalanuvchilarning ta'lim-tarbiyaviy ishlari mashg'ulotlardan tashqari shunchaki o'yin faoliyatida ham davom ettiriladi. Rejada bolaning xulq-atvori bir-birlariga xayrixohlik munosabati, bir-birining fikri bilan hisoblashishi, yuzaga kelgan nizolarni haqo'ylik bilan hal qilib tarbiyalash vazifalari nazarda tutiladi.

Rejaga o'yinda bolalarning o'zaro munosabatlari va xulq-atvorlarini tarbiyalash vazifasi kiritilib, tarbiyachi bolalar o'yinlarining mazmunini, ularning o'ynash ko'nikmalarini hisobga oladi.

Bolalarning mehnat faoliyatini tashkil etish shakllariga doir rejalashtirish muhimdir. Mehnatni tashkil etish shakli sifatida barcha guruhlarda topshiriqlardan foydalaniladi. O'z mazmuniga ko'ra topshiriqlar turlicha bo'lishi mumkin. Tarbiyachining ish rejasida yangi topshiriq mazmunini qayd etish, so'ngra uni bajarishga jalb etiladigan bolalar ismlarini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Tarbiyachi bolalar navbatchiligiga rahbarlikni rejalashtirib, mehnat hajmi va mazmunidan kelib chiqib, ularga navbatchilik vazifalari bilan tanishtirishda metod va usullardan foydalanishni ko'rsatadi.

Rejada bolalarning jamoa shaklidagi mehnatlarini tashkil qilish mazmuni va tarkibi hamda o'tkazish vaqti ko'rsatiladi. Zarur jihozlar belgilanadi va joylashtiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida yurtimizdagi muhim sanalar hamda hodi-salar bilan bog'liq bayramlar o'tkaziladi. Maqsad – bolalarda Vatanga muhabbat, baynalmilal hislarini shakllantirish hamda ularni xalqimizning boy milliy va umum-bashariy qadriyatlarini asosida tarbiyalashdir. Bayramlarni tarbiyaning muhim vositasi sifatida puxta rejalashtirish shart. Bunga muassasaning butun jamoasi jalb etilishi lozim. Bayram ssenariysi ishlab chiqilib, pedagogik kengashda tasdiqlanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida ota-onalar o'rtasida pedagogik targ'ibot ishlari amalga oshiriladi. Ularni oila va maktabgacha ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida tarbiyachi ta'lim-tarbiyaviy reja mazmuni bilan tanishtiradi. Pedagog bolalarni oilada tarbiyalashning ilg'or usullarini o'rganadi, umumlashtiradi. Bu ish izchil tarzda amalga oshiriladi hamda maktabgacha ta'lim muassasasi mudirasi tomonidan yillik rejaga kiritiladi. Ishni tashkil etish usullari quyidagilarni tashkil etadi, bular:

- ota-onalar majlisi;
- bolaning yashash sharoiti bilan tanishish;
- ochiq eshiklar kuni;
- mashg'ulotlar o'tkazish;
- tarbiyalanuvchining qo'l mehnatidan foydalanib ko'rgazmalar tashkil etish.

Tarbiyalanuvchilarning sayrini rejalashtirish xuddi boshqa mashg'ulotlar kabi muhim sanaladi. Chunki toza havoning ahamiyati, musaffo osmon hamda ona Yerning issiq tafti bolaning salomatligiga ijobiy ta'sir qyadi. Shunday ekan, sayrni reja asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Sayrni rejalashtirishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

1. Qoidali o'yinlarning ta'lim-tarbiyaviy vazifasi ko'rsatilgan holda rejalashtiriladi. Kichik guruhda bitta yangi o'yin yoki tanish o'yinni rejalashtirish mumkin, katta guruhda ham bolalarga tanish bo'lgan 2 ta o'yinni sayrning boshida va oxirida rejalashtirgan ma'qul.

2. Tabiatdagi, ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish rejalashtiriladi. Masalan, harakatlanayotgan transportni, bayramga bezatilgan ko'chani kuzatish, kurtak ochayotgan novdani, gullab turgan o'simliklarni, yog'ayotgan qor va hokazolarni kuzatish rejalashtiriladi. Bular haftasiga 5–6 martani tashkil qiladi. Ob-havoni kuzatishni oldindan rejalashtirib bo'lmaydi. Kalendar rejaga quyidagicha yoziladi: yaqin oradagi (hafta davomida) qor yog'ishini kuzatish. Bu tadbir o'tkaziladigan mashg'ulot bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak.

3. Bolalarning maydonchadagi, polizdagi mehnatini rejalashtirish:

a) tabiatdagi mehnat (daraxt o'tqazish, suv quyish, chopiq qilish, o'simlik urug'ini terish, hayvonlarni parvarish qilish va h.k.);

b) maishiy-xo'jalik mehnati (barglarni yig'ish, qorni tozalash, ayvonchani supurish, qafasni tozalash va shunga o'xshashlar).

4. Bolalar bilan olib boriladigan yakka tartibdagi ishlar:

- jismoniy tarbiyadan asosiy harakatlarni mashq qildirish;
- san'at sirlaridan bahramand etish;
- ona tilini o'rgatish va boshqalar.

Asosiy harakatlarni mashq qildirish bo'yicha tadbirlar yil fasllariga qarab tanlanadi, masalan, qishda yugurish, sakrash, yurish kabi mashg'ulotlar rejalashtiriladi.

5. Sport o'yinlari (voleybol, stol tennisi, badminton va shunga o'xshashlar), sport ermak o'yinlari (chang'i, konki, chana, velosiped va boshqalar).

6. Maqsadli sayrlar maydoncha bo'ylab va maydonchadan tashqariga o'tkaziladi. Avval ekskursiyaga borib kelingan joyga sayr uyushtiriladi (Masalan, bahorda mana shu o'tloqqa kelgan edik, shu vaqtgacha ko'p narsalar o'zgaribdi).

7. Qurilish o'yinlari va ularga kerakli materiallar, sayrda bolalarning syujetli-rolli o'yinlari yuzaga kelishi va rivojlanishi, o'yin harakatlariga bolalarni o'rgatish usullari ham rejalashtiriladi. Tarbiyachi kalendar rejasida o'yin uchun olib chiqiladigan o'yinchoqlarni qayd etadi. Sayrga chiqishdan oldin tarbiyachi bugun sayr vaqtida nima bilan shug'ullanishlari, qanday mehnat faoliyatini bajarishlari yoki qanday o'yin materiallarini olib chiqishlari kerakligi to'g'risida bolalar bilan gaplashib oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, intellektual salohiyatli yosh avlodni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelimoqda. Shunday ekan, MTMda tarbiyachi rejalashtirgan barcha ishlar bolaning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qilmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. *Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz.* – T.: O'zbekiston, 2000.
3. *Barkamol avlod yili Davlat dasturi.* – T.: O'zbekiston, 2010.
4. *O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.* – T.: Sharq, 1997.
5. *Bolajon. Tayanch dastur.* – T.: Ma'rifat-Madadkor, 2010.
6. *Справочник руководителя дошкольного образовательного учреждения.* – T., 2006.

Jahongir MAMATQOSIMOV,
O'zbekiston Davlat san'at va
madaniyat instituti mustaqil izlanuvchisi

TA'LIM JARAYONIDA NOMODDIY MADANIY MEROSNI MUHOFAZA QILISHNING KONSEPTUAL-METODOLOGIK MUAMMOLARI

Annotatsiya

Maqolada kasb-hunar kollejlarda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish tizimini takomillashtirishning konseptual muammolari aniqlanib, tahlil qilingan. Shuningdek, tahlil natijalari yuzasidan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Nomoddiy madaniy meros, muhofaza, kasb-hunar ta'limi, kasb-hunar kolleji, konseptual muammo.

В статье определены и анализированы концептуальные проблемы совершенствования системы защиты нематериального культурного наследия, разработаны методические рекомендации по итогам анализа обучения в профессиональных колледжах.

Ключевые слова. Нематериальное культурное наследие, защита, профессиональное образование, профессиональные колледжи, концептуальная проблема.

This article identified and analyzed the conceptual problems of improving the protection of intangible cultural heritage, developed guidelines for the results of the analysis of training in professional colleges.

Key words. Intangible cultural heritage, protection, vocational education, professional colleges, conceptual problem.

Har bir xalqning nomoddiy madaniy merosi shu xalqning o'zligini ifodalaydi va u, albatta, hurmat qilinishi kerak. Nomoddiy madaniy meros (NMM)ning muhofaza qilinishi, saqlanishi va kelgusi avlodlarga yetkazilishi barqaror taraqqiyotga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Chunki biror xalqning nomoddiy madaniy merosida barqaror taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omil yo'q va bu meros to'raligicha barqaror taraqqiyotga xizmat qiladi¹.

"Nomoddiy madaniy meros" tushunchasi urf-odatlarini, o'ziga xoslikni ifodalash shakllari, bilimlar va ko'nikmalarni, ular bilan bog'liq jihozlar, predmetlar, artefaktlar va madaniy makonlarni aks ettiradi, ular esa o'z navbatida hamjamiyatlar, guruhlar tomonidan, alohida holatlarda esa muayyan shaxs madaniy merosining bir qismi sifatida tan olinganligini anglatadi. Avloddan avlodga o'tib kelayotgan bunday nomoddiy madaniy meros doimo muayyan hamjamiyatlar va guruhlar tomonidan ularning atrof-muhitga, tabiatga va o'z tarixiga bog'liq holda yaratiladi va bu ularda o'ziga xoslikni, vorislik

¹ Toshmatov O'.G', Isakulova N.J. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning huquqiy asoslari. – T.: Fan, 2014. 112-b.


tuyg'usini shakllantiradi hamda shu bilan insoniyat ijodini va madaniy turli-tumanlikning hurmat qilinishiga ko'maklashadi².

NMMning muhofazasini ta'minlash, ommalashtirish va targ'ib qilish borasida uni ta'lim-tarbiya jarayoniga targ'ib qilish, kasb-hunar kolleji (KHK) o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlarini NMM mazmunida tahlil qilish va metodik tavsiyalar ishlab chiqish, NMM mazmunidagi o'quv mashg'ulotlarini pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishda NMMni muhofaza qilishning quyidagi konseptual-metodologik muammolarini asoslash lozim:

- NMM muhofazasini interpretatsiya qilish muammosi;
- O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi va kreativligi muammosi;
- NMMni muhofaza qilishni tizimlashtirish muammosi;
- NMMni ta'lim tizimiga tatbiq etish muammosi;
- NMM muhofazasiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish muammosi;
- O'quvchilarni NMM orqali kasbga yo'naltirish muammosi.

Ta'lim jarayonida NMMni muhofaza qilishning konseptual-metodologik muammolarining tahlili quyidagilardan iborat:

NMM muhofazasini interpretatsiya qilish muammosi 1-rasmda aks ettirilgan.




1-rasm. NMM muhofazasini interpretatsiya qilish muammosi

² Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro Konvensiya. 2-modda. – Parij. 2003.

O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi va kreativligi muammosi – ta'lim jarayonida NMMni muhofaza qilishni takomillashtirishda muhim jarayon hisoblanib, NMM tushunchalari, muhofaza qilishning turlari tahlili, kichik mutaxassislarining NMMni muhofaza qilish bo'yicha kasbiy kompetensiyasi shakllanishining amaliyotdagi holatini kuzatish imkonini beradi.

NMM muhofazasi bo'yicha o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi va kreativligini rivojlantiruvchi vazifalar 2-rasmda qayd etilgan.



2-rasm. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi va kreativligini rivojlantiruvchi vazifalar

O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi va kreativligini rivojlantiruvchi vazifalarni NMM muhofazasi mazmunida amalga oshirish tavsiya etiladi.

NMMni muhofaza qilishni tizimlashtirish muammosi – bu mazkur tadqiqotning asosiy maqsad va vazifasi sanalib, mazkur jarayonni quyidagi bosqichlarda amalga oshirish tavsiya etiladi:

- a) NMM muhofazasining tarixiy asoslarini tizimlashtirish;

b) ta'lim jarayoniga NMM muhofazasini targ'ib qilishda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining tayyorlash yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar negizida tizimlashtirish;


d) ta'lim jarayoniga NMM muhofazasini targ'ib qilishda KHKning tayyorlash yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklari spetsifikasi asosida tizimlashtirish.

NMM muhofazasining tarixiy asoslarini tizimlashtirish – bu NMM tushunchasining paydo bo'lishi va tarixiy asoslarini tahlil qilish, uni davrlarga ajratgan holda o'rganishni, har bir davrning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashni taqozo qiladi. Shu bois NMM tushunchasining paydo bo'lishi va insoniyat tarixiy taraqqiyotidagi o'rni davrlashtirishda NMM mazmunida tadqiqot olib borgan olimlarning ishlariga tayanildi.

Ta'lim jarayoniga NMM muhofazasini targ'ib qilishda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining tayyorlash yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar negizida tizimlashtirish – bu o'z o'rnida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining tayyorlash yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarining o'quv rejasidagi umumta'lim fanlari o'quv dasturlari va adabiyotlarining NMM mazmunidagi imkoniyatlarini tahlil qilish, NMMni ta'lim jarayoniga singdirish yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqish, o'quvchilarning fanlar kesimida NMM mazmunidagi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat bo'lib, umumta'lim fanlari o'quv dasturlari va adabiyotlarining NMM mazmunidagi imkoniyatlari tahlil qilindi.


Ta'lim jarayoniga NMM muhofazasini targ'ib qilishda KHKning tayyorlash yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklari spetsifikasi asosida tizimlashtirish – KHKlardagi mavjud ixtisosliklar spetsifikasi tahlil orqali o'rganildi.

NMMni ta'lim tizimiga tatbiq etish muammosi 3-rasmda ifodalangan konseptual funksiyalarni bajarishdan iborat.



3-rasm. NMMni ta'lim tizimiga tatbiq etish

NMM muhofazasiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish muammosini o'rganishda NMM ma'naviyatning ajralmas bo'g'ini ekanligini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asari metodolik asos bo'lib xizmat qiladi. Birinchi Prezidentimiz tomonidan ma'naviyatni shakllantiruvchi asosiy mezonlar va ma'naviy tahdidlar (4-rasm) real dalillar asosida yoritilgan va ma'naviy tahdidlarni bartaraf etish yechimlari ko'rsatilgan³.



4-rasm. Islom Karimovning “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida qayd etilgan ma'naviyatni shakllantiruvchi asosiy mezonlar va ma'naviy tahdidlar


Tadqiqotchi D.I. Ro'ziyeva talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantiruvchi sifatida 5-rasmda qayd etilgan omillarni tadqiq etgan.

R.J. Ishmuhamedov, A.A. Abduqodirov, A.X. Pardayevlar yoshlar tarbiyasiga ta'sir etuvchi tahdidlar va xatarlarni ko'rsatib o'tadi⁴:

- xalqaro terrorizm;
- diniy ekstremizm;
- giyohvand moddalar tajovuzi;
- OITS;
- egotsentrizm;
- axloqsizlik falsafasi;
- kosmopolitizm;

³ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. 176-b.

⁴ Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste'dod, 2010. 141-b.



5-rasm. Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantiruvchi omillar


O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning ma'naviyatni shakllantiruvchi asosiy mezonlar va ma'naviy tahdidlar xususidagi qarashlari talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantiruvchi omillar – o'rganilayotgan muammoni tahlil etishda metodik ko'rsatma bo'lib, ushbu fikrlarni davom ettirgan holda NMM muhofazasiga ta'sir etuvchi ijobiy va salbiy omillar tadqiq etildi.

NMM muhofazasiga ta'sir etuvchi omillar 6-rasmda qayd etilgan.

O'quvchilarni NMM orqali kasbga yo'naltirish muammosi. O'quvchilarning kasb tanlashi ongli zaruriyat bo'lishi va ayni vaqtda jamiyat manfaatlariga mos bo'lib tushishi, yigit va qizlarning kamolot yo'lidagi shaxsiy muddaolarini qondirishi lozim. Kasbni to'g'ri tanlash har bir o'sib kelayotgan avlodning obyektiv sabablariga, qiziqishlariga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo'lishi uchun uning sog'ligini, o'zlashtirishini va hissiyotlarini hisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan ko'ra ko'proq o'z ifodasini topadi va namoyon bo'ladi.

Har qanday kasbda eng muhimi – uning mehnat mazmuniga ega bo'lishidir. Shu bois mehnatsevarlikni, yaxshi urf-odatlarini tarbiyalash va ularni mehnat jo'shqinligiga ko'chirish bolalarni kasb tanlashga tayyorlashning bosh negizidir. Oilada bolani mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash odatda maktabgacha bo'lgan yoshdan boshlanadi. Ana shu paytdan e'tiboran bolalarni bo'lg'usi kasbni tanlashga tayyorlash amalga oshirilishi lozim. Bunda bolalarning qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini munta-


zam ravishda o'rganish zarur. Kasb tanlashda xato qilmaslik uchun bolalarga, avvalo, maktab va oila yordam berishi, kasbga yo'naltirishga oid ishlarni ta'lim yo'llari orqali muttasil va izchillik bilan olib borishi kerak.



6-rasm. NMM muhofazasiga ta'sir etuvchi omillar

Kasb-hunarga yo'naltirish umuminsoniy madaniyatning bir bo'lagi bo'lib, o'sib ketayotgan avlodni kasbiy jihatdan kamol topishidagi jamiyatning g'amxo'rligi shaklida, insonga kasbiy o'z-o'zini anglash, o'z ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'ziga munosib keyingi ta'lim yo'nalishini tanlab olishi uchun ta'sir ko'rsatadigan keng ko'lamlı maxsus chora-tadbirlarning o'tkazilishi shaklida amalga oshiriladi⁵.

Ma'lumki, o'quvchilarning kasb tanlash sabablari asosan ularning qiziqishi, maylari va iqtidori asosida shakllanib, bu jarayonlar 7-rasmda ifodalangan tashqi omillarga asoslanadi:



7-rasm. Kasb tanlashga ta'sir etuvchi tashqi omillar

Ta'lim jarayonida nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning konseptual-metodologik muammolaridan o'rinli foydalanish o'quvchining tarbiyasini mustahkamlash-

⁵ Rashidov H.F. Umumta'lim maktab o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishning omillari va samaradorligi. – T.: “Maktab va hayot” jurnali, 2016. № 1. 4-bet.

da o'z samarasini beradi. NMM muhofazasiga e'tibor bermaslik – ma'naviyatga, milliylikka, tarixga nisbatan befarqlikni yuzaga keltiradi. Ma'naviyatga nisbatan befarqlikning oldini olish, loqaydlikka yo'l qo'ymaslik bugungi ta'limning asosiy maqsadi hisoblanib, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "... yoshlarimizning ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur"⁶.

Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarida NMMni muhofaza qilishning konseptual-metodologik muammolarini o'rganish va tahlil qilish, tahlil natijalarini amaliyotga joriy etish ming yillar davomida shakllangan va taraqqiy etib kelayotgan nomoddiy madaniy merosning davomiyligi va barqarorligini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro Konvensiya. 2-modda. – Parij, 2003.*
2. *Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. 176-b.*
3. *Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste'dod, 2010. 141-b.*
4. *Rashidov H.F. Umumta'lim maktab o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishning omillari va samaradorligi. – T.: "Maktab va hayot" jurnali, 2016. № 1. 4-bet.*
5. *Ro'ziyeva D.I. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari: Dis. ... ped. fan. dok. – T., 2007. 274-b.*
6. *Toshmatov O'.G', Isakulova N.J. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning huquqiy asoslari. – T.: Fan, 2014. 112-b.*

Tahririyat: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2010 – 2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat Dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori natijasida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqola mazmun-mohiyati qaror ijrosini ta'minlash borasidagi ishlardan biri sanaladi. Shuning uchun nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish hamda ajdodlar merosini kelajak avlod vakillariga yetkazish har bir pedagog-o'qituvchining oldida turgan mas'uliyatli vazifalardan biri bo'lmog'i kerak.

⁶ *Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. 176-b.*

Saodat KAMBAROVA,

Toshkent Davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi

ADABIYOT FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV – TA'LIM SAMARADORLIGI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada adabiy ta'limga oid virtual laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, bu turdagi mashg'ulotlarni amalga oshirishda aniq va tabiiy yo'nalishdagi fanlarni o'qitish tajribalariga ijodiy yondashish masalalari o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar. Axborot kommunikatsion texnologiyalari, virtual laboratoriya, multimediyaviy vositalari, kompyuter, animatsiya, dasturiy pedagogik vositalar.

В статье изложена организация занятий виртуальной лаборатории в рамках литературного образования, обозначены задачи творческого подхода к обучению точным и естественным наукам с использованием названных технологий.

Ключевые слова. Информационные технологические коммуникации, виртуальная лаборатория, средства мультимедии, компьютер, анимация, программно-педагогические средства.

Article describes the methods of organizing virtual laboratory classes conducted within the framework of literary education, outlines the tasks of a creative approach to teaching exact and natural sciences using these technologies.

Key words. Information technology communications, virtual laboratory, multimedia tools, computer, animation, software and pedagogical tools.

Jamiyat hayotiga texnologiyalarining jadal sur'atlar bilan kirib kelishi ta'lim, tibbiyot, nashirlik yoki sayyohlik kabi turli sohalardagi tub islohotlarga sabab bo'ldi.

Adabiy ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib mavzuga oid grafik tasvirlar namoyish etilishi, voqea-hodisalar, qahramonlar portretiga xos xususiyatlar, nazariy tushunchalarning virtual shaklda uzatilishi asar mazmunini, yozuvchining g'oyaviy-badiiy niyatini anglash, egallangan adabiy-nazariy tushunchalarni hayotga tatbiq etishga yordam beradi. Bunday jarayonga xos tajribalarni modellashtirish o'quvchilarga maktab sharoitida amalga oshirish qiyinchilik tug'diradigan murakkab tajribalarni amalga oshirishga sharoit yaratadi.

Adabiy ta'lim mashg'ulotlariga AKTni joriy etish o'quvchilarda idrok, tasavvur qilish, tafakkur yuritish bilan bog'liq jarayonlarini shakllantiradi, dunyoqarashini kengaytiradi, eng muhimi intellektual salohiyatini rivojlantiradi.

Ma'lumki, AKT axborotlarni uzatish, qabul qilish, muayyan ma'lumot yoki obyekt tasvirini ifodalashda samaradorligi va ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Kompyuter

animatsiyasi va modellashtirish asardagi portret, peyzaj, detal kabi badiiy syujet elementlarini idrok qilishda muhim manba vazifasini o'taydi.

Animatsiyalarda muayyan ketma-ketlikda asar mavzusi va g'oyasiga oid turli diagrammalar, ramziy tasvirlar, tuzilmalar hamda adabiy qahramonlar orasida kechadigan ziddiyatlar, muloqotlar jarayoni namoyish etilishi e'tiborga olinadi.

Ta'lim jarayonida AKTni qo'llash bilan bog'liq muammolar xorijda ham qator olim va tadqiqotchilarning turli fanlar doirasidagi izlanishlari AKTning ilmiy-amaliy, metodik jihatlari hamda pedagogik dasturiy vositalarni yaratish yuzasidan fikr yuritilishiga asos bo'ladi.

Mualliflar ishlarida ta'kidlanishicha, virtual laboratoriya texnologiyalari tirik organizmlarda kechadigan biologik, fiziologik, psixologik jarayonlari multimediya va animatsiyalar vositasida tasvirlash va namoyish etish bilan birgalikda qaytar aloqani ta'minlashga xizmat qiladi. Laboratoriyalarda virtual tajribalarni amalga oshirishda vaqtdan, tegishli resurslardan unumli foydalanilib, natijalar kafolatlanadi hamda obyekt bilan ishlashda xatoliklarning oldi olinishiga muvaffaq bo'linadi.

Adabiy ta'lim jarayonida virtual tajribalar uchun dasturiy ta'minotga o'qituvchi obrazli tafakkur va badiiy to'qimani ochib berishga qaratilgan g'oyalarni taqdim etishi mumkin. Shu yo'l bilan o'quvchilarning badiiylilik, obrazlilik va obrazni tushunish kabi xususiy kompetensiyalarni rivojlantirish vazifalari hal qilinishi ko'zda tutiladi. Dastur animatsiya shaklidagi voqea-syujet, xarakterni ochib beruvchi vosita, konflikt, badiiy syujet elementlari, detal hamda yozuvchi mahorati kabilarni ifodalash xususiyatiga ega.

Bu turdagi tajribalarni o'tkazishda o'qituvchidan AKTga oid tushunchalarni mu-kammal o'zlashtirish, o'quvchidan ham mavzu bo'yicha nazariy bilimlarni puxta egalash talab etiladi.

Virtual adabiy laboratoriya mashg'ulotlari turmushni, odamlarni chuqur o'rganishni, borliqni, unda sodir bo'layotgan turli mavsumiy o'zgarishlarni kuzatishni va shunga bog'liq holda adabiy materialga munosabat bildirishni taqozo etadi. Bunday tajribalar real bilimlarni to'plash, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish maqsadida o'tkaziladi.

Virtual laboratoriya bo'yicha dasturiy ta'minot ta'lim oluvchilar o'tkazishi mumkin bo'lgan, adabiy hodisalar mazmun-mohiyatini aks ettirishga qaratilgan jarayon, zarur narsa-buyum va jihozlar tanloviga nisbatan qaror qabul qilish imkonini beradi.

Uning afzalligi shundaki, o'qituvchi va o'quvchi belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirishi, AKTni ishlatish, shart-sharoitlarni hisobga olgan holda eng samarali tajribalarni tanlashda qulaylik yaratiladi.

Bugungi kunda adabiy ta'lim jarayonidagi dolzarb muammo ta'lim oluvchilarning so'z san'ati qudratini ongli tarzda tushunishi, badiiy so'zning ta'sir kuchini teran his qilishi, asar mazmun-mohiyatini anglashi, qahramon muammolari misolida hayotiy masalalarga javob topishga harakat qilishi, yozuvchi ifodalamoqchi bo'lgan fikr va ramziy darajalarni tushunishini osonlashtirish hisoblanadi.

Animatsiyalarni adabiy jarayonga tatbiq etish esa idrok, anglash va bilish jarayonini yengillashtiradi, adabiy hodisalarni aniq va ko'rgazmali tarzda jonlantiradi.

Tadqiqotchi A.Ibraymov ta'kidlaganidek¹, virtual laboratoriya uskunalarining funktsionalligi, universalligi, foydalanuvchi interfeysining ko'rgazmaliligi va qulayligi, dasturiy ta'minotning moslashuvchanligi, eng muhimi, mashg'ulotlarni masofadan turib olib borish, uzoqda joylashgan ta'lim muassasalaridan turib bevosita laboratoriya asbob-uskunalarini harakatga keltirish, natijalarni baholash imkoniyatlari mavjudligi bilan an'anaviy mashg'ulotlardan farq qiladi.

Adabiy ta'limda nazariy tushunchalarga oid ma'lumotlarni virtual tarzda berish imkoni mavjud bo'lsa ham, qahramonlar tabiati, ichki kechinmalari, o'y-xayollari bilan bog'liq epizodlarni vizual tarzda yetkazish qiyin jarayon hisoblanadi. Obrazlarning fe'l-atvor xususiyatlari yoki ruhiyat manzaralarini belgilash imkoni mavjud emasligi nazarda tutilsa, bu turdagi mashg'ulotlarni tashkil etishda ahamiyat qaratiladigan asosiy xususiyatlar nimada, ularga oid dasturlar qanday tuziladi, jarayon qanday rejalashtiriladi va amalga oshiriladi, qay tartibda foydalaniladi, degan qator savollar tug'iladi.

Ma'lumki, multimediali elektron-pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish orqali avtomatlashtirilgan grafik va murakkab loyihalash ishlari olib boriladi. Pedagogik dasturiy vositalar o'qituvchining o'qitish g'oyalarini dasturda shakllantirish, uni tahlil qilish, qo'llash va baholash orqali takomillashtirishga xizmat qiladi.

Pedagogik dasturiy vositalar kompyuterning multimediya imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy ta'lim jarayoni mohiyatini o'zida kompleks mujassam etadigan dasturiy vosita bo'lishi zarur. Manbalarda dasturiy pedagogik vositalar tarkiban o'qitishning kompyuter dasturlari, avtomatlashtirilgan ta'lim tizimlari, elektron darsliklar, texnologik jihozlarning kompyuter imitatorlari, demonstratsion va modellashtiruvchi dasturlar, kompyuter o'quv muhitlari, kasbiy-dasturiy vositalar paketlarining ma'lumot bo'limlari, instrumental dasturiy vositalar, dasturlashtirish tillari, ma'lumot va bilimlar bazasi, masofaviy ta'limdagi kompyuter va telekommunikatsion vositalardan iborat bo'lishiga alohida urg'u beriladi².

Multimediya tizimlarini yaratishda kompyuterlar, audio-video axborotlarni uzatish vositalari imkoniyatlari uyg'unligiga erishish muhimdir. Bunday tizim dasturiy vositalar va asboblarning majmuasini shakllantirib, axborotning matn, grafika, ovoz, tasvir kabi turli ko'rinishlarini o'zida mujassam etadi. Natijada foydalanuvchi bilan interaktiv muloqot vujudga keladi. Animatsiya va rasmlarni FLASH, Free Hand, Dream weaver kabi dasturiy ta'minotlar, shuningdek, Java, C++ dasturlash texnologiyalari vositasida yaratish mumkin.

Virtual laboratoriya tajribalarini o'tkazishda:

- a) asosiy grafik dasturning buyruqlaridan foydalanishni o'rganish;
- b) mavzu yuzasidan bajariladigan topshiriqlarning bajarilish ketma-ketligini ifodalovchi harakatli tasvirlar hamda maxsus ssenariylar tuzish zarur.

Kuzatishlardan ma'lumki, virtual laboratoriya tashkil etish uchun mavzuga oid asosiy manbalar; laboratoriya ishi o'tkaziladigan videomateriallar; animatsiya orqali bajariladigan interfaol tajribalar; test topshiriqlari; mavzuga tegishli muammoli vaziri-

¹ Ibraymov A. Y. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizikadan virtual laboratoriyalarni Online muhitida tashkil etish. // "Fizika, matematika, informatika" jurnali. – T., 2013, №1. 48-54-b.

² Djurayev R.X., Taylakov U.N. Elektron ta'limda qo'llaniladigan dasturiy pedagogik vositalar. // "Uzluksiz ta'lim" jurnali, 2013, №3. 77-b.

yatlar va ularning yechimlari; laboratoriya oid atamalarining izohli lug'ati; yordamchi materiallardan foydalanish yo'riqnomalari bo'lishi talab etiladi³.

Yuqoridagilarni nazarda tutib, adabiyot darslari, mustaqil o'qishga asoslanuvchi sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlariga oid virtual laboratoriyalarni quyidagicha rejalashtirish maqsadga muvofiq:

1. Adabiy ta'limga oid virtual laboratoriya tashkil etishning kompleks loyahasini ishlab chiqish. Loyihada laboratoriyaning quyidagi masalalari ko'zda tutiladi:

- adabiyot o'qituvchilarining virtual laboratoriya kurslarini tashkil etish;
- virtual laboratoriya mazmunini belgilash yuzasidan tanlovlar o'tkazish;
- mavzuga oid g'oyalar va ma'lumotlar bazasini shakllantirish;
- masofadan turib tajribalarni amalga oshirish va ommalashtirish.

2. Virtual laboratoriya davlat ta'lim standarti, reja va dasturlarini tuzish. DTS-da sinflar kesimida adabiy ta'limga oid o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi ko'rsatiladi. Rejada adabiyot darslariga qo'shimcha soatlar belgilanishi ko'zda tutilsa, dastur muayyan bob yoki mavzular mazmunini qamrab oladi.

3. Maxsus virtual xona yaratish. Xonani adabiy jarayon va hodisalar, asarda tasvirlangan zamon va makon ruhini aks ettirishga manba sanaluvchi kompyuter, proyektor, monitor kabi multimediyaga vositalari bilan ta'minlash. Binobarin, zarur texnik jihozlarning dasturlashtirilishi, kompyuter yordamida loyihalashtirilishi jarayonga maqbul sharoitni vujudga keltiradi.

4. Qulay kreativ muhit shakllantirish. Professor R.H.Jo'rayevning ta'kidlashicha, kreativ muhit ta'lim oluvchining intellektual rivojlanishini ta'minlash omili sifatida tarkiban mualliflik o'qitish tizimlari, imitatsion va modellashtiruvchi dasturlar, mikroolamlar, ma'lumotlar va internet bilimlar bazasiga kirish va dasturlashning instrumental vositalaridan iborat bo'ladi. Statistik va qayta tahlil etish, faoliyat, kommunikativ aloqa hamda global va lokal tarmoqlarda masofaviy ta'limda qo'llaniladigan vositalar ham mazkur ro'yxat tarkibini kengaytiradi⁴.

5. Xarakterli mavzularni aniqlash. Laboratoriya mashg'ulotlari mavzusi adabiy ta'limga oid DTS, taqvim-mavzu reja va o'quv dasturlari talabiga muvofiq sinflar kesimida uzviylik va izchillik tamoyili asosida belgilanishi mumkin.

6. Virtual xarita tuzish. Bunda pedagogik dasturiy vosita dasturlari asosida ijodkor hayoti va ijodi, adabiy tushunchalar, asar syujeti va kompozitsiyasi, muhim epizodlar, qahramon hayotining burilish nuqtalari, portret, peyzaj namunalari yoki ramzlar animatsiyasi audio-video vositalar, modellar, maketlar, rasmlar, jadvallar vositasida muayyan ketma-ketlikda aks ettiriladi.

7. Titrlar bilan bog'liq tajribalarni simulyatsiya qilish. Z.Sherdonovning qayd etishicha, simulyatsiya "kompleks vaziyatlarni qabul qilish uchun ajoyib vaziyat yaratib, dasturiy ta'minot yordamida tasvirni va reaksiyaning ma'lum ko'rsatkichlarini o'zgartirish imkonini beradi"⁵.

³ Sangirova Z. Elektron vositalar asosidagi dars. – T., 2012, № 9. 16-b.

⁴ Djurayev R.X., Taylakov U.N. Elektron ta'limda qo'llaniladigan dasturiy pedagogik vositalar. // "Uzluksiz ta'lim" jurnali, 2013, №3. 77-b.

⁵ Sherdonov Z. Kimyo fanini o'qitishda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish. // "Maktabda kimyo" jurnali. – T., 2013, №4. 5-9-b.

Titrlar asar mazmunining ma'lum ketma-ketlikda ifodalanishiga qo'shimcha izoh bo'lib, jarayonni sayqallaydi va yanada boyitadi. Demak, turli janrdagi asarlar, jumladan, xalq etaklarining “Bor ekanda, yo'q ekan, qadim o'tgan zamonda...”, “Kunlarning birida...”, “Shu payt qarasa...”, “...murod-maqсадiga yetibdi” kabi ovozi yozuvlarga matnning turli ko'rinish va tezlikdagi harakatli tasvirlari ilova qilinishi o'rganilayotgan obyekt haqidagi tasavvurlarni oydinlashtirish va ongda mustahkam muhrlanishiga zamin yaratadi.

Ta'lim bosqichlarida Alisher Navoiy ijodini o'rganishga bag'ishlangan virtual laboratoriya mashg'ulotlarini kompyuter mutaxassisi bilan hamkorlikda quyidagi tarzda amalga oshirish mumkin:

– matndan harakatli tasvirlar ishlash mumkin bo'lgan epizodlar tanlab olindi. Xususan, “Hayrat ul-abror” dan Hotami Toy va o'tinchi chol munozarasi, “Farhod va Shirin”dan Farhodning ariq qazishdagi faoliyati, “Layli va Majnun”dan inson va tabiat munosabatlari (yoridan ayrilib gulzorda yolg'iz yotgan Majnun ahvoliga achingan o'simliklar, samoviy jismlar tasviri), “Sab'ai sayyor”dagi qoliplovchi hikoyatlar (Adan mamlakatidagi qaroqchi Jobirning dengizdagi yo'lto'sarligi, uning qo'lga asir tushgan o'g'lini qutqarishga kelayotgan shoh Navdarning gulrang bir ohu ketidan quvib, pistirmaga tushishi), “Saddi Iskandariy”dan dengiz osti g'aroyibotlari kabilar;

– lavhalarga oid animatsiyalar yaratishda matematik modellashtirish, o'rganilayotgan jarayon yoki obyektlarni optimallashtirish va hisob ishlari bajarildi. Bunda xuddi multiplikatsion filmlardagi kabi tanlangan obyekt xatti-harakatlari, badiiy detal va manzaralar ifodasi belgilandi. Masalan, “Sab'ai sayyor”dan “Beshinchi iqlim yo'lidan kelgan musofirning dostoni” bobi syujetidan lavhalar: Jobirning yangi oyga o'xshash tez yurar kemachalari, qaroqchilarning baland daraxt ustiga chiqib, dengizni kuzatib turish tasvirlari pedagogik dasturiy vosita asosida loyihalaniib, to'g'ri yoki egri chiziq-lar yordamida turli shakllar yasash, aylana yoki yo'ylar hosil qilinib, tutashmalar bajarilishi orqali gavdalanitirildi. Shuningdek, turli burchak ostida chiziq-lar chizilib, tahrir qilinishi, detallarga qirqim va kesimlar berilib, ularning tasvirini ko'rsatishda rang, material va matnlardan ijodiy foydalanish hamda modellarga o'lcham berish jarayoni mavzuni tasavvur qilishni yengillashtirdi.

Adabiy material mohiyatini tushunish, turli muammoli vaziyatlar yechimini hal qilishga doir maxsus virtual ssenariylar tuzish orqali animatsiya jarayonidagi uzviylik va izchillik, voqealarning maqsadi va muayyan ketma-ketlikdagi namoyishi ta'minlandi. Bunda matnning qisqartma variantiga ehtiyoj sezilsa ham voqealarning rivojlanish dinamikasi o'zgarmaydi.

Virtual laboratoriyalar muayyan xatoliklarni bartaraf etish omilidir. Agar o'qituvchi tomonidan muallif konsepsiyasiga zid ravishda ssenariyning boshqa turdagi varianti ishlansa, o'quvchi real voqelik yuzasidan chuqur mushohada yuritishga, muammo-ni bir necha xil yechimlarini shakllantirishga harakat qiladi. Masalan, agar shoh Navdar (“Mehr va Suhayl” parchasi qahramoni) maqsadidan chalg'imagay, yo'lida qat'iy davom etganida asarda tasvirlanganidek vaziyatlarni boshidan kechirmagan va qiyin ahvolda qolmagan bo'lar edi. Shuning uchun qahramon intilayotgan manzil yo'nalishining to'g'ri va maqsadga zid shaklini grafik tarzda taqdim etish va har ikki holatni o'zaro qiyoslashni taklif etish orqali o'quvchida tanqidiy tafakkur, fikrlar xil-

ma-xilligi, masala mohiyatiga obyektiv yondashish, eng muhimi, muallif maqsadini anglash imkoni yuzaga keladi.

Xulosa qilganda, virtual laboratoriyalar dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar uzviyligini ta'minlash, o'quvchilar faoliyatini maqsadli boshqarish, bilimlarni yangilash, o'quv ishlaridagi faollik va mustaqillikni oshirish, axborotlarni qabul qilishni osonlashtirish, materiallarga istalgan vaqtda murojaat qilish kabi qulayliklar mavjudligi bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibraymov A. Y. *Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizikadan virtual laboratoriyalarni online muhitida tashkil etish.* // "Fizika, matematika, informatika" jurnali. – T., 2013, №1. 48-54-b.

2. Djurayev R.X., Taylakov U.N. *Elektron ta'limda qo'llaniladigan dasturiy pedagogik vositalar.* // "Uzluksiz ta'lim" jurnali. 2013, № 3. 77-b.

3. Sangirova Z. *Elektron vositalar asosidagi dars.* // *Umumta'lim fanlari metodikasi.* – T.: 2012, №9. 16-b.

4. Sherdonov Z. *Kimyo fanini o'qitishda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish.* // "Maktabda kimyo" jurnali. – T., 2013, №4. 5-9-b.

Tahririyat: *Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning: "Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" degan so'zlari asrlar osha o'zining dolzarbligini yo'qotmasligini inobatga olsak, muallifning ta'lim muassasalarida adabiyot fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvga asoslangan yangicha uslub va metodlar hamda axborot-kommunikatsiyalarini tavsiya qilgani maqolaning o'qishligini oshirgan.*

Axborot texnologiyalaridan keng foydalanilgan holda adabiyot darslarini o'tkazish ta'sirchan va har tomonlama samarali sanaladi.

Mahbuba FAYZIYEVA,

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi

Bosh ilmiy-metodik markazi katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

O'QUV JARAYONIGA MOSLASHUVCHI WEB TIZIMNI PEDAGOGIK LOYIHALASH

Annotatsiya

Maqolada ta'lim tizimiga moslashuvchi Web tizimning yaratish zaruriyati hamda omillari xususida so'z yuritilgan. Shuningdek, o'quv jarayoniga Web tizimni pedagogik loyihalashning maqsadi hamda ta'lim sifatini oshirish va uzluksiz ta'lim olish imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Moslashuvchi tizim, gipermedia tizimlari, Web, pedagogik loyihalash, pedagog, ta'lim oluvchi, masofaviy ta'lim, tizim.

Совершенство информатизации процесса обучения связано с созданием в каждом предмете информационно-образовательных ресурсов и среды обучения. В статье рассматриваются педагогические цели и задачи проектирование web системы адаптивной к образовательному процессу, а также повышение качества образования и создание возможностей получения непрерывного образования.

Ключевые слова. Адаптивная система, гипермедийная система, веб, педагогическая проектирование, педагог, дистанционного обучения, система.

Improving education informatization process associated with the creation of each piece of information and educational resources and learning environment. The article deals with pedagogical aims and objectives of the design of adaptive web system to the educational process, as well as improving the quality of education and the creation of opportunities for continuing education.

Key words. Adaptive system, hypermedia system, web, pedagogical designing, teacher, distance learning, system.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mamlakatimiz axborot resurslari, tizimlari va tarmoqlarini yanada taraqqiy ettirishga xizmat qilmoqda. Ushbu hujjat bilan tasdiqlangan 2013–2020-yillarda O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi, mamlakatimizning olis hududlarida yashayotgan aholining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytirish masalasiga alohida e'tibor qaratdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Mazkur dastur doirasida ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llashning yangi usul va vositalari yordamida tashkil etish, masofadan turib o'qitish va kompyuterlashtirilgan anjumanlar o'tkazishga erishish, o'quv-metodik majmualar, masofaviy ta'lim tizimlari, o'qitishga mo'ljallangan Web tizimlarni yaratish va ularni ta'lim jarayonida qo'llashga qaratilgan tadbirlar, ta'limni isloh qilish bo'yicha nufuzli loyihalar, ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Jahon miqyosida olib borilayotgan juda ko'p tadqiqotlar moslashish modellarini ishlab chiqish, faqatgina ma'lum bir fanni o'qitishga moslashuvchi tizimlar va moslashuvchi robotlarni yaratish bilan izohlanadi, shuningdek, ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish zamonaviy texnologiyalarini joriy etish vazifasini qo'yadi. Shu bois talabani qobiliyati, intellektual xususiyati, bilim darajasini hisobga olib, ta'lim muhitining moslashish modeli, pedagogik loyihasini ishlab chiqish, masofadan turib ta'lim olish imkonini beruvchi, o'quv jarayoni ishtirokchilari faoliyatini integratsiyasini ta'minlovchi, bugungi globallashuv jarayonida axborot almashishning Web texnologiyalarga asoslangan, o'z navbatida dinamik sahifalar asosida qurilgan o'quv jarayoniga moslashuvchi Web tizimni pedagogik loyihalash bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanmoqda.

Shuning uchun ham ta'lim olish sifatini yaxshilash va o'quv jarayonini tezlashtirish uchun, albatta, ta'lim oluvchining darajasiga mos materiallar ishlab chiqish va uning ta'lim olish trayektoriyasini belgilab boruvchi tizimni joriy etish zarur. O'qitishning ushbu jarayonini tashkil etishda, avvalo, yaratilgan tizim ta'lim oluvchining individual xususiyatlarini aniqlashi, ta'lim olish darajasini belgilab berishi lozim. Ya'ni, individual ta'lim berishda o'qituvchi o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olib, so'ngra o'quv jarayonini tashkil etganidek, ta'lim tizimi ham ta'lim oluvchining iste'dodi, qobiliyatini aniqlab olishi, so'ngra uning trayektoriyasini ishlab chiqishi zarur. Bu talablarga javob beruvchi tizimlar – o'quv jarayoniga moslashuvchi tizimlar, ularning tarmoqqa mo'ljallanganlari esa, o'quv jarayoniga moslashuvchi Web tizimlar deb yuritiladi.

Masofaviy Web-ta'limning rivojlanishi bu kabi tadqiqotlarni amalga oshirishga, tizim turlariga bo'lgan talabni oshiradi. Moslashuvchi gipermedia tizimlarini ishlab chiqishda platforma sifatida Web tizimni tanlash standartga aylandi.

Keyinchalik tarmoqqa mo'ljallangan moslashuvchi o'qitish tizimlarining yangi texnologiyalari paydo bo'ldi. Ushbu texnologiya modeli har bir individual talabani maqsadi, bilimi, qiziqishi asosida yaratildi va ushbu model har doim talaba bilan o'zaro aloqada va uning ehtiyojiga moslashgan holda ishlaydi.

Bugungi kungacha yaratilgan moslashuvchi tizimlarning ayrimlarini ko'rib chiqamiz:

PT¹ – gipermedia tizimiga asoslangan C dasturlash tilini o'rgatuvchi darslik. Bu tizim Pascal dasturchilarini C da dasturlashga o'rgatadi, ya'ni C dasturlash tilini Pascalga taqqoslab, moslab o'rgatadi.

WebVT² tizimi kompyuter yordamida tilni o'rgatuvchi tarmoqqa moslashgan intellektual tizim. Bu tizim o'z tili ingliz tili bo'lmagan foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan. U orqali til o'rganiladi.

ITS³ oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilariga yangi texnologiyalarni ishlatishni o'rgatuvchi intellektual tizim. U foydalanuvchiga uning talabi (bilim darajasi, individual xususiyatlari) dan kelib chiqib o'quv kurslarini taqdim etadi.

SQL-Tutor⁴: SQL ma'lumotlar bazasi tilini o'qitishga mo'ljallangan Web tizimga

¹ Kay J., Kummerfeld B. User Models for Customized Hypertext // Lect. Notes Comput. Sci. 1997. – Vol. 1326. Kay J., Kummerfeld R. An individualised course for the C programming language // Proc. of the 2nd International World Wide Web Conference. – Chicago, 1994.

² Virvou M., Tsiriga V. Web-passive voice tutor: an intelligent computer assisted language learning system over the WWW // Proc. of IEEE Intern. Conf. on Advanced Learning Technologies. – IEEE Computer Society, 2001. – P. 131–134.

³ Prentzas J., Hatzilygeroudis I., Koutsojannis C. A Web-based ITS controlled by a hybrid expert system // Proc. of IEEE Intern. Conf. on Advanced Learning Technologies. – IEEE Computer Society, 2001. – P. 131–134.

⁴ Mitrovic, A. (2003). An Intelligent SQL Tutor on the Web, International Journal of Artificial Intelligence in Education, Vol. 13 (2-4), – P. 171-195.

asoslangan intellektual tizimdir. Tizim ta'lim oluvchi harakatlarini kuzatib boradi va uning ta'lim olish imkoniyati va bilimiga moslashadi.

ActiveMath⁵– dinamik matematik kurslarni tavsiya etuvchi Web tizim. Ushbu tizim ta'lim oluvchining maqsadi, bilimi va malakasini e'tiborga oladi va shulardan kelib chiqqan holda ta'lim oluvchiga mos materialni taklif etadi. Biroq tizimda aloqa muhiti o'rnatilmagan, jumladan, platforma orqali savol-javob qilish va boshqa foydalanuvchilar bilan muloqot qilish imkonini mavjud emas.

AlfaNet⁶ tizimi elektron ta'limning moslashuvchi platformasi bo'lib, to'rtta tipdagi moslashuvchanlikni amalga oshiradi: ta'lim olishni boshlash nuqtasini aniqlash, kirish testi natijasiga asosan bilim darajasiga moslashish, ta'lim oluvchi stiliga moslashgan kurs mazmuni hamda mos tavsiyalar berish.

WELSA⁷ (Web-based Educational system with Learning Style Adaptation – o'qitish stiliga moslashuvchi Webga yo'naltirilgan ta'lim tizimi) nomli elektron ta'lim platformasi 2008-yilda Elvira Popescu tomonidan ishlab chiqilgan. Bu tizim: 1) ta'lim oluvchi qobiliyatini kuzatib, unga moslashadi; 2) ta'lim oluvchiga o'qish jarayonida nima afzalligini aniqlay oladi; 3) o'qituvchiga talab etilgan formatdagi o'quv kursini yaratish va tahrir qilish imkonini beradi.

Tahlillarga ko'ra, bugungi kungacha mavjud bo'lgan barcha o'qitish tizimlarini, jumladan, ta'limni boshqaruv tizimlari, mualliflik dasturlari, o'quv jarayoniga moslashuvchi tizimlarni o'rganish natijasida shunday xulosaga keldik:

birinchidan, bu tizimlarning ko'pchiligi pullik;

ikkinchidan, moslashuvchi tizimlarning aksariyati faqatgina bir yo'nalishga (bitta fanni o'qitishga) mo'ljallangan;

uchinchidan, moslashuvchi tizimlar to'g'risida bugungi kungacha, asosan nazariy tahlillar olib borilgan va modellari yaratilgan. Shuning uchun ayni paytda didaktika qoidalariga asoslangan o'quv jarayoniga moslashuvchi tizimlarni yaratish muhim vazifa hisoblanadi.

Moslashuvchi o'qitish tizimlari oxirgi yillar davomida faol ravishda rivojlanmoqda va moslashuvli o'qitishning ko'pgina modellari yaratilmoqda hamda sinovdan o'tkazilmoqda. Biroq moslashuvchi tizimlarni ishlab chiqishning umumiy standarti shu kungacha yaratilmagan. Bu esa, sohada hali tadqiqotlar davom etishi zarurligini bildiradi.

Shuningdek, o'quv jarayoniga moslashuvchi Web tizimni yaratishning asosiy omillari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

– auditoriyadan tashqaridagi o'quv faoliyatida mustaqil ishlash samaradorligini oshirish, ta'lim muhiti doirasida ta'lim mazmunini, o'zlashtirish sifatini tizimli nazorat qilish imkonini beruvchi moslashuvchi o'qitish tizimlari asosida ta'lim jarayonini tashkilashtirish zarurligi;

– masofaviy o'qitish texnologiyasining elementlarini hamda ta'lim oluvchini uzluksiz ta'lim olishiga imkon beruvchi o'qitishning faol metodlarini joriy etishning zarurligi;

– ta'limni tashkil etishda o'quvchi javoblarining intellektual tahlili asosida mustaqil o'quv faoliyatini individuallashtirgan mantiqiy trayektoriyasini qurishning zarurligi;

– har bir topshiriqni bajarish doirasida yuzaga keladigan qiyinchiliklarga darhol javob qaytarish imkonini beradigan moslashuvchi nazorat algoritmini loyihalash va joriy etishning zarurligi.

⁵ E. Melis, E. Andrès, J. Büdenbender, A. Frishauf, G. Goguadse, P. Libbrecht, M. Pollet, C. Ullrich. ActiveMath: A Web-based Learning Environment. *International Journal of Artificial Intelligence in Education*, 12(4), 2001, – P. 385-407.

⁶ ALFANET. *D8.2 Public final report*. Project deliverable report, available online at. 2005.

⁷ E. Popescu, P. Trigano, C. Badica, B. Butoi, M. Duica (2008e). A Course Authoring Tool for WELSA Adaptive Educational System. *Proc. ICCO 2008*, – P. 531-534.

O'quv jarayoniga moslashuvchi Web tizim ham masofaviy ta'lim tizimining bir turi, uning boshqa masofaviy ta'lim tizimlaridan, jumladan, o'qitishni boshqaruv tizimlari, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish tizimlaridan farqli jihati bu – ta'lim beruvchi ta'lim oluvchi bilan muloqotga kirishuvchi, moslashuvchi va ta'limni nazorat qiluvchi tizim hisoblanadi. Shuning uchun o'quv jarayoniga moslashuvchi Web tizimlarni yaratishda, avvalo, uning pedagogik loyihasi ishlab chiqiladi.

O'quv jarayoniga moslashuvchi Web tizimni pedagogik loyihalashning maqsadi – ta'lim oluvchi qobiliyatiga mos mediamateriallarga ega bo'lgan o'qitish muhiti hamda ushbu muhitda ishlash jarayonida o'qish motivatsiyasi va o'zlashtirishini aniqlanishi hisobiga ta'lim sifatini oshirish, ta'lim oluvchi bilimini rivojlantiruvchi shart-sharoitlarni ishlab chiqish, ularni professional chuqur bilimga ega bo'lishini (kompetentligini) ta'minlash, mavjud bilimlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lgan o'quv jarayoniga moslashuvchi Web tizimda ta'limni bashoratlovchi trayektoriya tarmog'i (spektri)ni yaratishdan iborat.

O'quv jarayoniga moslashuvchi Web tizimni pedagogik loyihalash tizimi ta'limiy muhitining to'liqligi haqidagi tizimli tasavvurlardan kelib chiqib, pedagogik maqsadni ketma-ketlik bilan bajarishdan iborat.

Tizimni pedagogik loyihalashda asosan, uchta jihatga e'tibor qaratiladi:

- o'qitish muhitining tuzilmasi: tizim tarkibi; tizimning asosiy kategoriyasi; ko'pdarajaliligi; multimedialiligi;

- kommunikativligi: asosiy holatlarni aniqlash; o'zaro aloqa (muloqot) nuqtalarini aniqlash; tizimni sharhlovchi shakl va o'rinlarni aniqlash;

- pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash: ta'lim motivatsiyasini oshirish usullari; ta'lim oluvchi xususiyatlariga moslashtirilgan o'qitish tizimini amalga oshirish usullari; interfeysga moslashuv va b.

Pedagogik loyihalashning birinchi elementi sifatida pedagogik g'oya, xususan, pedagogik maqsad shartlari turadi. O'quv jarayoniga moslashuvchi Web tizimni pedagogik loyihalash maqsadining markazida quyidagilar turadi:

- ta'lim oluvchining ta'lim olish faoliyatidagi axborot-ta'lim ehtiyojlarini to'liq darajada qanoatlantirish;

- ta'lim oluvchini o'qitish muhitining turli komponentlari bilan o'zaro aloqasini qulaylashtirish;

- ta'lim oluvchi ehtiyojlarini qondirish va o'quv maqsadiga erishish usullarini individuallashtirish (alternativ ta'lim trayektoriyasi);

- ma'lumotlarni ta'lim oluvchiga qulay ko'rinishda tasvirlash;

- ta'lim oluvchilarning o'quv harakatlarini pedagogik-psixologik jihatdan baholash;

- bilish faoliyatlarini individual uslublarining hisobga olinishi;

- tizimda muloqotning turli formalari tashkil etilishi;

- pedagog faoliyatidagi me'yoriy hujjatlarni o'qitish muhiti bilan integratsiyasining amalga oshirilishi;


- foydalanuvchi interfeysining maksimal qulayligi va b.

Zarur hollarda tizim o'quv jarayonining mazmuni, metodikasi va tashkiliy shaklini o'zgartirish mumkin.

Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, mazmun o'zgarishi quyidagi holatlarni yuzaga keltiradi: o'quv jarayonini mustahkamlash o'z ichiga o'quv sohasi bo'yicha zamonaviy bilimni tashkil etuvchi metod, nazariya, bilimlarning muhim sohalarini saralashni qamrab oladi.

Bu jarayon quyidagilar natijasida faollashadi: an'anaviy hajmdagi o'quv materialining muhim, ahamiyatga molik va relevant qismlarini saralash maqsadida qayta ko'rib chiqish; ta'lim oluvchining o'quv materialining mavjud qismi bilan o'zaro muloqotli (inte-

raktiv) aloqasini tashkil etish; vizual, animatsion, interaktiv va b. vositalar hisobiga muhim (asosiy) o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini oshirish imkoniyatini yaratishdir. O'quv metodikasini o'zgartirishga to'xtaladigan bo'lsak, o'qitish muhitini yaratish uchun quyidagilarni ishlab chiqish lozim bo'ladi:



Bu kabi tizimni yaratishda o'quv jarayonining tashkiliy shaklini o'zgartirish quyidagi imkoniyatlarni beradi: masofali ta'limni rivojlantiradi; o'quv jarayonini vizuallashtirish va virtuallashtirish metodlarini rivojlantiradi (virtual laboratoriya ishlari, auditoriyalar, kafedra va h.k.); “o'qituvchi – talaba” aloqasini o'zgartiradi; muloqotli shakllarning monologlardan (an'anaviy ma'ruzalardan) ustunligini ta'minlaydi.

O'quv jarayoniga moslashuvchi Web tizim quyidagilar hisobiga ta'limni demokratlashtirish tamoyilini amalga oshiradi: elektron ta'lim resurslaridan foydalanish; ta'lim jarayonida ta'lim oluvchini tizimlashtirilgan axborotga yo'naltirish; ta'lim oluvchi xususiyati va kognitiv faoliyati (bilim orttirish) uslublarini hisobga olish; ta'limni pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash; metodik ta'minotning ko'p darajaligi, tayyorgarligi turli darajada bo'lgan talabalarga ta'lim olish imkoniyatini beradi.

O'quv jarayoniga moslashuvchi Web tizimni ishlab chiqishning pedagogik loyihasi tizim dasturiy ta'minoti tarkibida quyidagi komponentlar bo'lishini belgilab beradi:

- ro'yxatdan o'tkazish qism tizimi (har bir foydalanuvchi uchun alohida login-parol yaratiladi va ushbu foydalanuvchining tizimdagi harakati va o'quv rejani bajarishi qayd etib boriladi);

- o'quv va test topshiriqlari qism tizimi (o'qitish muhiti);

- qidiruv funksiyalari bilan birga axborotni taqdim etish qism tizimi (nazariy materialni qamrab oladi);

- boshqaruv qism tizimi (axborot, turli ko'rinishdagi o'quv va test topshiriqlarini taqdim etish, qism tizimi komponentlarini yaratish imkonini beruvchi o'qituvchi uskunalarini to'plami);

- aloqa (kommunikatsiya) qism tizimi (o'quv guruhi ichida hamda o'qituvchilar bilan);

- moslashish qism tizimi (ma'lumotlar bazasi tizimidagi ta'lim oluvchining modeli va foydalanuvchining individual xususiyatlarini o'zaro bog'liqligini tahlil qilish asosida ta'lim olishning individual trayektoriyasini ishlab chiqilishini ta'minlovchi algoritmlar to'plami).

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, o'quv jarayoniga moslashuvchi Web tizim yordamida: biror maqsad ko'zda tutilgan dastlabki kompetentlik darajasi va talabalariga ta'lim berishning individual stili (kognitiv stil)ning o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi;

o'quv materiallari (mavzu materiali, audio va videoyozuvlar, o'quv va nazorat topshiriqlari) tayyorlanadi; uning mos o'quv materialini taqdim etish va ta'lim oluvchining bilim olish faoliyati boshqariladi; o'quv materialini o'zlashtirishning joriy va yakuniy darajasi aniqlanadi; har bir ta'lim oluvchi va butun guruhning o'zlashtirish ko'rsatkichi statistik tahlil etiladi.

O'quv jarayoniga moslashuvchi Web tizimdan ta'limning barcha bosqichlarida foydalanish mumkin, shuningdek, mazkur tizim pedagoglarga o'z faoliyat ko'rinishlarini o'zgartirishga imkoniyat yaratadi. Bunda pedagog faoliyatining asosiy qismini ta'limning mazmuni, elektron ta'lim resurslarining mundarijasi va tuzilishi, pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash shakllari, interaktiv muloqot turlari, har bir ta'lim oluvchining unikal shaxsiy sifatlaridan kelib chiqib, topshiriqlar to'plamini ishlab chiqish va ularni loyihalashni tashkil qiladi. Ishning qolgan qismini esa tizim o'z zimmasiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2013-yil 27-iyun.

2. Kay J., Kummerfeld B. *User Models for Customized Hypertext // Lect. Notes Comput. Sci.* 1997. Vol. 1326. Kay J., Kummerfeld R. *An individualised course for the C programming language // Proc. of the 2nd International World Wide Web Conference.* – Chicago, 1994.

3. Virvou M., Tsiriga V. *Web-passive voice tutor: an intelligent computer assisted language learning system over the WWW // Proc. of IEEE Intern. Conf. on Advanced Learning Technologies.* – IEEE Computer Society, 2001. – P. 131–134.

4. Prentzas J., Hatzilygeroudis I., Koutsojannis C. A. *Web-based ITS controlled by a hybrid expert system // Proc. of IEEE Intern. Conf. on Advanced Learning Technologies.* – IEEE Computer Society, 2001. – P. 131–134.

5. Mitrovic, A. *An Intelligent SQL Tutor on the Web, International Journal of Artificial Intelligence in Education, Vol. 13 (2-4), 2003.* – P. 171-195.

6. E. Melis, E. Andrès, J. Büdenbender, A. Frishauf, G. Goguadse, P. Libbrecht, M. Pollet, C. Ullrich. *ActiveMath: A Web-based Learning Environment. International Journal of Artificial Intelligence in Education, 12(4), 2001.* – P. 385-407.

7. ALFANET. D8.2 Public final report. *Project deliverable report, available online at: <http://rtd.softwareag.es/alfanet>.* 2005.

8. E. Popescu, P. Trigano, C. Badica, B. Butoi, M. Duica. *A Course Authoring Tool for WELSA Adaptive Educational System. Proc. ICC 2008,* – P. 531-534.

Tahririyat: Ta'lim tizimida moslashuvchi o'qitish tizimlari so'nggi yillarda faol ravishda rivojlanmoqda va moslashuvli o'qitishning ko'pgina modellari yaratilmoqda hamda sinovdan o'tkazilmoqda. Biroq moslashuv Web tizimlarni ishlab chiqishning umumiy standarti shu kungacha yaratilmagan. Bu esa, sohada hali tadqiqotlar davom etishi zarurligini bildirmoqda.

Muallif maqolasi aynan shu maqsadga asoslanganligi sababli ta'limda moslashuvchi Web tizimlarni joriy qilish jarayonlarini yanada tezlashtirsa, ajab emas.

Mukarram AXMEDOVA,
Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, p.f.n.
Shaxnoza PARPIYEVA,
Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi

O'QITUVCHI-O'QUVCHI O'RTASIDAGI ZIDDIYATLARNI BARTARAF ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada ta'lim muassasalaridagi o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida yuzaga keladigan konfliktlarni hal etish yo'llari bayon etilgan. Xususan, mualliflar mediatsiya, ya'ni uchinchi tomon – vositachi yordamidan foydalanish bo'yicha takliflarini bildirgan.

Kalit so'zlar. Konflikt, pedagogik konflikt, tanqid, ijtimoiy munosabatlar, natija, yosh avlod, modernizatsiya, dars intizomi, axloq qoidalari, o'qituvchi va o'quvchi munosabati.

В данной статье изложены сведения об исследованиях и способах решения некоторых конфликтных проблем между наставниками и учениками, даны предложения по использованию према медитации для устранения конфликтов.

Ключевые слова. Конфликт, педагогический конфликт, критика, социальные отношения, результат, подрастающее поколение, модернизация, дисциплина урока, правила поведения, отношения учеников и учителей.

Article contains information on research and ways of solving some conflict problems between mentors and students, offers on the use of meditation for conflict resolution.

Key words. Conflict, pedagogical conflict, criticism, social relations, the result, the younger generation, modernization, the discipline of the lesson, rules of behavior, attitudes of pupils and teachers.

Ta'lim muassasalarida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi konfliktlarni bartaraf qilishning ayrim pedagogik-psixologik jihatlari va masalalari yuzasidan olib borilgan tadqiqotga oid izlanishlar shuni ko'rsatdiki, konfliktlarni keltirib chiqaruvchi sabablardan birinchisi o'qituvchining o'z kasbiga qiziqmasligi, o'z kasbining mohiyatini yaxshi bilmasligi, o'quvchilarga berayotgan bilimining sayozligi, qo'polligi, ehtiyotsizligi, o'quvchi va ota-onalar bilan muomala qilish tajribasining yetishmasligi, o'quvchining qalbiga yo'l topa olmasligidir.

Shuningdek, qo'yilgan bahodan norozilik, buyurilgan vazifani bajarmaslik, o'qituvchi salohiyatidan norozilik, darsga kech qolish, o'quv qurollarisiz darsga kelish, darsga va yangi mavzuning tushuntirilishiga e'tiborsizlik, o'qituvchini mensimaslik, dars jarayonini maqsadli buzish, o'qituvchini haqorat qilish, o'quvchini haqorat qilish, o'quvchini ta'lim maqsadlaridan boshqa ishlar va vazifalarni bajarishga majbur qilish, darsdan chiqarib yuborish, kechirim so'rashga majbur qilish, dag'dag'a qilish, peda-

gogik shantaj, o'ch olish, asoslanmagan tarzda past baholash, o'quvchini yakkalab qo'yish, sinfda guruhbozlikni avj oldirish, o'qituvchiga qarshi butun sinf o'quvchilarini gijgijlatish, o'qituvchidan o'z "alamini" olish, ota-onaga asossiz arz qilish, o'qituvchi ustidan arz qilish, o'qituvchini ishdan haydatib yuborishga urinish, o'quvchilar oilalaridan asossiz mablag' yig'ish va turli vazifalarni bajarishga jalb etish, o'qituvchi va o'quvchilarga laqab qo'yish kabilar ham o'qituvchi-o'quvchi o'rtasidagi konfliktni keltirib chiqaradi.

Psixolog I.V. Straxov aytganidek, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi konfliktlarni keltirib chiqaruvchi sabablardan yana biri – ayrim o'qituvchilarning pedagogik takt mahoratiga ega emasligidir. Konfliktlarni bartaraf etish uchun tarbiyaviy ta'sirni oshirish maqsadida pedagogik va psixologik chora-tadbirlarga e'tibor berish, aniq pedagogik vazifalarni inobatga olish, o'quvchi shaxsining psixologik xususiyatlari va uning imkoniyatlari hamda mazkur psixologik holatlarni hisobga olish zarurdir.¹

Shunday ekan, ta'lim muassasalarida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi konfliktlarni bartaraf qilishning ayrim pedagogik-psixologik jihatlari va masalalari yuzasidan olib borilgan tadqiqotga oid izlanishlar asosida ulardan ba'zilarini eslatamiz:

Ism. O'quvchidan jahlingiz chiqib turgan taqdirda ham unga ismini aytib murojaat qiling. Bu unga qilingan murojaatga muloyim-talabchan xarakter baxsh etadi. Shuni ham e'tiborga olish lozimki, aynan o'smirlar o'zlarining ismlarini ko'p eshitishmaydi. Maktabda ularga ko'pincha familiyalarini aytib murojaat qilishadi: "Sen, Valiyev, yana bezorilik qilyapsanmi!", "Bugun Xo'jayeva javob beradi".

O'smirlar bu yoshda bir-birlarining laqablarini yoki ismlarini chala aytib chaqirishadi, ota-onalar esa quyidagicha shaklda o'smirlarga murojaat qilishadi: "Menga qara, darsingni qildingmi?", "Uyalmaysanmi, doim senga o'z vazifangni eslatib turish kerak!" va h.k. Axir har bir kishi o'zining ismini leksik boylikdagi eng yaxshi so'z deb hisoblaydi va uni eshitib, o'quvchi darhol inson bilan ishonchli muloqotga kirishadi.

O'qituvchining o'quvchi bilan muloqotida nutqning mazmuni bilan birga mimika va nutq ohangi ham katta ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, kattalar bilan muloqot ohangi 40 foiz axborotga ega ekan. Bola bilan muloqotda esa, ohangning ta'siri ortadi. Bola kattalarning o'ziga qaratilgan murojaatining ohangiga qarab, ularning o'ziga bo'lgan munosabatlarini bilib oladi. U "hissiy eshitish"ga ega. Unga qarab bola aytilgan so'zlarning mazmun-ma'nosini hamda kattalarning munosabatini bilib oladi. So'zlarni idrok qilganda, avvalo, ohangga javoban harakat qiladi, shundan so'nggina aytilgan so'zning ma'nosini ilg'aydi. Ohangda kattalarning bolaga qaratilgan nutqidagi kechinmalar namoyon bo'ladi va bola unga javoban harakat qiladi.²

Tinglash. O'qituvchi ham o'quvchini tinglashi va eshita olishi lozim. O'qituvchi nutqining samaradorligi o'quvchining tinglay olish ko'nikmasiga bog'liq bo'ladi. Buni esa, bir qator sabablarga ko'ra bajarish oson emas: birinchidan, o'quvchidan bir maromdagi va bir-biriga bog'langan nutqni kutish qiyin. Shunga ko'ra, kattalar o'z nutqini ko'pincha bo'lib gapirishadi. Shu bilan so'z iboralarini yanada qiyinlashtirishadi

¹ Кудрявцев В.Н. Юридическая конфликтология. Центр конфликтологических исследований. – М., 1995.

² Самарин А.Н. Конфликты в духовной сфере современного общества: состояние и проблемы урегулирования // Конфликтология. Теория и практика. 2004. №4.

(“*Mayli, hammasi tushunarli, bor!*”), ammo u o‘zi uchun eng asosiysini gapirmagan bo‘ladi. Ikkinchidan, o‘quvchi gapirishni istaganda, o‘qituvchining tinglash uchun har doim ham vaqti bo‘lavermaydi, o‘qituvchi nimanidir bilmoqchi bo‘lganda esa, o‘quvchi o‘zining suhbatga bo‘lgan qiziqishini yo‘qotgan bo‘ladi, ha, tinglamaydiganlar bilan gaplashish kimni ham qiziqtirardi.

Ta’na. Hech qachon o‘quvchini, ayniqsa, o‘smirni oilasidagi notinchliklarni, ota-onasi, aka-ukasi, opa-singillarining axloqidagi kamchiliklarni yuziga solib, malomat qilmaslik kerak. Bunday ta’na uchun o‘quvchilar o‘qituvchilarni hech qachon kechirishmaydi! O‘quvchining ko‘z oldida o‘zining o‘qituvchi va katta kishi sifatidagi obro’sini yo‘qotadi. Ammo, afsuski, ushbu qoidaning buzilishi tez-tez uchrab turadi. Har bir kishi ota-onasi qanday bo‘lmasin, ularga nisbatan muqaddas hislarga ega bo‘ladi.

“Hissiyotlarni qaytarish” usuli orqali konfliktning oldini olish va muvaffaqiyatli hal qilish mumkin. O‘zining kasbiy nuqtayi nazarini anglash, o‘quvchi xulqi motivlarini tushunish, o‘qituvchiga o‘zining shaxsiy hissiyotlari asiridan chiqish (bu esa oson emas) va bola kechinmalariga hamdard bo‘lishga yordam beradi.³

O‘qituvchi o‘quvchilar bilan birgalikda shaxs yuksalishining har bir davrini “boshdan kechiradi”, ularning omadsizliklariga kuyinadi, muvaffaqiyatlaridan xursand bo‘ladi, ishlarining barbod bo‘lganidan xafa bo‘ladi. Bag‘rikenglik bilan ularni kechiradi – bularning hammasi o‘qituvchining obro’sini to‘kmaydi, balki ularning nuqtayi nazarlarini hissiy yaqinlashtiradi, bir-birlarini tushunishlariga olib keladi, o‘quvchilar bilan munosabatlardagi stereotiplardan qutulishga yordam beradi. Bularsiz pedagogik hamkorlik o‘z ma’nosini yo‘qotadi. Bunda o‘qituvchi eng yomon o‘quvchining ham yaxshi tomonini ko‘ra oladi, uning tuzalishiga umid qiladi.

O‘quvchilar o‘z xursandliklarini bo‘lisha oladigan o‘qituvchilar bilan bo‘lgan munosabatni qadrlashadi. Bunday munosabatlarda konfliktlar ham ro‘y berib turadi, ammo ularni hal qilish osonroq, munosabatlar konfrontatsiyagacha yetib bormaydi. Pedagogik konfliktlarda oxirigacha “haq” va “nohaq”lar, g‘olib va yutqazganlar bo‘lmaydi, har bir pedagogik muvaffaqiyatsizlikda, o‘quvchining og‘ir taqdirida o‘qituvchining ham aybi bor.

Jazo. O‘qituvchi konfliktni hal qilish jarayonida jazoni asosiy ta’sir vositasidan biri deb hisoblaydi. Ularning fikricha, shu bilan salbiy xulqning takrorlanmasligiga erishiladi, bu esa o‘quvchining ruhida nadomat, g‘azab, matonat, qo‘rquv, xafagarchilik, aybdorlik, aggressiya kabi kechinmalar yuzaga keladi.

A.S. Makarenko yozgan edi: “Tarbiyalanuvchi qanday qattiqqo‘llik bilan jazolanmasin, berilgan jazo doim konfliktni hech qanday qoldiqsiz, oxirigacha hal qilmog‘i kerak. Berilgan jazodan bir soat o‘tib, tarbiyalanuvchi bilan normal munosabatlarda bo‘lish lozim. Jazo alohida konfliktni hal qilmog‘i va yo‘qotmog‘i hamda yangi konfliktni yuzaga keltirmasligi zarur, chunki ularni hal qilish qiyinlashib boradi, bunda esa konflikt cho‘zilib, kengayib ketadi”.

Keyingi vaqtda keng qo‘llanayotgan choralardan biri “uchinchi shaxs”ni taklif qilishdir. Sizni juda qiynagan konfliktlar vujudga kelganda vositachilik yo‘lidan bor-

³ Степанов Е.И. Современная конфликтология: Общие подходы к моделированию, мониторингу и менеджменту социальных конфликтов: Учебное пособие. – М.: Издательство ЛКИ, 2008. – С. 176.

ganingiz ma'qul. Vositachilikni konfliktlar yechimi nazariyasida mediatsiya deb ham atashadi.

Vositachilik – bu ko'ngillilik asosida maxfiy, ya'ni konfiditsial tarzda har ikkala tomonga ham xolis bo'lgan uchinchi tomon yordamidir. Mediator vositachining vazifasi – konflikt nimadan boshlangani, kim aybdor ekanligi, kim haq, kim nohaq ekanligini emas, balki muammoning kelishuvga olib keladigan yo'llarini o'rganib, ularni topishdir. Vositachi bahslashuvchi tomonlarga ikkala tomonni ham qanoatlantiruvchi hamda ikkala tomon ham o'zini g'alabaga erishgan deb hisoblovchi yagona to'g'ri yo'lni topishiga yordam berishi lozim.

Vositachi bu vazifani har ikkala tomon bilan muntazam olib boriladigan muloqotlar orqali amalga oshiradi. Vositachi kelishuv jarayonining tomonlar uchun ma'qul bo'lgan qonun-qoidalarini belgilab beradi, ularga konflikt kelib chiqishi va muammolari bo'yicha o'zining fikrini so'zlab berishga imkon yaratadi, diqqat bilan har ikki tomon so'zlarini eshitadi, qiziqarli savollar beradi, kelishuv uchun asos qidiradi hamda aqliy hujum orqali yechimga kelish imkoniyatini topadi. Vositachilik har qanday konfliktlar yechimini qidirish uchun qulay va foydali mexanizmdir. Vositachilik yo'li bilan tarixda juda ko'p xalqaro, milliy, huquqiy, ekologik hamda shaxsiy konfliktlar o'z yechimini topgan.

Vositachilik jarayonining muhim shartlaridan biri – vositachi shaxsidir. Masalan, xalqaro konfliktlarda, vositachi rolidagi tomon har ikkala xalqning fikri va o'ylari, urf-odatlar, stereotip toifalari va xatolari bilan yaxshi tanish bo'lish lozim. Vositachi, eng avvalo, ikkala tomon ham to'liq ishonadigan, uning xolis ekanligini angelaydigan odam bo'lishi shart. Masalan, qachon va qayerda muzokaralar o'tkazish lozim, muhokamalar maxfiy bo'lishi kerakmi yoki ochiq tarzda o'tadimi, kim asosiy vositachi bo'ladi, kimlar muhokamada qatnashadi, qanday masalalar yozma tarzda bayon etiladi, qaysi yozma materiallarni saqlab qo'yish va qaysilaridan qutulish lozim, muzokaralar natijalari qayerda va kim tomonidan e'lon qilinish kerak? va shu kabilar. Shu bilan birga har qanday konflikt yechimida muhokamaga qo'yilayotgan masalalar tartibi kelishib olinishi zarur.

Jarayonning murakkabligiga qaramay vositachilik mo'jizalar yaratadi. Vositachilik juda ko'p xalqaro konfliktlar yechimida qo'l kelgan. Vositachilik sizning o'quv muassasangiz uchun ham juda foydali bo'lishi mumkin. Dunyo bo'yicha minglab maktablarda mediatsiya dasturlari mavjud. Agar siz ham o'z maktabingizda ana shunday mediatsiya dasturiga muhtoj bo'lsangiz, o'zingiz uni amalga oshirishingiz mumkin.

Mediatsiya – vositachilikning asosiy qoidalari:

1. Konflikt yechimini qidirishga xohish va iroda.
2. Faqat haqiqatni so'zlash.
3. Gapni bo'lmasdan eshitis.
4. Birovning nuqtayi nazariga hurmat-e'tibor ko'rsatish, hech qachon uni yerga urmaslik.
5. Ikki tomonlama shartnomaning qarorlarini amalga oshirish uchun majburiyatni o'z zimmasiga olish.

Xulosa o'rnida mediatsiya (vositachilikning) besh asosiy ustunliklari borligini ta'kidlamochi edik:

1. Kelishuv jarayonida sizni hech kim xafa qilishga, nafsoniyatingizga tegishga

harakat qilmaydi. Vositachilik sizning xavfsizligingiz va do'stona muzokaralar jarayonining garovidir.

2. Vositachilik mutlaqo maxfiy jarayon. Agar siz o'zingizni nomaqbul tutsangiz ham, sizning harakatlaringizdan hech kim xabar topmaydi.

3. Siz haqiqatdan ham u yoki bu narsalarni o'rganishingiz mumkin. Muhokama jarayoni sizga qarshi tomonning fikr-o'ylarini tushunishga, anglashga imkon yaratadi. Siz qarshi tomonni raqib sifatida emas, balki inson sifatida qabul qila boshlaysiz.

4. Vositachilik erkin faoliyatdir.

5. Vositachilik albatta zaruriy ehtiyoj bo'lib, unda hech kim nima qilish lozimligini aytmaydi. Chunki siz va opponeningiz har bir qarorni o'zingiz ishlab chiqasiz va o'zingiz unga rozilik bildirasiz. Har bir yechim bu faqat sizning qaroringizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedova M.T. *Pedagogik konfliktologiya. O'quv qo'llanma.* – T.: Adabiyot uchqunlari, 2016 y. 319-b.

2. To'ychiyeva G., Asadova E. *Yoshlar va konfliktlar yechimi. Manual.* – T., 2003.

3. Xoliqov A. *Pedagogik mahorat.* – T.: O'qituvchi, 2010.

4. Кудрявцев В.Н. *Юридическая конфликтология. Центр конфликтологических исследований.* – М., 1995.

5. Степанов Е.И. *Современная конфликтология: Общие подходы к моделированию, мониторингу и менеджменту социальных конфликтов: Учебное пособие.* – М.: Издательство ЛКИ, 2008. – С. 176.

6. Самарин А.Н. *Конфликты в духовной сфере современного общества: состояние и проблемы урегулирования // Конфликтология. Теория и практика. 2004. №4.*

Tahririyat: O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi ziddiyatli munosabat bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim tizimida yaqqol kuzatiladi. Shu bois mazkur maqola va unda bayon etilgan fikrlar har bir o'qituvchi uchun juda muhim. Ammo muallif o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi konfliktli jarayonda o'quvchi bilishi va e'tibor qaratishi lozim bo'lgan jihatlarni ham e'tiborga olsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Dilnoza MUSAYEVA,

Nizomiy nomli TDPU mustaqil tadqiqotchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA MAXSUS TA'LIM BERISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH – DOLZARB IJTIMOIIY- PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada alohida ta'limga muhtoj bolalar ta'limining mazmun-mohiyati, vazifalari, tamoyillari hamda maxsus ta'lim tushunchasi, unga bo'lgan ehtiyojlar batafsil yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada maktabgacha ta'lim muassasasi pedagoglari, mutaxassis defektologlar, ota-onalar, maxsus ta'limga muhtoj bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun mo'ljallangan tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar. Maxsus maktab, maxsus ta'lim, muhtoj bolalar, integratsiyalangan ta'lim, texnologiya, korreksiya, maxsus pedagogika, rivojlanishdagi nuqson, bag'rikenglik.

В статье подробно описывается содержание специального образования детей, нуждающихся в инклюзивном образовании, определены его задачи, принципы и понятие специального образования, потребность в нём. Также приведены рекомендации для педагогов дошкольных образовательных учреждений, дефектологов, родителей и специалистов, занимающихся воспитанием детей, нуждающихся в специальном образовании.

Ключевые слова. Специальная школа, специальное образование, дети нуждающиеся в специальном образовании, интеграционное обучение, технология, коррекция, специальная педагогика, толерантность.

Article describes in detail the content of special education for children in need of inclusive education, determined its tasks, principles and the concept of education, and the need for it. Also presented recommendations are given for educators of pre-school educational institutions, defectologists, parents and specialists involved in the education of children in need of special education.

Key words. Special school, special education, children in need of special education, integration training, technology, correction, special pedagogy, tolerance.

“**T**a'lim to'g'risida”gi Qonunning 23-moddasiga binoan, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish, ularni tarbiyalash hamda davolash uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil qilingan.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, “Ta'lim islohotining bosh mezoni yosh avlodni jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, har tomonlama rivojlangan komil inson qilib voyaga yetkazish va jahon andozalariga mos

bilim, malaka va ko'nikmalarni berish, ularni Ona Vatanga, milliy istiqloq g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashdir”.¹

Darhaqiqat, yurtimizning kelajagi bugungi yosh avlodning uquvi, salohiyati, iste'dodi, mustaqil fikrlashiga bevosita bog'liq. Shuning uchun bilimdon, keng dunyoqarashga ega shaxslarni tarbiyalash vazifasi davlatimiz siyosatining ustuvor vazifasiga aylangan.

Hozirgi kunda respublikamizda alohida yordamga, maxsus ta'limga muhtoj bolalar ta'limi, ularning nuqson turlari va uning darajalarini inobatga olgan holda, aqli zaif, ruhiy rivojlanishi sustlashgan, nutqida, ko'rishida va eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar yo'nalishi bo'yicha korreksion ta'lim tashkil etilgan.

Xalqaro miqyosda ta'lim islohotini demokratlashtirish va diskriminatsiyaga qarshi kurashish natijasida jamiyatning dunyoqarashi o'zgarib, har xil toifadagi kishilar orasida yangicha yondashuv, o'zaro hurmat, ijobiy munosabat shakllandi. Maxsus ta'lim sohasining rivojlanishini qayta ko'rib chiqish siyosati amalga oshirila boshlandi. Ko'pchilik mamlakatlar “segregatsiya” ta'limidan voz kechib, imkoniyati cheklangan bolalarni integratsiya jamiyatiga mansub bo'lgan, integratsion ta'limni tatbiq qilishni lozim topdi.

Segregatsiya – o'quvchilar orasida irqiy, diniy, etnik mansublik asosida yoki bu jins atrofida yoxud manfaatlar mushtarakligini va qo'shnihilik asosida alohida bo'linish.

Shu o'rinda L.S. Vigotskiyning fikrini keltirib o'tamiz: “Maxsus maktablarimiz afzallik jihatlari bilan bir qatorda ayrim kamchiliklari bilan ham ajralib turadi, u o'z tarbiyachisini tor doiradagi maktab jamoasi bilan chegaralab, imkoniyati cheklangan bolaning asosiy e'tiborini o'zida mavjud bo'lgan kamchiligiga qaratib, barcha sharoitni shu nuqsoniga moslashtirib qo'yadi. Bularning barchasi bolaning haqiqiy hayotga kirib kelishiga to'sqinlik qiladi”.

Bugungi kunga kelib, ko'pchilik olim va amaliyotchilarning fikricha, so'nggi 10 yillikda mamlakatimizda tabaqalashtirilgan maxsus ta'lim muassasalarining mavjudligiga qaramasdan, ushbu ta'lim tizimida asosiy ilmiy yo'nalish “integratsiya”ni rivojlantirishga qaratilmoqda. Respublikamizda maxsus ta'limning dolzarbligi shundaki, jamiyatdagi o'zgarishlar sharoitida bola sog'lom tengdoshlari orasida bo'lib, oiladan ajralmagan holda ta'lim-tarbiya olishga muvassar bo'ladi.

Maxsus ta'limni mamlakatimizda joriy qilishning o'ziga xos xususiyati shundaki, ya'ni ijtimoiy, siyosiy, madaniy rivojlanishni, milliy qadriyatlarimizni e'tiborga olishni taqozo etadi. Jamiyatimizning bir qismi bo'lgan imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasini takomillashtirish, maxsus ta'lim jarayoniga yangi innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini kiritish, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar ta'lim-tarbiyasini to'g'ri tashkil etish, ulardagi nuqsonlarni ilk yoshidan aniqlash va bartaraf etish, ijtimoiy jamiyatga to'laqonli moslashtirish ta'lim tizimining muhim va ajralmas qismi sanaladi.

Maxsus ta'lim va tarbiyaning korreksion-pedagogik ish sifati yuqori darajada bo'lsa-da, biroq aynan alohida ehtiyojli bolalarning sog'lom muhitda ta'lim-tarbiya olmayotganliklari sababli ijtimoiy hayotimizga moslashishlarida ayrim muammolar ham mavjud. Shu bois imkoniyati cheklangan bolalarning yopiq-segregatsion ta'lim tizimida o'qitilishining ko'plab salbiy oqibatlarini yuzaga keltirishi jahon hamjamiyati tomonidan ham tan olinib, maxsus ta'lim siyosati qo'llab-quvvatlanmoqda.

Tadqiqotchilarning fikricha, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni umumta'lim maktablarida emas, aksincha, maxsus maktablarda o'qitish ijobiy samara beradi. XX asrning 60-yillarigacha bunday bolalar uchun maxsus maktablar tizimi rivojlanib kelgan.

¹ Axmedova R.M., Aminov R.M., va boshq. “Sotsiologiya fanidan ta'lim texnologiyalari” – T., 2014.

Respublikamizda ta'lim islohotlarining ustuvor yo'nalishi barcha sog'lom bolalar qatori imkoniyati cheklangan bolalarni demokratik yondashuv asosida tarbiyalash, ta'lim berish, ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda optimal darajada sharoit yaratish, kasbiy mahoratni rivojlantirish, shuningdek, iqtidorini ro'yobga chiqarishdan iborat. Muhit va shaxsning uyg'unligi to'g'risidagi ta'limotga ko'ra, ijtimoiy muhit imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun birinchi darajali ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda maxsus ta'lim integratsiyasi rivojlanishining o'ziga xos xususiyati mavjud. AQShda va janubiy Yevropa mamlakatlarida integratsiya rivojlanishi va bu jarayonni muvofiqlashtirish uchun normativ-huquqiy baza yaratilgan, bizda esa bu jarayon hali to'liq hal qilindi deb bo'lmaydi. Maktabgacha ta'lim, umumta'lim maktablari va maxsus ta'lim sharoitida imkoniyati cheklangan bolalarga korreksion yordam berish, ularning alohida ehtiyojlarini qondirish, rag'batlantirish va kompensator imkoniyatlarini rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy hayotga moslashtirish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan.

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining ota-onalari, ta'lim beruvchilari orasida o'tkazilgan so'rovnomalarning tahliliga ko'ra, imkoniyati cheklangan bolalarning muayyan qismi o'z tengdoshlari bilan birga umumta'lim maktablarida o'qish istagini bildirayotganlarini ko'rsatmoqda.

Maxsus ta'lim – imkoniyati cheklangan va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, alohida ta'limga muhtoj bolalar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'i nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Maxsus ta'lim siyosati turli xil ehtiyojli bolalarning ta'lim olishini qo'llaydi va yutuqqa erishishiga yordam beradi hamda yaxshi hayot qurishiga imkon yaratadi. Maxsus ta'lim – bu davlat siyosati bo'lib, imkoniyati cheklanganligi yoki boshqa sabablar tufayli alohida yordamga muhtoj, tarbiyasi og'ir yetim bolalar uchun moslashuvchan va individuallashtirilgan yordam tizimidir hamda barcha bolalarni teng ko'rishni ko'zda tutadigan ta'lim. Ya'ni millati, irqi, ijtimoiy kelib chiqishi, oilasining jamiyatda tutgan o'rni, moddiy va ma'naviy ahvoli, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kamchiligi bo'lishidan qat'i nazar barcha bolalarni teng ko'rish, ulardagi har qanday imkoniyatni qadrlash, rivojlantirishni ko'zda tutadigan ta'limdir.

Maxsus ta'lim umumta'lim jarayonini rivojlantiradi va barcha bolalarga mos bo'lgan ta'limni joriy qiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim olishiga oid qo'shimcha moslamalarni tatbiq qilib, bolalarning ta'lim olishiga qulay sharoit yaratadi. Maxsus ta'lim har xil ehtiyojli bolalarning ta'lim olishiga qaratilgan metodologiyani rivojlantirishga harakat qiladi. Bunday yondashuv diskriminatsiyani bartaraf etadi, kamaytiradi, chunki bolalar bir-birlari bilan muloqot qilish jarayonida o'zlarining turli ehtiyojlarga ega individum ekanliklarini anglaydi.

Maxsus ta'limning mazmun-mohiyati to'g'risidagi ma'lumotlar hali yetarli emas. "Inklyuziv" va "integratsiyalashgan" atamaları ko'pincha bir xil ma'noda ishlatiladi. Biroq falsafada ushbu tushunchalar orasida juda katta farq bor. Imkoniyati cheklangan bolani oddiy sharoitga moslashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir. Imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim muassasalari tarkibiga qamrab olinishi jahon miqyosida "inklyuziv" yoki "integratsion" ta'lim atamaları bilan nomlanadi.

G.M. Kajdasparovning "Педагогический словарь" lug'atida "Integratsiya" atamasi, "guruhlar integratsiyasi", "guruhda shaxslararo munosabatlarni tartibga solish" sifatida qaraladi. Shuningdek, jamoada faqatgina insonparvarlik munosabatlari va mazkur guruhda ijobiy jamoatchilik fikri yaratilishi bilan integratsiyani amalga tatbiq etish mumkin deb ta'kidlanadi.

Integratsiyalashgan ta'limning quyidagi shakllari mavjud:

Jismoniy integratsiya. Integratsiyaning bu shakli jismoniy imkoniyati cheklangan va sog'lom bolalar o'rtasidagi jismoniy farqni kamaytirishga qaratilgan.

Funksional integratsiya. Bu shakl jismoniy imkoniyati cheklangan va sog'lom bolalar o'rtasidagi funksional muammolarni kamaytirishga qaratilgan.

Ijtimoiy integratsiya. Bu shakl ijtimoiy muammolarni kamaytirishga qaratilgan va u jismoniy imkoniyati cheklangan va sog'lom bolalar o'rtasidagi o'zaro aloqani qo'llab-quvvatlaydi.

Maxsus ta'limning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

– ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologik-pedagogik, korreksion shart-sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan dasturlar va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanish, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;

– ta'lim oluvchilarning tenglik huquqini kafolatlash;

– jamiyatning va oilaning faol ishtirokida jismoniy imkoniyati cheklangan va sog'lom bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;

– imkoniyati cheklangan bolalarni oilalardan ajratmagan holda yashash huquqini ro'yobga chiqarish;

– jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan do'stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirish;

Yuqoridagi maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun atama va tushunchalarni bir ko'rinishda ochib berish lozim deb hisoblaymiz.

Agar imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan noo'rin jumlar va tushunchalar ishlatilsa, ularning huquqlari poymol qilinadi. Shu bois ularning huquqlarini himoya qilish, ijobiy munosabatda bo'lish tarbiyalashning muhim usuli hisoblanadi.

Maxsus ta'limning prinsiplari:

– insonning qadr-qimmati, uning qobiliyati va yutug'iga bog'liq emas;

– har bir inson o'ylash va his qilish qobiliyatiga ega;

– har bir kishi eshitish va muloqot qilish qobiliyatiga ega;

– har bir kishi bir-biriga muhtoj;

– shaxsning to'liq va haqiqiy ta'lim olishi faqat real hamkorlikda amalga oshadi;

– hamma kishilar o'z tengdoshlarining qo'llab-quvvatlashiga muhtoj;

– hamma ta'lim oluvchilarning yutuqqa erishishiga ularning nimadir qila olmasligi emas, balki nimanidir qila olishidir;

– hamkorlik qilish kishi hayotini har tomonlama kuchaytiradi;

– maxsus ta'lim joriy qilingan ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish tamoyillari;

– korreksion yo'naltirilganlik;

– nuqsonini aniqlash, ta'lim berishda kompleks (klinik-genetik, neyrofiziologik, psixologik-pedagogik) yondashish;

– nuqsonli funksiyani erta aniqlab, tibbiy-psixologik jihatdan korreksiyalash;

– umumiy o'rta ma'lumot berish, kasbga yo'naltirish va ijtimoiy hayotga tayyorlashga moslashtirish;

– differensial-tabaqalashtirish va alohida yondashuv;

– ta'limning uzluksizligini ta'minlash.

Alohida ehtiyojli bolalarning ta'lim-tarbiyasida teng huquqlilik muammosini hal etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Juda ko'plab bolalar turli xil sabablarga ko'ra ta'limdan chetda qolib ketmoqda. Shu bois maxsus ta'limga jalb

qilishning tashkiliy, ilmiy-uslubiy choralari ko'rib chiqish, ya'ni mutaxassislarni tayyorlash, malakasini oshirishga oid tadbirlarni ishlab chiqish lozim.

Alohida ehtiyojli bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda o'z qobiliyati darajasida faoliyat ko'rsatish, ta'lim olishi, kasb-hunar o'rganishi va rivojlanishi mumkin. Maxsus ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, alohida yordamga muhtoj bolalar ijtimoiy tomondan himoyalanaadi, ijtimoiy hayotda teng huquqliligini, o'z tengdoshlari bilan birga bilim olishlari mumkinligini his etadi.

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun tashkil etilgan segregatsion-maxsus, yopiq turdagi muassasalarda ulardagi mavjud nuqsonlar ancha-muncha yuqori darajada korreksiyalansa-da, ammo bolalarning maktab jamoasidagi tor doiraga tushib qolishlari natijasida ijtimoiy jamiyatga moslashishi, kelajakda me'yoriy rivojlanishdagi bolalar qatori faoliyat yuritishlarida juda katta qiyinchiliklarga duch kelishadi. Maxsus maktablar mana shu jihatlari bilan katta kamchiliklarga ega.

Maxsus ta'limga bo'lgan ehtiyoj uning jamiyatga va alohida ehtiyojli bolalar uchun quyidagi foydali jihatlari mavjudligidan kelib chiqadi:

– ushbu ta'lim alohida ehtiyojli bolalarga doimo o'z oilasi, mahallasi va qarindosh-urug'lari davrasida bo'lishga imkon beradi;

– maxsus ta'lim barcha uchun ta'lim sifatini yaxshilashga olib keladigan katalizator bo'lib xizmat qilishi mumkin;

– bolalarni oilasidan, uyidan uzoqda bo'lgan internatlarga joylashtirish ularning uyi, oilasi hamjamiyat hayotiga ishtirok etish huquqiga to'sqinlik qiladi;

– uyidan, oilasidan, ota-ona mehridan uzoqda bo'lgan bola diydasi qattiq bo'lib o'sadi. Chunki oila tarbiyaning bosh markazidir.

Respublikamizda integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'limni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

– integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'limni imkoniyatlari cheklangan bolalarning barqaror rivojlanishi, reabilitatsiyasi, jamiyatda moslashuvi va integratsiyasining muhim omili sifatida tan olinishi;

– integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'limni saqlab qolish va rivojlantirish maqsadida barcha strategik kuchlar, davlat va nodavlat tuzilmalar, keng jamoatchilikning jipslashishi;

– integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'limning hamma uchun ochiqligi, ta'lim tizimining ta'lim oluvchilar rivojlanish salohiyatlari, o'ziga xos xususiyatlari hamda ta'lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda moslashuvi;

– imkoniyatlari cheklangan bolalarni umumiy ta'limga integratsiyalash maqsadida ta'lim muassasalari, ota-onalar, jamoatchilik tashkilotlarining faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish mexanizmlarini yaratish;

– integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim muassasalari uchun alohida dasturlar, o'quv rejalari, o'quv-uslubiy majmualar ishlab chiqish;

– ta'lim oluvchilarda tevarak-atrofdagilar, tengdoshlari bilan o'zaro ijobiy munosabatlarning o'rnatilishi, atrofdagi kishilarda bag'rikenglikni rivojlantirish;

– imkoniyatlari cheklangan bolalarni ularning ehtiyojlari va imkoniyatlariga qaratilgan sifatli ta'lim olishida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi.

Integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim sohasidagi davlat siyosati yosh fuqarolarning ta'lim olishlari uchun optimal sharoitlar yaratilishiga qaratiladi va quyidagi maqsadlar bajarilishiga yo'naltiriladi:

– bolaning o'ziga xos ta'limga ehtiyojlarini mumkin qadar erta (hayotining dastlabki oylaridan) aniqlash;

- o'ziga xos ta'lim ehtiyojlari mavjud bolalarning barchasini ta'limga jalb etish;
- imkoniyatlari cheklangan bolalarni sog'lom tengdoshlari qatoriga integratsiyalash uchun sharoitlar yaratish;
- imkoniyatlari cheklangan shaxslarning o'ziga xos ta'lim ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- maxsus ta'lim muhitida ishlayotgan pedagoglarga malakali uslubiy yordam ko'rsatish va rag'batlantirish;
- uyg'un rivojlangan avlodni tarbiyalashga qaratilgan davlat siyosatini ta'lim vositalari yordamida qo'llab-quvvatlash.

Mazkur maqsadlarga erishish quyidagi vazifalar majmuasining amalga oshirilishini taqozo etadi:

- imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlaridan kelib chiqib, maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim mazmunini ilmiy-uslubiy jihatdan ishlab chiqish;
- maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'limni uning barcha pog'onalarida tashkil etish, boshqarish va muvofiqlashtirish prinsiplari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'limning huquqiy asoslarini takomillashtirish, uning me'yoriy-huquqiy jihatdan ta'minotini ta'lim siyosatining maqsad va vazifalariga moslashtirish;
- bolalarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda sifatli ta'lim olishda teng imkoniyatlarga ega bo'lish uchun davlat tomonidan berilgan kafolatning amalga oshirilishini ta'minlaydigan tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini yaratish;
- maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim muassasalari uchun pedagogik kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish ishlarini takomillashtirish;
- maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim muammolarini ilmiy-nazariy va ilmiy-uslubiy nuqtayi nazardan ishlab chiqilishini ta'minlaydigan ilmiy-pedagogik kadrlarning kasbiy tayyorgarligi va malakasini oshirish;
- bu faoliyatga davlat, jamoatchilik tashkilotlari, ota-onalarni keng jalb qilishga qaratilgan ta'lim siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishning davlat-jamoatchilik mexanizmlarini rivojlantirish;
- mintaqalarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim holati va rivojlanish tendensiyalarini monitoring qilish tizimini yaratish;
- integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim sohasida tarbiyachilar, o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar, jamoa tashkilotlari xodimlari uchun o'quv-metodik majmualar va ommabop adabiyotlarni yaratish.

Imkoniyatlari cheklangan bolalarning, xoh u maxsus maktab, maktabgacha muassasalar bo'lsin, xoh umumta'lim muassasalari qoshidagi sinf yoki guruhlar bo'lsin, xoh uyda ta'lim olish bo'lsin – o'qitishning barcha shakllari – ta'lim sohasiga jalb qilinishi ma'lum jihatdan integratsiya jarayoni hisoblanadi, chunki o'qish davrida va undan keyin ham ular boshqa bolalar bilan o'zaro muloqotda bo'lishadi, ularning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga uyg'unlashuvi ta'minlanadi.

Har bir bola o'z imkoniyat darajasida rivojlanadi, buni psixolog L.S. Vigotskiyning ilmiy qarashlarida ko'rish mumkin, “Har qanday ruhiy yoki jismoniy nuqsonda ham taraqqiyot davom etadi”.

Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar maxsus ta'limida guruhlarni va ta'lim-tarbiya jarayonini moslashtirish uchun quyidagi tavsiyalarni aytishni lozim topdik:

- aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar tez charchab qolishini hisobga olgan holda, ularga harakatda bo'lish imkonini beruvchi topshiriqlar berib turish;
- har bir mag'ulotda jismoniy daqiqa o'tkazishni unutmaslik;

-
- mashg'ulotlarda ko'rgazmalilikka tayanish;
 - aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolaga topshiriqlarni qismlarga bo'lib berish;
 - bolani rag'batlantirishni unutmaslik;
 - usullarning xilma-xilligidan doimiy ravishda foydalanish;
 - o'yin metodlariga maksimal darajada tayanish;
 - bola topshiriqni bajarayotganda unga qo'shimcha yoki amaliy ko'rsatma ham berish;
 - doimiy ravishda aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolani nazorat ostiga olish.
- Yuqorida ko'rib chiqilgan maxsus ta'lim to'g'risidagi zarur tushuncha va fikrlar maxsus ta'limni amaliyotga tatbiq qilishda foydali bo'lishi mumkin. Olib borilgan tadqiqotlar imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasida duch kelinadigan qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // *Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori*. – T.: Sharq, 1997.
3. G'oziyev E.G'. *Umumiy psixologiya*. – T., 2010.
4. Shomaxmudova R.Sh. *Inklyuziv ta'lim (Xalqaro va O'zbekistondagi tajribalar)*. – T.: TDPU, 2011. 121-b.
5. Kaxarova D.S. *Inklyuziv ta'lim texnologiyasi*. – T.: Fan va texnologiya, 2014. 192-b.
6. Малофеев Н.Н., Шматко Н.Д. *Базовые модели инклюзивного обучения*. – М.: "Дефектология" научно-методический журнал. 2008, №1.
7. Шомахмудова Р., Туляганова Д.Р. *Инклюзия детей с особыми потребностями как залог успешной реабилитации, адаптации и социализации в обществе*. *Xalqaro forum materiallari to'plami. "Sog'lom turmush tarzi – barkamol avlod asosidir"* ("Здоровый образ жизни – основа гармоничного развитого поколения"), 2010-yil 29-30-noyabr, 207-210-b.
8. Ахмедова Д.И. *Медико–психологические факторы формирования здоровья детей и социализация в общество детей с инвалидностью*. *Xalqaro forum materiallari to'plami. "Sog'lom turmush tarzi – barkamol avlod asosidir"* ("Здоровый образ жизни – основа гармоничного развитого поколения"), 2010-yil 29-30-noyabr, 47-149-b.
9. Шоумаров Г. *Развитие инклюзивного образования в Узбекистане*. "Bola va zamon" jurnali. 2008. №4. 7-9-б.

Tahririyat: Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlod tarbiyasi yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlarga qaramay, jismoniy va ruhiy imkoniyati cheklangan farzandlar tug'ilishi ro'y bermoqda. Ularni esa, o'z holicha tashlab qo'yish bizning insonparvar jamiyatimizga xos emas. Shu bois mamlakatimiz ta'lim tizimida maxsus ta'limga yanada keng e'tibor qaratish zarurligi ayon bo'ladi. Muallifning bu borada bildirgan fikrlari amaliyotda o'z isbotini topsa, maxsus ta'limning samaradorligi yanda oshadi.

Lola MO'MINOVA,

Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi
direktor o'rinbosari, p.f.d. prof.

NUTQ NUQSONIGA EGA BO'LGAN BOLALAR NUTQINI KICHIK FOLKLOR JANRLARI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada nutq nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar nutqini tashxislash va korreksiyalashda kichik folklor vositalaridan foydalanishning ahamiyati xususida so'z yuritilgan. Mutaxassislar, ayniqsa, logopedlar dars jarayonida topishmoq, maqol va tez aytishlardan to'g'ri foydalanish uchun metodik tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Nutq, nuqson, folklor, logoped, tashxislar, korreksiyalash, rivojlantirish.

В статье освещена технология использования малых фольклорных жанров для преодоления у детей дефектов речи. Даны рекомендации для специалистов, в частности логопедов, по преодолению речевых нарушений у детей средствами фольклора (загадки, пословицы, скороговорки).

Ключевые слова. Речь, дефект, фольклор, жанр, логопед, коррекция, развитие.

Article presents the technology of using small folklore genres to overcome speech defects in children. Also given recommendations for specialists, in particular speech therapists, on overcoming speech disorders in children by means of folklore (riddles, proverbs, tongue twisters).

Key words. Speech, defect, folklore, speech therapist, correction, development.

Har qanday millatning ravnaqi bevosita o'z farzandlarining aqliy va jismoniy yetukligiga bog'liqdir. Bola shaxsining har tomonlama rivojida esa nutq katta ahamitga ega. Chunki nutq kishilararo aloqa quroli, barcha sohalarda qudratli muomala vositasidir. Nutq – insonning muloqot, fikrlash va faoliyat jarayonida muhim psixik vazifani bajaradi.

Nutqni rivojlantirish til va nutqning ayrim hodisalarini eng sodda shaklda bo'lsa-da, anglab yetishni o'z ichiga oladi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiy ta'lim-tarbiyasiga nisbatan bir paytning o'zida ham nutqni rivojlantirish, ham ona tilini o'qitish haqida so'z yuritish lozim.

Bolalar nutqini rivojlantirish muammosi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlarning asosini tashkil qiladi. Ularning har biri nutqning yuzaga kelishi, uni rivojlantirish va o'rgatish muammosini hal qilishga o'ziga xos munosabat bildirgan bo'lsalar-da, aksariyat olimlar nutqni shakllantirish hamda rivojlantirishda tizimli yondashuvni talab etadi.

Maxsus ta'limning mazmuni, metod, usul, vositalari, tashkiliy shakllari doirasini xalq pedagogikasi tarixi va tajribasiga, noan'anaviy psixologik-pedagogik korreksiya metodlariga asoslangan holda yanada rivojlantirish va kengaytirib borish lozim. Xu-

susan, nutq nuqsonlariga ega bolalar nutqini tashxislash va korreksiyalashda bolalar folkloridan foydalanish mana shunday dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Bu merosimizning ahamiyatini yaxshi tushungan mutaxassislar, ayniqsa, logopedlar o'zlarining kundalik faoliyatlarida topishmoq, maqol va kichik folklor janrlarining boshqa ayrim namunalaridan foydalanib kelishadi. Biroq bular ko'proq tasodifiy xarakterga ega.

Bolalar nutqini kichik folklor janrlari asosida rivojlanishning aniq ishlab chiqilgan metodikasi mavjud emas.

Nutqqa o'rgatish muammosi doimo maktabgacha ta'lim didaktikasining yetakchi muammolari qatorida turgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Bolaning ona tilini o'zlashtirishida o'qitishning tutgan ahamiyati bir necha bor Sharq (Ibn Sino, Alisher Navoiy va boshq.) va G'arb mutafakkirlari tomonidan qayd etilgan.

Ibn Sino bolalar bilan xotirjamlik asosida va uning shaxsiga tegmagan holda suhbatlashish, suhbatni hikoya va afsonalardan boshlash zarurligini uqtirgan.

Alisher Navoiy so'z, nutq va ularning inson hayotidagi ahamiyatini obrazlar orqali yuqori badiiy shaklda ifodalagan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish va ularga ona tilini o'rgatish sohasidagi psixologik-pedagogik tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida nutqni rivojlantirish tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Nutqni rivojlantirish bu – bolaning individual rivojlanishida asosiy o'rinni egallovchi ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirishiga oid o'ta murakkab va ko'p omilli jarayondir; stixiyali jarayon emas, balki pedagogik rahbarlikni talab qiluvchi ijodiy jarayondir. Nutqni rivojlantirish jarayoni o'z qonuniyatlari, mexanizmlariga ega bo'lib, u bolaning yosh bosqichlarini, individual psixik va nutq xususiyatlarini hisobga olishni, shuningdek, pedagogik ta'sir ko'rsatishning eng samarali yo'llarini tanlashni talab etadi.

Nutqni rivojlantirish ilmiy asoslangan bo'lib, u bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan.

Korreksion ta'lim va tarbiyaning asosiy vazifasi bola nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etish va to'g'ri nutqni shakllantirishdan iborat. Ona tilini rivojlantirish jarayoni bolalarning bilish qobiliyatini rejali, aniq maqsadni ko'zlagan holda rivojlantirish, ularning atrof-olam haqidagi eng oddiy bilimlarini va lug'at boyligini oshirish, nutqiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirishni ko'zda tutadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishning asosiy shakli mashg'ulotdir. Chunki o'zlashtiriladigan bilimlar mazmuni, tarkibi, qo'llanadigan usullari hafta davomida o'tkaziladigan mashg'ulotlar soni, har bir mashg'ulotning davomiyligiga bog'liq bo'ladi.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda qo'llanadigan o'quv va didaktik materiallar qatorida kichik folklor janrlari – ertak, topishmoq, maqol va tez aytishlar ham katta o'rin egallaydi. Ma'lumki, ular qiyoslash, sinonim, antonim va boshqa badiiy nutq vositalariga boy bo'lib, bolaning nutqini ifodali bo'lishiga yordam beradi. Bundan tashqari yana nutqiy nafas olish, nutq sur'atini to'g'rilashga, tovushlarni ravon talaffuz etishga yordam beradi. Alla, topishmoq, ayniqsa, maqollar obrazlarda bolaga jamiyat va tabiat hayotini, insoniy his-tuyg'u va munosabatlar dunyosini ochib beradi hamda tushuntiradi.

Shunday qilib, folklor janrlari bolalarni har tomonlama rivojlantirishning asosi bo'lib xizmat qiladi, u bola nutqini rivojlantirish va boyitishga katta ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar, atrof-dagilarga taqlid qilar ekan, nafaqat to'g'ri talaffuzni, balki so'zni to'g'ri qo'llash, iboralar tuzish sirlarini o'rganadi, ularda uchraydigan nutq nuqsonlarini bartaraf etib boradi.

Nutq kamchiliklariga ega bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni kichik folklor janrlari asosida nutqini rivojlantirish tamoyillari quyidagilar:

- aqliy va nutqiy rivojlanishning o'zaro bog'liqligi tamoyili;
- nutqni yaxlit bir tuzilma sifatida rivojlantirish;
- nutqiy rivojlanishning individual xususiyatlarini hisobga olish;
- bolalarning faol nutqiy amaliyotini ta'minlash;
- nutqni rivojlantirishga nisbatan muomalali va amaliy yondashuv;
- muloqotning ijobiy va emotsional muhitini ta'minlash.

Bolalar nutqini kichik folklor janrlari asosida rivojlantirishning metodik jarayonini ikki bosqichda olib borish maqsadga muvofiq:

1. Tayyorlov bosqichi.
2. Asosiy bosqich (bevosita ta'lim bosqichi).

Tayyorlov bosqichida folklor asarlari, xususan, bolalar folkloriga oid ilmiy adabiyotlar va nashr qilingan namunalar o'rganib chiqiladi. Nutq kamchiliklari bo'lgan bolalarda tovush talaffuzi buzilgan bo'ladi, nutqning leksik-grammatik jihatlari shakllanmaydi, nutqning ravonligi, sur'ati, nutq a'zolarining harakatchanligi ham buzilgan bo'ladi. Bolalar folkloridan mana shu kamchiliklarni korreksiyalashga ko'proq mos keladigan asarlar tanlanadi, ya'ni tovushlarni mustahkamlash va farqlash, sirg'aluvchi, portlovchi, sonor, jarangli va jarangsiz tovushlarni mustahkamlash uchun mos keladigan tovushlar ishtirokidagi namunalar tanlab olinadi. Bu logopedik maqsadlarga aynan folklorning kichik janrlari mos keladi, shuning uchun asosan maqol, topishmoq, tez aytish va qo'shiqlar tanlab olinadi. Bolalarning o'zi bu namunalarni qay darajada bilishlarini aniqlash uchun, avval ulardan bu haqida so'raladi va bolalar bilgan topishmoq, maqollar boshqa bir daftarga yozib qo'yiladi. Bu daftar ota-onalarga ham ko'rsatiladi.

Ta'limiy-korreksion mashg'ulotlarda nutqida kamchilik bo'lgan bolalarga folklorning kichik janrlari vositasida nutqini rivojlantirishda quyidagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

Ko'rgazmali metodlar – kuzatish, ko'rgazmali usullardan foydalanishda suhbat, mulohaza mavzusini belgilaydigan manba bo'lib xizmat qiladi.

Og'zaki metodlarga – badiiy asarlarni eshitish, o'qish, she'r yod olish, suhbat, hikoyalari kiradi.

Shuning uchun deyarli barcha so'zli metodlarda ko'rgazmali usullardan (narsa, o'yinchoqni qisqa vaqtda ko'rsatish, illyustratsiyalarni ko'zdan kechirish) yoki bolalarni dam oldirish maqsadida ko'rgazmali obyektini namoyish qilishdan foydalaniladi.

Amaliy metodlarga mashqlar, o'yin metodlari kiradi va ular bolalar nutqini rivojlantirishda keng qo'llaniladi. Ularning maqsadi bolalarga olingan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llashni o'rgatish, nutqiy malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishda yordam beradi. Didaktik o'yinlardan nutqiy rivojlantirishga oid barcha vazifalarni hal etish uchun foydalaniladi.

Har bir metod didaktik vazifalarni hal etish – ya'ni, bolalarga yangi narsalarni tanishtirish, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash, o'zlashtirilgan narsalarni ijodiy ravishda qayta ishlash uchun xizmat qiladigan metodlar majmuasidir.

Eng ko'p tarqalgan og'zaki metodlardan biri – nutqiy namunadir. Nutqiy namuna bu – tarbiyachining to'g'ri, ilgaridan mashq qilingan nutqiy faoliyatidir. Namuna bolalarga aniq, tushunarli, baland va bosiq ovozda namoyish qilinadi.

Takrorlash – esda saqlab qolish maqsadida aynan bitta nutqiy elementdan (tovush, so'z, ibora) bir necha marta foydalanish. Takrorlash tarbiyachining o'zi yoki bola (ikki nafar bola) tomonidan hamda bolalar tomonidan birgalikda amalga oshiriladi.

Tushuntirish – logoped tomonidan narsa yoki hodisa mohiyati ochib beriladi.

Ko'rsatma berish – bolalarga qanday harakat qilish, qanday qilib natijaga erishish mumkinligi tushuntiriladi. Ko'rsatmalar o'rgatuvchi, tashkiliy va tartibga keltiruvchi bo'ladi.

Og'zaki mashqlar – nutqiy malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish hamda ularni takomillashtirishdir.

Bolalar nutqini baholash – o'rgatuvchi usul bo'lib, unda bolaning javobi yoki nutqiga asoslangan holda mulohaza bildiriladi. Ko'pincha baholar nutqning ijobiy tomoniga taalluqli bo'ladi.

Savol-javob – murojaat bo'lib, u mavjud bilimlaridan foydalanish yoki uni qayta ishlash zarurati qarshisida turgan bolaga vazifa qo'yish va uning javobini kutishni talab qiladi. Savollar mazmuniga qarab tasniflanadi: faktlarni tasdiqlashni talab qiluvchi reproduktiv savollar (Nima? Kim? Qanday? Qayerda? Qayerga? Qancha? Qachon? va boshq.), aql bilan bir xulosaga kelishni talab qiluvchi nisbatan murakkab – qidiruv savollari (Nega? Nima uchun? Nimasi bilan o'xshash? va boshq.). Savollar tuzilishiga qarab to'g'ridan-to'g'ri, yo'l ko'rsatuvchi va javobni aytib turuvchi savollarga bo'linadi.

O'yinli metodlar – maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda turli o'yinchoqlardan foydalanish o'yinlarni yanada jonli va emotsional qiladi, bu esa bolalarning diqqat e'tibori oshishiga olib keladi, ayni paytda barcha nutq jarayonlari faollashadi.

O'rgatuvchilik vazifasiga qarab rivojlantirish usullarini bevosita va bilvosita metodlarga ajratish mumkin:

Bevosita ta'lim usuli – namuna, izoh, savol, bola javobini baholash, ko'rsatma berish va b.

Mashg'ulot, o'quv vazifasining maqsadiga qarab bir mashg'ulotda aynan bitta usulning o'zi yetakchi, boshqa bevosita usullar esa – qo'shimcha usullar bo'lishi mumkin. Masalan, hikoya qilib berishga oid mashg'ulotda namuna yetakchi usul bo'ladi, boshqa usullar – reja, savollar esa – qo'shimcha usul bo'ladi.

Bilvosita metodlarga – eslatish, maslahat berish, aytib turish, tuzatish kiritish, mulohaza bildirish, luqma tashlashlar kiradi.

Bitta mashg'ulotda butun usullar majmuasidan foydalanish tavsiya etiladi, masalan: narsalarni taqqoslashni, uning nomini aytish (so'z namunasi), tushuntirish, badiiy so'z va hokazolar bilan birgalikda amalga oshirish tavsiya etiladi. Pedagog mashg'ulotlarning umumiy borishini oldindan o'ylab, zarur ta'lim usullarini belgilab olishi darkor. Kerakli usullarni asosli tanlab olinishi ko'p jihatdan har bir mashg'ulotning muvaffaqiyatini belgilaydi.

Ma'lumki, nutqni rivojlantirishda mayda qo'l motorikasining ahamiyati katta. Shuning uchun topishmoqlarning javobini topishda, bolalarga unda yashiringan narsaning rasmini chizishni topshirish mumkin. Masalan, "qush emas qanoti bor, chiroyli savlati bor, uchsa lochin yetolmas, tolmas zo'r quvvati bor" topishmog'ining javobi "samolyot". Uning javobini aytmay, rasmini chizib berish topshiriladi. Keyin bolalarning rasmlari o'zaro solishtiriladi.

Shunday qilib, bolalarda leksik malakalar shakllanib boradi. Ular so'z va iboralarining ma'nosini tushunishga o'rganishadi, ularning to'g'ri talaffuzini o'zlashtirib borishadi. Kichik folklor janrlari namunalari "Nutqni o'stirish", "Tevarak-atrof bilan tanishtirish" mashg'ulotlarida asta-sekin kiritib borildi. Keyinchalik maqollar turli didaktik o'yinlarga ham kiritiladi. Masalan, "Maqolni davom ettir" o'yinida logoped maqolni boshlaydi va

bolalardan uni davom ettirishni so'raydi yoki bir bolaning o'zi biron maqolning boshini aytadi, boshqa bola uni davom ettiradi.

“Nutqni o'stirish” mashg'ulotlarida bolalarning talaffuzini yaxshilash uchun tez aytishlardan foydalaniladi. Tez aytishlarni talaffuz qilish oson emas. Ularning xususiyati shundaki, har birida bironta tovush ustunlik qiladi. Ularni to'g'ri talaffuz qilishga intilish bolada fonematik idrokni rivojlantiradi. Yana shunday tez aytishlar borki, ularda bir xil tovushlar qator kelgan har xil so'zlarda takrorlanadi va shu bilan birga yaqin tovushlar bilan birga keladi. Masalan:

Sabiha, Sohiba, Zabiha

Sahifani sinchiklab o'qidi.

Bunga birinchi satrda qator kelgan “s” va “z” tovushlarini talaffuzda ham, so'z ma'nosida ham farqlash kerak. Buning uchun avval tez aytishlar bolalar bilan birgalikda sekin sur'atda, har bir tovushi alohida ajratilib talaffuz etiladi. Tez aytish ko'p marta-past ovozda, sekin, bo'g'inlarga ajratilib o'rgatib boriladi. Masalan:

Chum-chuq chu-g'ur-chuq-ni cho'-qi-ma-sa,

Chu-g'ur-chuq chum-chuq-ni cho'-qi-may-di.

Bunda bolalar tez aytishning qanday talaffuz qilinishini eshitishi va ko'rishi, hatto his qilishlari, o'zlari uni yod olib, aniq talaffuz qilishga o'rganishi kerak.

Tez aytishni qaytarish uchun avval xotirasi va talaffuzi yaxshi bola taklif qilinadi va unga tez aytishni sekin aniq aytib berish topshiriladi. Keyin tez aytish hamma bolalar bilan birgalikda logoped boshchiligida qaytariladi. Bunday mashqlarda odatda 5-10 daqiqagacha vaqt ajratilishi lozim. Asta-sekin bunday usullar bolalarning o'zlashtirish va nutq imkoniyatlariga qarab yangilari bilan kengaytirib boriladi. Tez aytishlar bolalarning “talabi”ga ko'ra tanlanadi va ularni aytishda bolalarning o'zi yetakchilik qiladi: bir bola tez aytishni boshlaydi va ikkinchisi uni davom ettiradi yoki tez aytish qismlarga bo'linib, har bir qismini bir qatorda o'tirgan bolalar qaytaradi. Masalan:

Niyoz piyoz archdi, (birinchi qator)

Fayoz piyoz artdi. (ikkinchi qator)

Piyozdan Niyozning ko'zi (uchinchi qator)

Achidimi, Fayoznikimi? (to'rtinchi qator)

Yuqorida keltirilgan hamma mashqlarning asosiy va dastlabki maqsadi bolalarning aniq talaffuzini rivojlantirishga qaratiladi. Bular nutq texnikasi bo'yicha mashqlardir. Bolalar matnlarning mazmunini o'zlashtirish bilan birga bu matnlarni ovoz sur'ati va kuchini o'zgartirgan holda aniq talaffuz qilish malakasini egallab boradi.

Aniq talaffuzga erishish uchun turli ovozlarga taqlid qilish mashqlarini bajarish tavsiya etiladi. Logoped biron hayvonning ovoziga taqlid so'z bo'lgan matnni o'qiydi, bolalar unga qo'shilib, alohida tovushlar, taqlidiy so'zlarni qaytaradi. Masalan: mushuk “miyov-miyov” qiladi, g'oz-chi, “g'aq-g'aq” qiladi.

Topishmoqlarni topishda bolalarga tahlil qilishga undaydigan savollar beriladi. Masalan, “Yer tagida o'zagim, shirin, qizilman o'zim, bo'yim ham uzun-uzun” topishmog'ining javobini qidirar ekan, bola “Bu sabzi, chunki u yerning tagida o'sadi”, – deydi. Bolaga uning dalili yetarli emasligi aytiladi: “Kartoshka ham, lavlagi ham yer tagida o'sadi-ku”. Shunda bola sabzining topishmoqda keltirilgan boshqa sifatlariga ham e'tibor beradi (uzun, qizil, shirin) va o'z javobini yanada asosliroq isbotlaydi.

Nutq kamchiliklariga ega bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini folklor janrlar asosida rivojlantirishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim:

– nutqni rivojlantirish – ijodiy jarayon bo'lib, u bolaning o'ziga xos xususiyatlari, nutq nuqsonining turi bilan belgilanadigan jarayondir;

– nutqni rivojlantirish asosini kommunikativ yondashuv tashkil qilmog'i lozim, xususan, tilni o'zlashtirish nutqiy muloqot faoliyatiga qo'shilishi zarur;

– ta'lim-tarbiya va korreksion-logopedik ish jarayonida logoped, tarbiyachining bola bilan o'zaro munosabati xususiyati ushbu bola uchun yetakchi bo'lgan muloqot shakli bilan belgilanishi lozim;

– nutq faoliyatining barcha komponentlarini, ya'ni: undov-motivatsiya, mo'ljal-tadqiqot, ijro komponentlarini hisobga olgan holda uning tuzilmasi doirasida amalga oshirish darkor;

– bolalarning nutq nuqsonlarini bartaraf etish (tovushni qo'yish, mustahkamlash, farqlash, nutqni rivojlantirish) asosiy faoliyatiga asoslanishi va bola faoliyatining boshqa turlari bilan bog'langan bo'lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, nutqdagi kamchiliklarni bartaraf etishda, asosan, an'anaviy bo'lgan tez aytish, topishmoq va she'rlardan foydalanib kelinmoqda. Shubhasiz, ular bolalarga xushkayfiyat va tetiklik bag'ishlaydi. Bundan tashqari, bolalarga berilgan logopedik topshiriqlarni oson va erkin bajarishlari uchun qulay sharoit yaratib beradi. Logopedik mashg'ulotlar va o'yinlarda tez aytish, topishmoq va she'rlardan keng foydalanish natijasida, bolalarning nutqi o'sadi, shu bilan birga nutqning ravon bo'lishida, to'g'ri ohangning shakllanishida katta ahamiyatga ega. Milliy adabiyotimiz namunalari bo'lmish sanama, chorlashma, qiqillama, aytishuv, cheklashmachoq, aytishma o'yin va yarashtirgich kabi xalq og'zaki ijodi nafaqat bolaning nutqini o'stirishda, balki ularni milliy ruhda tarbiyalash, milliy qadriyatlarimizni hurmat qilish va vatanparvarlik hissini uyg'otishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir* – T.: O'zbekiston 2010.

2. Karimov I.A. *Barkamol avlod orzusi*. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000.

3. *O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi*. – T.: O'zbekiston. 2014.

4. Shomahmudova R., Mo'minova L.R. *Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish*. – T., 1995.

5. Pulatova X.M *Nutqi to'liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalar nutq faoliyatini faollashtirishda eshitish analizatorlarining roli // Ilmiy to'plam*. – T., 2007.

6. *Фольклор – музыка – театр /Под ред. С.М. Мерзляковой*. – М.: Владос, 1999. – С. 214.

Tahririyat: *Xalq og'zaki ijodi, folklor janrlari bizning asriy an'analarimiz, urf-odatlarimizni o'zida jo etgan bebaho merosimizdir. Bugun ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar ushbu namunalardan o'quv mashg'ulotlarda foydalanmay, nazardan chetda qoldirmoqda. Muallif ushbu maqolasida esa, nutq nuqsonini bartaraf etishda kichik folklor janrlaridan foydalanish metodikasini taklif etgani soha mutaxassislari uchun ahamiyatli, albatta.*

Shukriddin PAXRUTDINOV,

A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI professori, s.f.d.

GLOBALLASHUV VA AXBOROT ALMASHINUVI JADALLASHGAN SHAROITDA MEDIATA'LIMNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada axborot makonining globallashuvi sharoitida mediata'limning o'rni nihoyatda muhim bo'lib, uning ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etishi haqida fikr yuritilgan. Muallif mediata'lim orqali yoshlar o'rtasida ommaviy axborot vositalaridan to'g'ri foydalanish bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantirish zarurligini ta'kidlab, ta'lim-tarbiya jarayonida mediata'limni yo'lga qo'yish orqali yoshlarni qurshab turgan mediamadaniyatda ongli ishtirok etishga va bu jarayonda shaxs sifatida o'zligini anglashiga sharoit yaratilishini bayon etgan.

Kalit so'zlar. Mediata'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ommaviy axborot vositalari, axborotlashgan jamiyat, savodlilik, bilimlilik, salohiyatlilik, madaniyat, mentalitet.

В статье рассматривается важность медиаобразования в условиях глобализации информационного пространства, и его социально-политическое значение. Автор обосновывает необходимость развития у молодежи навыков и умений по правильному использованию средств массовой информации методами медиаобразования, умений ориентироваться в окружающем молодежь медиaprостранстве посредством организации медиаобразования и создания условий по самосохранению молодежи в этом процессе.

Ключевые слова. Медиаобразование, информационно-коммуникационные технологии, средства массовой информации, информационное общество, культура, менталитет.

The article considers the importance of media education in the context of globalization of the information space, its socio-political significance. The author shows the need for young people to develop skills and knowledge in the proper use of the mass media by media education methods, the ability to orientate themselves in the media environment surrounding the youth through organizing media education and creating conditions for the self-preservation of young people in this process.

Key words. Media education, information and communication technologies, mass media, information society, culture, mentality.

Jahon taraqqiyotining hozirgi bosqichida globallashuv jarayoni jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib keldi. Jumladan, axborot maydonida u yaqqol namoyon bo'lib, uzviy bog'liq holda kechmoqda. Chunki axborot sohasiga taraqqiyotning strategik resursi sifatida qaraladi. Jamiyatning global axborotlashuvi ilmiy-texnik, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'zagini tashkil etib, taraqqiyotning bosh omiliga aylanmoqda.

Bugungi kunda aloqa vositalarining rivojlanishi, ularning kompyuterlashtirilishi, elektron pochta, internet, kosmik tele-radio aloqa tizimlarining takomillashishi axborot almashuv imkoniyatlarini keskin darajada kengayib ketayotganidan dalolat beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur'atlarda taraqqiy etishi insoniyat hayotini to'xtovsiz axborotlar oqimi bilan qamrab olinishiga, dunyoda global axborot tizimining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida global axborot jamiyat shakllanishiga zamin yaratdi.

“Aslida axborot sohasidagi globallashuv insoniyat uchun, dunyoning barcha hududlaridagi odamlarning o'zaro muloqoti uchun, ilm-fan va madaniyat boyliklarini o'zlashtirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadigan jarayondir”¹.

Olim va mutaxassislarining xulosasiga ko'ra, global axborot jamiyati vujudga kelishining quyidagi uchta sababi bor:

- 1) ilmiy-texnika taraqqiyotining qonuniyati;
- 2) globalizatsiya talablari;
- 3) xalqaro hamjamiyat tomonidan ushbu sohaning muhimligi tan olinishidir.

Shu bilan birga zamonaviy axborot texnologiyalari sohasidagi yutuqlardan ba'zan yovuz maqsad yo'lida foydalanib, uni taraqqiyot kushandasiga aylantirayotgan kuchlar ham borki, ular o'z sa'y-harakatlari bilan kishilarning tinch va farovon hayotiga daxl qilmoqda. Yangi axborot xurujlari inson ongi va qalbiga tajovuz qilib, uning turmush tarzi, qarashlarini o'zgartirishga intilmoqda.

“Inson qalbi va ongini egallash uchun kurash xilma-xil g'oyalar bilan qurollangan, turli manbalardan ozuqlanadigan mafkuralarning asosiy maqsadiga aylanmoqda”².

Axborotlashuv sharoitida axborot xavfsizligini ta'minlashdagi muhim omil – inson omilidir. Chunki bugun “axborot” tushunchasi inson tafakkuriga turli ko'rinishda ta'sir etib, uning hayoti va taqdirini salbiy yoki ijobiy tomonga yo'naltirilgan kuchli vositaga aylandi. Bu esa, o'z navbatida, har bir shaxsdan kuchli sezgirlikni talab etmoqda. Sababi, yoshlar katta avlodga nisbatan dunyo sivilizatsiyasi imkoniyatlaridan, jumladan, ommaviy axborot vositalari (OAV) dan ko'proq bahramand bo'layapti. Ammo shuni ham e'tirof etish zarurki, “Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o'z oldimizga qat'iy maqsad qilib qo'yganmiz va bu yo'ldan hech qachon qaytmaymiz”³.

Shuning uchun ham insonlarda, ayniqsa, o'sib kelayotgan yoshlarda axborot olish madaniyatini shakllantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, axborot makonining globallashuvi sharoitida mediata'limning o'rni nihoyatda muhim bo'lib, u ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etadi.

Mediata'limning mohiyati va xususiyatlari borasidagi fikrlar so'nggi yillarda pedagogik muhitda eng muzokarali masalaga aylandi. Professor A.V. Fedorov mediata'limni ommaviy axborot vositalari bilan muloqot madaniyatini shakllantirish uchun ijodiy, kommunikativ salohiyatlar, tanqidiy tafakkur, mediamatnlarni to'laqonli idrok etish, talqin qilish, tahlil qilish va baholash hamda mediatexnika yordamida o'z-o'zini ifodalashning turli

¹ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O'zbekiston, 2000, 23-b.

² O'sha manba.

³ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. 114-b.

shakllariga o'qitish maqsadida ommaviy kommunikatsiya (media) vositalari va materiallari yordamida shaxsni rivojlantirish jarayoni sifatida ko'radi.

U haqli ravishda televideniye, radio, video, kinematografiya, matbuot, internet, OAV imkoniyatlaridan faol foydalanish insonga mediamadaniyat tilini yaxshiroq tushunishga yordam berishini ta'kidlaydi. Demak, mediata'lim kishilarni axborotlashgan jamiyatdagi hayotga tayyorlash vazifasini bajarish uchun mo'ljallangan.

Mohiyatiga ko'ra, fikrimiz ijtimoiy hayot, kundalik kasbiy faoliyat va bo'sh vaqtning zaruriy unsuri bo'lgan OAVlar faoliyatini yoshlar tomonidan ongli anglamoqligi, tushunishligi to'g'risida bormoqda. Shuni e'tirof etish kerakki, YUNESKONing rezolyutsiyasi va tavsiyalarida ham mediata'limning muhimligi va uni qo'llab-quvvatlash zarurati takror va takror ta'kidlangan. Tashkilotning 2002-yildagi tavsiyalarida “Mediata'lim har bir mamlakatdagi har bir fuqaroning o'zini erkin ifodalash va axborot olishga bo'lgan asosiy huquqining bir qismidir, u demokratiyani qo'llab-quvvatlashga imkon beradi. Turli mamlakatlardagi mediata'limga bo'lgan yondashuvlar va rivojlanishdagi farqlarni e'tirof etgan holda qayerda imkoni bo'lsa, milliy o'quv rejaları doiralarida, shuningdek, insonning butun hayoti davomidagi qo'shimcha norasmiy ta'lim va mustaqil bilim olish doiralarida uni joriy etish lozim”, deb ta'kidlanadi.

Bugungi kunda ota-onalar o'z bolalarining elektron OAVga, televideniye, formatli radio, internet, kompyuter o'yinlariga kirishini kundan-kunga kamroq nazorat qilayotganligi bois ham bu masala muhim ahamiyat kasb etmoqda. Vaholanki, bolaning axborot xavfsizligi bu – ham oilaviy, ham maktab tarbiyasining vazifasi sanaladi.

So'nggi vaqtda mediatadqiqotchilar va pedagoglar mediata'limning, ayniqsa, axloqiy-demokratik jihatiga e'tibor berishmoqda. Masalan, mediata'lim yetakchilaridan biri B. Mak-Maxon XXI asrdagi terrorchilik va urushlar davrida yoshlarga mediata'lim berish demokratik jamiyatning qat'iy talabidir, deb yozadi.

Shu bois inson hayotining, xususan, bolalar hayotining barcha sohalariga media-axborotning kirib kelishidan tashvishlangan jamiyatning ehtiyoji mediata'lim zaruratini keltirib chiqardi.

Mediapedagoglar va nazariyotchilar orasida eng nufuzlilaridan biri L. Masterman bugungi kundagi mediata'limning ustuvorligi va dolzarbligining yetti sababini asoslab bergan:

1. Media iste'molining yuksak darajasi hamda zamonaviy jamiyatlarning ommaviy axborot vositalari bilan to'laligi.
2. Medianing mafkuraviy muhimligi va sanoat tarmog'i sifatida yoshlarning ongiga ta'siri.
3. Mediaaxborot miqdorining tez o'sishi, uni boshqarish hamda uning tarqalishi mexanizmlarining kuchayishi.
4. Asosiy demokratik jarayonlarga medianing suqilib kirishi jadalligi.
5. Barcha sohalarda vizual kommunikatsiya va axborot qiymatining ortishi.
6. Maktab o'quvchilari (talabalar)ni kelajakdagi talablarga mos yo'nalish bilan o'qitish zarurati.
7. Axborotni xususiyashtirishning o'sib borayotgan milliy va xalqaro jarayonlari.

Shunday qilib, media (ommaviy kommunikatsiya vositalari) kishilar hayotida va ta'lim jarayonida kundan-kunga katta rol o'ynamoqda.

Mediata'limning maqsadi – yoshlarda mediaga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantirish, uni maktab, o'rta maxsus va oliy ta'limdan keyingi hayotda OAVning kreativ (ijodkor) foydalanuvchisiga aylantirishdir.

Mediata'limning asosiy vazifasi – axborotlashgan jamiyat sharoitida yangi avlodni turli axborotni tushunishga, uning ruhiyatga ta'siri oqibatlarini anglashga, texnik vositalar

yordamida kommunikatsiyaning og'zaki bo'lmagan shakllari asosida muloqot usullarini o'zlashtirishga o'rgatishdir.

Mediata'limning asosiy yo'nalishlari:

– bo'lg'usi professionallar – jurnalistlar (televideniye, radio, matbuot, internet), kinomatografistlar, muharrirlar, prodysuserlar va boshqalarga mediata'lim berish;

– universitetlarda, pedagogik institutlarda bo'lg'usi o'qituvchilarga mediamadaniyat bo'yicha kurslar doirasida bilim berish;

– oliy ta'lim muassasasi, litsey, kollej va maktab o'qituvchilarining bu boradagi malakasini oshirish, ta'lim muassasalarida bilim olayotgan o'quvchilar va talabalar uchun (maxsus, fakultativ, to'garakli) maxsus o'quv kurslarini joriy qilish;

– qo'shimcha ta'lim muassasalari va dam olish markazlarida (dam olish uylari, maktabdan tashqari ishlar, estetik va badiiy tarbiya markazlari, klublar va b.) mediata'limni tashkil qilish;

– televideniye, radio, internet tarmog'i yordamida maktab o'quvchilari, talabalar va kattalarga masofaviy mediata'lim berish;

– mustaqil va uzluksiz mediata'lim (bu nazariy jihatdan insonning butun hayoti davomida amalga oshirilishi mumkin) berish.

Aksariyat mamlakatlardagi hozirgi vaziyatni hisobga olgan holda ko'plab olimlar, mutaxassislar ta'kidlayotganidek, "axborot rolining o'sib borishi davrida voyaga yetayotgan avlodni dunyoviy axborot makoniga kirishga tayyor emasligi muammosiga" afsuski qo'shilmaslik mumkin emas. Bu ko'p jihatdan o'qituvchilar, tarbiyachilarning mediasavodi pastligi oqibatidir. Bularning barchasi mediata'limning ahamiyatini o'ta dolzarblashtir-moqda.

Yoshlarning axborot xavfsizligini yaratish sohasidagi sa'y-harakatlarni birlashtirish yo'llarini qaysi ijtimoiy kuchlar izlay oladi va izlashi lozim? Bunga quyidagi shaxslar va tashkilotlar misolida javob berish mumkin:

– maktab va boshqa ta'lim muassasalarining o'qituvchilari;

– yoshlar guruhida ishlovchi o'qituvchilar;

– ixtisoslashgan tadqiqotchilar;

– siyosiy yoki axloqiy maqsadlarga tayangan faollar guruhlari;

– ota-onalar;

– ham tijorat, ham notijorat mediakompaniyalar;

– OAV va o'zini o'zi boshqarish organlari.

Turli mamlakatlar va madaniyatlarda OAVdan kelayotgan xatarlar turlicha belgilanadi. Buyuk Britaniyada mediaziyolilarning tashvishi madaniy jihatga aylangan. Bu mamlakatda OAV bolalardagi "yuksak madaniyat" qadriyatlarini izdan chiqarishi mumkin bo'lgan "tuban" madaniyatni taqdim etmoqda, deb tushuniladi.

Shunday qilib, an'anaviy mediata'lim yoshlar tarbiyasining quyidagi maqsadlarini ilgari surgan:

– yuksak madaniyatga hurmat;

– axloqiy sog'lom xatti-harakat me'yorlari;

– siyosat to'g'risidagi oqilona tasavvurlar;

Hozirgi kunda ushbu sohada yangi OAVlar paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan o'zgarishlar yuz bermoqda. Ko'pincha mediata'lim yoshlarni OAVdan asrashi lozim bo'lgan "emlash" turi sifatida idrok etilmoqda, ammo bunday yondashuv barcha narsani salbiy oqibatlarga olib borgan holda bolalarga yangi OAVdan foydalanishdan olinishi mumkin bo'lgan barcha qoniqishlarni bera olmaydi.

Mediata'limdan yoshlarni o'z tanloviga ko'ra, ongli qaror qabul qilishni rag'batlantiruvchi himoya va tayyorgarlikning omuxta shakllarini taqozo etmoqda. Mediata'lim

yoshlar o'rtasida OAVni tushunishni rivojlantirishni ko'zda tutadi, bu o'z navbatida ularni qurshab turgan mediamadaniyatda ongli ishtirok etishiga, unga qiziqishiga olib boradi.

Mediata'lim = OAVdan himoya + OAVni tahlil qilishga tayyorgarlik + OAVning mohiyati va funksiyalarini tushunish + mediamadaniyatda ongli ishtirok etish.

Bu tizimli jarayon mediata'limning nafaqat yoshlar uchun, balki aholining turli qatlamlari uchun ham o'ta dolzarbligi va zarurligini belgilab bermoqda. Shundan kelib chiqqan holda mediata'lim asoslarini shakllantirishda uni o'zaro bog'liq, biroq bir-biridan farqlanuvchi modellarga bo'lish lozim. Shu bois mediata'limning zamonaviy moduli o'zida ikki asosiy xususiyatni – moslashuvchanlik va ommaboplikni birlashtirishi lozim.

Shu maqsadda mediata'limni ham ta'lim muassasalari darajasida, ham OAV, eng avvalo, televideniye va radio orqali amalga oshirish tavsiya etilmoqda.

Maktabgacha tarbiyadan boshlab to oliy ta'lim muassasasidagi ta'limning barcha bosqichlarida mediata'limning ahamiyatini hisobga olgan holda, umumta'lim maktablari, akademik litseylar va kollejlarning o'quv dasturlari va o'quv rejalariga ushbu yo'nalish bo'yicha maxsus kurslarni kiritish zarur, bu ham alohida qarab shaklida, ham maxsus yoki majburiy kurslar ko'rinishida amalga oshirilishi mumkin.

Mediata'lim bo'yicha ish olib borgan olimlar va mutaxassislar fikriga ko'ra, mediata'limning oliy maqsadi sifatida mediamentalitet tushunchasi kiritilmoqda.

Uning umumpedagogik chizmasi quyidagi ko'rinishga ega: savodlilik – bilimlilik – salohiyatlilik – madaniyat – mentalitet. Ya'ni mediata'lim natijalarining quyidagi tizimi: mediasavodxonlik – mediabilimlilik – mediasalohiyatlilik – mediamadaniyat – mediamentalitet tavsiya etilmoqda. Mazkur tizim mediata'lim faoliyati natijalarini ko'rishning aniq tasvirini bermoqda. Navbatma-navbat, yoshdan-yoshga qarab istalayotgan natijaning qandaydir jihati ustunligi oxir-oqibatda umumiy yaxlit natijaga erishish imkoniyatini beradi, deb faraz qilinmoqda.

Savodlilikning pedagogik turkumini ko'rib chiqqanda ta'kidlash joizki, ushbu so'z keng ma'noda – adabiy til me'yorlariga muvofiq og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini egallash; tor ma'noda – eng sodd matnlarni faqat o'qish ko'nikmasi yoki o'qish va yozish; qandaydir sohada bilimlarning mavjudligi tushuniladi. Savodlilik pedagogik kategoriya sifatida shaxs rivojiga ijtimoiy talablar o'sishining kengayishi tendensiyasiga ega: bu oddiy ko'nikmalardan insonga ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etishga imkon beruvchi ijtimoiy zaruriy bilimlar va malakalarning ayrim majmualarini egallab borishidir. Bu ta'riflar maktabgacha ta'limda mediasavodxonlik atamasini qo'llash munosibligini faraz qilishga imkon beradi. Chunki pedagogik kategoriya sifatidagi savodlilik oddiy malaka va ko'nikmalar mavjudligini ko'zda tutadiki, bu maktabgacha ta'lim uchun xosdir. Chunki mediata'lim tizimida mediasavodxonlik ham boshlang'ich bosqichdir.

Bilimlilik o'qish jarayonida olingan bilimlar majmuasi sifatidagi ta'lim darajasi; o'qimishlilik, madaniyat sifatida tushuniladi. Bilimlilik ta'rifi bilimlar majmuyi ekanini e'tiborga olgan holda mediata'lim natijasi sifatidagi mediabilimlilikni kichik maktab yoshida va o'smirlik yoshida shakllantirish borasida xulosa chiqarish mumkin. Chunki aynan shu yoshda asosiy bilimlar, malaka va ko'nikmalar shakllantiriladi. Maktabni tugatgandan so'ng o'quvchilar umumta'lim maktabining shahodatnomasini qo'lga kiritadilar. Bu ularda bilimlilikni muayyan darajasi mavjudligidan dalolat beradi.

Salohiyatlilik quyidagi ma'nolarni anglatadi: “asosiy bilimlarni egallagan; qandaydir sohadan yaxshi xabardor; ishni, tajribani bilishga asoslangan”. Mazkur ta'riflarda salohiyatlilik tajribaga asoslangan muayyan bilimlar majmuasi sifatida xususiyatlanayotganligi o'ta muhimdir, bu akademik litseylar va kollejlarda bitiruvchilarining va dastlabki bosqich talabalarining ta'lim darajasiga mos keladi.

Madaniyat kishilarning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy yutuqlari majmui sifatida; madaniyatlilikning aynan o'zi, ya'ni madaniyatning yuksak darajasida turgan, unga mos keluvchi; nimaningdir yuksak darajasi, ko'nikmalarning yuksak rivoji deb ta'riflanadi.

Madaniyatning keltirilgan ta'riflaridan kelib chiqqan holda *mediamadaniyat* media sohasidagi moddiy va intellektual qadriyatlar majmuasi, shuningdek, jamiyatda ularni yaratish va amal qilishining tarixiy belgilangan tizimidir. Auditoriyaga nisbatan mediamadaniyat mediamatnlarni idrok etish, tahlil qilish, baholash, mediaijod bilan shug'ullanish, media sohasida yangi bilimlarni o'zlashtirishga qodir bo'lgan inson shaxsiyati rivojlani-shining darajalari tizimi sifatida yuzaga chiqishi mumkin. Mazkur ta'rifda quyidagi xususiyatlar: "yuksak daraja", "yuksak rivojlanish", "ma'naviy va ijtimoiy yutuqlar" biz uchun muhimdir.

Madaniyat shakllanishi munosib bo'lgan muayyan yosh guruhini belgilashdan oldin mentalitet ta'rifini ko'rib chiqish mumkin. Falsafiy ensiklopedik lug'atda mentalitet quyidagi so'zlar bilan ta'riflanadi:

"Mentalitet (lotincha mentalis – aqlga oid) – ayrim insonga yoki ijtimoiy guruhga xos bo'lgan fikrlash tarzi, aqliy ko'nikmalar va ma'naviy maqsadlar majmuasi". Shunga mos holda mediamadaniyat va mediamentalitet oliy ta'lim muassasalarining so'nggi kurslarida shakllanadi, oliy ta'limdan keyingi kasbiy ta'limda, shuningdek, kasbiy faoliyatda shakllanish davom etadi, deb hisoblash mumkin.

Mediata'limni maktabdagi o'qitishning natijalariga muvofiq, "mediasavodlilik alifbosi"ni maktab yoshida o'zlashtirish: mediabilimlilikni boshlang'ich (1-, 6-sinflar) va o'rta bosqichlarda (7-, 9-sinflar) shakllantirish zarur. Mediabilimlilikni mediaaxborot obyektlarini o'rganish va o'zgartirishga yo'naltirilgan borliqqa hissiy qadriyatli munosabat tajribasi bilan to'ldirilgan, olingan bilim va ko'nikmalarni ijodiy qo'llash sifatida tushunish mumkin.

Mediasalohiyatlilik – bu mediaaxborot olamida o'zini namoyon etishga imkon beruvchi nazariy bilimlarni, tafakkur usullarini, axloqiy me'yorlarini ongli o'zlashtirishdir deb, faraz qilish zarur. Bu ta'riflar mediasalohiyatning maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan mediata'lim jarayoni akademik litseylar, kollejlardagi o'qitishning yuqori bosqichlarida mosdir.

Mediata'limning navbatdagi pedagogik kategoriyalari *mediamadaniyat* va *mediamentalitetdir*. Shaxs milliy madaniyati – bu uning mediasohasidagi moddiy va intellektual qadriyatlari majmuasi bo'lib, ularni jamiyatda yaratish va amal qilishning tarixiy muayyan tizimi, media sohasidagi ijtimoiy-madaniy tajribaning ko'paytirilishidir. Mediamentalitet mediata'limning eng oliy maqsadidir. U shaxsga media axborotga ochiqlik bilan birgalikdagi mislsiz betakrorlik xususiyatini, mental va ma'naviy makonda o'zini har tomonlama namoyon etish, dunyoqarash va xatti-harakatning barqaror chuqur asoslarini o'z ichiga oladi.

Axborotlashgan jamiyat nuqtayi nazaridan mediata'limga shaxsning mediamentalitetini shakllantirish uchun asos sifatida hamda bolalarning axborot, media va huquqiy madaniyatini shakllantirish, ularning tafakkur mustaqilligini rivojlantirishning asosiy usuli sifatida qarash zarur bo'lib, bu ularni salbiy media kontentidan (mazmunidan) himoyalashning eng samarali kafolatidir.

Har qanday mediaaxborotga ochiq kira oladigan va axborotga to'lib-toshgan jamiyatda ta'lim sohasida yuz berayotgan keskin o'zgarishlar, tarbiya va o'rganish jarayonini ijodiy tashkil etishga yangicha mediakonvergentlik va madaniyatga zid yondashuvlar mavjud bo'lgan jamiyatda shaxsning mediamadaniyatini, mediasalohiyatini tarbiyalash dolzarb va zarurat hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, bugun jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan mediata'lim tizimini hayotga joriy qilish bu ziddiyatli, tahlikali va murakkab, ko'p qutblilik dun-

yoning taqozosi – davr talabidir. Zero, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, “Bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega”. Bu globallashuv jarayonining hosilasi, real voqelik ekanligini anglashimizni va tegishli javob berishimizni talab qiladi.

Mediata'lim mamlakatimizning ta'lim sohasida, jumladan, xalq ta'limi tizimida munosib o'rin egallashi lozim. Bu vazifani bajarishda xalq ta'limi tizimidagi pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlari faoliyatini takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda mediata'limni rivojlantirish istiqbollari XXI asrda shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni o'ta dolzarb va ahamiyatli bo'lib turgan fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish muammolari bilan bevosita bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. *Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.* – T.: O'zbekiston, 2000.
3. Paxrutdinov Sh.I. *Barqaror taraqqiyot va rahbar mas'uliyati.* – T.: Akademiya, 2011.
4. Umarova N.T. *Globalashuv sharoitida axborot xurujlariga qarshi kurash.* – T.: Akademiya, 2005.
5. Eshbekov T. *Mafkura maydonida axborot psixologik xavfsizlik.* – T., O'zMU, 2011.
6. Paxturdinov Sh.I. *Taraqqiyotda muhim yo'nalish.* “Jamiyat” gazetasi, 2013-yil 8-fevral soni.
7. Paxturdinov Sh.I. *Axborotlashgan jamiyat imkoniyatlari.* “Adolat” gazetasi, 2013-yil 5-aprel soni.
8. Азроянц Э. *Глобализация: катастрофа или путь к развитию?* – М.: Новый Век, 2002.
9. Манойло А.В., Петренко А. И., Фролов Д.Б. *Государственная информационная политика в условиях информационно-психологической войны.* – М.: Горочая-линия Телеком, 2003.
10. Поченцов Г.Г. *Психологические войны.* – М.: Рефлбук, 2000.
11. Федоров А.В. *Современный мир и медиаобразование.* – Тагенрог., Журнал “Медиаобразование”, №2, 2008.

Tahririyat: Mamlakatimizda axborot oqimi shu qadar rivojlandiki, uning qaysi biri foydali yoki qaysi biri zararli ekanligini bugun aksariyat yoshlar farqlay olmaydi. Xuddi mana shu kamchilikni bartaraf etish uchun ta'lim tizimiga mediata'limning kiritilishi taklif etilayotganligi juda o'rinli. Chunki noto'g'ri axborot endi shakllanib kelayotgan farzandlarimiz uchun xatarli bo'lib, bu ularning ongini buzishi, davlat va jamiyatga bo'lgan ijobiy munosabatini o'zgartirishi, dunyoqarashida agressiv fikrlarni paydo qilishi mumkin. Shuning uchun bu kabi maqolalar juda kerak.

Aziza MUXSIYEVA,
Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti

O'QUVCHI-YOSHLARDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ORQALI KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Аннотация

Maqolada yoshlarni milliy g'oyaga sodiqlik, yot mafkuralarga qarshi murossasizlik ruhida tarbiyalashda axborot madaniyatini shakllantirish haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, zamona-viy axborot texnologiyalarini joriy etishning pedagogik maqsadlari va axborotlarni to'g'ri tahlil masalalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Tizim, pedagogik ta'sir, mantiqiy shakl, axborot madaniyati, ijtimoiy-ma'naviy, dunyoqarash, e'tiqod, ruhiyat, xulq-atvor normalari, axloq-odob, sog'lom avlod, ma'naviyat, barkamollik.

В статье освещается одна из основных задач духовно-просветительских работ в образовательных учреждениях – воспитание преданности молодёжи к великой национальной идее, формирование у молодёжи нетерпимости к чуждым идеям. Определены также педагогические цели внедрения современных информационных технологий.

Ключевые слова. Система, педагогическое влияние, логическая форма, информационная культура, социально-духовное мировоззрение, вера, психология, нормы нравственности, здоровое поколение, духовность.

Article highlights one of the main tasks of spiritual and educational work in educational institutions, education of youth devotion to the great national idea, the formation of youth tolerance for the ideas of others. Also determined pedagogical goals of introduction of modern information technologies.

Key words. System, pedagogical influence, logical form, information culture, socio-spiritual worldview, faith, psychology, morals, a healthy generation, spirituality.

Mamlakatimiz mustaqilligining ilk kunlaridan boshlab, yoshlar va ularning ke-lajagi haqida g'amxo'rlik qilish masalalariga ustuvor darajada e'tibor qara-tila boshlandi. Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlagan-laridek, "Biz farzandlarimizni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligiga erishishdek oliy maqsadlarimiz ruhida tarbiyalashimiz, ularni ana shu maqsadlar sari yetaklashimiz kerak".¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 6-fevralda imzolangan "O'z-bekiston Respublikasida Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2124-sonli qarori yoshlarga doimiy e'tibor va

¹ Karimov I.A. "Kamolot" yoshlarimizning chinakam suyanchi va tayanchi bo'lsin. – T.: O'zbekiston, 2001. 3-b.

g'amxo'rlikning asosiy ko'rinishidir. Bu qarorning asosiy maqsadi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash, mustaqil va erkin fikrlaydigan, yuksak ma'naviyatli, zamonaviy ilm-fan bilimlarini puxta o'zlashtirgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni ijtimoiy intellektual salohiyatini oshirish, globallashtirish jarayonida turli axborotlarni tahlil qila olishi va ularni sog'lom fikrlashlarini ta'minlash, yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yishdan iborat.

Ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarning muhim vazifalaridan biri – yoshlarni yuksak g'oyaviylik va milliy g'oyaga sodiqlik, yot mafkuralarga qarshi murosasizlik ruhida tarbiyalashdir.

“Axborot” (*lot.* Information – tanishtirish, tushuntirish) – falsafada qadim zamonlardan buyon qo'llanib kelinayotgan, kibernetikaning taraqqiyoti tufayli keyingi vaqtda yangi, kengroq ma'no kasb etgan markaziy kategoriyalar sifatida maydonga chiqqan tushuncha.² Axborot tushunchasi xususiy fanlar uchun umumiy bo'lib qoladi. G'oyalar yig'indisi va matematik vositalar kompleksini o'z ichiga olgan. Axborotga yondashuv esa, umumilmiy tadqiqot vositasiga aylandi. Axborotning mazmuni va aksiologik tomonlari semantik va pragmatik qarashlar doirasida tadqiq qilinadi. Hozirgi zamon fanida axborot tushunchasining taraqqiyoti turli-tuman dunyoqarashlar, falsafiy tushuntirishlarning paydo bo'lishiga olib keldi. O'tgan asr oxirida axborot vositalarining nihoyatda ko'payishi bu asrni axborot asri deb atalishiga sabab bo'ldi.

“Madaniyat” – (arab. – madinalik, shaharlik, ta'lim-tarbiya ko'rgan) – tabiat va o'zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o'ziga xos usuli. Madaniyat alohida individning hayot faoliyati (shaxsiy madaniyat), ijtimoiy guruhning yoki jamiyatning hayot faoliyati usulini aks ettiradi³.

Yoshlar dunyoqarashida sog'lom e'tiqod, axborot madaniyati, ishonch va milliy qadriyatlarining ustuvorligi, yot mafkuralarga qarshi immunitetni tarbiyalashda:

- milliy g'oyaning elementlari bilan qurollantirish;
- hayot hodisalarini dunyoviylilik, ilmiylik tamoyili asosida tahlil qilish va baholashga odatlantirish;
- o'z qarashlarini himoya qilishga o'rgatish;
- buzg'unchi mafkuralarga har doim, hamma joyda murosasiz bo'lishga tayyor bo'lishlari zarur.

Bu vazifaning muvaffaqiyatli ado etilishi yoshlarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi. O'qituvchi-pedagog yoshlarni turli salbiy ta'sirlardan asrashda axloqiy qadriyatlardan, axloqiy ta'sir ko'rsatish texnologiyasidan oqilona foydalanishlari lozim.

Ma'naviy barkamol insonlarga buyuk kelajakni yarata oladilar. Shuning uchun ma'naviy barkamol insonni, sog'lom avlodni tarbiyalash muhim va dolzarb masala bo'lib qolaveradi. Sog'lom inson deganda faqat jismoniy sog'lomlikni emas, balki Sharqona axloq-odob va umumbashariy milliy g'oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunmoq lozim. Ma'naviy barkamollik insonning dunyoqarashi, e'tiqodi, ruhiyati, xulq-atvor normalari, axloq-odobi bilan bevosita aloqadorligi bilan ajralib turadi.

Shaxsning rivojlanish jarayoni faqatgina alohida sifatlarining tarkib topishidan iborat emas. Balki o'quvchilarni axborot madaniyatini dunyoqarashining shakllanishi bilan bog'liq tarzda amalga oshiriladi. Alohida tashkil etilgan ta'lim muhitida o'quvchining yaxlit tarzda rivojlanishi ta'minlanadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim jarayonida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonini tashkil etish imkoniyatlari va ahamiyati haqida alohida to'xtalib o'tilgan:

² Falsafa: qomusiy lug'at. (*Tuzuvchi va mas'ul muharir Q.Nazarov*). –T.: Sharq, 2004. 40-b.

³ Falsafa: qomusiy lug'at. (*Tuzuvchi va mas'ul muharir Q.Nazarov*). –T.: Sharq, 2004. 230-b.

“Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan uzluksiz ta’lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bilim olish, ijodiy qobiliyatni namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi bo‘yicha mehnat qilish huquqi ro‘yobga chiqariladi”⁴.

Ma’lumki, yoshlarda axborot madaniyati shakllanishi birdaniga yuz bermaydi. U milliy manfaatlar ustuvorligi nuqtayi nazarini shakllantirish hamda talabalarni yangi, xolis bilimlarga ega bo‘lishlari bilan amalga oshiriladi. Ta’lim muassasalari ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda yoshlarning siyosiy qarashlarini shakllantiradi hamda yot mafkuralarning ko‘rinishlariga faol murosasizlikni tarbiyalaydi. Bunda tarixiy materiallardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Barkamol shaxsni har tomonlama rivojlantirish uchun bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayonida mavjud bo‘lgan ayrim an’analardan voz kechish zaruriyati tug‘ilmoqda. Jumladan, ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan an’anaviy ta’lim jarayoni orasida mutanosiblikni ta’minlagan holda o‘quvchilarni ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish tizimini belgilab berish muhim masalalardandir. O‘quvchilarning axborot madaniyatini shakllantirish, o‘quvchilarga samarali pedagogik ta’sir ko‘rsatish:

Birinchi, mazkur muammoning amaliyotdagi holati tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilar o‘quvchilarni axborot madaniyatini shakllantirish jarayonini tashkil etish jihatdan rivojlantirishga aksariyat holatlarda e’tibor qaratmaydilar.

Ikkinchi, ta’lim sohasidagi islohotlar natijasida o‘quvchilarning axborot madaniyatini shakllantirish jarayonini tashkil etish jihatdan rivojlantirishda axborot texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari vujudga keldi. Axborot texnologiyalari vositasida ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida o‘quvchilarning axborot madaniyatini shakllantirishning pedagogik jihatdan tashkil etish o‘z samarasini beradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida didaktika zamonaviy axborot texnologiyalaridan faol foydalanish orqali bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyatining keng jabhali turlarini taklif etadi. Bu muhitdagi didaktik fikrlashni, shaxsning salohiyati va imkoniyatlarini, estetik tarbiyani, unda axborot madaniyatini tarbiyalashni, bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishni, o‘quv-axborot faoliyati bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning pedagogik maqsadlari bayon etiladi. Axborot texnologiyalari o‘quvchi shaxsining:

- fikrlashini;
- estetik tarbiyasini;
- kommunikativ qobiliyatini;
- optimal qaror qabul qilish malakasini;
- axborot madaniyatining rivojlanishini ta’minlaydi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari o‘quv-tarbiya jarayonlarining barcha bosqichlarini jadallashtiradi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish o‘quvchi-yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish sifati va samaradorligini oshirish jarayonida ularning axloqiy sifatlarini rivojlantirish nazariyasi va metodikasining ishlab chiqilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining po‘ydevori. – T.: Sharq, 1997. 42-b.

Birinchiidan, o'quvchi-yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish jarayoni, shuningdek, o'quvchilarni zamonaviy talablar asosida turli g'oyalarni tahlil etish jarayonida faol ishtirok etishlari borasidagi ijtimoiy zaruriyatdir.

Ikkinchiidan, o'quvchi shaxsida axborot madaniyatini shakllantirish hamda ijtimoiy pedagogik faoliyat maqsadlarini to'g'ri belgilash talab etiladi. O'quvchida axborot madaniyatini shakllantirish bir-birini to'ldirishi lozim bo'lgan uchta tashkiliy: organik tizimlardagi biologik, individual tajribani tashkillashtiruvchi psixik va insonlarni madaniy jihatdan tashkillashtiruvchi ijtimoiy jarayonlarga bog'liq bo'ladi. Bunda faoliyat maqsadlari umumlashgan holatda emas, balki pedagogik ta'sirning ham obyekt, ham subyekt bo'lgan har bir insonga nisbatan alohida e'tibor qaratish talab etiladi, ya'ni pedagogik vazifalarning hal etilishi, avvalo, tarbiya subyektining individual sifatlariga tayanadi. Motivatsion sifatlar, intellektual salohiyat, hissiy va irodaviy sifatlar, amaliy ko'nikmalarga va o'z-o'zini boshqarish layoqatiga ega bo'lishlari individuallikning asosiy mezonlari bo'la oladi.

Uchinchiidan, o'quvchi-yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishda irodaviy sifatlar, intellektual salohiyat, hissiy sifatlar, amaliy ko'nikma, o'z-o'zini boshqara olish layoqatlarining o'zaro bog'liqligi va shaxsning ijtimoiy-madaniy faollik darajasini aks ettiruvchi individual sifatleri rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.* – T.: O'zbekiston, 2014.
2. *Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.* – T.: Sharq, 1997. 48-b.
3. *Karimov I.A. “Kamolot” yoshlarimizning chinakkam suyanchi va tayanchi bo'lsin.* – T.: O'zbekiston, 2001. 3-b.
4. *Falsafa: qomusiy lug'at. (Tuzuvchi va mas'ul muharir Q.Nazarov).* – T.: Sharq, 2004. 230-b.
5. *Боритко Н.М. Моделирование воспитательного процесса // Воспитательная деятельность: методология, содержание, технологии: Монограф. / Боритко Н.М., Воронцова Т.В., Герасев П.В. и др. / Под ред. В.А. Тямина. – Астрахань.: Школа, 2001. – С. 536.*

Фарход САЙДАМАТОВ,
преподаватель ТГПУ имени Низами

ТВОРЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ УЧАЩИХСЯ ШКОЛ НА УРОКАХ ГЕОГРАФИИ

Аннотация

Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida geografiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Yetuk va barkamol avlod shakllanishida geografiya fanining roli ko'rsatilgan bo'lib, bu esa jamiyatning barqaror rivojlanishining shartlaridan biri hisoblanadi.

Калит so'zlar. O'qituvchi, o'quvchi, maktab, geografiya darsi, psixolog, ijodkorlik, rivojlanish.

В статье раскрывается проблема развития творческой деятельности учащихся общеобразовательных школ в процессе изучения географии. Показана роль данной учебной дисциплины в формировании гармонично развитого поколения, которое является условием стабильного развития нашего общества.

Ключевые слова. Учитель, ученик, школа, урок географии, психолог, творчество, развитие.

Article reveals the problem of development of creative activity of pupils of secondary schools in the process of studying geography. Also shown the role of this educational discipline in the formation of a harmoniously developed generation that is a condition for the stable development of our society.

Key words. Teacher, student, school, geography classes, psychologist, creativity, development.

Изучение одного из важнейших учебных предметов школьной программы – географии является важным в становлении каждой личности. На сегодняшний день в обучении школьников данному учебному предмету одной из главных педагогических задач является развитие творческих способностей у учащихся, что влияет на: ¹

– обеспечение значительного повышения качества учебно-воспитательного процесса;

– воспитание интереса к повышению знаний;

– постоянное обращение учеников к ранее усвоенным знаниям и их обогащение;

– формирование навыков самостоятельной работы у школьников;

– организацию систематического контроля знаний, умений и навыков учащихся.

Известно, что все способности ученика развиваются в процессе образования, поэтому необходимо чаще использовать активные методы обучения. Однако при применении тех или иных методов активизации педагогу необходимо учитывать уро-

¹ Яковлева Н.В. География: уроки с использованием информационных технологий. – Волгоград, 2009

вень развития творческих способностей учащихся. Поскольку задачи, не соотнесённые с уровнем развития способностей учащегося, не могут сыграть положительную роль в обучении, так как они могут подорвать веру учащегося в свои силы и способности. Поэтому сложные познавательные задачи можно предъявлять ученикам, обладающим высоким уровнем развития познавательных способностей. Такой процесс занимает длительное время.²

Кроме того, уже со школьных лет дети должны усвоить то, что творческая работа – это всегда поиск, догадка и воображение. Отраднее то, что ученики любят сам процесс творчества, который приносит им удовлетворение и радость.

Как показывает педагогическая практика, для учителя это наиболее сложная и труднореализуемая задача. Поскольку педагогу необходимо создать для каждого учащегося такие условия, которые позволят ему творчески подойти к решению проблем в рамках учебной программы в соответствии с Государственным образовательным стандартом по изучению географии. В связи с этим учителю необходимо выбрать правильные методы и формы обучения, определить возможную меру включенности учащихся в творческую деятельность, которая делает обучение интересным и запоминающимся.

Достижение поставленной цели позволяет решить комплексные задачи обучения, а именно:

- обеспечить прочные и осознанные знания изучаемого материала;
- подготовить учащихся к умению самостоятельно пополнять знания;
- постоянно воплощать свои знания в жизнь.

Творческая активность учащихся выражается через различные виды деятельности:

- трудовую,
- познавательную,
- общественную.

В одних случаях активность может быть двигательной, физической, в других – интеллектуальной и духовной. Оптимальным для гармоничного развития школьника считается проявление всех видов деятельности. Это способствует всестороннему развитию личности.

У школьников зафиксировано три уровня активности:

Репродуктивно-подражательная активность заключается в приобретении самостоятельного опыта действий, который приходит не сразу, а через освоение опыта других. В теории Л.С.Выготского о зоне ближайшего развития ребёнка заключён значительный научный потенциал для анализа глубокого и сложного вопроса о подражательной активности ученика. Ученый установил, что овладение всякой более сложной формой развития осуществляется школьником в сотрудничестве, а затем уже самостоятельно. Это и означает, что в сотрудничестве происходит овладение образами предметных действий и речевых форм, а также опытом других.³

Более значимыми ресурсами обладает поисково-исполнительная активность. В этих условиях школьник выступает исполнителем, так как задачи перед ним ставит учитель.

Ученик начинает самостоятельно искать пути решения поставленной задачи, размышляет о характере содержания и об условиях деятельности, а также о своих

² Рузиева Н.З. Процесс профессиональной подготовки будущих педагогов в образовательных учреждениях Республики Узбекистан // журнал “Узлуксиз таълим”. – Т., 2016. №5.

³ Яковлева Н.В. География: уроки с использованием информационных технологий. – Волгоград, 2009.

возможностях по её реализации. В этой ситуации он переходит на уровень поисковой активности, которая знаменует собой более высокий уровень деятельности.

Уровень творческой активности является наиболее высоким. Творческая активность предоставляет широкие возможности для развития всех потенциальных ресурсов ученика.

К показателям творческой активности относятся: новизна, оригинальность, отход от шаблона, неожиданность, целесообразность и ценность.

Переход школьника на уровень творческой активности является свидетельством значительного повышения в общем развитии личности и его самоорганизации.

Творческая активность связана с мотивацией деятельности. По этим показателям активности можно проследить и развитие ученика. Для пробуждения и развития интереса к изучению географии учебная деятельность по данному предмету должна быть особым образом организована.

Доказано, что познавательная задача охотнее принимается школьниками, если предшествующей работой подготовлена соответствующая почва – создано положительное отношение к учёбе, наблюдается взаимное доверие учителя и учащихся, имеется расположение ученика к учителю и его учебному предмету. Коллективное решение задачи также способствует активизации умственного поиска учащихся. При объяснении нового материала по географии необходимо построить урок так, чтобы ученик был задействован в процесс осмысления поставленной задачи. К примеру, в ходе объяснения новой темы можно школьникам задать вопросы: “Как вы думаете?”, “Зачем?!”!, “Почему?”.⁴

Ответы учащихся на заданные вопросы будут способствовать развитию у них познавательного интереса, который является могучей движущей силой самостоятельного приобретения знаний. Интерес, который помогает ученику охватить различные явления, оказывается движущим мотивом не только для восприятия учебного предмета, но и для развития умственного мышления.

Труд, затраченный на развитие творческих способностей учеников, оправдывает себя во всех отношениях, поскольку он повышает качество знаний, продвигает ученика в общем развитии, помогает преодолевать трудность в овладении знаниями, вносит радость в его жизнь, способствует продолжению образования и самообразованию, в целом поднимает личность школьника на более высокую ступень.

На уроках географии можно использовать учебную модель: вызов-осмысление-размышление.

На стадии осмысления можно применить методические приёмы:

– маркировка текста (галочкой помечается то, что известно ученикам, плюс – помечается то, что является для школьника интересным и неожиданным, вопросительный знак ставится, если у учащихся возникает желание узнать о чём-то подробнее);

– взаимный опрос (два ученика читают текст, останавливаясь после каждого абзаца, и по очереди задают друг другу вопросы о прочитанном материале).

На стадии размышление, приёмы которыми пользовались (вызов, осмысление) логически переходят в стадию размышления (что нового и важного ученики почеркнули из текста).

Творческая работа учащихся служит средством выполнения задания без непосредственного участия учителя, но по его заданию. Очень важной ступенью в процессе подведения учащихся к самостоятельному приобретению новых знаний является комментированное упражнение. Например: ученики выполняют работу в своих тетра-

⁴ Рузиева Н.З. Процесс профессиональной подготовки будущих педагогов в образовательных учреждениях Республики Узбекистан // журнал “Узлуксиз таълим”. – Т., 2016. №5.

дах, но один ученик громко объясняет всё то, что он записывает в тетрадь. Весь класс тоже пишет. Если ученик замолкает, продолжает объяснение другой. Процесс мысли учащихся становится открытым и контролируемым. Так повышается темп творческой деятельности школьника.

При использовании творческих заданий следует уделять внимание личностному опыту учащихся и ориентировать их деятельность на достижение успеха. Каждый урок должен стать стимулом, чтобы ученики проверили свой творческий потенциал и у них возникла бы внутренняя потребность формировать в себе творческую личность.

Основой учебного процесса в области изучения географии является содействие педагога в творческом становлении личности ученика.

Известная пословица гласит: “Расскажи – и я забуду, покажи – и я запомню, дай попробовать – и я пойму”, которая очень правильно характеризует творческий подход в обучении.⁵

Использование на уроках географии различных конкурсов, инсценировок и рисунков пробуждают творческую деятельность учащихся. Одним словом, чем больше педагог найдёт увлекательных моментов на уроке, тем выше эффективность обучения. Например: домашнее задание можно усложнить, задав дополнительный вопрос: Какое море в древности называлось янтарным? Почему? Откуда берётся ветер? Это задание выполняется по желанию. Но на следующем уроке обязательно проверить, кто справился с данным на прошлом уроке заданием. Также предварительно за несколько уроков можно дать ученикам задание: рассказать о каком-либо географическом объекте. Класс делится на группы. Каждая группа представляет своё государство. Можно использовать фото, рисунки, сувениры и костюмы. За творчество исполнения ставится положительная оценка. По теме “Географические координаты” можно провести урок-путешествие. Даются несколько координат, учащиеся делают остановки в этих пунктах, изучая особенности каждой местности.

Кроме того, развитию творческих способностей учащихся общеобразовательных школ на уроках географии способствуют уроки-КВНы, уроки-путешествия, экскурсии, викторины, разнообразие видов самостоятельной работы на уроках, проектная деятельность, как групповая, так и индивидуальная, что даст возможность учащимся продемонстрировать свои творческие достижения на уровне самооценки.

Таким образом, развитие творческой деятельности учащихся общеобразовательных школ на уроках географии является велением времени.

Использованная литература:

1. Рузиева Н.З. *Процесс профессиональной подготовки будущих педагогов в образовательных учреждениях Республики Узбекистан // журнал “Узлуксиз таълим”*. – Т., 2016. №5. – С. 60-64.

2. Яковлева Н.В. *География: уроки с использованием информационных технологий*. – Волгоград, 2009.

3. Молчанова З.М., Тимченко А.А., Черникова Т.В. *Личностное портфолио старшеклассника: Учебно-методическое пособие*. – 3-е изд., стереотипное. – М., 2008.

⁵ Молчанова З.М., Тимченко А.А., Черникова Т.В. *Личностное портфолио старшеклассника: Учебно-методическое пособие*. – 3-е изд., стереотипное. – М., 2008.

Анвар РАХИМОВ,

директор академического лицея при филиале
Российского Государственного университета
нефти и газа имени Губкина

ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ В СИСТЕМЕ СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО, ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

Maqola o'rta-maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida o'quvchilarning iqtisodiy kompetentligini shakllantirish masalalariga bag'ishlangan hamda bozor raqobati sharoitida yosh mutaxassis-larga qo'yiladigan talablar bayon etilgan. Shuningdek, muallif tomonidan yosh iqtisodchilarni tayyorlashni ta'minlovchi omillar va ularning iqtisodiy kompetentligini shakllantirish bo'yicha samarali texnologiyalar taklif etilgan.

Kalit so'zlar. Iqtisodiy tayyorgarlik, iqtisodiy ta'lim, iqtisodiy kompetentlik, kasbiy kompetentlik, menedjer, loyihalashtirish metodi, keys-tahlil.

Статья посвящена вопросам формирования экономической компетенции учащихся в системе среднего специального, профессионального образования. Рассмотрены требования к современному молодому специалисту в условиях рыночной конкуренции. Предложены эффективные технологии формирования у учащихся экономических компетенций, обеспечивающие подготовку конкурентоспособных младших специалистов-экономистов.

Ключевые слова. Экономическая подготовка, экономическое образование, экономическая компетентность, профессиональные компетенции, менеджер, метод проектов, кейс-анализ.

Article is devoted to the issues of forming the economic competence of students in the system of secondary specialized, vocational education. Considered the requirements for a modern young specialist in conditions of market competition. The author also offers effective technologies for the formation of students' economic competencies, which ensure the preparation of competitive junior economists.

Key words. Economic training, economic education, economic competence, professional competence, manager, project method, case analysis.

Важнейшей целью системы среднего специального профессионального образования (ССПО), отраженной в Национальной программе подготовки кадров Республики Узбекистан, является подготовка компетентных, творчески мыслящих, конкурентоспособных специалистов, способных адаптироваться к изменяющимся экономическим условиям, оперативно реагировать

на требования рынка труда, ориентироваться в потоках информации, готовых к дальнейшему непрерывному профессиональному саморазвитию и самореализации.

В Постановлении первого Президента Республики Узбекистан №1875 “О повышении эффективности системы повышения квалификации кадров ССПО” подчёркивается необходимость создания организационно-педагогических условий формирования конкурентоспособной личности младших специалистов нового поколения, ее социально-профессиональной культуры и профессиональной направленности, а также переориентации образовательного процесса на новые условия жизни и образовательные запросы личности, общества и государства. Для достижения этой комплексной цели важное значение имеет экономическая подготовка учащихся, формирование их *экономической компетенции*, включающей наряду с теоретическими знаниями и практическими умениями профессионально значимые качества личности, а также её способность и готовность реализовывать их на практике.

Профессиональная компетентность представляет собой интегративную профессионально-личностную характеристику специалиста, выражающую его готовность и способность выполнять профессиональные функции. В структуре профессиональной компетентности выделяют ряд компетенций – как общих (универсальных, ключевых, над профессиональных), так и предметно-специализированных (профессиональных).

Под “компетенцией” понимается не только совокупность знаний и умений, но и ценностные ориентации, позиции, ответственность и готовность личности реализовать свой профессиональный потенциал на практике [1,2]. Применение компетентностного подхода при проектировании учебно-воспитательного процесса в системе профессионального образования открыло новые перспективы для кардинального улучшения качества подготовки выпускников. Появились новые возможности преобразования учебной деятельности учащихся в учебно-профессиональную, способствующую более эффективному освоению специальности, прежде всего посредством моделирования будущей профессиональной деятельности в учебном процессе.

Стремительный рост объёма информации требует от современного специалиста таких качеств, как инициативность, изобретательность, предприимчивость, способность быстро и безошибочно принимать решения, используя творческий подход к делу. Это особенно актуально для *менеджера* – специалиста, находящегося “на переднем крае” современного производства и сферы услуг. В силу специфики своей профессии менеджеру постоянно приходится решать различные бизнес-проблемы – начиная от зарождения маркетинговой идеи и заканчивая её практическим воплощением. Причем осваивать эти профессионально важные функции учащиеся должны ещё в процессе обучения в колледже, а не на рабочем месте, как чаще всего происходит. По крайней мере, сформированные у выпускника колледжа основы *экономической компетенции* позволяют значительно облегчить процесс профессиональной адаптации молодого специалиста.

Развитие способностей будущих менеджеров к системному видению бизнес-проблем и творческому их решению должно стать одной из приоритетных задач подготовки специалистов в системе ССПО по *экономическим специальностям*.

В этой связи актуальной педагогической *проблемой* является научное обоснование и практическая реализация возможностей формирования профессиональных компетенций у учащихся колледжа в контексте максимального приближения учебной деятельности к профессиональной. В качестве одного из наиболее эффективных направлений в решении данной проблемы может выступать моделирование учебно-профессиональной деятельности учащихся на основе технологии контекстного обучения [3]. Данная технология обеспечивает прежде всего решение задач полноценной профессиональной подготовки компетентного специалиста. Её использования только в рамках специальных дисциплин недостаточно (особенно в контексте формирования профессиональных компетенций), для большей эффективности технологии предполагается организация целостного профессионально направленного педагогического процесса.

Специфической особенностью технологии является профессиональная ориентированность, направленность обучения на максимальное приближение учебной деятельности к профессиональной, которое обеспечивают следующие факторы:

- ориентация учебного материала на решение задач профессиональной подготовки специалиста;
- комплексный характер профилирования, охватывающего все связи курса с соответствующими дисциплинами, курсовым и дипломным проектированием и другими видами исследовательской деятельности учащихся;
- преимущественное решение на практических и лабораторно-практических занятиях прикладных задач, которые необходимы учащимся для овладения избранной профессией;
- ориентация на овладение учащимися профессией по оптимальной индивидуальной программе, учитывающей его познавательные особенности, мотивы, склонности и другие личностные качества;
- направленность на развитие творческой личности специалиста, способной к самостоятельной профессиональной деятельности;
- создание условий для профессионально-личностного самоопределения учащегося: развития профессионально-ценностных ориентаций, становления профессиональной позиции, формирования потребности и готовности к профессионально-личностному самосовершенствованию.

Главная цель технологии контекстного обучения – обеспечить условия для профессионального становления личности современного конкурентоспособного, компетентного специалиста, готового к полноценной профессиональной деятельности. В рамках технологии контекстного обучения содержание учебной деятельности учащегося отбирается не только в логике науки, но и через модель специалиста – в логике будущей профессиональной деятельности, что придаёт целостность, системную организованность и личностный смысл усваиваемым знаниям и умениям, формируемым профессионально значимым качествам. Содержание обучения проектируется не как учебный предмет, а как предмет учебной деятельности, последовательно трансформируемый в предмет деятельности профессиональной.

Основной единицей содержания контекстного обучения выступает проблемная ситуация, предполагающая включение продуктивного мышления учащегося. Система профессионально ориентированных проблемных ситуаций позволяет

моделировать профессиональные функции будущих менеджеров, развёртывать содержание образования в динамике, интегрируя знания различных научных дисциплин для разрешения проблемных ситуаций, тем самым способствуя раскрытию творческого потенциала учащихся. Необходима активизация учебно-исследовательской работы учащихся, кружковой работы, оптимизация производственной практики, подготовка дипломных проектов и работ для реального сектора экономики с рекомендациями к внедрению. В этом случае подготовка будущих менеджеров не сводится главным образом к передаче и усвоению информации, в учебно-профессиональной деятельности моделируются целостные фрагменты производства, их предметно-технологическое и социально-ролевое содержание. Учащиеся учатся выполнять действия и совершать поступки, соответствующие нормам собственно профессиональных и социальных отношений специалистов, вступающих в процессе труда в межличностное взаимодействие и общение. Так, постепенно будущие менеджеры овладевают реальным профессиональным опытом, получая возможности естественного вхождения в профессию.

В этой связи на первый план в учебном процессе колледжа должны выйти такие методы обучения, как деловые игры, метод проектов, кейс-анализ, функционально-стоимостной анализ, морфологический анализ, метод Дельфи и др. [4, 5]. Рассмотрим в общем виде их сущность и специфику применения в процессе подготовки менеджеров.

Деловая игра – это метод имитации принятия управленческих или производственных решений в искусственно смоделированных ситуациях, осуществляемый по заданным правилам. Имитационное моделирование реальных условий профессиональной деятельности специалиста, как правило, предполагающих наличие одной или нескольких проблемных ситуаций, позволяет представить во всем многообразии служебные, социальные и личностные связи. Особенно эффективен данный метод при условии совместной деятельности учащихся. От преподавателя требуется основательная предварительная подготовка: выбор и характеристика ролей, определение полномочий участников, интересов и средств деятельности, выявление и моделирование наиболее характерных видов профессионального взаимодействия “должностных” лиц и т.д. Чётко организованная, конструктивная дискуссия с максимальным участием всех играющих способна породить поистине творческую работу.

Значение деловых игр в процессе подготовки менеджеров трудно переоценить, поскольку этот метод не только активно “погружает” учащихся в будущую профессиональную деятельность, но и способствует формированию познавательных и профессиональных мотивов, а также умений и навыков социального взаимодействия и общения, творческой деятельности, индивидуального и совместного принятия решений; воспитанию ответственного отношения к делу, уважения к социальным ценностям и установкам коллектива и общества в целом.

Одним из наиболее ярких примеров применения деловых игр при обучении менеджеров является ребрендинг (англ. rebranding) – комплекс мероприятий по изменению бренда, либо его составляющих: названия, логотипа, визуального оформления бренда с изменением позиционирования, изменение целостной идеологии бренда. Удачный ребрендинг позволяет компании выйти на новый уровень развития, привлечь внимание новых клиентов и увеличить лояльность существующих. В деловой игре можно смоделировать все основные этапы реб-

рендинга (обеспечив при этом активное участие всех учащихся и поощряя их творческую инициативу):

Маркетинговый аудит. Основная цель – понять, насколько потребитель знает бренд, лояльно ли к нему относится, какие барьеры существуют для восприятия бренда, оценить его имидж для различных целевых аудиторий, выявить слабые и сильные стороны, конкурентные преимущества. На основании маркетингового исследования принимается решение о том, нуждается ли бренд в репозиционировании;

Репозиционирование бренда – изменение его основных характеристик и закрепление их в сознании целевых аудиторий;

Рестайлинг визуальных атрибутов бренда – изменение цвета логотипа и других визуальных атрибутов, сопровождающих бренд, в соответствии с новым позиционированием и новыми характеристиками бренда;

Внутренняя и внешняя коммуникация – ознакомление сотрудников, потребителей, конкурентов и так далее с новыми характеристиками разработанного бренда (реклама).

В процессе преподавания экономических дисциплин активно используется метод “кейс-анализ” – анализ учащимися, объединёнными в подгруппы, реальной или гипотетической ситуации и разработка критериев решения проблем и программы действий. Анализ ситуации предполагает выделение не столько фактов, сколько признаков проблемы и её факторов. Залогом проблемы является самостоятельная выработка обучающимися собственных предположений. В организационном отношении важную роль играют учащиеся, выполняющие функции “менеджеров” и “критиков” (которым преподаватель передаёт часть своих полномочий). Тем самым снимается дистанция между организатором учебного процесса и учащимися, взаимодействие между самими обучающимися благоприятно сказывается на творческом характере решения проблемы.

Функционально-стоимостной анализ представляет собой метод технико-экономического исследования технических объектов, оптимизирующий соотношение между их потребительскими свойствами и затратами на обеспечение этих свойств. Суть метода заключается в рассмотрении объекта с точки зрения выполняемого им комплекса функций и требований потребителя. Этот метод способствует повышению экономической эффективности использования материальных и трудовых ресурсов, снижению непродуктивных расходов.

Метод морфологического анализа уже завоевал популярность во многих сферах производства и науки, в том числе может успешно применяться в маркетинге. Для исследуемой системы выделяют несколько характерных морфологических признаков, по каждому из которых составляют список его возможных конкретных альтернатив. Их располагают в форме таблицы, называемой морфологическим ящиком, или матрицей, и перебором сочетания вариантов выделенных признаков выявляют новые решения задачи. С помощью метода морфологического анализа будущие менеджеры учатся комбинировать всевозможные элементы решения творческих задач в бизнесе.

Метод Дельфи помогает выбрать из предлагаемой серии альтернатив лучшую. Он применим практически в любой ситуации, требующей прогнозирования спроса, конкуренции, положения фирмы и продукта на рынке и т.д. Например, выявлено пять причин снижения спроса на какой-либо вид услуг. Какую следует

назвать главной и устранять в первую очередь? Для удобства подсчёта делают специальную таблицу. Участники сначала ранжируют все причины по степени важности. На первое место каждый ставит ту альтернативу, которую считает самой главной, а на пятое – второстепенную. Затем каждая альтернатива оценивается по 10-балльной системе в зависимости от издержек, связанных с той или иной причиной снижения спроса. При этом за высший балл принимается 1, а за низший – 10. На третьем этапе оба результата по каждой альтернативе перемножают и находят сумму произведений. Наименьшая сумма укажет на причину, которую надо устранять в первую очередь. Метод Дельфи особенно эффективен, когда участники обсуждения – компетентные в своей сфере эксперты, но, тем не менее, положительно зарекомендовал себя в учебном процессе колледжа на старших курсах.

Таким образом, технология контекстного обучения позволяет с помощью системы адекватных форм и методов моделировать учебно-профессиональную деятельность учащихся колледжа, способствуя их успешному приобщению к будущей профессии, формированию их профессиональных компетенций. При этом происходит трансформация потребностей учащихся, их мотивов, целей, предметных действий и поступков, средств, предмета и результатов учения. Наибольший эффект применения данной технологии в учреждениях СПО независимого Узбекистана достигается при использовании интегрированного, межпредметного содержания, целостно отражающего системность профессиональной деятельности или конкретную профессиональную компетенцию, в частности экономическую.

Использованная литература:

1. Каримов И.А. *Гармонично развитое поколение – залог процветающего Узбекистана.* – Т.: 1997. – С.72 .
2. Зимняя И.А. *Ключевые компетенции – новая парадигма результата современного образования [Электронный ресурс] / И.А. Зимняя // Интернет-журнал “Эйдос”. 2010. 5 мая. Режим доступа: <http://www.eidos.ru/journal/2010/0505.htm>.*
3. Вербицкий А.А. *Новая образовательная парадигма и контекстное обучение: монография [Текст] / А.А. Вербицкий.* – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2009. – С.75 .
4. *Современные педагогические и информационные технологии в системе образования: учеб. пособие [Текст] / Ш.Т.Халилова.* – Т.: ФАН, 2007. – С. 165 .
5. Меерович М.И. *Технология творческого мышления: практич. пособие [Текст] / М.И. Меерович, Л.И. Шрагина.* – Минск: Харвест, 2013. – С.432 .

Хулкара УСМАНОВА,
преподаватель Узбекского Государственного
университета мировых языков к.п.н. доцент

МОДЕЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРАКТИЧЕСКОГО ПСИХОЛОГА

Аннотация

Maqola yaxshi malakali amaliy psixolog faoliyatida uchraydigan muammolarni bartaraf etish masalalariga bag'ishlangan. Shuningdek, malakali va nomalakaviy amaliy psixologlar o'rtasidagi farq va muammolarni bartaraf etish bo'yicha o'z tavsiyalarini berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Shaxsiyat, professional faoliyat, psixologning axloqiy kodeksi, malakali va malakasiz amaliy psixolog, maxfiylik, xulq, insonning qadr-qimmati.

В статье рассмотрена проблема деятельности квалифицированного практического психолога, определено различие результатов деятельности квалифицированного и неквалифицированного практического психолога, даны рекомендации по организации практической работы психолога.

Ключевые слова. Индивидуальность личности, профессиональная деятельность, этический кодекс психолога, квалифицированный и неквалифицированный практический психолог, конфиденциальность, базальное поведение, человеческое достоинство.

Article deals with the problem of qualified activity of the practical psychologist, defined difference between the results of activities of skilled and unskilled practical psychologist, recommendations on the organization of practical work of the psychologist.

Key words. Individuality of personality, professional activity, ethical code of a psychologist, qualified and unskilled practical psychologist, confidentiality, basal behavior, human dignity.

Необходимость обсуждения деятельности практического психолога заключается в том, что его работа очень специфична по своему содержанию, так как связана с индивидуальностью личности. Её особенность проявляется и в том, что сам психолог тоже выступает как индивидуальность, как человек, имеющий на нее полное право. В этом смысле возникает множество проблем, связанных с социальным статусом профессии практического психолога. Например, проблема критериев эффективности его работы, уровня его квалификации, в конечном счете – проблемы подготовки практических психологов.

Опыт работы практических психологов позволяет выделить и описать десять основных качеств работы квалифицированного психолога, которые существенно отличают его профессиональную деятельность от работы неквалифицированного психолога.

Предлагаемое ниже описание основных качеств профессиональной деятельности практического психолога позволяет, на наш взгляд, уточнить представле-

ние о месте индивидуальных характеристик психолога, его Я-концепции как в процессе профессиональной подготовки, так и в практической деятельности.

Итак, основные качества профессиональной деятельности квалифицированного психолога и их отличия от деятельности неквалифицированного психолога:

| Модель работы квалифицированного профессионального практического психолога | № | Описание тематик и методов работы квалифицированного практического психолога |
|--|--|--|
| | 1 | Цели психологической помощи |
| | 2 | Отклики или реакции практического психолога в ситуации профессиональной деятельности |
| | 3 | Мировоззрение (концепция) практического психолога |
| | 4 | Культурная продуктивность практического психолога |
| | 5 | Конфиденциальность |
| | 6 | Ограничения в деятельности практического психолога |
| | 7 | Межличностное влияние в работе практического психолога |
| | 8 | Человеческое достоинство |
| | 9 | Обобщенная теория о работе квалифицированного психолога |
| 10 | Отношение к обобщенной теории квалифицированного психолога | |

➤ **Цели психологической помощи:** Квалифицированный психолог ориентирует студента в его целях, дает человеку возможность найти максимально возможное число вариантов поведения. Квалифицированный психолог рассматривает своего студента и его цели как цели потенциально культурно-продуктивной личности, то есть личности, способной к жизни в контексте культуры, обладающей чувством перспективы, необходимым уровнем рефлексии для проявления разнообразных подходов к проблемам своей жизни. Другими словами, квалифицированный психолог рассматривает цели психологической помощи как новые возможности студента, которые он должен выявить во взаимодействии с ним. Неквалифицированный психолог преследует свои цели, использует студента для реализации своих склонностей. Например, психолог может демонстрировать студенту свою исключительность как носителя профессии, подчеркивая постоянно свою компетентность как психолога. Или будет дискредитировать все высказывания студента своими суждениями, которые направлены на обесценивание переживаний студента, и т. п. Неквалифицированный психолог цели психологической помощи формирует на основе своей личной Я-концепции, поэтому игнорирует Я-концепцию студента, не может дать ему направление и поддержку в совершенствовании Я-концепции.

Методы воздействия квалифицированного практического психолога

| Метод | Описание метода | Функция метода во время беседы |
|---------------|---|---|
| Интерпретация | Новое видение ситуации на основе теории или личного опыта практического психолога. Это основа методов воздействия | Альтернативное видение реальности, способствует изменению настроения и поведения студента |

| | | |
|-------------------------------|---|---|
| Директива (указание) | Может быть пожелание, указание на действие или хитрая техника на основе теории. | Ясно показывает желаемое для практического психолога действие, предполагается, что студент выполнит указ. |
| Совет (информация) | Домашнее задание, пожелание, общие идеи о том, как действовать, думать, вести себя. | Сообщение полезной информации. |
| Самораскрытие | Практический психолог делится личным опытом и переживаниями либо разделяет нынешние чувства студента. | Связано с приемом обратной связи, построено на “предложениях” практического психолога. |
| Обратная связь | Дает возможность понять, как его воспринимает практический психолог и окружающие. | Дает конкретные данные для самовосприятия. |
| Логическая последовательность | Объясняет студенту логические последствия его мышления и поведения. | Дает студенту точку отсчета для понимания своих переживаний и действий, позволяет предвидеть результаты действий. |
| Воздействующее резюме | Часто используется в конце беседы, чтобы суммировать суждения практического психолога, чаще всего используется в комбинации с выводами и резюмирующими высказываниями студента. | Проясняет, что практический психолог и студент добились в ходе беседы. Подводится итог того, что сказал практический психолог. Призвано помочь студенту перенести эти обобщения из интервью в реальную жизнь. |
| Открытые вопросы | “Кто?” – факты, “Как?” – чувства. “Почему?” – причина, “Можно ли?” – общая картина. | Выяснение основных фактов, облегчающих разговор. |
| Закрытые вопросы | Содержат частицу “ли”, отвечают кратко. | Сокращают длинный монолог. |
| Пересказ | Повторение сущности слов студента и его мыслей, используя его ключевые слова. | Активизирует обсуждение, показывает уровень понимания. |
| Отражение чувств | Обращает внимание на эмоциональное содержание интервью. | Поясняет эмоциональную подоплеку ключевых фактов, помогает открывать чувства. |
| Резюме | В сжатом виде повторяет основные факты и чувства студента. | Полезно повторять периодически во время интервью. Поясняет направление беседы. |

➤ Отклики или реакции практического психолога в ситуации профессиональной деятельности: Квалифицированный психолог может найти множество реакций – вербальных и невербальных – на широкий спектр ситуаций и проблем. Неквалифицированный психолог обладает типичным стилем поведения,

не имеет адекватного ситуации отклика, склонен фиксироваться на одном или нескольких откликах. Квалифицированный психолог, реагируя на ситуацию, избегает оценочных суждений по поводу действий студента. Для неквалифицированного психолога существуют шаблонные оценки действий студента.

➤ **Мировоззрение (концепция) практического психолога:** Квалифицированный психолог понимает сложность предмета своего исследования и воздействия на индивидуальность человека, понимает невозможность описания и исследования его в рамках одной концепции, поэтому стремится понять и использовать в работе множество концепций. Неквалифицированный психолог не имеет ясной концепции, не рефлексировывает на предмет своей практической деятельности, ограничивает свою работу рамками какой-то одной концепции. Часто происхождение содержания этой концепции ему неясно.

Типы воздействия

| Тип | Содержание воздействия | Использование психологической информации |
|-----------------------------|--|---|
| Действие по образцу | Делай как я, желай как я, думай как я, чувствуй как я | Информация только о модальностях своего внутреннего мира |
| Действие на равных условиях | Давайте делать вместе, ты делаешь, ты думаешь, ты чувствуешь, ты желаешь как я | Предполагается, что все модальности другого студента равны собственным |
| Рефлексивное действие | Давайте думать вместе. Как нам поступать. Ты делаешь иначе. | Модальности внутреннего мира другого студента так же индивидуальны, как и мои |

➤ **Культурная продуктивность практического психолога:** Квалифицированный психолог способен к выработке множества мыслей, слов и моделей поведения в своей культуре и в рамках других культур. Его индивидуальная и культурная эмпатия, наблюдательность являются основой для культурной продуктивности. Это позволяет ему присоединиться к миру студента и идти вместе с ним по пути решения проблемы обрести понимание жизненного пути, отличного от собственного. Таким образом, квалифицированный психолог осуществляет культурную продуктивность не на основе своей Я-концепции, а на основе своего отношения к профессии практического психолога, которая предполагает высокую культурную продуктивность за счет рефлексии на содержание профессионального взаимодействия со студентом.

Неквалифицированный психолог способен работать только в рамках одной культуры, которую он понимает через содержание своей Я-концепции, себя, свою культурную продуктивность неквалифицированный психолог рассматривает как проявление общекультурной нормы, стандарта поведения.

➤ **Конфиденциальность в работе квалифицированного психолога** есть всегда. Он четко рефлексировывает на содержание психологической информации и ее значимость для студента. Квалифицированный психолог понимает меру от-

ветственности всех участников ситуации его профессиональной деятельности и владеет юридическими нормами регуляции ответственности. Неквалифицированный психолог нарушает правило конфиденциальности, склонен к распространению психологической информации, не заботится о ее хранении и передаче.

| С точки зрения студента | Текст заказа | Психологическая задача | Возможность изменения | Выбор направления изменения |
|--------------------------------|----------------------------------|---------------------------------|------------------------------|--|
| С точки зрения психолога | Содержание задачи взаимодействия | Механизмы психического развития | Период психического развития | Содержание нормы психического развития |

➤ Ограничения в деятельности практического психолога: Квалифицированный психолог постоянно рефлексировать на содержание своей профессиональной деятельности, реально оценивает свои возможности и уровень квалификации, понимает и принимает ограничения своих возможностей, проводит совместную работу с коллегами и представителями смежных специальностей – психиатрами, врачами-терапевтами, психоневрологами, нейропсихологами и др. Квалифицированный психолог свое отношение к профессиональной деятельности не отождествляет с собственной Я-концепцией. Он рефлексировать это отношение как один из возможных источников профессионального роста. Квалифицированный психолог адекватно относится к проблеме профессионального роста как к необходимости постоянного профессионального взаимодействия с коллегами. Для квалифицированного психолога ответ студенту: “Нет, я не работаю над этими вопросами” – не является показателем его профессиональной некомпетентности, а наоборот, ограничения и их обоснование как для студента, так и для себя являются источником профессионального роста практического психолога. Неквалифицированный психолог работает без ограничений, берется за любую проблему, любой метод без необходимой профессиональной рефлексии на ситуацию его применения. Он не желает работать с другими профессионалами, ориентируясь только на свои переживания, свою Я-концепцию как источник психологической информации и критерий ее достоверности. Отношение к своей профессии для неквалифицированного психолога включено в его Я-концепцию и не является специальным предметом рефлексии. Его позицию в этом плане можно обозначить так: “То, что я делаю как психолог, всегда правильно, я так считаю”.

➤ Межличностное влияние в работе практического психолога:

Квалифицированный психолог понимает, что его реакция влияет на студента и наоборот – реакции студента влияют на него самого. Он осознает это влияние и во взаимодействии со студентом его специально выделяет, фиксируя как свои чувства, мысли, желания и возможности, так и чувства, мысли, желания и возможности студента. Квалифицированный психолог это делает путем переказа переживаний студента, в виде открытых и закрытых вопросов и т. п. Существенно важно, что все эти виды воздействия на студента показывают межличностное влияние, то есть показывают изменение в мыслях, чувствах желаниях и возможностях как студента, так и психолога. Для неквалифицированного психолога характерно отсутствие понимания межличностного влияния, он склонен видеть в действиях студента отражение своих прямых воздействий. Таким обра-

зом, квалифицированный психолог не выделяет содержание своей Я-концепции и степень ее включенности во взаимодействие с студентом.

| Вид директивы | Содержание директивы |
|--|--|
| Конкретное пожелание | “Я предлагаю вам сделать следующее...” |
| Парадоксальная инструкция | “Продолжайте делать то, что вы делаете... Повторите свои действия (мысли) по крайней мере три раза”. |
| Фантазии | “Представьте себе...”. “Закройте глаза и опишите, что вы видите, что слышите, что чувствуете”. Опишите ваш идеальный день, идеальную работу, партнера”. “Представьте себе, что вы путешествуете внутрь своего тела”. |
| Ролевое указание | “А сейчас вернитесь к этой ситуации и вновь проиграйте ее”. “Если вы не против, пусть роль останется прежней, но измените небольшой фрагмент поведения”. |
| Гештальт-метод базальное поведение | “Я заметил, что одна ваша рука сжата, а другая – раскрыта. Пусть одна рука поговорит с другой”. |
| Свободные ассоциации | “Запомните это чувство и расскажите о связанных с ним ассоциациях из воспоминаний детства”. “Перейдите к тому, что происходит в вашей повседневной жизни”. |
| Переоценка (концентрация Гендлина) | “Установите для себя негативные чувства, мысли. Теперь найдите для себя негативные переживания. А теперь отыщите в этом что-то положительное и сконцентрируйтесь в этом направлении. Объедините это с проблемой”. |
| Релаксация | “Закройте глаза и “плывите”, сожмите крепче кулаки, а теперь отпустите...” |
| Систематическое снятие напряжения | а) Глубокая мышечная релаксация; б) Построение иерархии беспокойств; в) Увязывание объектов тревоги с релаксацией. |
| Языковые замены | “Замените “хотелось бы” на “хочу”, “нельзя” на “желательно”. Любые новые словесные изменения. |
| Принятие чувств, “эмоциональный потоп” | “Вернитесь к этому чувству, оставайтесь с ним, примите его полностью”. |

➤ Человеческое достоинство в работе практического психолога является самоценностью. Для квалифицированного психолога уважение достоинства студента является аксиомой, которая определяет его честность в общении с студентом при получении, использовании и передаче ему психологической информации. Одна из сторон работы квалифицированного психолога проявляется в этом смысле в том, чтобы в адекватной для студента форме сообщить ему психологическую информацию. Для неквалифицированного психолога неуважительное, даже оскорбительное отношение к студенту не является предметом профессиональной рефлексии, он склонен приписывать своей профессии сверхзначимость, которая позволяет относиться к другим людям с позиции сверху. Для неквалифицированного психолога нет специальных профессиональных проблем в получении и передаче психологической информации, чаще всего для этого он использует псевдоквалифицированный жаргон или

перегружает свою речь специальными терминами, подчеркивая исключительность своей профессии.

➤ Обобщенная теория в работе квалифицированного психолога занимает особое место. Это обобщенное научное знание, на содержание которого он активно рефлексировывает в ходе своей работы, постоянно осваивает новые теории и подходы. На их основе квалифицированный психолог создает и развивает собственную концепцию психологической помощи. Он может стать приверженцем какой-то одной теории, но постоянно открыт для освоения нового знания, для восприятия альтернативных точек зрения, стремится к системному подходу в своей практической работе. Неквалифицированный психолог привязан к одному подходу, не размышляет об альтернативах, у него всегда оценочное, практическое отношение к любым возможным точкам зрения. Он отвергает их, ориентируясь на известный ему подход, который не анализирует как систему, а принимает в качестве аксиоматической посылки. Другими словами, обобщенная теория некавалифицированного психолога не является его личным способом мышления, который он мог бы и хотел бы совершенствовать.

➤ Отношение к обобщенной теории квалифицированного психолога характеризуется тем, что он рассматривает теорию как отражение реальности, он видит в ней манеру мышления, вытекающую из его культурной и половой принадлежности. Он рассматривает теорию как способ мышления, который может совершенствоваться и меняться в зависимости от культурной и половой принадлежности человека. Исходя из этого, отношение квалифицированного психолога к любой теории основано на выделении в ней моментов, как отражающих реальность психической жизни человека, так и реальность культурной и половой принадлежности автора теории, отражающего эту реальность в своей манере мышления. Другими словами, квалифицированный психолог понимает, что в любой теории есть предмет и способы его описания; если предмет (внутренний мир человека) для всех исследователей один, то способы его описания, анализа, обобщения для всех авторов будут разными. Это он видит и в своей собственной обобщенной теории, поэтому может соотносить ее с другими теориями. Неквалифицированный психолог игнорирует способы мышления авторов различных теорий, не выделяет предмета теории и способа мышления автора. Для него нет проблемы соотношения своей теории и теорий других авторов.

Описанные выше качества профессиональной деятельности практического психолога позволяют утверждать, что у квалифицированного психолога принципиально отличная от некавалифицированного психолога исходная точка в понимании и получении психологической информации о студенте.

Использованная литература:

1. Ильенков Э.В. *Что же такое личность / с чего начинается личность.* – М., – С. 329.
2. М.В. Гамезо. *Атлас по психологии: Информационно – методическое пособие к курсу “Психология человека”.* – М., 1999.

Bosh muharrir:

Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o'rinbosari v.v.b:

Umaraliyeva Muhayyo Abdugaparovna

Mas'ul kotib:

Tashxanov Nurbek Aybekovich

Badiiy muharrir:

Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

Tahrir hay'ati:

Ulug'bek INOYATOV, Dilshod KENJAYEV, Risboy JO'RAYEV, Hikmatilla RASHIDOV,
G'ayrat SHOUMAROV, Sharifjon ERGASHEV, Fayzulla AHMEDOV, Shavkat SHARIPOV,
Maqsudjon YULDASHEV, Islom ZOKIROV, Alisher ZOKIROV, Hikmatilla DAMINOV

Jamoatchilik kengashi:

Baxtiyor DONIYOROV, Ulug'bek ABRUYEV, Erkin ISKANDAROV, Bahodir SHAMSIYEV,
Norbek TAYLAQOV, Abdusamat RAHIMOV, Muhammadjon QURONOV

Tahririyat manzili: 100159. Toshkent shahri, Mustaqillik maydoni, 5-uy.

E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 239-27-14, Faks: 239-27-11

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan maqolalardan olingan matnlar "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi shart. Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro'yxatiga kiritilgan.

"MAKTUB PRINT" mas'uliyati cheklangan jamiyatida chop etildi.

Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko'chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: 06.04.2017-y. Qog'oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.

Shartli b.t. 12,0. Adadi 31 315 nusxa. 32 - buyurtma.

Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas'ul – Egamqulov Elmurod Qosimovich